

English



L. M. DOSTOY

AMERICAN EDITION

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--

Т-4. Зак. № 2005







821.161.1-3
T-64


Rus adabiyoti durdonalari

LEV NIKOLAYEVICH TOLSTOY



Tirilish

Roman



TOSHKENT – «O‘ZBEKISTON» – 2020

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros=Rus)1
T 64

Rus tilidan Holida AHROROVA tarjimasi

T 64 **Tolstoy, Lev Nikolayevich**

Tirilish [Matn]: roman/L.N. Tolstoy. Rus tilidan Holida Ahrorova tarjimasini. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – 496 b.

ISBN 978-9943-25-934-8

«Tirilish» – ulug' mutafakkir adib Lev Tolstoyning eng «fosh qiluvchi» romanlaridan biridir. Asarda bosh qahramonlarning achchiq qismati misolida muallif nafaqat jamiyatdagi yolg'on va qallobliklarni, qolaversa, inson ongi va qalbining eng quyi burchidagi yashirin sirlarni-da ochib tashlaydi. Lev Tolstoy inson ruhining beqiyos ulug'vorligi, vijdon amri va rahmdillik kishi tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Uning ushbu asari ham, sevimli adibimiz Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, «tarasha yoki payrahaning o'tiga o'xshab lovullab yonib, bir zumda o'chmaydi, balki saksovlunig cho'g'iga o'xshab tutab, sust yonadi, lekin harorati zo'r bo'ladi, ancha fursat o'chmay turadi».

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros=Rus)1

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

LEV NIKOLAYEVICH TOLSTOY

TIRILISH

Roman

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

Tarjimon *H. Ahrorova*

Nashrga tayyorlovchi *S. Saidmurodov*

Muharrir *S. Saidmurodov*; Rassom-dizayner *B. Zufarov*;
Texnik muharrir *T. Xaritonova*; Musahhah *M. Madaminov*; Kichik muharrir *M. Salimova*;
Kompyuterda sahifalovchi *A. Sulaymonov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158.14.08.2009. Bosishga 2020-yil 12-fevralda ruxsat etildi.
Bichimi 60x90^{1/16}. Ofset qog'oz. «Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 31,0. Nashr tabog'i 28,94.
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 20-111.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20. Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@ptd-uzbekistan.uz www.ptd-uzbekistan.uz

ISBN 978-9943-25-934-8

© H. Ahrorova (tarj.), 2020
© «O'zbekiston» NMIU, 2020





Matto. XVIII bob. 21-oyat. Shunda Pyotr Isoning qoshiga kelib dediki: «Rabbim! Menga qarshi gunoh qilmish birodarimni necha bor afv etmog'im kerak? Yetti martagachami?» 22-oyat. Iso dedi: «Yetti martagacha, demayman senga, yetti karra yetmish martagacha, deyman».

Matto. VII bob. 3-oyat. Nima uchun birodaring ko'zidagi cho'pni ko'rasan-u, o'z ko'zidagi xodani payqamaysan?

Yuhanno. VIII bob. 7-oyat ...ichingizda qaysi biringiz gunohsiz bo'lsangiz, ayolga avval o'sha tosh otsin.

Luka. VI bob. 40-oyat. Shogird ustozidan yuqori bo'lmaydi, ammo kamolatga yetgach, har qanday shogird ustoziday bo'ladi.

I

Bir necha yuz ming odam bir parcha yerga to'planib olib, o'zлари tiqilishib yashayotgan yerlarini vayron qilishga naqadar urinishgan bo'lmasin, hech bir giyoh o'smasin deb yerga qanchalik tosh yotqizishgan, nish urib chiqayotgan har bir giyohni qirib-qirtishlagan bo'lmasin, toshko'mir va neft burqitishib, daraxtlarni qiyratgan va jamiki hayvonu parrandalarni quvg'in qilishgan bo'lmasin, bahor shaharda ham bahorligini qilgan edi. Quyosh qizdirib, qirtishlanmagan joylarda, yolg'iz xiyobonlardagi maysazorlardagina emas, balki xarsangtoshlarning orasida ham o'tlar jonlanib o'sgan va ko'm-ko'k tusga kirgan, qayinlar, teraklar shumurtlab yopishqoq va xushbo'y barg yozgan, arg'uvonlar kurtak chiqargan edi; zog'chalar, chumchuqlar va kaptarlar ko'klamdan xursand bo'lib in qo'yishar, oftobro'ya devorlar bo'yida pashshalar g'o'ng'illardi. O't-o'landan tortib parrandalargacha, qurt-qumursqalardan tortib bolalargacha hammasi shod edi. Ammo odamlar – yoshi ulg'aygan kishilar o'zlarini va bir-birlarini aldashni, qiynashni tark etmasdilar. Odamlar shu

bahor tongini, butun tirik jonning baxt-saodati uchun Xudo tomonidan yaratilgan shu dunyo go‘zalligini, ya’ni tinchlik, totuvlik bilan yashashga chorlovchi nafasatni emas, bir-birlari ustidan hukmron bo‘lish uchun o‘zlari o‘ylab topgan narsani muqaddas va muhim deb bilar edilar.

Chunonchi, gubernu turmasining mahkamasida ham barcha hayvon-u odamlarga berilgan shu bahor gashti va quvonchi muqaddas va muhim deb hisoblanmas, balki kechagina kelib tekkan va falon idoraga deb yozilgan, sarlavhasiga raqam qo‘yilgan, muhr bosilgan bir parcha qog‘oz muqaddas va muhim deb hisoblanardi. Bu qog‘ozda turmada tergov ostidagi uch mahbus – ikki ayol va bir erkak ushbu kun, ya’ni 28 aprel, ertalab soat to‘qqizga yetkazilsin, deyilgan edi. Ayollardan biri, ya’ni katta jinoyatchisi alohida keltirilishi lozim edi. Shu tariqa mazkur qog‘ozga binoan, 28 aprel kuni ertalab soat sakkizda ayollar bo‘limining qorong‘i va qo‘lansa yo‘lagiga bosh nazoratchi kirib keldi. Oppoq sochlari hurpaygan, yenglari uqali kofta kiyib, ko‘k hoshiyali kamar bog‘lab olgan horg‘in qiyofali bir ayol ham uning ketidan yo‘lakka ergashib kirdi. Bu – nazoratchi ayol edi.

U navbatchi nazoratchi bilan eshigi yo‘lakka ochiladigan kameralardan birining yonida to‘xtab:

– Sizga Maslova kerakmi? – deb so‘radi.

Nazoratchi sharaqlatib temir qulfnı ochdi, kamera eshigini ochgan edi, yo‘lakdagidan ham beshbattar qo‘lansa hid gup etib dimoqqa urildi. Nazoratchi:

– Maslova, sudga! – deb qichqirdi-da, eshikni yana darrov yopib, kutib turdi.

Hatto turma hovlisida ham shamol dalalardan shaharga haydab keltirgan hayotbaxsh toza havo bor edi. Ammo yo‘lakda har qanday yangi kelgan odamning ko‘nglini ozdiradigan shiptir hidi, qoramoy va chirigan narsalarning qo‘lansa hidi dimoqqa urilardi. Hovlidan kirib kelgan nazoratchi xotin, badbo‘y havoga o‘rganib qolgan bo‘lsada, allanechuk bo‘lib ketdi. U yo‘lakka kirar-kirmas, to‘satdan bo‘shashib, birdan uyqu bosdi.

Kameradan g‘ovur-g‘uvur tovushlar: ayollar ovozi, yalang oyoqlarning shipillashi eshitildi,

– Imillama, tezroq qimirla, Maslova! – deb qichqirdi bosh nazoratchi kamera eshigidan.

Oradan ikki daqiqa o'tar-o'tmas, oq kofta, oq yubka ustidan xalat kiyib olgan, o'rtachadan kelgan, ko'ksi to'la, yoshgina juvon eshikdan shartta-shartta yurib chiqdi, keyin o'girilib nazoratchi yonida to'xtadi. Juvonning oyog'ida ip paypoq, paypoq ustidan yog'och kavush, boshida oq dufla bo'lib, uning tagidan, atayin qilgandek qora jingalak sochlari halqa-halqa bo'lib chiqib turardi. Juvonning yuzi shunday bo'zargandiki, uzoq vaqt qamoqda yotgan odamlarning yuzigina shunaqa bo'ladi, xuddi yerto'lada saqlangan kartoshkaning nishlarini eslatadi. Kichkinagina uzun qo'llari ham, xalatning keng yoqasidan ko'rinib turgan semiz, oppoq bo'yni ham xuddi ana shunday edi. Ayniqsa, oqarib ketgan yuzida chaqnab turgan tim qora shishinqiragan o'ynoqi ko'zlari ajoyib edi, ammo ayolning bir ko'zi salgina g'ilay edi. Juvon to'lagina ko'ksini kerib, qomatini tik tutardi. Yo'lakka chiqqach, u boshini g'oz ko'tarib, nazoratchining ko'ziga tik qaradi va uning talablarini bajarishga shaylanib turdi. Nazoratchi eshikni endi berkitmoqchi bo'lganda, sochlari oppoq, yuzini ajin bosgan rangpar bir kampir eshikdan boshini chiqarib qaradi. Kampir Maslovaga allanima deb gapira boshladi. Nazoratchi eshik bilan kampirning kallasini itarib, taraqlatib yopdi – kampir darhol boshini tortib oldi. Kamera ichida xotin kishining xandon otib kulgani eshitildi. Maslova ham jilmaydi-da, eshikning panjara tutilgan kichkina tuynugidan qaradi. Kampir ichkari tomondan tuynuk oldiga kelib, panjaraga yuzini tirab xirillab gapira boshladi:

– Bitta gapda tur – vassalom, ortiqcha gapirma.

– Nima bo'lsa ham, tezroq bir yoqli bo'lsaydi, bundan battar bo'lmaydi-ku,– dedi Maslova boshini silkib.

– Albatta, bir yoqli bo'ladi-da, ikki yoqli bo'lmaydi, – dedi o'ziga ishongan bosh nazoratchi o'tkir javob berganidan mamnun bo'lib. – Qani, yur!

Kampirning tuynukdan ko'rinib turgan ko'zi g'oyib bo'ldi, Maslova bo'lsa yo'lakning o'rtasiga tushib, mayda qadam tashlab bosh nazoratchi orqasidan tez-tez yurib ketdi. Ular tosh zinadan pastga tushishdi, keyin ayollar kamerasidan beshbattar badbo'y va sershovqin erkaklar kameralari yonidan o'tishdi, tuynuklardan qaragan ko'zlar ularni kuzatib qolishdi. Bosh nazoratchi bilan Maslova multiqli ikki soqchi askar turgan idoraga kirishdi; idorada

o'tirgan mirza askarlardan biriga tamaki tutuni singib ketgan qog'ozni tutqizdi-da, mahbus ayolni ko'rsatib: «Qabul qilib ol», dedi. Qizil yuz, cho'tir askar – nijegorodlik mujik qog'ozni shineli yengining qaytarmasiga qistirdi-da, sherigi, yalpoq yuzli chuvashga mahbus ayolni ko'rsatib ko'z qisdi. Askarlar mahbus ayolni oldilariga solib zinadan tushishdi-da, darvoza tomon yurishdi.

Darvoza o'rtasidagi kichkina eshik ochildi. Askarlar bilan mahbus ayol ostonadan hatlab qo'raga chiqishdi, so'ngra panjaradan o'tib, shahar bo'ylab, tosh ko'chaning o'rtasidan yurib ketishdi.

Izvoshchilar, do'kondorlar, oshpaz xotinlar, ishchilar, amaldorlar to'xtashib, mahbus ayolga qarashardi; ba'zilar boshlarini chayqab: «Yo'ldan ozgan kishining ahvoli shu-da! Bizga o'xshab tinch yursa o'ladimi», – deb o'ylashardi. Bolalar «qaroqchi» xotinga qo'rqa-pisa qarashar, orqasidan askarlar kelyapti-ku, endi hech narsa qilolmaydi, deb yupanishardi. Ko'mirini sotib bo'lib, tamaddixonadan choy ichib chiqqan bir qishloqi mujik mahbus ayolning yoniga keldi-da, cho'qinib unga bir tiyin uzatdi. Mahbus ayol qip-qizarib ketdi; boshi xam bo'ldi, allanima deb g'udrandi.

Mahbus ayol hammaning ko'zi o'zida ekanini sezib, qarayotganlarga ohistagina ko'z qirini tashlab qo'ydi va o'ziga tikilib qaraganlarini bilib, xursand bo'ldi. Turmadagiga qaraganda tozaroq bo'lgan bahor havosi ham uning bahrini ochdi. Ammo yurishni unutib qo'ygan, qo'pol mahbuslar shippagini kiygan oyoqlari toshda yurganda og'rir, shuning uchun ham u ko'zini yerdan uzmay, ohistaroq qadam qo'yishga urinardi. Un do'konni yonidan o'tib ketayotganda, mahbus ayol do'kon yonida, odamlardan qo'rqmay, lapanglab yurgan beozor kaptarlardan birini bosib olayozdi, kaptar par etib ko'tarildi-da, qanotlarini silkitib mahbus ayolning qulog'i yonidan uchib o'tib ketdi, shamoli yuziga kelib urildi. Mahbus ayol jilmaydi-yu, keyin o'zining qanday ahvoldaligi esiga tushib, xo'rsinib qo'ydi.

II

Mahbus Maslovaning boshidan o'tgan voqealar kunda bo'lib turadigan voqealardan edi. Maslova erga tegmagan bir xizmatkor xotinning qizi edi. Bu ersiz xotin qishloqda opa-singil zamindor

bekachnikida molboqarlik qiladigan onasi qo'lda turar va har yili tug'ar edi. Qishloq odatiga ko'ra, tug'ilgan bola cho'qintirilardi, keyin onasi dunyoga bemavrid kelgan, ishlashga halaqit bergan bu keraksiz bolani emizmasdi, u ko'p vaqt o'tmay ochlikdan o'lib ketaverardi.

Uning besh bolasi shu taxlitda o'lib ketgan edi. Hammasi cho'qintirildi, keyin emizilmadi, o'lib ketdi. O'tkinchi lo'lidan orttirilgan oltinchi bola qiz edi va agarda u qari bekachlardan biri qaymoqdan sigir hidi kelyapti, deb molboqarlarni koyish uchun molxonaga kirmaganda, bu qizchani taqdiri ham xuddi shunday bo'lardi. Beka molxonaga kirganda ayol do'mboqqina chaqaloqni qo'ynida olib yotardi. Qari bekach qaymoq uchun ham, ko'zi yorigan ayolni molxonaga kirgizishgani uchun ham koyidi-da, endi chiqib ketmoqchi bo'lganida, go'dakni ko'rib iyib ketdi va momosi bo'lishni istab qoldi. Bekach qizchani cho'qintirdi va cho'qintirgan qiziga rahmi kelib sut, onasiga pul berib turdi, shu bahona bilan qizcha omon qoldi. Qari bekachlar ham qizchani «omon qolgan» deb yuritadigan bo'ldi.

Onasi kasal bo'lib o'lib qolganda qizcha uch yashar edi. Molboqar kampir nevarasini boqishga qiynalgani uchun qari bekachlar qizchani o'z qaramog'lariga olishdi. Qorako'z qizcha nihoyatda sho'x va yoqimtoy bo'lib chiqdi, qari bekachlar o'sha bilan ovunadigan bo'lib qolishdi.

Qari bekachlar ikkita edi: kichigi Sofya Ivanovna ko'ngilchangroq bo'lib, qizni shunisi cho'qintirgan edi. Kattasi Marya Ivanovna qattiqqo'ldiq edi – Sofya Ivanovna qizni yasantirar, o'qishga o'rgatar va uni asrandi qilib olmoqchi bo'lardi. Marya Ivanovna bo'lsa, qizni xizmatkor, uddaburon oqsoch qilish kerak, derdi. Shuning uchun ham juda talabchan edi, jahli chiqib turgan kezlarda qizchani jazolar, hatto tutib olib urardi. Shunday qilib, ikki xil ta'sir ostida tarbiya topgan qizcha o'sib voyaga yetganda na asrandi qiz bo'ldi, na oqsoch. Uni Katka emas, Katenka ham emas, balki Katyusha deb chaqirishardi. Katyusha kashta tikar, uylarni yig'ishtirar, ikonalarini bo'r bilan tozalar, qahva qovurar, tuyar, qaynatib kosachalarda keltirib berar, mayda-chuydalarni yuvar, ba'zan bekachlarga kitob ham o'qib berardi.

Unga bir necha bor sovchilar keldi, lekin bekachlar orasida yashab o'rgangan qiz o'ziga sovchi qo'ygan mehnatkash odamlar bilan birga turish og'ir bo'lishini o'ylab, birontasiga ham tegmadi.

U o'n olti yoshga kirguncha ana shunday yashadi. Katyusha o'n oltiga kirganda bekachlarnikiga ularning talaba jiyani badavlat knyaz keldi. Katyusha bo'lsa knyazni sevib qoldi, lekin na unga dil izhori qildi va na bunga iqror bo'ldi. Oradan ikki yil o'tgach, bekachlarning xuddi o'sha jiyani urushga keta turib yo'l-yo'lakay ammalarinikiga tushib, ularnikida to'rt kun turib qoldi, jo'nashidan bir kun oldin Katyushani yo'ldan ozdirib, jo'nab ketadigan kuni uning qo'liga yuz so'm qistirdi. Oradan besh oy o'tgach, Katyusha o'zining homiladorligini sezib qoldi.

O'shandan beri dunyo ko'ziga qorong'i ko'rinib, bu sharmandalikdan qutulish yo'llarini izlay boshladi. Qo'li ishga bormay, bekachlariga o'lganning kundan xizmat qilib yurdi va bora-bora sabr kosasi to'lib-toshganini o'zi ham payqamay qoldi. U bekachlariga qayerdagi bo'lmag'ur gaplarni shart-shurt gapirib, hisob-kitob qilib jo'natib yuborishlarini so'radi. Ammo keyin bu qilmishidan o'zi ko'p afsuslandi.

Bekachlari ham undan ancha xafa bo'lishib, ishdan bo'shatib yuborishdi. Bularnikidan ketgach, stanovoynikida* oqsoch bo'lib ishlay boshladi. Lekin bu erda faqat uch oygina turdi, xolos, chunki stanovoy, ellik yashar chol hadeb tegishaverdi, bir safar u shilqimlik qilaverganida, Katyushaning zardasi qaynab, ahmoq va qari shayton, deb haqorat qildi, ko'kragiga bir turtib yiqitib yubordi. Shundan keyin Katyushani beadablikda ayblab, haydab yuborishdi. Oy kuni yaqinlashib qolgani sababli biron ishga joylashishning foydasi yo'q edi, shuning uchun Katyusha qishloqdagi mayfurushtan beva doya xotinnikida tura boshladi. Qiynalmasdan ko'zi yoridi. Ammo qishloqda kasal xotinni tug'dirgan doya Katyushaga yuqumli kasal yuqtirdi. Chaqaloq o'g'ilchani yetimxonaga jo'natishdi. Chaqaloqni yetimxonaga eltgan kampirning aytishicha, bola yetib borgan hamono dunyodan o'tibdi.

Doya xotinnikiga kelganda Katyushaning bir yuz yigirma yetti so'm puli bor edi: yigirma etti so'mni o'zi ishlab topgan, yuz so'mni

* Stanovoy – Chor Rossiyasida: politsiya mansabdari.

yo'ldan ozdirgan yigit bergan edi. Doya xotinning uyidan chiqib ketgan paytda Katyushaning yonida atigi olti so'm pul qolgandi. Katyusha pul saqlashni bilmas, o'ziga ham xarjlayverar, so'raganlarga ham beraverardi. Doya xotin ikki oy uyida turgani, yegan ovqati va ichgan choyi uchun undan qirq so'm oldi, yigirma besh so'm bolani jo'natishga sarf bo'ldi. Qirq so'mini doya xotin sigir sotvolaman, deb qarzga so'rab oldi. Yigirma so'mni ko'ylak va sovg'a-salom olaman, deb nest-nobud qildi. Shunday qilib, Katyusha sog'aygan vaqtida yonida bir miri qolmagan edi. Yana ish qidirish kerak edi. O'rmon mudiridikidan ish topildi. U bola-chaqali odam bo'lsa-da, xuddi stanovoy singari, Katyusha kelgan kundanoq unga shilqimlik qila boshladi. Katyusha undan jirkanar, shu sababli undan o'zini olib qochib yurardi. U Katyushadan ko'ra tajribali va makkor, eng muhimi – Katyushani xohlagan joyga yuborishga haddi sig'adigan xo'jayin edi. Xullas, u payt poylab Katyushani qo'lga tushirdi. O'rmon mudirining xotini buni payqab qoldi va bir kuni ularning ustiga kelib qolib, Katyushani do'pposlay ketdi. Katyusha bo'sh kelmadi, yumdalashdi, oqibatda Katyushaga ishlagan haqini ham to'lamay, haydab yuborishdi. Shundan keyin Katyusha shaharga borib xolasinikida tura boshladi. Xolasining eri muqovasoz bo'lib, ilgari o'ziga to'q edi, endilikda hamma mijozlaridan ayrilib, qo'lga tushgan narsani sotib ichadigan bo'lib qolgandi.

Xolasi kichkinagina kirxona ochib, shu bilan tirikchiligini o'tkazar, bolalari va tiriktovon erini boqar edi. Xolasi Maslovaga kir yuvuvchi bo'lib ishlashni taklif qildi. Ammo Maslova xolasinikida turgan kir yuvuvchi xotinlarning mashaqqat bilan kun kechirayotganlarini ko'rgach, javobni orqaga surib, biron idorada xizmatkorlik topilarmikan, deb ish qidirib yurdi. Ikkita gimnazist o'g'li bilan yashovchi bir boyvuchchanikidan ish topildi. Oradan bir hafta o'tgach, gimnaziyaning oltinchi sinfida o'qiydigan mo'ylovdor katta o'g'li o'qishni yig'ishtirib, Maslovaga shilqimlik qilaverib kun bermay qo'ydi. Beka hamma aybni Maslovaga to'nkab, javobini berib yubordi. Hadeganda yangi joy topilavermadi. Bir kuni Maslova odamlarga xizmatchi topib beradigan idoraga borganida, do'mboq qo'llariga uzuk va bilaguzuklar taqqan boyvuchcha xotinni uchratdi. Bu xotin Maslovaning ish qidirib yurganini eshitib, manzilini berdi va uyiga taklif qildi. Maslova

unikiga bordi. Oyimcha mehribonlik bilan kutib oldi, somsa va shirin may bilan siyladi, xat yozib berib oqsochini allaqayoqqa yubordi. Kechqurun xonaga baland bo‘yli, uzun sochlariga oq oralagan va oppoq soqolli kishi kirib keldi; chol kelgan hamono Maslovaning yoniga o‘tirdi-da, ko‘zlarini chaqchaytirib, iljayib, boshidan oyog‘igacha razm solib chiqdi, hazillasha boshladi. Beka oyim cholni boshqa xonaga chaqirib oldi. Shunda Maslova uning: «Qishloq shamolini yegan, qaymoqdakkina», deganini eshitdi. Keyin beka oyim Maslovani chaqirib, bu odamning puli ko‘p, o‘zi yozuvchi, dedi, agar unga yoqib qolsang bormi, sendan hech narsasini ayamaydi, dedi. Katyusha yozuvchiga yoqib qoldi. U Maslovaning qo‘liga yigirma besh so‘m tutqazdi-da, tez-tez uchrashib turishga va‘da berdi. Katyusha xolasinikida bo‘lgan vaqtidagi qarzini to‘ladi, yangi ko‘ylak, shlyapa va lenta sotib oldi. Shu bilan puli ham sob bo‘ldi. Oradan bir necha kun o‘tgach, yozuvchi uni yana chaqirtirdi. Katyusha bordi. U Katyushaga yana yigirma besh so‘m berdi va alohida uyga o‘tishni taklif etdi. Maslova yozuvchi ijaraga olgan uyda yashab yurib, xuddi shu hovlida turadigan xushchaqchaq bir gumashtani yaxshi ko‘rib qoldi. Katyusha yozuvchiga gapning ochig‘ini aytdi va boshqa kichikroq bir uyga ko‘chib chiqdi. Unga uylanishga va‘da bergan gumashta esa hech narsa demasdan uni tashlab, Nijniy shahriga jo‘nab ketdi, Maslova yolg‘iz qoldi. U yolg‘iz o‘zi ijarada turmoqchi bo‘ldi-yu, lekin ruxsat berishmadi. Daha nazoratchisi, agar sariq chipta olsang va ko‘rikdan o‘tib tursang, yolg‘iz turishing mumkin, dedi. Shundan keyin u xolasinikiga ketdi. So‘nggi modadagi ko‘ylagini, yelkaga tashlab yuradigan kiyimi va shlyapasini ko‘rgan xolasi uni hurmat bilan kutib oldi va bu safar, turmushi yaxshiga o‘xshaydi, deb o‘ylab, kir yuvuvchilikka kirgin, deyishga botinolmadi. Endi Maslova kir yuvuvchilikka kirishni xayoliga ham keltirmasdi. U oldingi xonalarda turuvchi qo‘llari qoqshol kirchi xotinlarning og‘ir turmushiga achinardi. Ularning ba‘zilari qishin-yozin derazalari yopilmaydigan xonalarda o‘ttiz darajali issiq sovun bug‘i ichida kir yuvib, dazmollayverib sil bo‘lgan edi. Katyusha ana shularning ahvolini ko‘rib, men ham shu azob-uqubatda qolib ketishim mumkin, deb o‘ylab vahimaga tushdi.

Xuddi ana shu vaqtda, ya'ni Maslovaning ahvoli nihoyatda tang bo'lib, uni himoya ostiga oladigan odam topilmay qolganda islovotxonaga uchun qiz izlab yuruvchi bir dallol xotin duch kelib qoldi.

Maslova ko'pdan beri chekardi. Ammo gumashta bilan aloqa qila boshlagandan so'ng va ayniqsa, u tashlab ketgandan keyin ko'proq ichadigan bo'lib qolgan edi. Sharob lazzatli bo'lgani uchungina emas, balki boshidan kechirgan og'ir kunlarini unutdirgani uchun, mast bo'lganda o'zini erkinroq va dadilroq his etgani uchun ham Maslova ichkilikka o'ch bo'lib qoldi. Sharob ichmagan kezlarida uning ko'ngli g'ash bo'lar va uyalar edi. Dallol xotin xolasini ziyofat qildi va Maslovani ichirib, shahardagi eng yaxshi islovotxonaga kirishni taklif etdi, bu kasbning foydali va yaxshi tomonlarini uqtirdi. Maslovaning oldida ikki yo'l bor edi: yo xizmatkor bo'lib, xo'rlanib erkaklar tomonidan ta'qib etilib, kishibilmas o'qtin-o'qtin buzuqilik qilish yoki yegani oldida, yemagani ketida, tinch, xotirjam, qonun tomonidan yo'l qo'yilgan va yaxshi haq to'lanadigan, doimiy fohishalik bilan ochiqchasiga shug'ullanish. U keyingisini tanladi. Bundan tashqari, u shu yo'l bilan o'zini yo'ldan ozdirgan kishidan, gumashtadan va unga yomonlik qilgan barcha odamlardan o'ch olmoqchi bo'ldi. Uning bu qarorga kelishiga sabab bo'lgan narsalardan yana biri shu ediki, dallol xotin unga, ko'nglingiz tusagan ko'ylakni – duxoba deysizmi, fay deysizmi, shohi ko'ylak deysizmi, balga kiyiladiganidan tortib, orqasi ochiq va yengsiz ko'ylakkacha, istaganingizni tiktira olishingiz mumkin, deb aytdi. Maslova qora duxoba hoshiyali, o'yma yoqali sap-sariq ko'ylak kiyganini tasavvur qilgach, o'zini tutib turolmadi va pasportini berdi. Shu kuniyoq kechqurun dallol xotin uni izvoshga o'tqazib, hammayoqqa dong'i ketgan Kitaevaning uyiga olib borib qo'ydi.

Ana shu paytdan boshlab Maslova Tangrining buyrug'i va bani-bashar pandlarini uzluksiz poymol qilgan hayot og'ushida yashay boshladi. O'z fuqarolarining baxt-saodati to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan hukumat boshliqlarining ijozati bilangina emas, balki o'shalarning himoyasi ostida yuzlab va yuz minglab ayollar shunday gunoh ishlar bilan shug'ullanib kelmoqda va oqibatda o'ntasidan to'qqiztasi og'ir xastalikka muhtalo bo'lib, fursatidan burun qarib, o'lib ketmoqda edi.

Kechasi bilan aysh-ishrat qilib chiqqach, ertalab va kunduzlari g'aflat bosib uxlashar, soat uch-to'rtlarda iflos to'shakdan horib-charchab turishar, bosh og'rig'iga zelter suv, qahva ichishar, yengil uy kiyimi – kofta va xalatda xonama-xona kezishar, deraza pardasi orasidan mo'ralashar, lanj bo'lib bir-birlari bilan janjallashishar, keyin yuvinib-taranib, badanlariga, sochlariga moy surtishar, ustlariga atir sepishar, ko'ylak o'lchashar, ko'ylak uchun beka bilan talashib-tortishar, o'zlarini oynaga solishar, yuzlari, qoshlarini bo'yashar, shirin, yog'li ovqatlar yeyishardi, keyin badani ko'rinib turadigan harir shohi ko'ylak kiyib, bezatilgan, yorug' zalga chiqishardi, mehmonlarni kutib olishar, musiqa, raqslar boshlanar, konfetlar yeb, sharob ichishar, tamaki chekishardi. Keyin yoshlar bilan, o'rta yasharlar va ona suti og'zidan ketmaganlar, qarib-chirib qolgan qariyalar, bo'ydoqlar va xotin, bola-chaqalilar, savdogarlar, sarkorlar, armanilar, yahudiylar, tatarlar, boylar, kambag'allar, sog'lar, kasallar, mastlar, hushyorlar, qo'rs odamlar, nozik tabiatlilar, harbiylar, oddiy kishilar, talabalar, gimnazistlar – xullas har xil toifadagi, turli yoshdagi va fe'ldagi odamlar bilan zino qilishardi. Oqshomdan tong otguncha shovqin-suron, hazil-mutoyiba, mushtlashishu musiqa, tamakiyu sharob, sharobu tamaki. Faqat ertalab shulardan qutulib qattiq uyquga ketishardi. Haftaning har bir kuni ahvol shu edi. Nihoyat, haftaning so'nggi kunlarida davlat mahkamasiga – uchastkaga borishardi. Bu yerda davlat xizmatida turgan amaldorlar – erkak doktorlar ba'zan jiddiylik bilan, ba'zida esa faqat insonlarnigina emas, hatto hayvonlarni ham jinoyatdan saqlovchi sharm-hayoni yig'ishtirib qo'yib, ermak qilib kulishib, shu xotinlarni ko'rikdan o'tkazar va ularga sheriklari bilan birgalikda bir hafta davomida qilgan o'sha jinoyatlarini yana davom ettirishlari uchun patent berishardi. Hafta ketidan haftalar shu zaylda o'taverardi. Har kuni, yozin-qishin, Xudoning bergan kuni ahvol shu edi.

Maslova yetti yil shu zaylda kun kechirdi. Bu vaqt ichida u islovotxonani ikki marta o'zgartirdi, bir marta kasalxonada yotib chiqdi. Islovotxonaga kelganiga yetti yil, birinchi bor yo'ldan ozganiga sakkiz yil bo'ldi deganda, yigirma olti yoshida uni qamoqqa olishdi, keyin qotillar va o'g'rilar orasida olti oy turgandan keyin uni sudga olib ketishdi.

III

Uzoq yo‘l yurib charchagan Maslova konvoylar bilan viloyat sudiga yaqinlashganda, o‘sha bekalarning jiyani, uni yo‘ldan ozdirgan o‘sha knyaz Dmitriy Ivanovich Nexlyudov hamon prujinali baland va yumshoq* parqu to‘shak ustida, ko‘krak burmalari dazmollangan gollandcha ich ko‘ylagining yoqasini ochib, papiros chekib yotardi. U ko‘zini bir nuqtaga tikkanicha kecha nima bo‘lgani va bugun nima qilishi kerakligi ustida bosh qotirardi.

U badavlat va nomdor Korchaginlarnikida o‘tkazgan kechagi oqshomni eslarkan, bir xo‘rsinib qo‘ydi. Hamma uni Korchaginlarning qiziga uylandi, deb o‘ylar edi. Nexlyudov papiros qoldig‘ini tashlab, kumush portsigardan ikkinchi papirosni olmoqchi bo‘di-yu, ammo bu fikridan qaytdi va oppoq, silliq oyog‘ini karavotdan osiltirib tuffisini topdi, to‘ladan kelgan kiftiga shohi xalat tashladi-da, tez va gurs-gurs qadam tashlab, yotoqxonaga yondoshgan eleksir, odekolon, fiksatuar* va atir hidlari anqib turgan xonaga chiqdi. Nexlyudov ko‘p yeriga plomba qo‘yilgan tishlarini alohida poroshok bilan tozaladi, gulob bilan og‘zini chaydi. Keyin hammaog‘ini yuvib, har xil sochiq bilan artina boshladi. Atir sovun bilan qo‘llarini yuvib bo‘lgach, uzun tirnoqlarini cho‘tka bilan erinmay tozaladi, katta marmar tostda yuzini va yo‘g‘on bo‘ynini yuvib oldi-da, yotoqxonaga yonidagi uchinchi xonaga kirib ketdi. U yerda dush tayyorlab qo‘yilgan edi. Bunda u sergo‘sh, semiz, oppoq badaniga sovuq suv quyib, pahmoq choyshab bilan artinib, dazmollab tayyorlab qo‘yilgan kiyimlarini, oynadek yarqirab turgan botinkasini kiydi, oyna yoniga o‘tirib olib ikkita cho‘tka bilan kaltagina qora jingalak soqolini, boshining old qismidagi siyraklashib qolgan jingalak sochlarini taray boshladi. Uning hamma narsasi – ichki kiyimlari, ust-boshlari, botinkasi, bo‘yinbog‘i, to‘g‘nog‘ichi, ilmatugmasi ko‘zga tashlanmaydigan, oddiy, pishiqlik, qimmatbaho edi.

Nexlyudov o‘nlarcha bo‘yinbog‘ va to‘g‘nog‘ichlar orasidan qo‘liga ilinganini olib – bular unga bir vaqtlar yangi va antiqa narsalarga o‘xshab tuyular, hozir esa baribir edi – tozalab stulga taxt qilib qo‘yilgan ko‘ylakni kiydi-da, rangi toza bo‘lmasa-da, harqalay, ozoda kiyimda, xushbo‘y hidlar taratib, uzun yemakxonaga

* *Fiksatuar* – sochni yaltillatadigan moy.

kirdi. Yemakxonaning parket polini kecha uchta mujik ishqalab yuvib qo‘ygan edi. U yerda bahaybat qarag‘ay bufet va oyoqlari sher panjasiga o‘xshagan, o‘ymakor, ikki yoqqa suriladigan katta serhasham stol turardi. Chetiga katta-katta tug‘ro tikilgan, kraxmallangan yupqa dasturxon yoyilgan stol ustida: qahva hidi taralib turgan kumush qahvadan, xuddi shunaqa qanddon, qaymoq solingan qaymoqdon va yumshoq kulcha, qoqnon, biskvit solingan savatcha turar edi. Asbob-anjomlar yonida yangi kelgan xatlar, gazetalar va «Revue des de ux Mondes» degan yangi kitob yotardi. Nexlyudov xatlarni o‘qimoqchi bo‘lib turgan ham ediki, yo‘lakka chiqiladigan eshikdan qora kiyimli, boshiga qing‘ir-qiyshiq farqini bekitib turgan bezakli to‘r tashlagan semiz kampir kirib keldi. U Nexlyudovning yaqinginada shu uyda vafot etgan marhum onasining oqsochi Agrafena Petrovna edi. Endi u Nexlyudovning kalitdori edi.

Agrafena Petrovna turli vaqtlarda Nexlyudovning onasi bilan chet ellarda o‘n yil yashab kelgan, qiyofasi ham, yurish-turishi ham bekasnikiga o‘xshardi. U Nexlyudovlar uyida bolalik chog‘idan yashab kelar va Dmitriy Ivanovichni go‘daklik chog‘idanoq, Mitenkalik vaqtidanoq bilardi.

– Xayrli tong, Dmitriy Ivanovich.

– Assalomu alaykum, Agrafena Petrovna. Qanday yangiliklar bor? – deb so‘radi Nexlyudov hazilomuz.

– Knyaginyadanmi, knyajnadanmi, kimdandir xat bor. Boya oqsochi keltirgan edi. Mening xonamda kutib o‘tiribdi, – Agrafena Petrovna xatni uzata turib ma‘nodor jilmaydi.

– Xo‘p, hozir, – dedi Nexlyudov xatni olib. Agrafena Petrovnaning jilmayganini ko‘rib, qovog‘ini soldi.

Agrafena Petrovnaning tabassumi xat knyajna Korchaginadanligini, Agrafena Petrovnaning fikriga qaraganda, Nexlyudov knyajnaga uylanmoqchiligini ko‘rsatardi. Agrafena Petrovnaning o‘smoqchilab kulib turishi Nexlyudovga yoqmadi.

– Oqsochga, kutib turarkansiz, deyman-da, – degan cha Agrafena Petrovna stol ustini supuradigan cho‘tka o‘z joyida turmaganini ko‘rib boshqa joyga olib qo‘ydi-da, yemakxonadan chiqib ketdi.

Nexlyudov Agrafena Petrovna bergan, atir isi anqib turgan xatni ochib o‘qiy boshladi.

«Sizning xotira daftaringiz bo‘lishni o‘z zimmamga olganim uchun, – deb shoshilib yozilgandi chetlari tekislanmagan bir varaq kulrang qalin qog‘ozga, – shu narsani sizga eslatib o‘tmoqchiman-ki, siz shu yil, 28 aprel kuni maslahatchi sifatida sudda bo‘lishingiz kerak. Kecha o‘zingizga xos yengiltaklik bilan bizlar va Kolosov bilan birga surat tomosha qilgani borishga va‘da qilgandingiz, endi borishingizning iloji yo‘q; sudga vaqtida yetib bormaganingiz uchun a moins que vous ne soyes dispose a payer a la cour d’assises les 300 roubles d’amend, que vous vous refusez pour votre cheval*. Kecha siz jo‘nab ketgan hamono esimga tushdi. Esingizdan chiqmasin tag‘in.

Kn. M. Korchagina».

Qog‘ozning ikkinchi betiga shunday deb qo‘shimcha qilingan edi:
«Maman vous fait dire due votre couvert vous attendra jusqu’a la nuit. Yenez absolument a’quelle heure que cela soit**.

M. K.»

Nexlyudov peshonasini tirishtirdi. Bu xat knyajna Korchaginaning ikki oydan buyon ustalik bilan olib borayotgan ishining davomi edi, knyajna Nexlyudovni asta o‘ziga rom qilib, ipsiz bog‘lab qo‘ygan edi.

Nexlyudov hozir o‘zi istasa ham knyajnaga uylanishni taklif etolmas, chunki buni amalga oshirolmashligiga, yoshi o‘tib qolgan, jon-dilidan sevmagan kishilarga xos sustkashlikdan tashqari, yana bir sabab bor edi. Bunga sabab, o‘n yil muqaddam Katyushani yo‘ldan ozdirib, keyin tashlab ketgani emas, yo‘q, buni u butunlay unutib yuborgan va uylanishimga g‘ov bo‘ladi, deb xayoliga ham keltirmasdi; bu sabab shundan iborat ediki, Nexlyudov bir erli xotin bilan aloqada edi, keyin bu aloqani o‘zi uzgan bo‘lsa-da, lekin ayol aloqani hali uzilgan deb hisoblamasdi.

Nexlyudov xotin-qizlar bilan muomala qilganda juda tortinchoq edi. Uning ana shu tortinchoqligi o‘sha erli ayolda Nex-

* Ot sotib olishga ko‘zingiz qiymagan 300 so‘mni okrug sudiga jarima to‘lashga ko‘zingiz uchmayotgan bo‘lsa, albatta (*fran.*).

** Oyimlar idish-tovoqlar siz uchun taxt turajagini aytishni topshirdilar. Fursat topsangiz, albatta, bir kelib keting (*fran.*).

lyudovni o'ziga rom qilib olish istagini qo'zg'agan edi. Bu ayol uyezd oqsoqolining xotini edi. Nexlyudov o'sha uyezdga dvoryanlar oqsoqoli sayloviga borgan edi. Ayol uni shunday aloqaga jalb qildiki, natijada Nexlyudov butun ehtirosi bilan unga berilib ketdi, lekin bu aloqa borgan sari uni jirkantirardi. Dastlab Nexlyudov nafsini tiyolmadi, keyin esa o'sha xotin oldida o'zini gunohkor hisoblab, uning roziligisiz aloqasini uzib ketolmadi. Xuddi mana shuning uchun ham Nexlyudov hatto Korchaginaga uylanmoqchi bo'lgan taqdirda ham, bunga haqim yo'q, deb hisoblardi.


Stolda xuddi shu xotinning eridan kelgan xat yotardi. Uning qo'li bilan yozilgan xatni, ustiga bosilgan muhmi ko'rib Nexlyudov qip-qizarib ketdi, kuchiga kuch qo'shilgandek bo'ldi. Odatda, xavf-xatar tug'ilganda u o'zini shunday his qilardi. Lekin behudaga hayajonlangan ekan: o'ynashining eri, Nexlyudovning asosiy yer-mulki joylashgan uyezd dvoryanlarining oqsoqoli, may oyining oxirlarida shoshilinch sur'atda zemstvo* majlisiga chaqirilayotganidan Nexlyudovni xabardor etib, albatta, yetib kelishni va zemstvo majlisida ko'riladigan masalalarda donner un coup d'epaule** so'rabdi. Zemstvo majlisida maktab va yo'l qurilishi masalalari ko'rilishi ko'zda tutilib, reaksion partiyaning qarshilik qilishi kutilardi.

Dvoryanlar oqsoqoli liberal odam bo'lib, bir necha maslakdoshlari bilan birgalikda Aleksandr III davrida yuz bergan reaksiyaga qarshi kurash olib borar va bu ishga shu qadar berilib ketgandiki, o'zining baxtsiz oilaviy hayotidan butunlay bexabar edi.

Nexlyudov shu kishi tufayli boshidan kechirgan barcha og'ir damlarni: bir kuni eri bilib qoldi, deb o'ylab, u bilan duel qilishga hozirlanganini va bu duelda osmonga qaratib o'q uzishga ahd qilganini hamda u xotinning umidsizlanib, o'zini suvga tashlamoqchi bo'lib boqqa, hovuz tomonga yugurib chiqqanini, o'zi uni qidirib yurganini esladi. «To u javob qaytarmaguncha borolmayman ham, biron ish qilolmayman ham», – deb o'yladi Nexlyudov. Nexlyudov bundan bir hafta muqaddam, unga uzil-kesil xat yozib, o'zining gunohkorligini, gunohini yuvish uchun har nega tayyorligini,

* Zemstvo – chor Rossiyasida dvoryan-bujoy vakillaridan tashkil etilgan va mahalliy ishlarni boshqarib turgan muassasa.

** Qo'llab-quvvatlashni (fran.).



lekin har holda uning baxt-saodati uchun aloqani birato'la uzish kerakligini bildirgan edi. U ana shu xatga javob kutar, javobdan esa darak yo'q edi. Javob yo'qligi bir hisobda yaxshilik alomati edi. Agar ayol aloqaning uzilishiga rozi bo'lmaganda allaqachon yozib yuborgan yoki ilgari gidek o'zi yetib kelgan bo'lardi. Nexlyudov u yoqda hozir qandaydir bir zobit yashayotganini va u xotinga aylanishayotganini eshitgan edi. Bu xabar uni goh rashk o'tida yondirib azobga solardi, goh yolg'on gapirishdan qutuldim, deb sevinardi.

Ikkinchi xat o'z yer-mulkini boshqaruvchidan edi. Boshqaruvchi, merosxo'rlikingizni mustahkamlash uchun, albatta, o'zingiz kelishingiz zarur. Bundan tashqari, xo'jalikni qanday olib borish kerak, marhuma knyaginya davridagidek olib boriladimi yoki men bir vaqtlar marhuma knyaginyaga taklif etganim, endi siz yosh knyazga taklif etayotganim usulda, ya'ni asbob-uskunalarni ko'paytirib, dehqonlarga ulashib berilgan yerlarni o'zimiz ishlaymizmi, shu masalani ham hal qilmoq zarur, deb yozgan edi. Boshqaruvchi yerdan shu tariqa foydalanish ancha qulay bo'ladi, deb yozgan edi. Shu bilan birga, boshqaruvchi odat bo'yicha o'ning birinchi kuni yuborishi lozim bo'lgan uch ming so'mni birmuncha kechikib yuborayotgani uchun uzr so'ragan edi. Shu pullar keyingi pochta bilan yuborilar ekan. Kechikib qolganining sababi shu ekanki, dehqonlardan yig'ib olish juda qiyin bo'libdi. Dehqonlar shu qadar noinsof bo'lib ketishibdiki, ulardan pul undirish uchun boshqaruvchi hukumat idoralariga murojaat qilishga majbur bo'libdi. Bu xat Nexlyudovga ham yoqar, ham yoqmas edi. Katta xo'jalikning egasi ekani unga yoqardi. Yomon tomoni shu ediki, Nexlyudov katta yer egasi bo'la turib, yoshlik chog'laridanoq Gerbert Spenserning muxlisi edi. Spenser o'zining «Social statics»^{*} degan asarida adolat – yerga xususiy egalik qilishga yo'l qo'ymaydi, deb da'vo qilgan, bu esa Nexlyudovni hayratda qoldirgandi. U yoshlikka xos samimiylilik va qat'iyat bilan, yer xususiy mulk bo'lishi mumkin emas, deb gapiribgina qolmasdan, universitetda shu haqda ilmiy asar yozish bilangina kifoyalanmasdan, o'sha vaqtda buni amalga ham oshirgan, o'z e'tiqodiga xilof qilmaslik, yer-mulkka ega bo'lmaslik uchun biroz yerni (onasiga daxli bo'lmagan, otasidan o'ziga meros qolgan yerni) mujiklarga bo'lib bergan edi.

* «Ijtimoiy turg'unlik» (ing.).

Endi meros qolib, katta yer egasi bo'lib olgach, u ikki yo'ldan birini tanlashi lozim edi: yo bundan o'n yil muqaddam otasidan qolgan ikki yuz botmon yerni in'om qilganidek, yer-mulkidan voz kechishi yoki oldingi fikrining xato va noto'g'riligiga iqror bo'lib indamay yuraverishi kerak edi.

Birinchisini qilolmasdi, chunki kun kechirishi uchun yerdan boshqa moddiy boyligi yo'q edi. U xizmat qilishni istamas, buning ustiga, u rohatda yashab o'rganib qolgan va bu odatlarni tark etishga ko'zi qiymas edi. Buning hojati ham yo'q edi, chunki endi unda yoshligidagi qat'iylik, e'tiqod kuchi va odamlarni hayron qoldirish istagi va g'ururdan asar ham qolmagan edi. Ikkinchidan esa yerga xususiy egalik qilishning qonunsizligi haqida Spenserning «Ijtimoiy turg'unlik» kitobida keltirilgan o'sha yorqin, shak-shubhasiz dalillaridan voz kecholmasdi. Nexlyudov keyinchalik Genri Jorjning asarlarida bu fikrlarini tasdiqlovchi aniq dalillarni topgan edi.

Mana shuning uchun ham boshqaruvchining xati unga yoq-magan edi.

IV

Nexlyudov qahva ichib bo'lgach, kabinetiga kirdi, taklif qog'ozini ko'zdan kechirib, sudga soat nechaga chaqirganlarini bilmoqchi va knyajnaga javob yozib yubormoqchi bo'ldi. Kabinetga ustaxona orqali o'tilardi. Ustaxonada yangi boshlangan, orqasi o'girib qo'yilgan rasm molbert ustida turar, etyudlar osib qo'yilgan edi. Ikki yildan beri u shu rasm ustida ishlar edi, bu rasm, etyudlar va ustaxonaning ko'rinishi unga, ayniqsa, keyingi vaqtlarda rassom bo'lishiga ishonchi yo'qola borganini eslatdi. Nexlyudov buni g'oyatda nozik rivojlangan estetik tuyg'u natijasi deb tushunar, lekin shu fikr uning ko'nglini g'ash qilar edi.

Nexlyudov yetti yil muqaddam, menda rassomlik iste'dodi bor, deb o'ylab, xizmatni tashlagan va san'atning yuksak cho'qqisidan turib, boshqa ishlarga mensimaslik bilan qaragan edi. Endi ma'lum bo'ldiki, bunday qilishga uning haqqi yo'q ekan. Shuning uchun ham bu gap esiga tushganda ko'ngli g'ash bo'lardi. Nexlyudov ustaxonadagi barcha hashamatli asbob-anjomlarga qarab, dilsiyoh bo'ldi, diqqati oshib kabinetiga kirdi. Kattagina kabinet har turli jihozlar bilan bezatilgan edi.

Nexlyudov kattakon stolning shoshilinch ishlar tortmasidan chaqiruv qog'ozini topdi, o'qib, sudga soat o'n birga chaqirilganini bildi, so'ngra o'tirib knyajnaga xat yozdi va taklif qilganlari uchun minnatdorlik bildirib, ovqat mahaliga yetib borishga harakat qilishini bildirdi. Lekin bitta xatni yozib bo'ldi-da, yirtib tashladi: nazarida, o'zini juda yaqin olib yozgandek tuyuldi; yana boshqasini yozdi – bunisi juda sovuq, haqoratomuz bo'lib ko'rindi. U yana yirtib tashlab, devordagi tugmani bosdi. Eshik ochilib kulrang qalin surpdan peshband taqqan, soqol-mo'ylovi qirilgan, bakenbard qo'ygan, badqovoq xizmatkor kirdi.

– Marhamat qilib, izvosh chaqirtiring.

– Xo'p bo'ladi.

– Ha, aytganday, bu yerda Korchaginlarnikidan kelgan odam kutib o'tiribdi. Rahmat, dedilar, borishga harakat qilarkanlar, deb aytib qo'ying.

– Xo'p bo'ladi.

«Yaxshi bo'lmadi, yozolmasam, nima qilay? Baribir hali o'zini ko'raman-ku», – deb o'yladi Nexlyudov va kiyinish uchun ichkariladi.

U kiyinib, zinapoyaga chiqqanida rezina g'ildirakli tanish izvosh kutib turgan edi.

– Kecha siz knyaz Korchaginnikidan endi chiqib ketgan ekansiz, ketma-ket yetib kelibman, – dedi izvoshchi oq yoqadan chiqib turgan, oftobda qoraygan yo'g'on bo'ynini burib, – darbon menga: «Hozirgina chiqib ketdilar», dedi.

«Korchaginlarga bo'lgan munosabatimni izvoshchilar ham bilishadi», deb o'yladi Nexlyudov. Keyingi vaqtlarda uning boshini qotirgan: Korchaginaga uylansammikan, yo'qmi, degan muammo oldiga kelib ko'ndalang bo'ldi. U shu kunlarda o'z oldida turgan ko'pgina boshqa masalalar kabi buni ham na u yoqli, na bu yoqli qilolmadi.

Uylanish kerak, degan fikrni yoqlovchi bir qancha dalillar bor edi. Birinchidan, uylanish tinch oilaviy hayot bag'ishlardir. Shu bilan bir vaqtda, jinsiy hayotni tartibga solib axloq doirasida yashashga imkon berar edi; ikkinchidan va eng muhimi, oila va bola-chaqa hozirgi tuturiqsiz hayotimga ma'no beradi, deb

umid qilardi. Shularning hammasi uylanishning foydali tomonini ko'rsatardi. Uylanishga qarshi dalillardan biri – barcha yoshi ulg'ayib qolgan bo'ydoqlarga xos qo'rqoqlik, erkni qo'ldan berib qo'yishdan qo'rqish bo'lsa, ikkinchidan, xotin kishidek sirli zotdan ongsiz ravishda qo'rqish hissi edi.

Missiga uylanish masalasiga kelganda esa (Korchaginaning ismi Mariya bo'lib, barcha oliy tabaqa oilalarda rasm bo'lganidek, unga shunday laqab qo'ygan edilar) Nexlyudovga yoqqan narsa, birinchidan, uning nasl-nasabi, har jabhada, kiyinishidan tortib, gapirish, yurish-turish, kulishigacha oddiy odamlardan biron boshqa jihati bilan emas, «andishaliligi» bilan ajralib turishida edi. Nexlyudov bu xislatiga boshqacha nom topolmas va bu xislatning qadrini bilar edi: ikkinchidan esa Missi uni boshqalardan ko'ra ko'proq qadrlardi, demak, Nexlyudovning fikricha, uni yaxshi tushunardi. Missining shu tushunchasi, ya'ni Nexlyudovning yuksak fazilatlariga ega bo'lganini e'tirof etishi uning nazarida Missining aqlli, hushli, dono qiz ekanini ko'rsatardi. Missiga uylanishga qarshi bo'lgan dalillar shulardan iborat edi: birinchidan, Missidan ko'ra fazilatlarini ko'proq qizni, ya'ni o'ziga munosib qizni topish mumkin, ikkinchidan, Missining yoshi yigirma yettida. Ilgari u boshqa bir odam bilan sevishgan bo'lishi mumkin, degan fikr Nexlyudovni azoblardi. U, Missi o'tmishda mendan boshqa odamni sevgan bo'lishi mumkin, degan fikrga chidayolmasdi. Missi uni uchratib qolishini oldin xayoliga ham keltirmagan, albatta, bu kundek ravshan. Ammo, shunga qaramay, Missi ilgari boshqa odamni sevgan bo'lishi mumkin, degan fikr Nexlyudovni tahqirlardi.

Uylanishni yoqlab va uylanishga qarshi bo'lgan dalillar baravar edi. Shu sababdan Nexlyudov o'zini o'zi mazah qilib, men buridan eshagiman, derdi. U o'z oldida turgan ikki bog' pichanning qaysi birini yeyishini bilmay, boshi qotganicha qolaverdi.

«Xullas, Marya Vasilyevnadan (uyezd dvoryanlar oqsoqolining xotinidan) javob olmaganimcha, u bilan ishni bir yoqli qilmaganimcha, hech narsa qilolmayman», dedi u o'ziga o'zi.

Bir qarorga kelish uchun shoshilmasam ham bo'ladi, shoshilmaslik kerak, degan fikridan o'zi mamnun bo'ldi.

«Xullas, bafurja o‘ylab ko‘raman», dedi u o‘ziga o‘zi izvosh sudning asfaltlangan darvozaxonasiga sassizgina kelib to‘xtagan paytda.

«Jamoat ishlarini qanday halol bajarib kelgan bo‘lsam, hozir ham shunday qilishim kerak. Shunisi ham borki, bu maroqli ish», – dedi u o‘ziga o‘zi, so‘ngra darbon yonidan o‘tib, sud mahkamasining dahliziga kirdi.

V

Nexlyudov kirib kelganda sud mahkamasining yo‘lagida harakat kuchaygan edi.

Qorovullar goh yelib-yugurib, goh oyoqlarini sudrab yurishar, yumushlarni bajarib, qog‘oz tashib u yoqdan bu yoqqa harsillab chopishardi. Sud ijrochilari, advokatlar va sud xodimlari goh u yoqqa, goh bu yoqqa o‘tib turishar, arzgo‘ylar va qamoqqa olinmagan sudlanuvchilar mung‘ayib, devor bo‘ylab sang‘ib yurishar yoki kutib o‘tirishardi.

– Okrug sudi qayerda? – deb so‘radi Nexlyudov qorovullarning biridan.

– Sizga qaysi biri kerak? Fuqarolar bo‘limi bor, sud palatasi bor.

– Men maslahatchiman.

– Jinoiy ishlar bo‘limi. Shunaqa demaysizmi. Bu yoqqa, o‘ng tomonga yurib, keyin chapga burilsangiz, ikkinchi eshik.

Nexlyudov ko‘rsatilgan tomonga qarab ketdi.

O‘sha eshik yonida ikki kishi kutib turardi: ularning biri baland bo‘yli, barvasta, ochiqko‘ngil savdogar edi, aftidan, tamaddi qilib, ichib, shirakayf bo‘lib olganga o‘xshardi, ikkinchisi yahudiy gumashta edi. Nexlyudov ularning yoniga borib, maslahatchilar uyi shu yerdami, deb so‘raganda, ikkalovi junning narxi haqida so‘zlashib turgan edi.

– Shu yerda, taqsir, shu yerda. Siz ham bizga o‘xshagan maslahatchimisiz deyman-a? – deb so‘radi ochiqko‘ngil savdogar kulib, ko‘z qisib qo‘yib. – Durust, birgalashib zahmat chekarkanmizda, – Nexlyudov «ha» degandek bosh irg‘ab qo‘ygandan keyin, gapida davom etdi, – ikkinchi gildiya* savdogari Baklashov, – dedi

* *Gildiya* – Chor Rossiyasida savdogarlarning boyligiga qarab beriladigan daraja.

u yumshoq, qisib bo'lmaydigan yapaloq qo'lini uzatib, – zahmat chekmoq kerak. Kim bilan tanishish sharafiga muyassar bo'ldik?

Nexlyudov o'zini tanitdi-da, maslahatchilar xonasiga kirib ketdi.

Kichkinagina maslahatchilar xonasida turli toifadan o'n nafarcha odam bor edi. Hammalari ham endigina kelgan bo'lib, ba'zilar o'tirishar, ba'zilar yurib turar, bir-birlarini ko'zdan kechirishar edi. Ular orasida mundir kiygan, iste'foga chiqqan bir harbiy kishi ham bor, boshqalari syurtuk va pijak kiyishgan, faqat bir kishi burma kamzul kiyib olgan edi.

Bu vazifa maslahatchilarning ko'pini ishdan qoldirgan va o'zlarining aytishlaricha, ularga malol kelayotgan bo'lsa ham jamiyat uchun zarur ishni qilayotganlaridan bir qadar mamnun bo'lganlari aftlaridan bilinib turardi.

Maslahatchilarning ba'zilar bir-birlari bilan tanishib olib, kimning kimligini tasmollab bilib, ob-havo haqida, bahorning erta kelgani haqida, ko'riladigan ish to'g'risida gaplashishardi. Nexlyudovni tanimaganlar u bilan tanishib olishga shoshilar, aftidan, u bilan tanishishni o'zlari uchun katta martaba deb bilar edilar. Nexlyudov hamma vaqt notanish odamlar meni shunday hurmatlashlari zarur, deb hisoblardi. Agar undan, nega o'zingni ko'p kishilardan baland hisoblaysan, deb so'ralsa, u bunga javob berolmasdi, chunki umrida biror arzigulik ish qilmagan edi. Ingliz, fransuz va nemis tilida yaxshi gapirishi, ichki va ustki kiyimlari, bo'yinbog' va ilmatugmalarining eng asl va qimmatbaho buyumlar ekani o'zini katta olishi uchun sabab bo'lolmasligini o'zi ham tushunardi. Ammo, shunga qaramay, u o'zini katta olar, meni izzat-hurmat qilishlari lozim, deb hisoblar va hurmatini joyiga qo'yishmasa, o'zini tahqirlangan deb bilardi. Maslahatchilar xonasida hurmati joyiga keltirilmaganidan ko'ngli og'ridi. Maslahatchilar orasida Nexlyudovning tanishi chiqib qoldi. Bu Pyotr Gerasimovich (Nexlyudov uning familiyasini bilmas va bilmasligi bilan maqtanib ham yurardi), opasining bolalarini ilgari o'qitgan edi. Ana shu Pyotr Gerasimovich kursni tugatib, endilikda gimnaziyada dars berardi. Nexlyudov uni betakallufigi uchun, qah-qahlab kulishi, opasi aytganidek, «kommuna»ligi uchun yoqtirmas edi.

– E-ha, siz ham qo'lga tushibsiz-ku, – deya qah-qahlab kutib oldi Pyotr Gerasimovich uni. – Chap berolmapsiz-da?

– Chap berishni xayolimgayam keltirganim yo‘q, – dedi Nexlyudov birdan qovog‘ini solib.

– Bu shon-sharafli ish, lekin hali shoshmay turing, och qolganingiz ustiga yana uyqudan ham qoldirishsin, ana unda boshqacha sayraysiz! – dedi Pyotr Gerasimovich avvalgidan ham qattiqroq haholab.

«Bu popvachcha hozir meni sensirashdan ham toymaydi», deb o‘yladi Nexlyudov va qovog‘ini solib xuddi hamma qarindosh-urug‘lari o‘lib qolganidan endigina xabar topgan odamdek tumsayib nari ketdi va jon-jahdi bilan allanarsalarni hikoya qilayotgan sochi qirilgan basavlatgina novcha janob yoniga to‘plangan odamlar to‘dasiga borib qo‘shildi. Bu janob hozir Fuqarolar bo‘limida borayotgan sud ishi haqida gapirar, o‘zini bu ishni ipidan ignasigacha bilib olgandek qilib ko‘rsatar, sudyalalar va mashhur advokatlarning ism-sharifi bilan aytib hikoya qilardi. U bir mashhur advokat ustalik bilan ishni boshqacha qilib yuborganini so‘zlardi. Natijada sudlashgan tomonlardan biri – keksa beka, butunlay haqli bo‘lishiga qaramay, endi bekordan bekorga ikkinchi tomonga juda ko‘p pul to‘lashga majbur bo‘libdi.

– Juda usta advokat!– derdi u.

Uning so‘zlariga hurmat bilan quloq solishardi, ba‘zilar o‘z mulohazalarini qo‘shib qo‘yishga urinishar, ammo u hammasini faqat o‘zigina biladigandek ularning gapini shartta bo‘lardi.

Nexlyudov sudga kech kelganiga qaramay, ko‘p kutishiga to‘g‘ri keldi. Sud a‘zolaridan biri haligacha yetib kelmagani uchun ish ko‘rilmay turar edi.

VI

Raislik qiluvchi barvaqt yetib keldi. U baland bo‘yli, bakenbardiga oq tusha boshlagan semiz kishi edi. U uylangan bo‘lsa-da, xotini singari buzuqi odam edi. Ular bir-birlariga xalaqit berishmasdi. Bugun ertalab u yozda uylarida yashagan murabbiya xotindan xat olgan edi. Murabbiya xatida janubdan Peterburgga o‘tib ketaturib yo‘l-yo‘lakay bu shaharga tushishini, soat uchdan oltigacha «Italiya» mehmonxonasida kutishini aytgan edi. Shuning uchun ham rais bultur yozda dala-hovlida don olishgan o‘sha malla Klara

Vasilyevnani soat oltigacha borib ko'rishga ulgurish maqsadida bugungi majlisni tezroq boshlab, ertaroq tugatish payida edi.

Sud raisi kabinetiga kirgach, eshikni ichidan bekitdi-da, qog'ozlar saqlanadigan javonning pastki qavatidan ikkita qadoq toshni qo'liga olib, yigirma marta baland ko'tardi, oldinga cho'zdi, yonga yoydi va pastga tushirdi. Keyin qadoq toshni boshi tepasida tutgani holda uch marta o'tirib turdi.

«Odamni sog'lom qilishda sovuq suvda yuvinish bilan badantarbiyaga yetadigani yo'q», deb o'yladi u yon barmog'iga oltin uzuk taqilgan chap qo'li bilan o'ng qo'lining turtib chiqqan mushagini ushlab. U endi qo'lidagi qadoq bilan havoda yarim doira chizmoqchi bo'lib turgan ham ediki (uzoqqa cho'ziladigan majlisga kirib o'tirishdan oldin u shu ikki mashqni bajarardi), allakim eshikni itardi. Rais shoshib-pishib qadoq toshni joyiga qo'ydi-da, eshikni ochdi.

– Kechirasiz, – dedi u.

Xonaga sud a'zolaridan biri – tilla ko'zoynak taqqan, o'rta bo'yli, bir kifti ko'tarilgan, qovog'i soliq kishi kirdi.

– Matvey Nikitichdan yana darak yo'q, – dedi sud a'zosi norozilik bilan.

– Haligacha kelmadi, – deya javob berdi rais mundirini kiyaturib. – Doim kechikkani-kechikkan.

– Uyalmaganiga hayronman, – dedi sud a'zosi va papirosini olar ekan, jahl bilan o'tirdi.

Juda batartib bo'lgan bu sud a'zosi bir oyga deb bergan pulini vaqtidan ilgari sarflab qo'ygani uchun shu bugun ertalab xotini bilan urishib chiqqan edi. Xotini oldindan yana pul berib turishini so'ragan edi, u aytganim-aytgan deb o'z so'zida turib oldi. Shu bilan janjal ko'tarildi. Xotini, agar shunday davom etadigan bo'lsa, ovqat pishirmayman ham, uyda ovqatlanaman, deb o'ylamagin ham, dedi. Xotinidan har narsani kutish mumkin edi, shuning uchun u, obbo, endi aytganini qilmasa edi, deb qo'rqib uyidan chiqib ketgan edi. «Shu ahvolda odob va axloq doirasidan chiqmay yashab ko'r-chi», – deb o'ylardi. U tirsaklarini kerib, chiroyli, oppoq barmoqlari bilan oq oralay boshlagan quyuq va uzun bakenbardini tik yoqasining ikki tomoniga tarayotgan, chertsa,

ikki betidan qon tomadigan, xushchaqchaq va ochiqko'ngil raisga qarab ichida: «U hamma vaqt mamnun va xursand, men bo'lsam azob ichidaman», – deb qo'ydi.

Shu payt allaqanday bir hujjatlar jamlanmasini ko'tarib kotib kirib keldi.

– Sizdan g'oyatda minnatdorman, – dedi rais va papirosini yondirdi. – Qaysi ishni oldin ko'ramiz?

– Menimcha, zaharlashni, – dedi kotib beparvodek ko'rinib.

– Yaxshi, zaharlashni bo'lsa, zaharlashni-da, – dedi rais, bu ishni soat to'rtgacha tamomlab, keyin ketish mumkin, deb o'ylab. – Matvey Nikitich hali kelgani yo'qmi?

– Kelgani yo'q.

– Breve-chi?

– Shu erda, – deb javob berdi kotib.

– Ko'rib qolsangiz, ayting, zaharlashdan boshlaymiz.

Breve shu sud majlisida qoralovchilik qiladigan prokuror yordamchisi edi.

Kotib yo'lakka chiqqanda Breveni uchratdi. U mundirining tugmalarini solmagan, portfelini qo'ltig'iga qistirib olgan, ko'kragini kerib, poshnasini do'qillatib, bo'ynini cho'zib, bo'sh qo'lini keskin silkiy yo'lakda shahdam yurib kelmoqda edi.

– Mixail Pyotrovich sizdan tayyormisiz, deb so'ragin degandilar, – dedi kotib unga.

– Albatta, doim tayyorman, – dedi prokuror yordamchisi. – Qaysi ish oldin ko'rilar ekan?

– Zaharlash.

– Juda soz, – dedi prokuror yordamchisi, ammo, aslida, buni juda soz emasligini bilardi, chunki tun bo'yi uxlamagandi. Ular bir o'rtoqlarini kuzatishib, juda ko'p ichishgan, soat ikkigacha qarta o'ynashgan, keyin xotinlar yoniga, bundan olti oy muqaddam Maslova yashagan uyga borishgan edi. Shuning uchun ham zaharlash haqidagi ish bilan tanishib chiqishga qo'li tegmagan, endi bir ko'z yugurtirib chiqmoqchi edi. Kotib bo'lsa uning zaharlash haqidagi ish bilan tanishmaganini bilaturib, ataylab raisga shu ishni oldin ko'rishni maslahat bergan edi. Kotib liberal, hatto keskin choralar ko'rish tarafdori bo'lgan kishi edi. Breve bo'lsa aksilharakatchi va Rossiya-

da xizmat qilayotgan barcha nemislar singari pravoslavliyaga sodiq edi. Shu sababdan kotib uni yomon ko‘rar va uning mansabiga hasad qilardi.

– Odam bichish ishi-chi? – deb so‘radi kotib.

– Hozir ko‘rolmayman, dedim-ku, – dedi prokuror yordamchisi, – guvohlar bo‘lmaganidan keyin nima qilamiz, sudga ham xuddi shunday deyman.

– Axir, baribir...

– Bo‘lmaydi, – dedi prokuror yordamchisi va boyagidek qo‘llarini silkitib kabinetiga kirib ketdi.

U bichilganlar haqidagi ishni arzimagan va keraksiz guvohning kelmaganini bahona qilib, jo‘rttaga orqaga surardi, chunki bu ish ziyoli maslahatchilar ishtirokida ko‘riladigan bo‘lganidan bichilganlar oqlanib ketishi mumkin edi. Rais bilan gapni bir joyga qo‘yib ishni uyezd shahri sessiyasiga o‘tkazishga qaror qilgan edilar, zero, u yerda ko‘pchilik dehqonlar bo‘lgani uchun sudlanuvchilarni qoralash osonroq bo‘lar edi.

Yo‘lakdan u yoqdan bu yoqqa tez-tez yura boshladilar. Ayniqsa, Fuqarolar bo‘limi zali yonida, ya‘ni boyagi sud ishlarining ishqibozi bo‘lgan basavlat janob hikoya qilgan ish ko‘rilayotgan zal yonida odam ko‘p edi. Tanaffus paytida shu zaldan o‘sha kampir chiqdi. Boyagi mashhur advokat kampirning mol-mulkini bir korchalonning foydasiga hal qilib bergan edi. Korchalonning bu mol-mulkka hech qanaqa haqi yo‘q edi. Buni sudyalar ham, da‘vogar ham, ayniqsa, advokatning o‘zi ham juda yaxshi bilishardi; ammo ular ishni shunday olib borgan edilarki, kampirning mol-mulkini tortib olib, korchalonga bermaslikning iloji yo‘q edi. Kampir po‘rim kiyingan, shlyapasiga kattakon gul taqqan semizgina xotin edi. U eshikdan chiqib, yo‘lakda to‘xtadi-da, semiz, kalta qo‘llarini kerib, o‘z advokatiga qarab, hadeb:

– Bu qanday gap, axir? Xudo xayringizni bersin! Axir, bu qanday gap? – der edi. Advokat esa, uning shlyapasidagi gulga tikilganicha, gapiga quloq solmay, allanima to‘g‘risida bosh qotirardi.

Kampirning ketidan Fuqarolar bo‘limi zalining eshigidan oldi ochiq jileti ichidan ko‘rinib turgan kraxmallangan ko‘y-

lagini ko'z-ko'z qilib, o'sha mashhur advokat chiqib keldi; u gul taqqan kampirni ship-shiydam qilib, o'ziga o'n ming so'm bergan korchalonni yuz mingdan ortiqqa ega qilganidan g'oyatda mag'rur ko'rinardi. Barcha ko'zlar advokatga tikildi, u buni sezdi-da, guyo butun ko'rinishi bilan:* «Sadoqatingizni ko'rsatmay qo'ya qolinglar», deganday odamlar oldidan tez-tez o'tib ketdi.

VII

Nihoyat, Matvey Nikitich, bo'yni uzun, qotmadan kelgan, pastki labi qiyshiq, bir yonboshga shox tashlab yuradigan sud ijrochisi ham kelib, maslahatchilar xonasiga kirdi.

Bu sud ijrochisi vijdonli, universitetni bitirgan kishi edi-yu, lekin surunkasiga ichgani uchun bir joyda uzoq ishlamasdi. Bundan uch oy muqaddam xotining homiysi bo'lgan bir grafinya uni shu ishga joylab qo'ygandi. Shu vaqtgacha ishlab kelganidan u juda xursand edi.

– Xo'sh, janoblar, hamma kelib bo'ldimi? – dedi u pensne taqib va pensne ustidan qarab.

– Hamma shu yerda shekilli, – dedi xushchaqchaq savdogar.

– Xo'p, hozir tekshirib ko'ramiz, – dedi sud ijrochisi va cho'ntagidan bir varaq qog'oz olib, nomma-nom chaqira boshladi va nomi chiqqanlarni goh pensne tepasidan, goh pensne orqali ko'zdan kechira boshladi.

– Statskiy sovetnik* I.M. Nikiforov.

– Men, – dedi barcha sud ishlaridan xabardor basavlat kishi.

– Iste'fodagi polkovnik Ivan Semyonovich Ivanov.

– Shu yerda, – dedi iste'foga chiqqan harbiylar kiyadigan mundirdagi qotma kishi.

– Ikkinchi gildiya savdogari Pyotr Baklashov.

– Bor, – dedi ko'ngli ochiq savdogar og'zi qulog'iga yetib. – Tayyormiz!

– Gvardiya poruchigi knyaz Dmitriy Nexlyudov.

– Men, – deb javob berdi Nexlyudov.

Sud ijrochisi uni boshqalardan ustun ko'rgandek, pensne tepasidan qarab, izzat-ikrom bilan ta'zim qildi.

* Chor Rossiyasida 5-darajali martaba.

– Kapitan Yuriy Dmitriyevich Danchenko, savdogar Grigoriy Yefimovich Kuleshev va hokazolar va hokazolar.

Ikki kishidan boshqa hamma maslahatchilar shu yerda edi.

– Endi, janoblardan, zalga marhamat qilinglar, – dedi sud ijrochisi tavoze’ bilan eshikni ko’rsatib.

Hamma qo’zg’aldi, eshikka yetganda bir-birlariga yo’l berishib, dahlizga chiqishdi, dahlizdan majlislar zaliga o’tishdi.

Sud zali uzun, katta xonadan iborat edi. Zalning bir tomoni baland qilib ishlanib, uch pog’onal zina bilan chiqilardi. Balandlikning o’rtasida to’q yashil rangdagi shokilali yashil movut yopilgan stol turardi. Stolning narigi tomonida baland, eman yog’ochidan ishlangan sernaqsh suyanchiqli uchta oromkursi, oromkursilarning orqasidagi zarhal rom ichida mundir kiygan, lenta taqqan, qilich ko’tarib bir oyog’ini oldinga tashlab turgan generalning portreti bor edi. O’ng tomondagi burchakda, shkafcha ichida boshiga tikanli gulchambar taqqan Iso payg’ambarning surati va ostida ikona bilan kitoblar qo’yiladigan baland stolcha, shu o’ng tomonda prokuror stoli turardi. Chap tomonda, stolning ro’parasida, ichkariroqda kotib stoli bo’lib, undan beriroqda, odamlarga yaqinroq yerda eman yog’ochidan yo’nib qilingan panjara va panjara ichkarisida qora kursi ko’zga tashlanardi. Balandlikning o’ng tomonida maslahatchilar uchun suyanchig’i baland stullar ikki qator qilib qo’yilgan, pastda advokatlar stoli turardi. Shularning hammasi panjara bilan ikki qismga ajratilgan zalning oldingi tomonida edi. Zalning orqa qismi esa, to devor tagigacha, bir-biridan baland qilib joylashtirilgan o’rindiqlar bilan band edi. Zalning orqa qismida, oldingi qatordagi o’rindiqlarda fabrika ishchilaridan yoki oqsochlardan bo’lsa kerak, to’rt ayol va ikki erkak o’tirardi. Erkaklar ham ishchilardan bo’lib, serhasham zalning salobati bosib qolgandek, bir-birlari bilan shivirlashib o’tirishardi.

Maslahatchilar kelgandan keyin zum o’tmay sud ijrochisi bir yoniga shox tashlab o’rtaga chiqdi va zaldagilarni qo’rqitmoqchi bo’lgandek:

– Sud kelyapti! – deb baqirdi.

Hamma o’rmidan turdi. Zalning balandlik qismiga sudyalardan oldinma- ketin chiqishdi: mushakdor va bakenbardlari taralgan rais, keyin

tilla ko'zoynak taqqan, qovog'i soliq sud a'zosi chiqdi, hozir uning qovog'i battar osilib ketgandi, chunki majlis boshlanay deb turganda sud mansabiga nomzod bo'lgan qaynisini uchratib, undan opasining yoniga kirib o'tganini, opasi tushda ovqat tayyorlamayman, deb aytganini eshitgan edi.

– Bundan chiqdi, qovoqxonaga borarkanmiz-da, – dedi qaynisi kulib.

– Kulgili joyi yo'q, – dedi qovog'i soliq sud a'zosi va battar qovog'ini solib oldi.

Nihoyat, uchinchi sud a'zosi, hamma vaqt kechikib keladigan Matvey Nikitich chiqdi. Bu yoqimli, katta ko'zlarining osti solqib tushgan sersoqol kishi edi. U me'da kasaliga muhtalo bo'lib, doktorning maslahatiga ko'ra, xuddi shu bugun ertalabdan boshlab yangi rejim bilan davolana boshlagan va shu rejim tufayli uyida odatdagidan ortiqroq ushlanib qolgan edi. Hozir balandlikka chiqib kelar ekan, bir narsa ustida bosh qotirayotganga o'xshardi, u ko'nglida o'ylab qo'ygan narsasi to'g'ri chiqadimi, yo'qmi, shuni bilish uchun zo'r berib javob axtarishga odatlangan edi. Hozir u o'zicha, agar kabinet eshigidan oromkursigacha bosgan qadamimning soni uchga qoldiqsiz taqsimlansa, yangi rejim kasalimni davolaydi, agar taqsimlanmasa, naf tegmaydi, deb ko'nglidan o'tkazgan edi, bosgan qadamlarining soni yigirma oltita edi, lekin u kichikroq bir qadam tashladi-yu, yigirma yettinchi qadamda oromkursiga yetib bordi.

Zar yoqali mundirda balandlikka chiqib kelgan rais va a'zolarining qiyofasi juda dabdabali edi. Buni ularning o'zlari ham his etardilar. Uchalovi ham o'zlarining bu qadar ulug'vorliklaridan xijolat bo'lgandek, darrov yerga qarab oldilar va yashil movut yopilgan stolning naryog'idagi naqshinkor oromkursilarga o'tirdilar. Stolda burgut tamg'ali uchburchak asbob, bufetlarda konfet solinadigan vazalar, siyohdon, patqalamlar, toza qog'oz, uchi ochilgan katta-kichik qalamlar turardi. Sudlar bilan prokuror yordamchisi ham kirdi. U yana boyagiday shoshib, portfelini qo'ltiqлагan holda, qo'lini silkib deraza yonidagi o'z o'miga borib o'tirdi-da, ishga tayyorlanish uchun har daqiqani g'animat bilib, stoldan boshini ko'tarmay qog'ozlarni o'qib, ko'zdan kechira boshladi. Bu prokuror

shu bilan to'rtinchi bor sudda qoralovchilik qilayotgan edi. U juda shuhratparast kishi bo'lib, mansab orttirishga qattiq ahd qilib qo'ygan va shu sababdan qoralovchi sifatida qatnashadigan har bir ishda orqa-o'ngini surishtirmay qoralayverish zarur, deb hisoblar edi. Zaharlash haqidagi ishning mohiyatini taxminan bilsa-da, nutqining rejasini allaqachon tuzib olgan, ammo unga ba'zi hujjatlar yetishmas, u xuddi ana shularni shoshib-pishib ko'chirib olayotgan edi.

Kotib balandlikning narigi tomonida o'tirar, o'qilishi ehtimol tutilgan qog'ozlarni tayyorlab qo'yib, hozir kecha topib o'qigan, taqiqlangan maqolani ko'zdan kechirmoqda edi. Bu maqola xususida u maslakdoshi bo'lgan sersoqol sud a'zosi bilan gaplashmoqchi edi, shu sababli gaplashishdan avval maqola bilan tanishib chiqmoqchi bo'ldi.

VIII

Sud raisi qog'ozlarni ko'zdan kechirib chiqqach, sud ijrochisi va kotibiga bir necha savol berdi-da, ulardan tasdiq javobini olgandan keyin sudlanuvchilarni olib kirishni buyurdi. Darhol panjara orqasidagi eshik ochilib, boshiga qalpoq kiygan, qilich yalang'ochlagan ikki jandarm kirdi, ularning ketidan avval bir sudlanuvchi – yuzini sepkil bosgan malla kishi, keyin ikki ayol kirdi. Erkakning egnida keng va uzun mahbuslar xalati bor edi. Sud zaliga kirarkan, u ikki yoniga tushirilgan qo'llarining bosh barmog'ini kerib, shu bilan uzun yengini ushlab turardi. U sudyalarga va zalda o'tirganlarga qaramay o'rindiqni aylanib o'tarkan, uni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. O'rindiqni aylanib o'tgach, boshqalarga joy qoldirib, o'zi bir chekkasiga o'tirdi-da, ko'zini raisga tikkanicha allanarsa deb shivirlayotgandek, yuzi pir-pir ucha boshladi. Uning ketidan yoshi qaytgan, xuddi haligi kishi singari mahbuslar xalatini kiygan xotin kirdi. Ayol boshiga mahbuslar durrasi tang'igan, rangpar, qoshkipriksiz ko'zlari qizargan edi. Bu xotin juda xotirjam ko'rinardi. Joyiga o'tib ketayotganida xalati allanarsaga ilinib qolgan edi, u shoshilmasdan, ehtiyot bilan xalatini chiqarib oldi-da, joyiga borib o'tirdi.

Uchinchi sudlanuvchi Maslova edi.

U kirishi bilanoq zaldagi hamma erkaklar unga ko'z tikib qolishdi, uning chaqnagan tim qora ko'zlari pirpirab turgan oppoq

yuzidan, xalati ostidan do'ppayib turgan to'la ko'krigidan ko'z uzolmay qolishdi. Hatto bir jandarm ham Maslova uning yonidan o'tib, joyiga borib o'tirguncha baqrayib tikilib qoldi, o'tirgandan keyin esa, gunoh qilib qo'ygandek, shoshib yuzini teskari o'girdi-da, ro'parasidagi derazaga qarab turaverdi.

Sudlanuvchilar joy-joylariga o'tirgunlaricha rais kutib turdi-da, Maslova o'tirgan zamon kotibga murojaat qildi.

Odatdagi rasm-rusum boshlandi: maslahatchilar nomma-nom chaqirildi, kelmaganlar ustida mulohaza yuritildi, ularga jarima solindi, so'rab ketganlar haqida qaror chiqarildi va kelmaganlarning o'rnini zaxiradagilar bilan to'ldirildi. Keyin rais chiptalarni yig'ib, shisha vazaga soldi va mundirining yengini shimarib, tuk bosgan qo'lini yalang'ochladi-da, «ko'zbog'lovchi» nayrangbozlar singari harakat qilib, bittadan chipta chiqarib ularni yozib o'qiy boshladi. Keyin rais yengini tushirdi, maslahatchilarga qasam ichirishni popga taklif etdi.

Rangi sariq, yuzi shishinqiragan, jigarrang jubba kiyib, ko'krigiga oltin xoch va jubbasining yon tomoniga yana allaqanday kichkina orden taqqan keksa pop shishgan oyog'ini bir-bir bosib, asta-sekin ikona tagida turgan stolga yaqinlashdi.

Maslahatchilar o'rinlaridan turishdi va to'dalashib o'sha tomon yurishdi.

– Marhamat, – dedi pop ko'krigidagi xochini yumshoq qo'li bilan ushlab va maslahatchilarning yaqinlashishini kutib.

Pop qirq olti yildan buyon kashishlik qilar va uch yildan keyin, yaqinda yubileyini o'tkazgan bosh cherkov protoiyereyi* singari o'zining yubileyini o'tkazmoqchi bo'lib yurardi. Okrug sudida u sud ochilgan kundan buyon ishlar va bir necha o'n ming kishiga qasam ichirgan, qartayib qolganiga qaramay cherkov, vatan va oilasi baxt-saodati uchun xizmat qilayotgani bilan faxrlanar edi. U oilasiga uy-joydan tashqari, o'ttiz ming so'mli foiz qog'ozi ham qoldirib ketadi. Injilda qasam ichish to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan bo'lishiga qaramay, uning sudda qiladigan ishi Injil ustida odamlarni qasam ichirishdan iborat bo'lib, bu ishning joiz emasligi sira xayoliga ham kelmasdi, shuning uchun bu ishidan azob chekmas, qaytaga, bu

* *Protoiyerey* – oliy mansabli ruhoniy.

mashg'ulotni yaxshi ko'rardi, chunki shu tufayli yaxshi janoblar bilan tanishib olardi. Bugun u mashhur advokat bilan tanishib olgani uchun boshi osmonga yetdi. Ayniqsa, shlyapasiga katta gul taqqan kampirning ishi uchungina o'n ming so'm olgani unga bo'lgan ixlosini oshirgan edi.

Maslahatchilar zinadan balandlikka chiqqanlarida, pop sochi oqargan tepakal boshini yepitraxilining* yog' bosib ketgan yoqasidan chiqarib, bir tutamgina sochini tekislab, maslahatchilarga murojaat qildi:

– O'ng qo'lingizni ko'taring, barmoqlaringizni manavinday juftlang, – dedi u ming'irlagan ovozda har bitta barmog'ining ustida chuqurchasi bo'lgan semiz qo'lini ko'tarib, barmoqlarini juftlar ekan. – Endi men bilan baravar takrorlang: Parvardigor va uning muqaddas Injilini tilga olib, hayotbaxsh xoch bilan qasam ichamanki, men shu ish bo'yicha... – u har jumladan keyin to'xtab: – Qo'lingizni tushirmang, shunday tutib turing, – dedi u qo'lini tushirgan yosh yigitga, – shu ish bo'yicha...

Bakenbardli basavlat kishi, polkovnik, savdogar va boshqalar barmoqlarini pop aytgandek juftlab, astoydil baland ko'tarib turishar, boshqalar esa istar-istamas, xafsalasizlik bilan ko'tarib turishgandek edi. Ba'zilar: «Men baribir gapiraveraman», degandek so'zlarni haddan tashqari qattiq va ixlos bilan takrorlar, boshqalar esa shivirlab popdan orqada qolib ketar va cho'chigandek birdaniga bidirlab unga yetib olishga harakat qilardilar; birovlar biror narsani qo'ldan chiqarmaslikka uringandek barmoqlarini mahkam juftlab olgan, boshqa birovlar esa barmoqlarini ochib yuborib, yana juftlashtirar edilar. Hamma o'ng'aysizlanar, faqat keksa popgina o'zining juda muhim va foydali ish qilayotganiga imoni komil edi. Qasam ichirish marosimi tugagach, rais maslahatchilarga oqsoqol saylashni taklif etdi. Maslahatchilar o'rinlaridan turishdi va tiqilishib, maslahat xonasiga kirib ketishdi-da, kirgan zahoti deyarli hammalari papiros chiqarib cheka boshlashdi. Allakim basavlat janobni oqsoqollikka taklif etgan edi, darhol hamma bu taklifga qo'shildi va papirosini o'chirib tashlab zalga qaytdi. Saylangan oqsoqol raisga

* *Yepitraxil* – ruhoniylar libosining bir qismi – bo'yinga solib yuriladigan uzun mato.

oqsoqol qilib kimning saylanganini bildirdi, shundan keyin hamma yana ketma-ket yurib baland suyanchiqli stullarga ikki qator bo'lib o'tirdi.

Marosim beto'xtov, tez va dabdaba bilan o'tmoqda edi va bu marosimning qoidaga muvofiq muntazam va dabdaba bilan o'tishi, aftidan, unda ishtirok etuvchilarda zavq uyg'otar, ular jiddiy, zarur jamoat ishini bajarayotganlariga qattiq ishonar edilar. Nexlyudov ham xuddi shu narsani his etardi.

Maslahatchilar joylashib o'tirgan hamon rais ularning huquqlari, vazifalari va mas'uliyatlari haqida gapirdi. Rais gapirarkan, hadeb holatini o'zgartirar: goh chap qo'liga, goh o'ng qo'liga tayanib o'tirar, goh oromkursi suyanchig'iga yastanib olar, goh qog'ozning chetini tekislar, goh qog'oz kesadigan pichoqni silar, goh qalamni o'ynardi.

Uning aytishicha, maslahatchilarning huquqlari shundan iborat ekan: ular sudlanuvchilarga rais orqali savol berishlari, qog'oz-qalam tutishlari va daliliy ashyolarni ko'zdan kechirishlari mumkin ekan. Vazifalari esa noto'g'ri sud qilmay, adolatli sud qilishdan iborat ekan. Mas'uliyatlari shundan iborat ediki, majlis siri maxfiy tutilmasa yoki chet kishilar bilan aloqalari sezilsa, jazoga tortilar ekanlar.

Hamma uning so'zlarini ehtirom bilan tingladi. Savdogar tevarak-atrofiga sharob hidini gurkiratib va qattiq kekirishdan o'zini zo'rg'a tutib, har gapni ma'qullab bosh irg'ab o'tirardi.

IX

So'zini tugatgach, rais sudlanuvchilarga qarab:

– Simon Kartinkin, turing o'rningizdan, – dedi.

Simon irg'ib o'rnidan turdi. Bet mushaklari avvalgidan ham battarroq pirpirab ucha boshladi.

– Ismingiz?

Javobga u oldindan tayyorlanib qo'ygan bo'lsa kerak:

– Simon Pyotr o'g'li Kartinkin, – deb shartta javob qaytardi.

– Qaysi tabaqadansiz?

– Dehqonlardan.

– Qaysi gubernasi, qaysi uyezddansiz?

– Tula gubernasi, Krapivensk uyezdi, Kupyansk volosti, Borki qishlog'idanman.

– Yoshingiz nechada?
– O‘ttiz to‘rtida, tug‘ilgan yilim, ming sakkiz yuz...
– Diningiz?
– Biz rus dinida, pravoslav dinidamiz.
– Uylanganmisiz?
– Yo‘q, uylanmaganman.
– Kasbingiz?
– «Mavritaniya» mehmonxonasida xizmatkorlik qilardik.
– Ilgari sudlanganmisiz?
– Hech qachon sud bo‘lmaganman. Nega deganda, ilgari turmushimiz...

– Ilgari sudlanganmaganmisiz?
– Xudo saqlasin, hech qachon.
– Aybnomani oldingizmi?
– Oldim.
– O‘tiring. Yevfimiya Ivan qizi Bochkova, – deya murojaat qildi rais ikkinchi sudlanuvchiga.

Ammo Simon Bochkovani to‘sib, qaqqayganicha turardi.

– Kartinkin, o‘tiring.

Kartinkin hamon qaqqayib turardi.

– O‘tiring, Kartinkin!

Ammo Kartinkin hamon tik turardi. Sud ijrochisi yugurib kelib boshini yonga egib, ko‘zlarini olaytirib: «O‘tirilsin, o‘tirilsin!» deb shivirlagandagina o‘tirdi.

Kartinkin qanday tez turgan bo‘lsa, shunday tez o‘tirdi, xalatiga o‘ranib oldi-da, yana betini pir-pir uchirib o‘tiraverdi.

Rais oldida turgan qog‘ozdan allanarsani o‘qirkan, ikkinchi sudlanuvchiga qaramasdan:

– Ismingiz nima? – deya so‘radi harsillab. Raisga bunday ishlarni ko‘rish shu qadar odat bo‘lib qolgan ediki, ishni tezroq tugatish uchun u ikki vazifani baravar olib bora olar edi.

Bochkovaning yoshi qirq uchda, u kolomnalik meshchan toifasidan bo‘lib, kasbi xuddi o‘sha «Mavritaniya» mehmonxonasida xizmatkor ekan. Sud tergovida bo‘lmagan, aybnomani olgan ekan. Bochkova dadil-dadil javob qaytarar, shunday ohangda gapirardiki, go‘yo har bir javobga: «Ha, Yevfimiyan, Bochkovaman, aybnomani

oldim, bu bilan faxrlanaman, bironing mazax qilishiga yo‘l qo‘ymayman», deyayotgandek bo‘lardi. Bochkova «o‘tir» deyishlarini kutmasdan, savollar tugashi bilanoq o‘tirib oldi.

– Ismingiz? – dedi xotinboz rais uchinchi sudlanuvchi ayolga boshqacha muloyimlik bilan murojaat qilib. – O‘rindan turish kerak,– deb yumshoqqina qo‘shib qo‘ydi u Maslovaning o‘tirganini ko‘rib.

Maslova shartta o‘rnidan turdi va baland ko‘ksini kerib, xiyol g‘ilay qora ko‘zlari bilan raisning basharasiga tikka qarab, savolga javob qaytarmay shaylanib turdi.

– Otingiz nima?

– Lyubov, – dedi u shoshib.

Nexlyudov esa bu orada pensne taqib, tergov qilinayotgan sudlanuvchilarni ko‘zdan kechirib o‘tirar edi. «Nahotki, o‘sha bo‘lsa, – deb o‘ylardi u sudlanuvchidan ko‘z uzmasdan, – nega bo‘lmasa oti Lyubov?» deb o‘yladi knyaz uning javobini eshitib.

Rais so‘rog‘ini davom ettirmoqchi edi-yu, lekin ko‘zoynak taqqan sud a‘zosi jahl bilan allanarsa deb shivirlab, uni to‘xtatdi. Rais xo‘p degandek, boshini qimirlatdi-da, yana sudlanuvchiga murojaat qildi.

– Nega Lyubov deysiz? – dedi u. – Bu yerda boshqacha yozilgan-ku.

Sudlanuvchi javob bermadi.

– Sizdan so‘rayapman, haqiqiy ismingiz nima?

– Cho‘qintirganda nima ism qo‘yganlar? – deb so‘radi serjahl sud a‘zosi.

– Ilgari Katerina edi.

«Nahotki, o‘sha bo‘lsa», derdi hamon Nexlyudov o‘ziga o‘zi. Ammo bu sudlanuvchining hech shubhasiz o‘sha qiz ekani, bir vaqtlar o‘zi oshiq bo‘lib yurgan, ha oshiq bo‘lgan, keyin esa telbalik qilib, nomusiga tegib, tashlab ketgan oqsoch qiz ekanini hech shubhasiz bilar edi. Nexlyudov bu qizni keyin sira esga olmagandi, chunki bu xotiralar unga juda azob berar va uning aybini fosh qilardi, o‘zining vijdonli, insofiligi bilan faxrlanib yurgan Nexlyudovning bu xotinga nisbatan insof u yoqda tursin, qabih munosabatda bo‘lganini ko‘rsatardi.

Ha, bu o'sha qiz edi. Hozir Nexlyudov uning chehrasida har bir kishining yuzini boshqalarnikidan ajratuvchi, yolg'iz uning o'ziga xos bo'lgan sirli xislatni aniq ko'rdi. Yuzining semizligi va oppoqligiga qaramay, bu chehrada, lablarda, xiyol qiyg'och boqqan ko'zlarda va eng muhimi, uning kulib qarashida, faqat yuzidagina emas, balki butun vujudidan barq urib turgan muhayyolik ifodasida dilkashlik, o'ziga xos xislat ko'rinib turardi.

– Shunday demaysizmi, axir, – dedi rais yana boyagiday yumshoq-qina qilib. – Otangizning ismi nima?

– Nikohlanmagan ota-onadan tug'ilganman, – dedi Maslova.

– Cho'qintirgan otangizning nomi bordir, axir?

– Mixail qizi.

«Nima gunoh qilgan bo'lishi mumkin?» – deb o'ylardi Nexlyudov xo'rsinib qo'yib.

– Familiyangiz nima? – deb davom etdi rais.

– Onamning familiyasi bilan atab, Maslova deyishardi.

– Qaysi tabaqaga mansubsiz?

– Meshchanka.

– Pravoslavmisiz?

– Ha, pravoslav dinidaman.

– Kasbingiz? Nima bilan shug'ullanardingiz?

Maslova indamadi.

– Nima bilan shug'ullanardingiz? – deb takrorladi rais.

– Ishratxonada edim, – dedi u.

– Qanaqa ishratxonada? – deb qat'iy so'radi ko'zoynak taqqan sud a'zosi.

– Qanaqaligini o'zingiz bilasiz-ku, – dedi Maslova, keyin jilmayib, shu zahoti bir alanglab oldi-da, yana raisga tikildi.

Shu payt aytgan so'zlarining ma'nosidan, shu jilmayishidan, zalga alanglab tez qarab olishidan yuzida qandaydir g'alati, ham dahshatli, ham ayanchli bir ifoda paydo bo'ldi, rais ko'zlarini yerga tikib qoldi va zalga bir daqiqa suv quygandek jimlik cho'kdi. Allakim piqillab kulib yuborib, bu sukunatni buzdi. Kimdir unga jim deb qo'ydi. Rais boshini ko'tarib savolini davom ettira boshladi.

– Sud, tergovda bo'lganmisiz?

– Yo'q, bo'lmaganman, – dedi ohista Maslova xo'rsinib.

– Aybnomaning nusxasini olganmisiz?

– Olganman.

– O‘tiring, – dedi rais.

Sudlanuvchi olifta xotinlar yerga sudralib yuradigan etagini to‘g‘rilab olganidek, yubkasining orqa tomonini sal ko‘tarib o‘tirdi-da, kichkina, oppoq qo‘llarini xalatining yengiga tiqib raisga tikilib qoldi.

Guvohlarning nomini aytib chaqirishdi, ularni zaldan chiqarib yuborishdi, ekspert-doktor haqida bir qarorga kelib, uni majlislar zaliga chaqirib keltirishdi. Keyin kotib o‘rnidan turib, aybnomani o‘qiy boshladi. U shang‘illab, burro-burro qilib o‘qir, ammo shunday tez o‘qirdiki, «l» bilan «r»ni to‘g‘ri talaffuz etolmaganidan ovozi bir tarzda g‘o‘ng‘illab eshitilar, kishining uyqusini keltirardi. Sudyalar goh oromkursining bir yonidagi suyanchig‘iga, goh ikkinchi tomonidagi suyanchig‘iga, goh stolga, goh orqa suyanchiqqa suyanishar, goh ko‘zlarini yumar, goh ochar, bir-birlari bilan shivirlashardi. Bir jandarm ustma-ust kelayotgan esnoqdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib o‘tirardi.

Sudlanuvchi Kartinkinning yuzi pir-pir uchardi. Bochkova qaddini rostlab o‘tirar, ahyon-ahyonda durrasining tagiga qo‘lini tiqib boshini qashib qo‘yardi.

Maslova goh kotibga tikilib, uning o‘qiyotganiga quloq solib, qimir etmay o‘tirar, goh seskanib tushar, goh e‘tiroz bildirmoqchi bo‘lganday qizarar, xo‘rsinar, qo‘lini qimirlatib qo‘yar, atrofga alanglar va yana o‘qiyotganga tikilardi.

Nexlyudov birinchi qatorda, chetdan ikkinchi bo‘lib baland stulda o‘tirar, pensnesini olib Maslovaga tikilar, uning ko‘nglida murakkab va og‘ir kurash borardi.

X

Aybnomaning mazmuni quyidagicha edi:

«188*-yil 17-yanvar kuni «Mavritaniya» mehmonxonasida bir musofir – qo‘rg‘onlik ikkinchi gildiya savdogari Ferapont Yemel-yanovich Smelkov to‘satdan vafot etdi.

Mahalliy 4-uchastka politsiya vrachi, u spirtli ichimlikni haddan tashqari ko‘p iste‘mol qilgani sababli yuragi yorilib o‘lgan, deb tasdiqlagan. Smelkovning jasadi ko‘milgan.

Oradan bir necha kun o'tgach, Smelkovning hamshahari va o'rtog'i savdogar Timoxin Peterburgdan qaytib kelib, Smelkovning qanday sharoitda o'lganini eshitadi va yonidagi pullarini o'g'irlash maqsadida uni zaharlab o'ldirishgan bo'lsalar kerak, deb gumon qiladi.

Bu gumon dastlabki tergovda tasdiqlanadi va quyidagilar aniqlanadi: 1) Smelkov o'limidan bir necha kun muqaddam bankdan 3 800 so'm kumush pul olgan. Ammo marhumdan qolgan narsalarni ehtiyot qilish maqsadida xatga olinganda atigi 312 so'm 16 tiyin naqd pul chiqqan. 2) Smelkov o'limidan bir kun ilgari ertadan kechgacha va oxirgi kechasi tonggacha Lyubka (Yekaterina Maslova) degan fohisha bilan islovatxonada va «Mavritaniya» mehmonxonasida birga bo'lgan. Yekaterina Maslova Smelkovning iltimosiga ko'ra, uning o'zi yo'q paytida islovatxonadan pul olgani kelib, «Mavritaniya» mehmonxonasi xizmatchilaridan Yevfimiya Bochkova va Simon Kartinkinning ko'zi oldida Smelkov bergan kalit bilan chamadonni ochib pul olib ketgan. Maslova chamadonni ochganda, shu yerda hozir bo'lganlardan Bochkova va Kartinkin bir dasta yuz so'mlik kredit chiptalarini ko'rishgan. 3) Smelkov islovatxonadan «Mavritaniya» mehmonxonasiga qaytgach, u bilan birga kelgan Lyubka degan fohisha xizmatkor Kartinkinning maslahatiga ko'ra, bir qadah konyakka Kartinkindan olgan oq poroshokni solib, Smelkovga ichirgan. 4) Ertasiga ertalab fohisha Lyubka (Yekaterina Maslova) bekasiga, islovatxona egasi, guvoh Kitayevaga Smelkovning brilliant uzugini sotgan, buni Smelkov sovg'a qildi, deb aytgan. 5) «Mavritaniya» mehmonxonasining xizmatkori Yevfimiya Bochkova Smelkov o'lgan kunning ertasiga mahalliy tijorat bankiga 1 800 so'm kumush pul qo'ygan.

Sud-tibbiy ko'rigi, jasadni yorish va Smelkovning ichki a'zolarini kimyoviy usul bilan tekshirish natijasida marhumning organizmida zahar borligi, ana shu zahar o'limga sabab bo'lgani aniqlangan.

Javobgarlikka tortilgan Maslova, Bochkova va Kartinkin ayblarini bo'yinlariga olmaydilar: Maslovaning aytishicha, haqiqatan Smelkov pul olib kel, deb uni o'zi ishlaydigan islovatxonadan «Mavritaniya» mehmonxonasiga yuboribdi. Maslova savdogar

bergan kalit bilan chamadonni ochibdi, savdogarning aytganini qilib 40 so‘m kumush pul olibdi, ortiqcha olmagi, buni chamadonni ochib, yopayotganida tepasida turgan Bochkova bilan Kartinkin ham tasdiqlashi mumkin emish. So‘ngra u mehmonxonaga ikkinchi kelishida haqiqatan ham Kartinkin maslahatiga ko‘ra, allaqanday poroshokni, uxlatadigan poroshok deb o‘ylab, konyakka solib savdogar Smelkovga ichiribdi, savdogar tezroq uxlab qolsa, undan tezroq qutulib keta qolaman, deb o‘ylabdi. Smelkov Maslovani urgan ekan, u yig‘lab, ketaman, deb turib olibdi, shundan keyin Smelkov Maslovaga uzukni sovg‘a qilibdi.

Yevfimiya Bochkova yo‘qolgan pul xususida hech nima bilmasligini, savdogarning xonasiga kirmaganini, u yerda faqat Lyubkaning o‘zi yolg‘iz xo‘jayinlik qilganini, agar savdogarning biron narsasi yo‘qolgan bo‘lsa, buni Lyubka savdogarning kalitini olib kelganda o‘g‘irlaganini aytadi. – Shu yerga kelganda Maslova seskanib ketdi va og‘zini ochib, Bochkova tomon o‘girildi. – Yevfimiya Bochkovaga bankdagi 1 800 so‘m kumush pul hisobini ko‘rsatib, shuncha pulni qayerdan olding, deb so‘raganda, bu pullarni u Simon Kartinkin bilan o‘n ikki yil birga ishlab yiqqanman, unga tegmoqchi edim, deb javob beradi, – deb o‘qishni davom ettirdi kotib, – Simon Kartinkin dastlabki so‘roqda Bochkova bilan birga islovtxonadan kalit olib kelgan Maslovaning maslahatiga ko‘ra pulni o‘g‘irlaganini, Maslova va Bochkova bilan bo‘lishib olganini bo‘yniga olgan edi. – Shu yerga kelganda Maslova yana seskanib ketdi; o‘rnidan sapchib turib, qip-qizarib, allanarsalar deb gapira boshlagan edi, sud ijrochisi uni to‘xtatdi. – Oxirida, – deb o‘qishni davom ettirdi kotib, – Kartinkin savdogarni uxlatish uchun Maslovaga poroshok berganini bo‘yniga olgan; ikkinchi so‘roqda Kartinkin pulni o‘g‘irlaganini, Maslovaga poroshok berganini inkor etib, hamma aybni Maslovaga to‘nkadi. Bochkova bankka qo‘ygan pul xususiga kelganda esa bu pullarni o‘n ikki yil mehmonxonada birga ishlab, yaxshi xizmatlarimiz evaziga janoblar in‘om qilgan puldan orttirib to‘plaganmiz, deb aytdi.»

So‘ngra aybnomada yuzlashtirish, guvohlarning bergan ma‘lumotlari, ekspertlarning fikri va hokazolar bayon etilgan edi.

Aybnomaning xulosasi quyidagicha edi: «Yuqorida aytib o‘tilganlarga ko‘ra, Borki qishloqlik dehqon, 33 yashar Simon

Petrov Kartinkin, 43 yashar meshchanka Yevfimiya Ivanova Bochkova va 27 yashar meshchanka Yekaterina Maslova 188*-yilning 17-yanvar kuni o'zaro til biriktirib, savdogar Smelkovning pulini va uzugini (jami 2 500 so'mni) o'g'irlashda hamda Smelkovga qasddan zahar berishda ayblanadilar. Smelkov ana shu suiqasd natijasida o'lgan.

Bu jinoyat Jazolar qonun majmuasining 1453-modda 4-va 5-bandiga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra hamda jinoiy sud qilish Nizomining 201-moddasiga binoan, dehqon Simon Kartinkin, Yevfimiya Bochkova va meshchanka Yekaterina Maslova okrug sudida sud maslahatchilari ishtirokida sud qilinishlari lozim deb topiladi».

Kotib uzundan-uzoq aybnomani o'qib tamom qildi va qog'ozlarni taxladi-yu, uzun sochlarini ikki qo'li bilan tekislab o'tirdi. Hamma, mana endi tekshirish boshlanadi, barchasi aniqlanadi va adolat tantana qiladi, degan shirin xayolda yengillanib nafas oldi. Yolg'iz Nexlyudov bu hisdan mahrum edi: o'n yil muqaddam tanigan ma'suma, latofatli qiz, o'sha Maslova qilib qo'ygan jinoyatdan u dahshatga kelib o'tirardi.

XI

Aybnoma o'qilib bo'lgach, rais a'zolar bilan maslahatlashib, endi hammasini batafsil bilib olamiz deganday qilib, Kartinkinga yuz o'girdi.

– Dehqon Simon Kartinkin, – dedi u chapga engashib.

Simon Kartinkin qo'lini ikki yoniga qilib, o'rnidan turdi-da, butun gavdasi bilan oldinga engashdi. Uning yuzi hamon pir-pir etib uchib turardi.

– Siz, 188*-yilning 17-yanvar kuni Yevfimiya Bochkova va Yekaterina Maslova bilan birgalikda savdogar Smelkovning chamadonidan uning pulini o'g'irlashda ayblanasiz. Siz Yekaterina Maslovaga margimush olib kelib bergansiz va sharobga solib, savdogar Smelkovga ichirgin, deb tayinlagansiz. Shuning natijasida Smelkov o'lgan. Aybingizga iqormisiz? – dedi rais, so'ngra o'ng tomonga engashdi.

– Yo'q, nimaga deganingizda, bizning ishimiz mehmonlarga xizmat qilish...

– Keyin gapirasiz. Aybingizga iqormisiz?

– Yo‘q, iqror emasman. Men faqat...

– Keyin gapirasiz. Aybingizga iqormisiz? – deb takrorladi rais muloyim, lekin qat’iy ovoz bilan.

– Iqror bo‘lolmayman, chunki...

Sud ijrochisi yana Simon Kartinkinning yoniga kelib, dahshatli ovoz bilan shivirlab uni to‘xtatdi.

Rais endi bu ish tamom, deganday qog‘oz ushlagan qo‘lining tirsagini boshqa joyga qo‘ydi-da, Yevfimiya Bochkovaga murojaat qildi:

– Yevfimiya Bochkova, siz 188*-yilning 17-yanvarida, «Mavritaniya» mehmonxonasida Simon Kartinkin va Yekaterina Maslova bilan birgalashib Smelkov degan savdogarning chamadonidan pulini va uzugini o‘g‘irlab o‘zaro bo‘lishib olib, jinoyatingizni yashirish uchun savdogar Smelkovni zaharlab o‘ldirishda ayblanasiz. Aybingizni bo‘yningizga olasizmi?

– Mening hech qanday aybim yo‘q, – dedi ayblanuvchi dadil va qat’iy. – Men xonasiga kirganim ham yo‘q... Manavi manjalaqi kirgan, ishni shu qilgan.

– Keyin gapirasiz, – dedi rais yana boyagidek muloyim va qat’iy. – Demak, aybingizni bo‘yningizga olmaysizmi?

– Men pulni olganim ham yo‘q, zahar berganim ham yo‘q, xonaga kirganim ham yo‘q. Agar kirganimda edi, uni haydab chiqarib yuborardim.

– Aybingizni bo‘yningizga olmaysizmi?

– Olmayman.

– Juda soz.

– Yekaterina Maslova, – deb so‘z boshladi rais uchinchi sudlanuvchiga murojaat qilib, – siz islovatxonadan savdogar Smelkovning chamadonining kalitini olib kelib, «Mavritaniya» mehmonxonasining xonasida chamadondan pul bilan uzuk o‘g‘irlashda ayblanasiz, – dedi u yodlangan darsni takrorlaganday, so‘z orasida u chap tomonga, daliliy ashyolar ichida shisha yetishmayotganini aytayotgan a‘zoga qulog‘ini tutib. – Chamadondan pul bilan uzuk o‘g‘irlagansiz, – deb takrorladi rais, – keyin o‘g‘irlangan pulni bo‘lishib olgansiz va savdogar Smelkov bilan yana «Mavritaniya» mehmonxonasiga qaytib kelgandan keyin unga

zahar solingan sharobni ichirgansiz. Savdogarni zaharlab o'ldirgansiz. Aybingizni bo'yningizga olasizmi?

– Mening hech qanday aybim yo'q, – dedi Maslova tez-tez gapirib, – avval nima degan bo'lsam, hozir ham shuni aytaman, men hech narsa olganim yo'q, dedimmi, olganim yo'q, olganim yo'q, uzukni menga uning o'zi bergan...

– Ikki ming besh yuz so'm pulni o'g'irlashda o'zingizni aybdor deb hisoblamaysizmi? – so'radi rais.

– Qirq so'mdan bo'lak hech narsa olganim yo'q, deyaqman-ku, axir.

– Sharobga poroshok solib savdogar Smelkovga ichirganingiz-chi, buni bo'yningizga olasizmi?

– Bunisini bo'yningizga olaman. Men buni uxlatadigan poroshok deb o'ylagandim, menga shunaqa deyishgandi. Bunday bo'lishini bilganim yo'q, bunday bo'ladi deb uylaganim ham yo'q. Tepamda Xudo turibdi – xayolimga ham keltirmagandim, – dedi u.

– Demak, siz savdogar Smelkovning pulini va uzugini o'g'irlashda o'zingizni aybdor deb hisoblamaysiz, – dedi rais. – Ammo poroshok berganingizni bo'yningizga olasiz?

– Bo'yningizga olaman, albatta, faqat uni uxlatadigan dori deb o'ylagandim. Men uni uxlab qolsin deb berganman, boshqacha bo'lishini o'ylamagandim, xayolimgayam keltirmagandim.

– Juda soz, – dedi rais savolining natijasidan xursand bo'lganday. – Voqea qanday bo'lganini aytib bering-chi, – dedi u ikki qo'lini stolga qo'yib, oromkursi suyanchig'iga yastanib. – Bo'lgan gapni oqizmay-tomizmay gapirib bering. Aybingizga chin ko'ngildan iqrор bo'lsangiz, o'z ahvolingizni yengillatgan bo'lasiz.

Maslova raisga boyagiday to'ppa-to'g'ri tikilib, jim turardi.

– Xo'sh, qanday bo'ldi?

– Qanday deysizmi? – dedi to'satdan Maslova tez gapirib. – Mehmonxonaga keldim, meni xonaga boshlab kirishdi, u g'irt mast bo'lib o'tirgan ekan. – Maslova u degan so'zni seskanib gapirar, ko'zlari qinidan chiqib ketay derdi. – Men ketmoqchi bo'lgan edim, u qo'yvormadi.

Maslova kalavanning uchini yo'qotib qo'ygandek yoki bir boshqa narsani eslagandek jim bo'lib qoldi.

– Keyin nima bo‘ldi?

– Nima bo‘lardi? Keyin birpas o‘tirdim-da, uyga ketdim.

Shu choq prokuror yordamchisi g‘ayritabiiy sur‘atda bir tirsagiga tayanib o‘rnidan sal turdi.

– Savolingiz bormi? – dedi rais; prokuror yordamchisidan tasdiq javobini olgach, sizga savol berish huquqini beraman, degandek ishora qildi.

– Shunday bir savol bermoqchi edim: sudlanuvchi Simon Kartinkinni ilgari ham tanirmidi? – dedi prokuror yordamchisi Maslovaga qaramasdan.

Savolni berib bo‘lgach, labini qimtib, qovog‘ini solib oldi.

Sud raisi uning savolini takrorladi. Maslova qo‘rqa-pisa prokuror yordamchisiga qarab:

– Simonnimi? Tanirdim, – dedi.

– Sudlanuvchining Kartinkin bilan tanishligi qanday bo‘lgan, shuni bilmog‘chi edim. Bir-birlari bilan tez-tez uchrashib turishganmi?

– Tanishligim qandayligimi? Tanish emasdim-u, lekin mehmonlar yoniga chaqirib turardi, – deb javob berdi Maslova tashvishlanib prokuror yordamchisidan yuz o‘girib raisga va yana prokuror yordamchisiga qarab.

– Men yana shu narsani bilmog‘chiman: Kartinkin mehmonlarga boshqa qizlarni chaqirmay, nega doim Maslovani chaqirgan? – dedi prokuror yordamchisi ko‘zini qisib va ayyorona iljayib.

– Bilmayman. Men qayoqdan bilay, – deb javob qildi Maslova qo‘rquv aralash atrofiga alanglab, bir lahza Nexlyudovga ko‘z tikib: – Kimni xohlasa, shuni chaqirgan-da.

Nexlyudov yuziga qon quyilganini his etib: «Tanigan bo‘lsa-ya?» deb o‘yladi vahima ichida; ammo Maslova unga tikilib o‘tirmay, shu ondayoq yuzini o‘girdi va yana qo‘rquv aralash prokuror yordamchisiga qaradi.

– Bundan chiqdi, sudlanuvchi Kartinkin bilan yaqin aloqada bo‘lganini inkor etarkan-da? Juda soz. Boshqa savolim yo‘q.

Prokuror yordamchisi shu zamonoq tirsagini stoldan oldi va allanimalarni yoza boshladi. Aslida esa u hech narsa yozmas, faqat oldin yozgan harflarining ustidan qalam yurgizib chiqish bilan ovora edi. U prokuror va advokatlarning shunday qilishlarini

ko'rgan edi; ular ustalik bilan berilgan savoldan keyin nutqlariga raqiblarini yakson qiladigan dalillar qo'shib qo'yishardi.

Rais ko'zoynak taqqan a'zodan, oldindan tayyorlab yozib qo'yilgan savollarning qo'yilishiga rozimisiz, deb so'rayotgani uchun sudlanuvchiga darrov murojaat qila qolmadi.

– Keyin nima bo'ldi? – deb savolini davom ettirdi rais.

– Uyga qaytib keldim, – deb davom etdi Maslova endi raisga avvalgidan ko'ra dadilroq qarab, – bekamga pulni berdim-da, yotdim. Endi ko'zim ilingan ekan, o'zimiznikilardan Berta degan qiz uyg'otib qoldi. «Tur, savdogaring yana keldi», – dedi. Men chiqmayman degandim, lekin xonim qo'ymadilar. U bo'lsa, – Maslova «u» degan so'zni gapirganda seskanib ketdi, – u bo'lsa hamma qizlarimizni sharob bilan siylay boshladi. Keyin yana sharobga odam yubormoqchi bo'lgandi, puli yetmadi. Beka unga ishonmadi. Shundan keyin u meni xonasiga yubordi. Pulining qayerdaligini, qancha olish kerakligini aytdi. Shundan keyin men mehmonxonaga bordim.

Rais shu mahal chap tomondagi a'zo bilan shivirlashib o'tirgani uchun Maslovaning nima deganini eshitmadi. Ammo hamma gapni eshitgan kishiday uning oxirgi so'zlarini takrorlab:

– Mehmonxonaga bordingiz. Xo'sh, keyin nima bo'ldi? – dedi u.

– Bordim, u qanday tayinlagan bo'lsa, xuddi shunday qildim: xonaga kirdim. Yolg'iz kirmadim. Semyon Mixaylovich bilan anavini chaqirdim, – dedi u Bochkovani ko'rsatib.

– Yolg'on, xonaga qadam bosganim yo'q... – deb gap boshlagandi Bochkova, lekin uni to'xtatishdi.

– Ularning ko'zi oldida to'rtta chervon oldim, – deb davom etdi Maslova Bochkovaga qaramasdan qovog'ini solib.

– Sudlanuvchi qirq so'm pulni olayotganida necha pul borligini ko'rmadimikin? – deb yana so'radi prokuror.

Prokuror savol bergan paytda Maslova seskanib ketdi. U o'zi nima gapligini bilmasa-da, lekin prokuror unga yomonlik tilayotganini his etardi.

– Sanaganim yo'q, hammasi nuqul yuz so'mlik pulligini ko'rdim, xolos.

– Sudlanuvchi yuz so'mliklarni ko'rgan ekan, boshqa savolim yo'q.

- Xo‘sh, pulni olib keldingizmi? – deb so‘radi rais soatiga qarab.
- Olib keldim.
- Keyin-chi?
- Keyin, u meni yana o‘zi bilan birga olib ketdi, – dedi Maslova.
- Qanday qilib sharobga poroshok solib berdingiz? – deb so‘radi

rais.

- Qanday qilib bo‘lardi? Sharobga soldim-da, beraverdim.
- Nega bunday qildingiz?

Maslova javob qaytarish o‘rniga og‘ir va chuqur xo‘rsindi.

– Hadeganda jo‘natavermadi u, – dedi Maslova bir zum jim turgach. – Tinkamni quritdi. Yo‘lakka chiqdim-da, Simon Mixaylovichga: «Qani endi, jo‘natib yubora qolsa. Juda charchab ketdim», – dedim. Simon Mixaylovich bo‘lsa: «Bizning ham jonimizga tegib ketdi. Biz unga uxlatadigan poroshok bermoqchimiz; uxlab qolsa, ketaverasan», – dedi. Men: «Bo‘pti», – dedim. Buni zararsiz poroshok, deb o‘ylabman. Qo‘limga qog‘oz tutqizdi. Qaytib kirdim, u to‘siqning naryog‘ida yotgan ekan. Kirishim bilan konyak quyib berishni buyurdi. Stoldan bir shisha fin shampanini oldim-da, ikkita stakanga – unga va o‘zimga quydim. Uning stakaniga poroshok solib berdim. Bilsam, berarmidim?!

– Uzuk sizga qayoqdan kelib qoldi? – deb so‘radi rais.

– Uzukni menga o‘zi sovg‘a qildi.

– Qachon sovg‘a qildi?

– Xonaga kelishim bilan, men ketmoqchi bo‘lgandim, u boshimga bir urib, tarog‘imni sindirib qo‘ydi. Men jahl qilib, ketmoqchi bo‘ldim. Ketib qolmasin, deb barmog‘idan uzugini olib menga sovg‘a qildi, – dedi Maslova.

Shu mahal prokuror yordamchisi boyagiday o‘rnidan sal turib, yana avvalgiday munofiqona soddalik bilan bir necha savol berishga ruxsat so‘radi va ijozat olgach, ko‘ylagining gul solib tikilgan yoqasi ustiga bo‘ynini qiyshaytirib so‘radi:

– Savdogar Smelkovning xonasida sudlanuvchi qancha vaqt bo‘lganini bilishni istardim.

Maslovani yana qo‘rquv bosdi. U goh prokuror yordamchisiga, goh raisga ko‘z yugurtirib, shoshib-pishib javob berdi:

– Qancha vaqt o‘tgani esimda yo‘q.

– Sudlanuvchi savdogar Smelkov yonidan chiqqach, mehmonxonada biron joyga kirgani esida yo‘qmikan?

Maslova o‘ylab ko‘rdi.

– Yonma-yon joylashgan bo‘sh xonaga kirgandim, – dedi u.

– Nega kirgandingiz? – dedi prokuror yordamchisi berilib ketganidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Maslovaga murojaat qilib.

– Ust-boshimni rostlab olib, izvoshchini kutdim.

– Sudlanuvchining yonida, xonada Kartinkin ham bormidi yoki yo‘qmidi?

– Uyam kirgandi.

– Nega kirgandi?

– Savdogardan fin shampani qolgandi. Ikkalamiz birga ichdik.

– Ha-ha, birga ichibsizlar-da. Juda soz.

– Sudlanuvchi Simon bilan gaplashganmi, agar gaplashgan bo‘lsa, nima to‘g‘risida?

Maslova to‘satdan qovog‘ini solib oldi, qip-qizarib ketdi-da, tez-tez gapira boshladi:

– Nimani gaplashibman? Hech narsani gaplashganim yo‘q. Bo‘lgan gapning hammasini aytib berdim, boshqa hech narsa bilmayman. Nima qilsangiz, qiling. Mening gunohim yo‘q, vassalom.

– Boshqa savolim yo‘q, – dedi prokuror raisga va g‘ayritabiiy bir tusda kiftini qisib, nutqining konspektiga sudlanuvchining Simon bilan birga bo‘sh xonaga kirgani to‘g‘risidagi e‘tirofini yoza boshladi.

Oraga sukunat cho‘kdi.

– Aytadigan boshqa gapingiz yo‘qmi?

– Hammasini aytib bo‘ldim, – dedi Maslova xo‘rsinib, so‘ngra o‘tirdi.

Shundan keyin rais qog‘ozga nimanidir yozdi va chap tomonida o‘tirgan sud a‘zosining shivirlab aytgan gapini tinglab, o‘n daqiqa tanaffus e‘lon qildi, shoshib o‘rnidan turdi-da, zaldan chiqdi. Rais bilan chap tomonida o‘tirgan sersoqol, katta, muloyim ko‘zli a‘zo o‘rtasida bo‘lib o‘tgan maslahat shundan iborat ediki, o‘sha a‘zoning me‘dasi buzilgan, u qornini silab, dori ichib olmoqchi bo‘lgan edi.

U shu gapni raisga aytgan va uning iltimosiga ko'ra tanaffus e'lon qilingan edi.

Sudyalardan keyin maslahatchilar, advokatlar va guvohlar o'rinlaridan turishdi, muhim ishning bir qismini bajarib ko'ngillari joyiga tushganday, u yoqdan bu yoqqa yura boshladilar.

Nexlyudov maslahatchilar xonasiga o'tdi va deraza yoniga borib o'tirdi.

XII

Ha, bu Katyusha edi.

Nexlyudovning Katyusha bilan munosabati quyidagicha edi:

Nexlyudov Katyushani birinchi marta universitetning uchinchi kursida o'qiyotgan mahalda, yozda ammalarinikiga kelib, yerga bo'lgan xususiy egalik haqida ilmiy asar yozish chog'ida ko'rgan edi. Odatda u yozda onasi va opasi bilan birga onasining Moskva yonidagi katta qo'rg'onida yashardi. Ammo bu yil opasi erga tegib ketdi, onasi davolanish uchun chet elga suvga jo'nadi. Nexlyudov esa ilmiy asar yozishi lozim edi, shunday qilib, u yozni ammalarinikida o'tkazishga ahd qildi. Ularning yeri bir chekkada, tinch, ularnikida o'yin-tomosha degan narsa yo'q, ammalari esa merosxo'r jiyanlarini juda yaxshi ko'rishar edi. Nexlyudov ham ularni, ularning eskicha, oddiy hayotlarini yaxshi ko'rardi.

Nexlyudov ammalarinikida bo'lgan yoz oylari uning yuragi shunday zavq-shavqqa to'lgandiki, bu holatda o'spirin yigit hayotning go'zalligi va ma'nosini hamda shu hayotda inson zimmasiga qo'yilgan vazifaning butun ahamiyatini bironing ko'rsatganiga qarab emas, balki o'zi anglaydi, o'zi va butun olam cheksiz takomil topish mumkinligini ko'rib, shunga ishonibgina qolmay, balki tasavvuridagi kamolotga dadillik bilan intiladi. Yana shu yil universitetda u Spenserning «Ijtimoiy turg'unlik» degan asarini o'qigan va Spenserning yerga bo'lgan xususiy egalik haqidagi mulohazalari unda, xususan, o'zi katta yer egasining o'g'li bo'lgani uchun, ayniqsa, zo'r taassurot qoldirgan edi. Uning otasi badavlat emas, ammo onasi sepga o'n ming botmoncha yer olgan edi. Nexlyudov yerga bo'lgan xususiy egalikning naqadar shafqatsiz va adolatsizligini birinchi bor o'sha paytlarda anglab,

axloqiy talablar yo'lida fidokorlik qilishni eng yuksak ruhiy lazzat deb biladigan odamlardan biri bo'lgani uchun yerga bo'lgan xususiy egalik huquqidan voz kechdi, otasidan meros qolgan yerni o'sha vaqtdayoq dehqonlarga bo'lib berdi. U ilmiy asarini ham xuddi ana shu mavzuda yozayotgan edi.

O'sha yili ammalarining qishlog'ida uning hayoti shunday o'tgandi: u juda erta, ba'zan soat uchda turar va quyosh chiqquncha, ba'zan tonggi tuman tarqalmasdan burun tog' yonbag'ridagi soyga borib cho'milar hamda giyohlar va gullardagi shabnam ko'tarilmasdan qaytib kelardi. Ba'zida ertalab qahva ichib olgach, o'tirib ilmiy asarini yozar yoki o'shanga kerakli hujjatlarni o'qirdi, ammo ko'pincha o'qish yoki yozish o'rniga yana uydan chiqib ketib dalalar, o'rmonlarni kezib yurardi. Tushlik ovqat oldidan bog'ning biron burchagida yotib uxlab qolar, ovqat paytida qiziqchilik qilib ammalarini kuldirib o'tirar, keyin ot minib kezar yoki qayiqda sayr qilardi-da, kechqurun yana ammolari bilan o'tirib pasyans* o'ynardi. Ko'pincha kechalari, ayniqsa, oydin kechalari, ko'ngli hayot quvonchi bilan to'lib-toshganidan uyqusi kelmas, uxlash o'rniga ba'zida tonggacha o'z fikri, xayoli bilan band bo'lib bog'da yurib chiqardi.

Ammalarinikida yashagan davrining birinchi oyida u oqsoch desa, oqsoch emas, asrandi desa, asrandi qiz emas, qorako'z, epchil Katyushaga e'tibor bermay, baxtiyor va osoyishta hayot kechirardi.

Ona bag'rida tarbiya topgan Nexlyudov u vaqtlarda o'n to'qqizga kirgan bo'lsa-da, chinakam ma'sum yigit edi. U ayol kishi haqida o'ylaganda, faqat unga uylanishni ko'zda tutardi. O'ziga xotin bo'lolmaydigan barcha xotinlar, uning nazarida, xotin emas, odam sifatida gavdalanardi. Shu yil yozda Voznesenye bayramida Nexlyudovning ammalarinikiga qo'shnilari bo'lgan ayol o'z bolalari, ya'ni bo'yi yetgan ikki qizi, gimnazist o'g'li va uylaridagi mehmon – mujiklardan chiqqan rassom bilan birga mehmon bo'lib keldi.

Choydan keyin uy ro'parasidagi o'rilgan o'tloqda gur-gur o'yini** o'ynay boshladilar. Katyushani ham chaqirishdi. Bir necha o'yindan

* Qarta o'yini.

** Bu o'yinda eng oldinda turgan bola orqasida juft-juft bo'lib turgan bolalarning birini tutib olishi kerak.

keyin Nexlyudov Katyusha bilan qochishadigan bo'ldi. Katyushani ko'rganda doim Nexlyudov xursand bo'lar, lekin ikkovining o'rtasida biron boshqacha munosabat bo'lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmas edi.

– Endi ularni tutib bo'pman, – dedi «poyloqchi» xushchaq-chaq rassom; uning mujiklarga xos kuchli oyoqlari kalta va egri bo'lgani bilan u juda tez yugurar edi. – Qoqilib ketishganda tutmasam...

– Siz bo'lasiz-u, tutmay qo'yasizmi?

– Bir, ikki, uch!

Ular uch marta chapak chalishdi. Katyusha kulgidan o'zini zo'rg'a tutib, Nexlyudov bilan o'rnini tez almashtirdi-da, g'adirbudur, kuchli, kichkina qo'li bilan uning katta qo'lini qisib qo'yib, kraxmallangan yubkasini shildiratib chapga qarab yugurib ketdi.

Nexlyudov juda tez yugurardi. U rassomga tutqich bermaslik uchun kuchining boricha chopdi. Keyin orqasiga qaragandi, rassom Katyushani quvlab ketayotganini ko'rdi, Katyusha chaqqon yugurib, unga tutqich bermay, chap tomonga qarab qochdi. Oldinda nastarin guli butasi bor edi. U yoqqa hech kim bormagandi. Katyusha Nexlyudov tomonga qaradi-da, boshi bilan nastarin gul butasi orqasida birlashamiz, deb ishora qildi. Nexlyudov uning ishorasini tushundi-da, buta tomon yugurdi. Ammo u erda bir ariqcha bo'lib, ustini qichitqi o't qoplagan edi, Nexlyudov buni payqamay toyg'anib yiqildi-da, qo'lini qichitqiga bosib oldi va oqshomga yaqin tushgan shudringdan qo'li ho'l bo'ldi, lekin shu zahoti kula-kula o'rnidan turib, yalanglikka chiqdi.

Katyusha xursandligidan charos ko'zlarini chaqnatib jilmayarkan, unga qarab yugurdi. Ular chopib kelib, qo'l ushlab oldilar.

Katyusha bo'sh qo'li bilan to'zg'igan sochlarini to'g'rilab, Nexlyudovga qushboqish bilan tik qaradi-da:

– Qo'lingizni rosa qichitayotgandir, – dedi harsillab jilmayarkan.

– Bu yerda ariqcha borligini bilmagandim, – dedi u ham jilmayib, qizning qo'lini qo'yib yubormay.

Katyusha unga yaqinroq keldi. Nexlyudov qanday qilib qizga yuzini yaqinlashtirganini o'zi ham bilmay qoldi. Katyusha o'zini

olib qochmadi, Nexlyudov uning qo'lini qattiqroq qisdi-da, labidan o'pib oldi.

– Voy o'lay, – dedi qiz qo'lini shartta tortib olib, so'ngra ura solib qochib ketdi.

Katyusha nastarin gul butasi yoniga yugurib bordi-da, gullari to'kila boshlagan ikkita oq nastarin novdasini uzib oldi. Keyin shu nastarin bilan lovillab turgan betiga urib, Nexlyudovga o'girilib qaray-qaray, qo'llarini silkitib orqaga, o'ynovchilar yoniga qaytdi.

Ana shu paytdan boshlab Nexlyudov bilan Katyushaning munosabati o'zgardi va bir-biriga intilgan ma'sum yigit bilan ma'suma qiz o'rtaida bo'ladigan boshqacha bir munosabat paydo bo'ldi.

Katyusha xonaga kirsam yoki Nexlyudov uning oq peshbandini uzoqdan ko'rib qolguday bo'lsa, nazarida borliq quyosh nuriga cho'mganday, hamma narsa jozibali, ko'ngilli va ma'noliday tuyulardi, hayot shirin bo'lib ketardi. Katyusha ham shunday holatda edi. Nexlyudovga bunday ta'sir qilgan narsa Katyushaning shu yerdaligi yoki yaqinligidagina emasdi; dunyoda Katyusha bor-ku, degan fikrning o'ziyoq unga shunday ta'sir etar, Katyusha uchun esa Nexlyudovning borligi shunday tuyg'u tug'dirardi. Nexlyudov onasidan ko'ngilsiz xat olsa yoki ilmiy ishi yurishmay qolsa, yoinki yoshlik xayollari sababsiz-nesiz ko'nglini g'ash qilsa, Katyusha bor-ku, deb eslashi bilan yoki uni ko'rishi bilan butun g'ami tarqalib ketardi.

Katyushaning uyda yumushi juda ko'p edi. Ammo u yugurib-yelib ishini bitirar va bo'sh vaqtlarida kitob o'qirdi. Nexlyudov Dostoevskiy va Turgenev kitoblarini o'qib tushirgandan keyin unga berardi. Katyushaga Turgenevning «Xilvatgoh» degan asari, ayniqsa, yoqardi. Ular ahyon-ahyonda: yo'lakda, balkonda, hovlida uchrashib qolishganda gaplashishar, ba'zida esa oqsoch kampir Matryona Pavlovnaning xonasida gaplashib o'tirishardi. Katyusha bu xonada Matryona Pavlovna bilan birga turar, Nexlyudov esa ora-chora qand tishlab choy ichgani kirib turardi. Matryona Pavlovna huzurida o'tadigan bu suhbatlar juda gashtli bo'lardi. Yolg'iz qolganlarida gaplashish og'ir tuyulardi. Bunday paytlarda ko'zlar og'izdan chiqqan so'zlardan ko'ra boshqa, muhimroq narsalarni gapirgandek bo'lar, lablar bujmayar va negadir dahshat bosib, ular darrov o'rinlaridan turib ketar edilar.

Birinchi marta ammalarinikiga kelib turgan kezda Nexlyudov bilan Katyusha o'rtasidagi munosabat ana shunday edi. Ammalari bu munosabatni payqab qolib qo'rqib ketishdi va hatto chet elga, knyaginya Yelena Ivanovnaga, Nexlyudovning onasiga xat yozib ham yuborishdi. Ammasi Marya Ivanovna Dmitriy Katyusha bilan aloqa qilib qo'ymasini, deb qo'rqardi. Lekin uning qo'rqishi o'rinsiz edi, chunki Nexlyudov, o'zi buni bilmagani holda, Katyushani pok muhabbat bilan sevar, uning sevgisi o'zini ham, qizni ham buzilishdan asrar edi. Unda qizdan o'z hirsini qondirish maqsadida foydalanish istagi u yoqda tursin, hatto qizga nisbatan shunday muomalada bo'lish mumkin, degan fikrning o'zi yo'q edi. Buni o'ylaganda uni vahima bosardi. Shoirtabiat Sofya Ivanovnaning bir so'zli va irodali Dmitriy qizni sevib qolib, uning zotini va kimligini surishtirmasdan unga uylanib qo'ymasaydi edi, deb xavotirlanishi asosliroq edi.

Agar Nexlyudov Katyushaga bo'lgan muhabbatini o'sha vaqtda aniq tushunib olganda va xususan, o'sha vaqtda unga, taqdiringni bu qiz bilan bog'lashing aslo mumkin emas, deb uqtirishga uringanlarida edi, u o'ziga xos dangallik bilan, ehtimolki, qizni sevganimdan keyin uning kimligidan qat'iy nazar, uylanmasligimga hech qanday sabab yo'q, degan qarorga kelishi mumkin edi. Ammo ammalari unga o'z shubhalarini bildirishmadi va u qizga bo'lgan muhabbatini anglab yetmasdan burun jo'nab ketdi.

U Katyushaga bo'lgan hissiyotini o'sha vaqtlarda butun vujudini to'ldirgan hayot shodligi tuyg'usining bir turi deb o'ylardi, shu go'zal, xushchaqchaq qiz uning tuyg'ulariga sherik bo'lgan edi. U ketayotganida, Katyusha ammalari bilan birga pillapoyaga chiqib, xiyol g'ilay, qop-qora ko'zlaridagi jiqqa yosh bilan uni kuzatib qolganda, Nexlyudov endi hech qachon topib bo'lmaydigan qandaydir eng go'zal, qadrdon narsasini tashlab ketayotgandek his qildi. U juda xafa bo'lib ketdi.

Nexlyudov Sofya Ivanovnaning tepasidan qarab:

– Xayr, Katyusha, butun xizmatlaring uchun rahmat, – dedi izvoshga o'tirarkan.

– Yaxshi boring, Dmitriy Ivanovich, – dedi Katyusha ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib, yoqimli, erkalovchi tovushi bilan va

dahlizga qochib kirib ketdi. U yerda qiz bemalol, to'yib-to'yib yig'lab olishi mumkin edi.

XIII

Shundan keyin Nexlyudov Katyushani uch yil ko'rmadi. U zobitlik mansabiga endigina ko'tarilib, armiyaga ketarkan, yo'l-yo'lakay ammalarinikiga tushib qizni ko'rgan mahalda, uch yil muqaddam yozni o'tkazgan vaqtdagidan ko'ra butunlay o'zgarib ketgan edi.

U vaqtlarda Nexlyudov har qanday ezgu, yaxshi ishga jonini fido qilishga tayyor bo'lgan vijdonli yigit edi – endi u fahsh yo'lga kirgan, faqat o'z huzurini o'ylaydigan xudbin bo'lib qolgan edi. U vaqtlarda yorug' olam uning ko'ziga sirli bo'lib ko'rinar va u zavq-shavqqa to'lib, sevinib shu sirni bilishga intilar edi – endi hayotdagi hamma narsa nazarida oddiy va aniq, u yashagan turmush sharoitlari bilan belgilanadigan narsalardan iborat edi. U vaqtlarda tabiat bilan, o'zidan ilgari yashab o'tgan, fikr qilgan, his etgan odamlar (falsafa, she'riyat) bilan yaqin munosabatda bo'lishni muhim va zarur deb bilar edi, endi bo'lsa turli muassasalar va o'rtoqlar bilan aloqada bo'lish muhim va zarur edi. U vaqtlarda ko'ziga xotin kishi sirli va dilbar – xuddi shu sirli bo'lgani uchun ham dilbar bo'lib ko'rinardi – endi bo'lsa xotinning, o'z qarindosh-urug'lari-yu, o'rtoqlarining xotinlaridan boshqa har qanday xotinning nima ahamiyatga ega ekani ma'lum edi: xotin kishi o'zi tatib ko'rgan aysh-ishratning eng yaxshi vositalaridan biri edi. U vaqtlarda unga pul kerak emas, onasi yuborib turgan pulning uchdan biri ham ortiqchalik qilar, u otasidan qolgan yer-mulkdan voz kechib, uni dehqonlarga berish mumkin edi – endi bo'lsa onasi har oy yuborib turgan o'sha bir yarim ming so'm pul yetmas va shu pul yuzasidan onasi bilan aytishib ham qolgan edi. U vaqtlarda Nexlyudov haqiqiy *men* deb o'zining ruhiy dunyosini bilar, endi esa sog'lom, baquvvat quruq tanasini, hayvoniy nafsini *men* deb hisoblar edi.

Undagi bu dahshatli o'zgarishga sabab faqat shu ediki, u o'ziga ishonmay, boshqalarga ishonadigan bo'lib qolgan edi. O'ziga ishonmay, boshqalarga ishonadigan bo'lib qolganiga sabab shu ediki, o'ziga ishonib yashash nihoyatda og'ir edi: o'ziga ishonib

yashaganda har qanday masalani jon koyitmay xursandchilik qilish payida bo'lgan hayvoniy nafsining foydasiga emas, balki deyarli hamma vaqt uning zarariga hal qilish kerak bo'lardi; boshqalarga ishonib yashaganda esa hech narsani hal qilishning hojati yo'q, hammasi hal qilingan va doim ma'naviy hayot zarariga, hayvoniy nafsining foydasiga hal qilingan bo'lardi. Bundan tashqari, o'ziga ishonib yashaganda u doim odamlarning malomatiga qolardi, boshqalarga ishonganda esa atrofni o'rab olgan odamlarga manzur bo'lardi.

Chunonchi, Nexlyudov Xudo to'g'risida, haqiqat, boylik va kambag'allik to'g'risida o'ylaganda, o'qiganda va gapirganda atrofda odamlar buni o'rinsiz va qisman kulgili deb hisoblashar, onasi ham, ammasi ham kesatib, uni *notre cher philosophe* deb atashardi; u romanlar o'qib, beadab latifalar aytganda, fransuzcha pyesalarni ko'rgani teatrda borganda va ko'rganlarini maroq bilan so'zlab berganda, hamma uni maqtab siporishlardi. U o'z ehtiyojlarini cheklashni zarur deb, eski shinel kiyib yurganda va sharob ichmay qo'yganda, hamma buni g'alati qiliq va behuda maqtanchoqlik deb hisoblar, lekin ovga chiqish yoki g'oyatda hashamatli kabinetini jihozlash uchun katta-katta xarj qilganda, hamma uning didini maqtar, qimmatbaho narsalar sovg'a qilardi. U iffatli yigit chog'ida to uylanguncha shunday yurmoqchi bo'lganida qarindosh-urug'lari uning salomatligidan xavotir olishdi va hatto u o'rto'g'idan allaqanday fransuz xotinni tortib olganida, onasi buni eshitib, xafa bo'lish o'rniga, o'g'lim endi haqiqiy erkak bo'libdi, deb sevingan edi. Dmitriyning Katyusha bilan bo'lgan munosabati, o'g'lining unga uylanishi mumkinligi knyaginyani dahshatga solardi.

Nexlyudov voyaga yetgach, otasidan meros qolgan ozroq yerni, yerga egalik qilish adolatdan emas, deb dehqonlarga bo'lib bergan vaqtida ham uning bu qiligi onasini va qarindosh-urug'larini dahshatga solgan edi. Shu tufayli u barcha urug'-aymoqlarining malomatiga qolgan edi. Nexlyudovga undan yer olgan dehqonlar boyish o'rniga, uchta qovoqxona ochib va ishlashni yig'ishtirib qo'yib qaytaga qashshoqlashib ketganlari to'g'risida gapiraverib uning quloq-miyasini yeb bitirishdi. Nexlyudov gvardiyaga kirib, baland martabali o'rtoqlari bilan olam-jahon pulni ko'kka sovurib, qartaga boy berib qo'yganda, Yelena Ivanovna dastmoyasidan pul olib yubo-

* Aziz faylasufimiz (*fran.*).

rishga majbur bo'lgan va shunda ham sira xafa bo'lmay, bu tabiiy bir hol, qaytaga yaxshi bo'libdi, chechak yoshligida emlangani tuzuk, ulfatlari yomon emas, deb hisoblagan edi.

Dastlab Nexlyudov kurashib ko'rdi, ammo kurashish juda og'ir bo'ldi, chunki o'ziga ishonib, yaxshi deb topgan narsalarini boshqalar yomon der va aksincha, o'ziga ishonib, yomon degan narsalarini atrofidagilarning hammasi yaxshi der edilar. Bu kurashning natijasida Nexlyudov taslim bo'ldi, o'ziga ishonmay, boshqalarga ishonadigan bo'lib qoldi. Avvallari o'z yo'ldan qaytish ancha og'ir bo'ldi, ammo bu his uzoq davom etmadi va xuddi shu vaqtdan boshlab sharob ichish, papiros chekishni boshlagan Nexlyudov ko'p o'tmay ko'nglini g'ash qilgan bu tuyg'uni his etmay qo'ydi va hatto ancha yengil tortganday bo'ldi.

Shunday qilib, Nexlyudov ehtirosli tabiatiga xos jo'shqinlik bilan atrofidagilarga ma'qul bo'lgan shu yangi hayotga berilib ketdi va qandaydir boshqa narsani talab etuvchi qalbidagi ovozni butunlay bo'g'ib tashladi. Bu holat Peterburgga ko'chib o'tganidan keyin boshlandi va harbiy xizmatga kirish bilan yana avj olib ketdi.

Harbiy xizmat umuman odamlarni yo'ldan ozdiradi, chunki harbiy xizmatga kirganlarning umrlari bekorchilik bilan o'tadi, ya'ni ular ongli va foydali ish qilmaydilar, umuminsoniy burchlarni unutib qo'yadilar, ular o'rniga polk, mundir, bayroqning rasm bo'lib qolgan shon-shuhrati oldinga suriladi, bundan tashqari, ular bir tomondan boshqa odamlar tepasidan cheksiz hukmdorlik qilsalar, ikkinchi tomondan, o'zlaridan baland martabadagi boshliqlar oldida qullarcha itoat qilishga majbur bo'ladilar.

Odamlarning axloqini buzadigan, mundir va bayroq shon-shuhratidan boshqani tan olmaydigan, zo'ravonlikka, qotillikka ijozat beradigan harbiy xizmat ustiga boylikning hamda podsho xonadoniga yaqinlikning kasofati qo'shilsa, bu badaxloqlik uning ta'siriga berilgan odamlarni o'taketgan xudbin qilib qo'yadi; badavlat va kibor zobitlar xizmat qiladigan gvardiya polklarida shu hol yuz beradi. Harbiy xizmatga kirib, o'rtoqlari singari yashay boshlagandan buyon Nexlyudov ham xuddi shunday o'taketgan xudbin bo'lib qolgan edi.

Birovlar tikkan, tozalagan chiroyli mundirni, kaskani kiyib, boshqa birovlar yasagan, yaltiratib keltirib bergan yarog'ni taqib, yana

boshqa odamlar tomonidan boqilgan, o'rgatilgan va o'stirilgan otga minib, xuddi o'ziga o'xshash odamlar bilan mashqqa, ko'rikka oshiqish, ot choptirish, qilichbozlik qilish, otish va bularni boshqalarga o'rgatishdan boshqa hech qanday ish yo'q edi. Eng oliy martabali kishilar, yoshlar, qarilar, podshodan tortib mulozimlarigacha bu mashg'ulotni ma'qullabgina qolmay, balki buni maqtashar va tabriklashar edi. Ana shu mashg'ulotlar tamom bo'lgach, qayerdan olinayotgani ma'lum bo'lmagan pullarni sovurib, zobitlar klubida yoki narx-navosi qimmat qovoqxonada birgalashib ovqatlanish, ayniqsa, ichish juda yaxshi va muhim ish hisoblanardi; keyin teatrlar, ballar, xotinlar bilan aysh-ishrat, undan keyin yana ot choptirish, qilichbozlik, poyga, yana pul sovurish, sharob, qarta, xotinlar bilan aysh-ishrat...

Bunday hayot harbiylarga shuning uchun ham yomon ta'sir qiladiki, agar oddiy odam shunday hayot kechirsa, ko'ngli xijil bo'lmay qolmaydi. Harbiylar esa, shunday bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar; ayniqsa, urush vaqtida shunday hayot kechirganlari uchun faxrlanadilar. Turkiyaga urush e'lon qilingach, harbiy xizmatga kirgan Nexlyudov ham xuddi shu fikrda edi. «Biz urushda jonimizni fido qilishga tayyormiz, shu sababdan ham bunday beg'am, xushchaqchaq hayot kechirish biz uchun uyat emas, shart. Biz xuddi shunday yashayapmiz».

Nexlyudov hayotining shu davrida ana shunday deb o'ylardi; ilgari o'z oldiga qo'ygan axloqiy to'siqlardan qutulganiga behad xursand va o'taketgan xudbinlik og'ushida mast-alast holda edi.

Oradan uch yil o'tgach, yo'l-yo'lakay ammalarinikiga tushganida, u xuddi ana shunday holatda edi.

XIV

Nexlyudov ammalarinikiga shuning uchun ham tushib o'tgan ediki, ularning yer-mulki uning polki o'tib ketgan yo'l ustida edi. Shu sababdan ammalari kirib o'tishni undan qattiq iltimos qilishgandi, eng muhimi esa Katyushani bir ko'rmoqchi edi. Balki o'sha paytda jilovsiz hayvoniy hirs uni vasvasaga solganidan ko'nglining chuqur joyida Katyushaga nisbatan yomon niyat tug'ilgandir, lekin u shu niyatda ekanini bilmasdi va bir vaqtlar shunday yaxshi kun kechirgan joylarini, hamma vaqt atrofida parvona bo'ladi-

gan, biroz g'alatitabiat, lekin mehribon va oqko'ngil ammalarini, g'oyat yoqimli xotiralar qoldirgan dildor Katyushani ko'rishni istar edi.

U martning oxirlarida, Pasxa oldi juma kuni loygarchilikda jala quyib turgan paytda keldi. U ust-boshi shalabbo bo'lib, sovqotib kelgan bo'lsa-da, har doim shunday kezlarda o'zini his etganiday bardam va xursand edi. U ammalarining atrofi g'ishtin devor bilan o'ralgan, tomdan tushgan qor uyulib yotgan ko'hna qo'rasiga kirib kelarkan: «U haliyam shu yerdamikin?» – deb o'yladi. Nexlyudov, chananing qo'ng'irog'ini eshitib, pillapoyaga Katyusha yugurib chiqadi, deb o'ylagan edi. Lekin qizlar bo'lmasining pillapoyasiga ko'ylagi lipasiga qistirilgan, yalangoyoq ikki xotin chelak ko'tarib chiqdi, aftidan, bular pol yuvayotgan bo'lsalar kerak. Katyusha katta eshik yonidagi zinapoya ustida ham ko'rinmadi; faqat peshband tutgan xizmatkor Tixon chiqdi, xolos, u ham supurish-sidirish bilan ovora bo'lsa kerak. Dahlizga egnida shohi ko'ylak va boshida chepets* bilan Sofya Ivanovna chiqdi.

– Bo'yginangdan o'rgilay, yaxshi kelibsan, – dedi Sofya Ivanovna uni o'pib. – Mashenkaning biroz tobi yo'qroq, cherkovdan charchab qaytdi. Tabarruk sharobdan tatib keldik.

– Tabriklayman, ammajon, – dedi Nexlyudov Sofya Ivanovnaning qo'lini o'pib, – kechirasiz, ho'l qilib qo'ydim.

– Bor, xonangga kir. Toza ivib ketibsan. Mo'ylov ham qo'yib yuboribsanku... Katyusha! Katyusha! Unga qahva keltir darrov.

Yo'lakdan:

– Hozir! – degan tanish, yoqimli ovoz eshitildi.

Quvonganidan Nexlyudovning yuragi «shig'» etib ketdi. «Shu yerda ekan!» Birdan yalt etib bulut orasidan quyosh chiqqanday bo'ldi. Nexlyudov suyunib, ust-boshini almashtirish uchun Tixon bilan birga o'zining oldingi xonasiga kirdi.

Nexlyudov Tixondan: «Katyusha nima qilyapti? Ahvoli qalay? Turmushga chiqmoqchimi?» deb surishtirmoqchi ham bo'ldi. Ammo Tixon izzat-ikromni shu qadar joyiga qo'yib, o'zini shu qadar jiddiy tutdiki (qo'lingizga o'zim suv quyaman, deb turib oldi), shundan keyin Nexlyudov Katyusha haqida so'rashga botinolmadi-da, faqat

* Ayollarning yengil, issiq bosh kiyimi.

nevaralari, qari ot, Polkan degan ko'ppak to'g'risida so'rab qo'ya qoldi. Ma'lum bo'lishicha, bultur quturib o'lgan Polkandan boshqa hamma sog'-salomat ekan.

Nexlyudov ho'l ust-boshlarini yechib, endi kiyina boshlagan ham ediki, allakimning tez-tez yurib kelayotganini eshitdi, shu choq eshik tiqilladi. Nexlyudov oyoq tovushini ham, tiqillatishni ham tanidi. Faqat Katyusha shunday qadam tashlar va shunday tiqillatardi.

Nexlyudov ho'l shinelini ustiga tashlab, eshikka yaqinlashdi.

– Kiravering!

Bu o'sha Katyusha edi. O'sha-o'sha Katyusha, ilgarigidan ham chiroyli bo'lib ketgandi. Sodda, qiyg'och qora ko'zlari hamon o'shanday pastdan yuqoriga qarab, jilmayib turardi. U ilgarigidek toza, oppoq peshband tutib olgandi. U ammalari hozirgina qog'ozdan ochib olib bergan iroqi sovun bilan ikkita sochiq: katta rus sochig'i va pahmoq sochiq keltirgan edi. Ustidagi yozuvi yaqqol ko'rinib turgan, ishlatilmagan sovun, sochiq va qizning o'zi – hammasi bir xilda toza, yangi, pok va dilrabo edi. Qizning nafis, qizil lablari, Nexlyudovni ko'rganda behad quvonganidan hamon ilgarigidek jiyirilib turardi.

– Xush kelibsiz, Dmitriy Ivanovich! – dedi Katyusha zo'rg'a, uning ikki beti qip-qizarib ketdi.

– Salomatmisan... salomatmisiz, – Nexlyudov uni «sen»sirashini ham, «siz»sirashini ham bilmay. Katyusha singari qizarib ketdi. – Eson-omon yuribsizmi?

– Xudoga shukur... Ammangiz sizga eng yaxshi ko'rgan sovu-ningizni, pushti sovunni berib yubordilar, – dedi u sovunni stolga, sochiqlarni oromkursi suyanchig'iga qo'ya turib.

– O'zlariniki bor, – dedi Tixon mehmonning o'z izmi o'zida degandek, Nexlyudovning bir qancha shisha, cho'tka, fiksatur, atir va turli pardoz anjomlari solingan katta, kumush qopqoqli, ochiq turgan pardoz qutichasini ko'rsatib.

– Ammamlarga minnatdorligimni ayting. Kelganimga g'oyatda xursandman, – dedi Nexlyudov ko'ngli erib, ilgarigidek ko'ngli ravshan bo'la boshlaganini his qilib.

Bu so'zlarga javoban qiz jilmaydi-da, eshikka chiqib ketdi.

Nexlyudovni yaxshi ko'rgan ammalari bu gal uni har safargidan ham sevinib qarshi olishdi. Dmitriy urushga ketayotgan edi. U yarador

bo'lishi yo halok bo'lishi mumkin edi. Shu sababdan ham ammalari-ning juda mehri tovlanib ketgan edi.

Nexlyudov ammalarinikida atigi bir kun turmoqchi edi, ammo Katyushani ko'rgandan keyin ikki kundan so'ng bo'ladigan Pasxani ham ammalarinikida kutib olishga rozi bo'ldi va Odessada uchrashmoqchi bo'lgan o'rtog'i Shenbokka shoshilinchnoma yuborib, ammalarinikiga tushib o'tishini so'radi.

Katyushani ko'rgan kundan boshlab Nexlyudovning qizga nisbatan bo'lgan avvalgi tuyg'ulari uyg'ondi. Xuddi ilgariydek Katyushaning oq peshbandini ko'rganda yuragi orziqib ketar, uning oyoq tovushini, ovozini, kulgisini eshitganda sevinar, charosday qop-qora ko'zlarini, ayniqsa, jilmayib turgan kezlarida ko'rganida erib ketar, ro'para kelib qolishganda qizning qizarib ketganini ko'rib xijolat tortardi. U sevib qolganini his etdi, lekin ilgari sevgisi bilan bu safargisi orasida farq bor edi, ilgari bu sevgi uning uchun sirli narsa edi va sevib qolganiga iqror bo'lishga yuragi dov bermas edi, ilgari u, kishi umrida faqat bir marta sevishi mumkin, deb ishonardi, endi esa oshiq bo'lganini o'zi bilar va bunga suyunar, muhabbatning nimaligini va uning oqibati nima bo'lishini sal-pal bilsa-da, buni o'zidan yashirardi.

Nexlyudovning ko'nglida boshqa odamlarning ham ko'nglida bo'lgani kabi ikki odam yashar edi. Biri, yolg'iz o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham baxt-saodat tilovchi ma'naviy odam, ikkinchisi, yolg'iz o'zining manfaatini ko'zlovchi va o'z manfaati uchun to'g'ri kelgan narsaning hammasini qurbon qilishga tayyor bo'lgan hayvoniy odam edi. Peterburgda va harbiy xizmatda orttirgan xudbinlikning uchiga chiqqan davrida uning vujudida ana shu hayvoniy odam hukmron bo'lib, ma'naviy odamni butunlay ezib tashlagan edi. Ammo Katyushani ko'rib, ilgari unga nisbatan his etgan tuyg'usini yana boshdan kechirgach, undagi ma'naviy odam yana bosh ko'tardi va o'z haqini talab qila boshladi. Shunday qilib, Pasxaga cha bo'lgan ikki kun ichida Nexlyudovning yuragida o'zi ham angla-yolmagan tinimsiz kurash davom etdi.

U ketishi kerakligini, ammalarinikida qolishning foydasi yo'qligini, bundan yaxshilik chiqmasligini bilardi, ammo u shu qadar shod-xurram ediki, bu haqda bosh qotirib o'tirmay, ammalarinikida qolaverdi.

Shanba kuni kechqurun, Isoga «jon kirgan kun» arafasida pop, dyakon va dyachok bilan birgalikda, o'zlarining aytishlariga qaraganda, cherkov bilan ammalarining uyi o'rtasidagi uch chaqirim masofani chanada ko'p azob-uqubatlar bilan bosib, ibodat qilgani kelishgan edi.

Nexlyudov ammalari va xizmatkorlar bilan birga, eshik yonida ladandon tutib turgan Katyushadan ko'zini uzmay, ibodat qilib bo'ldi, pop va ammalari bilan o'pishdi-da, endi borib uxlayman deb turgan ham ediki, Marya Ivanovnaning keksa oqsochi Matryona Pavlovnaning Katyusha bilan birga kulichlarni* tabarruklab kelish uchun cherkovga bormoqchi bo'lib yo'lakda taraddudlanayotganini eshitib qoldi. «Men ham boraman», – deb o'yladi u.

Cherkovga na aravada, na chanada borib bo'lardi, ammalari-nikida o'zini xuddi o'z uyida yurgandek his qiladigan Nexlyudov «Og'ayni» degan arg'umoqni egarlatdi va yotib uxlash o'rniga tor reytuzi bilan mundirini, uning ustidan shinelini kiydi-da, semirib ketgan, har qadamda pishqiradigan qari arg'umoqni minib, qorong'ida suv va qor kechib cherkovga jo'nadi.

XV

Cherkovdagi o'sha ibodat Nexlyudovning hayotida umr bo'yi eng yorqin va eng kuchli xotirov bo'lib qoldi.

Hamma yoq zim-ziyo qorong'i, faqat onda-sonda qor oqarib ko'rinadi. Nexlyudov cherkov atrofiga yoqib qo'yilgan qora chiroqlarni ko'rib qulog'ini chimirgan, suvni shaloplatib borayotgan ot ustida cherkov hovlisiga kirib kelganda ibodat boshlangan edi.

Mujiklar Marya Ivanovnaning jiyanini tanib, otdan tushish uchun quruq joyni ko'rsatishdi, otini boylab, o'zini cherkovga kuzatib qo'yishdi. Cherkov bayram libosini kiygan xaloyiq bilan to'la edi.

Egniga xonaki chakmon, oyog'iga oq paytava o'rab, chipta kavush kiygan chollar va chiroyli belbog' boylab, etik kiygan yosh-yalanglar o'ng tomonda turishardi. Boshiga qizil shoyi ro'mol, egniga yangi, to'q-qizil belburma kamzul bilan ko'k, yashil, ola-bula yubka va nag'al qoqilgan botinka kiygan xotinlar chap tomonda turishardi. Oq ro'mol o'rab, kulrang kamzul va qadimiy jun yubka, boshmoq yoki yangi chip-ta kavush kiygan kampirlar ulardan orqaroqda turishardi; xotinlar bi-

* Kulich – dumaloq shirin non.

lan kampirlar o'rtasida sochlariga moy surtilgan, yasangan bolalar bor edi. Mujiklar cho'qinishar, sochlarini silkib ta'zim qilishardi. Xotinlar, ayniqsa, kampirlar nursiz ko'zlarini sham yoqilgan ikonalaridan biriga tikishib, juftlashtirilgan barmoqlarini peshonalariga, ikki yelkalariga va qorinlariga qattiq bosib cho'qinishar, allanimalarni shivirlab, turgan yerlarida ta'zim qilishar yoki tiz cho'kishardi. Bolalar boshqalar qarab turganda, kattalarga taqlid qilib astoydil ibodat qilishardi. Zarhal ikona chetlariga o'rnatilgan shamlar porlab yonar, chilchiroqqa sham terib qo'yilgan edi, kliros* tomondan ko'ngilli xonishchilarning baland-past navozishlari eshitalardi.

Nexlyudov oldinga o'tdi. O'rtada oqsuyaklar: xotini va matroscha kiyingan o'g'li bilan bir zamindor, daha mirshabi telegrafchi, kigiz etik kiygan savdogar, medal taqqan oqsoqol turardi. Mehrobning o'ng tomonida, zamindorning xotini orqasida, tovlanadigan binafsharang ko'ylak kiygan va oq hoshiyali sholro'mol o'ragan Matryona Pavlovna va belburma oq ko'ylak kiyib, havorang tasma boylagan, qora sochiga qizil bant taqqan Katyusha turardi.

Hamma narsa bayram tusida, tantanali, xushnud va go'zal edi: zarhal xoch surati tushirilgan kumushrang jubba kiygan ruhoniylar ham, uzun, yengi keng zarbof rido kiygan dyakon va dyachoklar ham, yasangan va sochlariga moy surtgan xonishchilar ham, sho'x-yangroq kuylari ham, uchta sham o'rnatilgan va gullar bilan bezalgan qandil ushlagan ruhoniylarning xaloyiqni «Iso tirildi! Iso tirildi!» deb uzluksiz duo qilib turishi ham, hammasi, hammasi ajoyib edi, ammo oq ko'ylak kiyib, havorang tasma boylagan, qora sochiga qizil bant taqib, zavqlanganidan ko'zlari chaq nab turgan Katyusha hammasidan ham go'zalroq edi.

Nexlyudov Katyusha o'girilib qaramasa-da, kelganimni u ko'ribdi, deb o'yladi. U buni Katyushaning yonidan mehrobga o'tib ketayotganida payqab qoldi. Uning Katyushaga aytadigan gapi yo'q edi, lekin bir bahona topdi-da, yonidan o'tib keta turib:

– Ammalar kechki ibodatdan keyin ro'zamni ochaman, dedilar, – dedi.

Har doim Nexlyudovni ko'rganda yuz beradigan hol takrorlandi: Katyushaning ikki beti loladek qizarib ketdi, qora ko'zlari kulib-quv nab, soddadillik bilan boqib, Nexlyudovga tikildi.

* *Kliros* – cherkovda xonishchilar uchun ajratilgan joy.

– Xabarim bor, – dedi u jilmayib.

Shu payt mis kashkul ushlab xaloyiq orasidan o'tib ketayotgan dyachok Katyusha yonidan unga parvo qilmay o'tarkan, kiyimining etagi qizga tegib ketdi. Dyachok Nexlyudovni hurmat qilib, undan chetlab o'taman deb Katyushaga tegib ketgan edi. Nexlyudov bunga juda hayron bo'ldi. Nahotki, bu dyachok shu yerdagi va umuman, butun dunyodagi narsalarning barisi faqat Katyusha uchun yaratilganini bilmasa, butun dunyodagi narsalarning hammasiga mensimaslik bilan qarash mumkin-u, Katyushaga bunday qarash mumkin emasligini tushunmasa, axir, u butun olamning markazi-ku, deb o'yladi Nexlyudov. Devorga qator terilgan ikonalar ham Katyusha uchun yarqirar, qandillardagi shamlar ham uning uchun porlab yonar, «Muborak pasxa bayrami bu, xaloyiq, shod-xurram bo'lingiz», degan quvnoq qo'shiqlar ham uning uchun kuylanardi. Xullas, olamdagi butun yaxshi narsalarning hammasi Katyusha uchun yaratilgan edi. Uning nazarida, Katyusha ham hamma narsa faqat o'zi uchun bo'layotganini tushungandek edi. Nexlyudov Katyushaning burmali oq ko'ylakdagi sarvqomatiga, sergak, shod chehrasiga tikilarkan, nazarida shunday tuyuldi va o'z ko'nglidan o'tayotgan tuyg'ular uning ham ko'nglidan o'tayotgandek bo'ldi.

Ilk sahar ibodati bilan ertalabki ibodat orasida Nexlyudov cherkovdan chiqdi. Xaloyiq unga yo'l berib, ta'zim qildi. Ba'zilar uni tanir, ba'zi birovlar: «Bu kimning o'g'li?» deb so'rashardi. U ibodatxona eshigi oldida to'xtadi. Tilanchilar uni o'rab olishdi. Nexlyudov hamyonidagi mayda pulni ulashib tugatdi-da, zinadan pastga tushdi.

Tong yorishib, tevarak-atrofdagi narsalar oqarib, g'ira-shira ko'rinadigan bo'lib qolgan, lekin hali quyosh chiqmagan edi. Odamlar cherkov atrofidagi qabristonga tarqalib ketdi. Katyusha hali cherkovdan chiqmagan edi, Nexlyudov uni kutib turdi.

Xaloyiq hamon cherkovdan chiqib kelar, nag'alli etiklarini do'qillatib zinadan tushar, cherkov hovlisiga va qabristonga tarqalardi.

Marya Ivanovnaning shakarpazi, boshi liqillab turadigan keksa chol Nexlyudovni to'xtatib u bilan o'pishdi, boshiga shoyi peshonabog' o'ragan uning xotini – kekirdagi burishib ketgan

kampir ro‘moli orasidan sariq-za‘faron tuxum olib berdi. Shu mahal egnida yangi belburma kamzul, yashil kamar boylagan, miqtidan kelgan yoshgina mujik jilmayib kelaverdi.

– Iso tirildi, – dedi u Nexlyudovga yaqinlashib. Uning ko‘zlari kular, undan mujiklarga xos allaqanday yoqimli hid kelib turardi: mujik gilosday qip-qizil lablari bilan Nexlyudovni uch marta cho‘pillatib o‘pganda, jingalak soqoli uning qitig‘ini keltirdi.

Nexlyudov mujik bilan o‘pishib, uning qo‘lidan to‘q jigarrang tuxum olayotganida Matryona Pavlovnaning yiltiroq ko‘ylagi va qizil bant taqqan qorasoch chiroyli boshi ko‘rindi.

Katyusha oldinda ketayotganlarning boshi osha uni ko‘rib qoldi. Nexlyudov uning yuzi yorishib ketganini ko‘rdi.

Katyusha bilan Matryona Pavlovna ibodatxona eshigi oldidagi peshayvonga chiqib, tilanchilarga sadaqa berish uchun to‘xtashdi. Burni o‘mida bitgan yaraning chandig‘i qip-qizarib turgan tilanchi Katyushaning yoniga keldi. Katyusha ro‘molidan allanima olib unga berdi-da, keyin yaqinroq borib jirkanmay-netmay, ko‘zlari chaqnagan holda, uch marta o‘pishdi. Tilanchi bilan o‘pishib turgan mahalda ko‘zi Nexlyudovning ko‘ziga to‘qnashib qoldi. Go‘yo u: «Bu ishim yaxshimi yo chakkimi?» deb so‘rayotganday edi.

«Juda soz, jonginam, juda yaxshi, sevaman seni».

Ular peshayvondan tushishdi, Nexlyudov esa Katyushaning yoniga bordi. U «Iso tirildi», deb o‘pishmoqchi emas, faqat uning yonida bo‘lishni istardi.

– Iso tirildi! – dedi Matryona Pavlovna boshini egib va jilmayib. U, bugun hamma baravar, degan ohangda gapirdi va buklarab qo‘ltig‘iga qisib qo‘ygan ro‘mol bilan og‘zini artirdi-da, o‘pishmoq uchun Nexlyudovga labini cho‘zdi.

– Shubha qilinmas, – dedi Nexlyudov o‘pisharkan. Nexlyudov Katyushaga o‘girilib qaradi. Katyusha qip-qizarib ketdi-da, shu zahoti unga yaqinroq kelib:

– Iso tirildi, Dmitriy Ivanovich, – dedi.

– Shubha qilinmas, – dedi u. Ular ikki marta o‘pishishdi va yana o‘pishish kerakmi, degandek to‘xtab qolishdi. Keyin go‘yo o‘pishish kerak, degan qarorga kelgandek uchinchi bor o‘pishishdi va ikkovi baravar jilmaydi.

– Sizlar popning huzuriga bormaysizlarmi? – deb so‘radi Nexlyudov.

– Yo‘q, Dmitriy Ivanovich, biz shu yerda o‘tira turamiz, – dedi Katyusha zavq bilan mehnat qilgan odamday chuqur xo‘rsinib, mo‘ltillab turgan, uyatchan, dilrabo, qiyg‘och ko‘zlarini unga tikib.

Erkak bilan ayol kishi o‘rtasidagi muhabbatda hamisha shunday bir daqiqa bo‘ladiki, bunda muhabbat o‘zining kamolot cho‘qqisiga erishadi, bunda kishi es-hushini yo‘qotadi, u kishida hirs qo‘zg‘atmaydi. Nexlyudov bunday daqiqani Isoning tirilish bayrami kechasi boshidan kechirgan edi. Katyushani turli holatda ko‘p ko‘rgan bo‘lsa ham, hozir uni eslarkan, o‘sha daqiqa boshqa hamma xotirotlarni bosib ketardi. Silliq qilib taralgan, yaltirab turgan qora sochlari, kelishgan qaddi-qomati va ko‘ksini quchib olgan burmali oq ko‘ylak, qip-qizarib ketgan betlar, uyqusizlikdan xumor bo‘lib qolgan xiyol g‘ilay qora ko‘zlar va umuman, butun vujudidagi ikki asosiy xususiyat, ya‘ni faqat Nexlyudovga nisbatangina emas – buni o‘zi ham bilardi – balki dunyodagi odam va narsalarning hammasiga, faqat yaxshi narsalargagina emas, balki dunyoda nimaiki bo‘lsa, hammasiga, hatto boya o‘pishishgan tilanchiga nisbatan ham barq urgan toza, pok muhabbat.

Nexlyudov qizdagi bu muhabbatni bilardi, chunki u shu kecha va shu tong bu muhabbatni qalbida his etgan va shu muhabbat tufayli u qiz bilan bir tan, bir jon ekanini anglagan edi.

Oh, qani endi hamma narsa o‘sha kechada uyg‘ongan his bilan cheklanib qolgan bo‘lsa! «Ha, o‘sha qabih ish Isoning tirilish bayramidan keyingi kechada bo‘lgan edi!» – deb o‘ylardi hozir Nexlyudov maslahatchilar xonasida, deraza yonida o‘tirib.

XVI

Cherkovdan qaytib kelgach, Nexlyudov ammalari bilan o‘tirib ro‘zasini ochdi, polkda o‘rgangan odatiga ko‘ra, dadil bo‘lib olmoq uchun sharob ichdi-da, o‘z xonasiga kirib ketdi, egnidagi kiyimi bilan yotib, shu zahoti uxlab qoldi. Eshikning tiqillaganini eshitib uyg‘ondi. Eshikni tiqillatishidan, Katyusha bo‘lsa kerak, deb Nexlyudov ko‘zlarini uqalay-uqalay, kerishib qaddini rosladi.

– Katyusha, senmisan? Kira qol, – dedi u o‘rnidan turib.

Qiz eshikni qiya ochdi.

– Ovqatga chaqirishyapti, – dedi u.

U hamon o'sha oq ko'ylakda edi-yu, lekin sochida bant ko'rinmas edi. Qiz Nexlyudovning ko'ziga qararkan, go'yo unga favqulodda shodiyona bir xabar yetkazgandek chehrasi yashnab ketdi.

– Hozir boraman, – dedi Nexlyudov sochini tarash uchun taroqni qo'liga olib.

Qiz bir lahza turib qoldi. Nexlyudov buni sezdi-da, taroqni qo'yib, qiz tomon yurdi. Lekin u shu zahoti tezgina burilib, yengil va epchil qadam tashlab yo'lakdagi poyonoz ustida yugurgilagancha ketdi.

«Ey, ahmoq, – dedi Nexlyudov o'ziga o'zi, – nega uni indamay qo'yib yubordim?»

U qizni quvib, yo'lakda yetib oldi.

Qizdan nima istashini o'zi ham bilmas edi. Nazarida, qiz uning xonasiga kirganida, hamma qiladigan qandaydir bir ishni qilish kerak edi-yu, lekin u shuni qilmagandek tuyuldi.

– Katyusha, shoshma, – dedi, u.

Qiz o'girilib qaradi.

– Nima deysiz? – dedi to'xtab.

– Hech narsa, faqat...

Nexlyudov shunday paytlarda boshqalar nima qilishini esladi-da, o'zini o'zi zo'rlab Katyushaning belidan quchoqladi.

Qiz to'xtab, uning ko'ziga qaradi.

– Qo'ying, Dmitriy Ivanovich, oling qo'lingizni, – dedi u yig'lamoqdan beri bo'lib. Katyusha qip-qizarib ketdi, so'ngra kuchli qo'llari bilan o'zini quchoqlab turgan qo'lni olib tashladi.

Nexlyudov uni qo'yib yubordi, lekin bir daqiqagacha ko'ngli xijil bo'lib turdi, hatto o'zidan o'zi nafratlandi. U o'ziga ishonishi kerak edi, biroq u bu xijolat va uyalish – yuzida aks etgan nozik hislar ekanini tushunmadi, aksincha, ahmoqlik qilyapman, hamma qilgan ishni qilaverish kerak, deb o'yladi.

U Katyushani quvib yetdi-da, yana quchoqlab bo'ynidan o'pdi. Bunisi avvalgi ikki o'pishga, ya'ni biri nastarin butasi orqasidagi va ikkinchisi bugun ertalabki, cherkovdagi beg'araz o'pishga sira o'xshamas edi. Bu mudhish ish edi. Katyusha buni his etdi.

– Voy, bu nima qilganingiz?! – deb qichqirdi Katyusha, go‘yo Nexlyudov qandaydir bir bebaho, qimmat narsani sindirib qo‘ygandek va yugurganicha qochib ketdi.

Nexlyudov yemakxonaga keldi. Yasangan ammalari, doktor va qo‘shni xotin yengil ovqatlar qo‘yilgan stol oldida turishardi. Hamma narsa odatdagiday, lekin Nexlyudovning ko‘ngli notinch edi. U o‘ziga aytilayotgan gaplarning birontasini ham anglamas, o‘rinsiz javob qaytarar va faqat Katyusha haqida o‘ylab, uni yo‘lakda quvib yetib o‘pganini eslardi, xolos. Uning xayoliga boshqa hech narsa kelmasdi. Katyusha xonaga kirib kelganda Nexlyudov qaramasdanoq butun vujudi bilan uning kelganini his etar, lekin qaramaslikka o‘zini majbur qilardi.

Ovqatdan keyinoq u o‘z xonasiga kirib ketdi va uyda qizning oyoq tovushiga quloq solib anchagacha zo‘r hayajon ichida u yoqdan bu yoqqa yurdi. Endi uning vujudidagi hayvoniy odam faqat boshini ko‘taribgina qolmay, balki bu yerga birinchi safar kelgan va hatto shu bugun ertalab cherkovda bo‘lgan paytidagi ma’naviy odamni bosib-yanchib tashladi, endi ana shu hayvoniy odamning bir o‘zi uning ko‘nglida hokimlik qila boshladi. Shu kuni u qizni qancha poylmasin, baribir uni yolg‘iz uchratolmadi. Aftidan, qiz undan o‘zini olib qochib yurgan bo‘lsa kerak. Ammo kechqurun qiz Nexlyudov turgan xonaning yonidagi xonaga boradigan bo‘lib qoldi, chunki doktor tunab qoladigan bo‘ldi va Katyusha mehmonga joy solib berishi kerak edi. Nexlyudov qizning qadam tovushlarini eshitib xuddi biron jinoyat qilishga hozirlanayotgandek, nafasini ichiga yutib, asta uning orqasidan kirdi.

Katyusha toza yostiq avra ichiga tiqilgan ikki qo‘li bilan yostiqning ikki uchidan ushlaganicha unga o‘girilib qaradi-da, jilmaydi; uning bu safargi jilmayishi avvalgiday sho‘x va quvnoq emas, balki ayanchli va qo‘rquv aralash kulgi edi. Uning bu jilmayishi Nexlyudovga yomon bir ish qilayotganini aytayotgandek edi. Nexlyudov bir lahzagina o‘zini tiydi. Hali ko‘nglida kurashishga imkon bor edi. Garchi zaif bo‘lsa-da, qalbida qizga nisbatan yana haqiqiy muhabbat tovushi eshitildi. Ana shu tovush unga qiz haqida, qizning histuyg‘ulari, hayoti haqida gapirdi. Boshqa tovush esa, bo‘sh kelma, ayshingni surib qol, o‘z baxtingni ko‘zla, derdi. Ana shu keyingi tovush

oldingi tovushni bosib ketdi. Nexlyudov dadil yurib qiz oldiga keldi. Shu payt vujudini zo'r hayvoniy his egallab oldi.

Nexlyudov qizni quchog'idan qo'yib yubormay o'rniga o'tqazdida, yana nimalar qilish lozimligini his qilib, uning yoniga o'tirdi.

– Jon Dmitriy Ivanovich, qo'yib yuboring, – dedi qiz yalinib. – Voy, Matryona Pavlovna kelyapti! – qichqirdi-da, uning quchog'idan otilib chiqdi. Haqiqatan ham allakim eshik tomon kelardi.

– Bilib qo'y, kechqurun oldingga boraman, – dedi Nexlyudov. – Yolg'izsan-a?

– Nima deyapsiz? Yo'q, yo'q! Kerakmas, – dedi Katyusha til uchida, ammo hayajonlangan, dovdirab qolgan vujudi butunlay boshqa narsa deb turardi.

Eshik yoniga kelgan haqiqatan ham Matryona Pavlovna ekan. U qo'lida adyol ko'tarib xonaga kirdi va Nexlyudovga ta'naomuz nazar tashlab, boshqa adyol olib kelgani uchun Katyushani koyidi. Nexlyudov indamay chiqib ketdi. U hatto uyalmadi ham. Matryona Pavlovnaning qiyofasidan o'zi qilgan ishi uchun uni ayblayotganini va ayblashga haqli ekanini ko'rdi va bildi, bu qilmishi yaxshi emasligini ham tushundi, ammo avvalgi samimiy muhabbat o'rnida paydo bo'lgan hayvoniy hirs boshqa hech narsani tan olmay, butun vujudini egallab olgandi. Endi u shu hirsni qondirish uchun nima qilmoq kerakligini bilar va bunga chora izlardi.

Shu oqshom Nexlyudov o'zini qo'yarga joy topolmay yurdi: goh ammalarining yoniga kirar, goh u yerdan chiqib o'z xonasiga qaytar, zinapoyaga chiqar va faqat bir narsa haqida, ya'ni qanday qilib qizni yolg'iz uchratish haqida o'ylar edi: Katyusha ham unga ko'rinmaslikka harakat qilar, Matryona Pavlovna esa qizni ko'zdan qochirmaslikka urinardi.

XVII

Oqshom shu alfozda o'tdi, tun kirdi. Doktor uxlagani ketdi. Ammalari ham yotishdi. Nexlyudov Matryona Pavlovna hozir ammalarining yotog'ida ekanini, Katyusha qizlar xonasida yolg'izligini bilardi. U yana zinapoyaga chiqdi. Hovli qorong'i, havo namxush va iliq edi. Bahorda so'nggi qorni erituvchi yoki erigan so'nggi qordan vujudga keluvchi oppoq tuman havoni to'ldirgandi. Uydan

yuz qadamcha naridagi tepalik tagidan oqqan soydan g'alati tovush eshitilardi: bu sinayotgan muzlarning ovozi edi.

Nexlyudov zinapoyadan tushdi va halqoblardan hatlab o'tib, muzlagan qorni g'arch-g'arch bosib, qizlar xonasi derazasi yoniga borib to'xtadi. Yuragi shunday dukillardiki, hatto o'zi ham eshitardi; goh nafasi tiqilar, goh harsillar edi. Qizlar xonasida kichkina chiroq yonib turardi. Katyusha stol yonida bir nuqtaga tikilib, xayol surib o'tirardi. Nexlyudov, qiz hech kim yo'qligida nima qilarkan, deb anchagacha qimir etmay tikilib turdi. Qiz bir-ikki daqiqa qimir etmay o'tirdi-da, keyin ko'zlarini ko'tarib jilmaydi, o'ziga o'zi ta'na qilganday bosh chayqadi, keyin holatini o'zgartirib, ikki qo'lini stol ustiga qo'ydi-da, ro'parasiga ko'z tikdi.

Nexlyudov qizga tikilganicha ham yuragining dukillashini, ham soy tomondan kelayotgan g'alati tovushlarni beixtiyor tinglab turdi. U yoqda, soyda, tuman ichida qandaydir betinim ish borardi: allanarsa pishillar, qirsillar, shovillab to'kilar, yupqa muzlar oynadek jaranglab sinardi.

Nexlyudov o'yga botgan Katyushaning xayolchan yuziga qarab turarkan, unga achindi. Lekin shunisi qiziqki, achingan sari hirsu battar ortardi.

Nihoyat, hirsu butun vujudini qamrab oldi.

U derazani tiqillatdi. Katyusha elektr toki tekkanday bir sapchib tushdi, chehrasida qo'rquv aks etdi. Keyin sakrab turdi-da, deraza yoniga kelib oynaga yuzini qo'ydi. Ikki qo'lini peshonasiga qo'yib qarab, Nexlyudovni taniganida ham chehrasidagi qo'rquv ifodasi o'chmadi. Uning chehrasi juda jiddiy edi, Nexlyudov uni hech qachon bunday holatda ko'rmagandi. Nexlyudov jilmaygach, unga taqlid qilib qiz ham jilmaydi, lekin ko'nglini xursandlik emas, balki qo'rquv qamrab olgandi. Nexlyudov qo'li bilan bu yoqqa chiq, degan ishorani qildi. Lekin Katyusha, yo'q, chiqmayman, degandek boshini chayqadi va deraza yonida turaverdi. Nexlyudov yana yuzini derazaga yaqinlashtirib hovliga chiq, deb chaqirmoqchi bo'lib turgan ham ediki, shu payt biron chaqirdi, shekilli, Katyusha eshik tomonga o'girildi. Nexlyudov deraza yonidan ketdi. Tuman shu qadar quyuyq ediki, uydan besh qadam nari ketar-ketmas deraza ko'rinmay qoldi. Faqat qorayib ko'ringan bahaybat bir narsa ichidan chiroqning

qizg'ish nuri katta bo'lib ko'zga tashlanardi. Soydan hamon boyagiday g'alati pishillagan, shovullagan, qarsillagan tovushlar, muzning sinishi eshitilardi. Yaqin orada, hovlida tuman ichidan xo'roz qichqirdi, yaqinroq yerda unga javoban yana bir necha xo'roz qichqirdi, qishloqni xo'rozlarning birin-ketin qichqirgan ovozlari bosib ketdi. Shunga qaramay, soyning shovullashidan boshqa tovush eshitilmas edi. Bu ikkinchi marta xo'roz qichqirgan payt edi.

Nexlyudov uyning orqa tomonida bir-ikki marta u yoqdan bu yoqqa yurdi, oyog'i bir necha bor halqob suvga tushib ham ketdi.

So'ng u yana qizlar xonasi derazasi yoniga keldi. Chiroq hamon yonib turar, Katyusha bo'lsa boyagiday stol yonida o'tirar, bir qarorga kelolmayotgandek ko'rinardi. Nexlyudov derazaga yaqinlashgan ham ediki, qiz derazaga qaradi. Nexlyudov derazani tiqillatdi. Katyusha shu zahoti kim tiqillatganini aniqlamasdan oq, qizlar xonasidan yugurib chiqdi. Nexlyudov eshikning ohista g'irchillab ochilganini eshitdi. Nexlyudov uni dahliz yonida kutib turardi, yoniga yaqinlashishi bilanoq indamay quchoqlab oldi. Katyusha uning pinjiga tiqildi, boshini ko'tardi, labi bilan uning labi uchrashdi. Ular hovlida, dahlizning burchagida qori erib qurigan yerda turishardi. Nexlyudovning vujudini qonmagan shiddatli hirs qamrab olgan edi. To'satdan eshik yana g'ichirlab ochildi, achchig'i chiqqan Matryona Pavlovnaning ovozi eshitildi:

– Katyusha!

Katyusha uning quchog'idan otilib chiqdi-da, qizlar xonasiga yana kirib ketdi. Nexlyudov eshik halqasining «shirq» etib tushganini eshitdi. Shundan keyin hamma yoqqa sukunat cho'kdi, derazadagi qizg'ish nur g'oyib bo'ldi, hammayoq tuman, soydan shovullagan tovush kelib turardi.

Nexlyudov deraza yoniga keldi, hech kimsa ko'rinmas edi. U tiqillatib ko'rdi, hech kim javob bermadi. Nexlyudov uyga ko'cha eshikdan qaytib keldi-yu, lekin yotib ux olmadi. U etigini echib yalangoyoq bo'lib yo'lakka chiqdi-da, Matryona Pavlovnaning xonasi yonidagi Katyushaning eshigi tomon yurdi. Dastlab u Matryona Pavlovnaning xurрак tortayotganini eshitib, endi kirmoqchi bo'lib turgan ham ediki, birdan Matryona Pavlovna yo'talib qoldi va to'shagini g'ijirlatib ikkinchi yonboshiga ag'darildi. Nexlyudov

turgan yerida qotib besh daqiqacha turdi. Tevarak-atrofga jimlik cho'kib, yana xurрак eshitila boshlaganda, u polning g'ijillamaydigan taxtasiga oyoq qo'yishga urinib nari ketdi va Katyushaning eshigi tagiga keldi. «Churq» etgan tovush eshitilmas edi. Aftidan, Katyusha uxlamagan, Chunki uning pishillagani eshitilmasdi. Nexlyudov: «Katyusha!» deb shivirlashi bilanoq qiz irg'ib o'rmidan turdi-da, eshik yoniga kelib, qaytib ketishini iltimos qila boshladi. Nexlyudovning nazarida, jahl bilan gapirayotgandek tuyuldi.

– Bu nima qilganingiz? Yaxshi emas-ku. Ammalingiz eshitib qolishadi, – dedi Katyusha, ammo dilida jon deb turardi.

Nexlyudov faqat shunigina tushunardi.

– Birpasga och. Jon Katyusha, – dedi u bema'ni so'zlarni takrorlab.

Katyusha jimib qoldi, keyin Nexlyudov uning halqani qidirayotgan qo'lining shitirlagan tovushini eshitdi. Halqa «shirq» etib ochildi va Nexlyudov o'zini ichkariga urdi.

U dag'al ich ko'ylakda bo'lgan qo'li yalang'och Katyushani mahkam quchoqlab oldi va ko'tarib chiqib ketdi.

– Voy! Qo'ying-e! – deb shivirladi qiz.

Qizni o'z xonasiga ko'tarib ketayotgan Nexlyudov uning so'zlariga parvo qilmadi.

– Qo'ying, keragi yo'q, qo'yib yuboring, – derdi qiz, ammo o'zi esa uning pinjiga tiqilardi.

Katyusha titrab-qaltirab, uning gapiga javob qaytarmay indamay chiqib ketganda, Nexlyudov bo'lib o'tgan hodisaning mag'zini chaqish uchun zinapoyaga chiqdi.

Hovli yorug'roq edi, pastda soyning qasir-qusuri, shovullashi yana kuchaygan, avvalgi tovushlarga shildiragan ovoz qo'shilgandi. Tuman cho'ka boshlagan va tuman pardasi ortidan ko'tarilib chiqqan o'roq yanglig' oy qandaydir qora va dahshatli bir narsani g'ira-shira yoritardi.

«Bu qanday bo'ldi: buyuk baxtiyorlik ro'y berdimi yo katta baxtsizlik?» – deb so'rardi Nexlyudov o'zidan. «Doim shunday, hamma vaqt shunday bo'lgan», – dedi u o'ziga o'zi, so'ngra uxlagani kirib ketdi.

XVIII

Ertasiga olifta, xushchaqchaq Shenbok Nexlyudovni olib ketgani keldi va bashangligi, iltifotkorligi, xushchaqchaqligi, saxiyligi va Dmitriyga mehribonligi bilan ammalarini o'ziga rom qildi. Shenbokning saxiyligi ularga yoqdi-yu, lekin bu haddan tashqari saxiylik ularni juda hayron qoldirdi. So'qir tilanchilarga Shenbok bir so'm berdi, xizmatkorlarga choychaqa deb o'n besh so'mni ulashib yubordi. Sofya Ivanovnaning kuchukchasi – Syuzetka Shenbokning oldida qoqilib panjasini qonatib olganda, Shenbok uning jarohatini bog'ladi, o'ylab-netib o'tirmasdan hoshiyali batis dastro'molini yirtib (Sofya Ivanovna bunday dastro'molning do'jnasi o'n besh so'mdan kam turmasligini bilardi), undan Syuzetka uchun bog'lov yasadi. Nexlyudovning ammalari bunaqangisini hech qachon ko'rishmagan va xuddi shu Shenbokning ikki yuz ming qarzi borligini bilishmasdi. Shenbok bu qarzlarini hech qachon uzolmasligini yaxshi bilar, shuning uchun ham yigirma besh so'm kammi yoki ko'pmi – bu bilan hisoblashib o'tirmasdi.

Shenbok atigi bir kun turdi va ertasiga kechasi Nexlyudov bilan birga jo'nab ketdi. Ular bir kun ham ortiq qolisholmasdi, chunki polkka yetib borishning oxirgi muddati yetgan edi.

Ammalarinikida o'tkazilgan ana shu oxirgi kunda tungi hodisalar hozirgidek xotirida ekan, Nexlyudovning ko'nglida ikki tuyg'u qo'zg'alib, bir-biri bilan kurashardi: biri – kutganiday chiqmagan bo'lsa-da, hayvoniy sevgining ehtirosli xotiralari va maqsadiga erishganidan mag'rurlanish hissi bo'lsa, ikkinchisi – qabih bir ish qilib qo'yanini va shu qabih ishni tuzatish kerakligini, qiz uchun emas, balki o'zi uchun tuzatish lozimligini his etish edi.

O'sha paytda o'taketgan xudbin bo'lgan Nexlyudov qizning qanday ruhiy ahvoldaligi va keyin uning nima qilishini o'ylamas, faqat o'zi haqida o'ylar, agar qizning boshiga tushgan ishni eshitsalar, meni ta'na qilisharmikin, qanday ta'na qilisharkin, deb bosh qotirardi.

Shenbok uning Katyusha bilan munosabatini tushunayotganini Nexlyudov sezar va bu bilan g'ururlanardi.

– To'satdan ammalaringni yaxshi ko'rib qolganingga hayron bo'layotgandim-a, – dedi Shenbok Katyushani ko'rib, – bir hafta qolib ketding bu yerda. Sening o'rningda bo'lganimda men ham ketmasdim. Soz ekan!

Hozir qiz bilan ko'ngildagidek ishrat qilolmay ketayotgani unga alam qilsa-da, lekin Nexlyudov, jo'nab ketish zarur bo'lib qolgani men uchun foydali, deb o'yladi, chunki bu narsa bundan keyin davom ettirish qiyin bo'lgan munosabatni biryo'la uzib tashlashga imkon berardi. Bundan tashqari, Nexlyudov unga pul berish zarurligi haqida ham bosh qotirardi. Uning o'zi uchun, shu pul qizga zarur bo'lib qolishi mumkinligi uchun emas, balki hamma shunday qilayotgani sababli va agar undan foydalangani uchun pul to'lamasa, uni vijdotsiz deb hisoblashlari mumkinligi uchun pul bermoqchi edi. Nexlyudov unga shu pulni berdi, o'zining va qizning mavqeini nazarda tutib, qancha berishni lozim topgan bo'lsa, shuncha pul berdi.

Jo'nab ketadigan kuni, tushki ovqatdan keyin u Katyushani dahlizda poylab turdi. Katyusha uni ko'rib qip-qizarib ketdi va ko'zi bilan qizlar xonasiga imo qilib yonidan indamay o'tib ketmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin Nexlyudov uni to'xtatdi.

– Xayrlashmoqchi edim, – dedi Nexlyudov yuz so'mlik solingan xatjildni g'ijimlab. – Mana shuni...

Katyusha tushundi, yuzini burishtirib, boshini chayqadi-da, uning qo'lini itarib tashladi. Nexlyudov:

– Ol endi, – deb g'o'ldiradi-da, xatjildni qizning qo'yniga tiqdi va xuddi qo'li kuyganday yuzini burishtirib, ingraganicha o'z xonasiga yugurib ketdi.

Shundan keyin u anchagacha xonasida u yoqdan bu yoqqa yurdi, shu voqeani eslarkan, bir yeri og'rigandek ijirg'anar, hatto sakrar, uh tortardi.

«Nima qilsam ekan? Hamma vaqt shunday bo'lgan. Shenbok bilan murabbiya xotin o'rtasida ham shunday hodisa bo'lgan, buni Shenbokning o'zi aytib berdi; Grisha amaki ham shunday qilgan, qishloqda yashagan paytida otam ham shunday qilgan. O'shanda bir dehqon xotin otamdan o'g'il ko'rgan, Mitenka degan o'sha bola hali ham tirik. Hamma shunday qilgandan keyin, demak, shunday qilish kerak ekan-da.» Nexlyudov, shu tariqa o'zini yupatmoqchi bo'lar, lekin sira yupatolmasdi. Bu xotirotlar vijdonini azobga solardi.

Ko'nglida, ko'nglining eng chuqur yerida u qabih va yaramas ish qilib qo'yanini his qilardi. Bu qilgan ishi yodida turarkan, boshqa

birovni yomonlash u yoqda tursin, odamlarning ko'ziga tik qarayolmasdi; o'zini ajoyib, olijanob, himmatli yigit deb hisoblash haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ammo avvalgiday o'ynab-kulib yashash uchun esa o'zini olijanob, himmatli yigit deb o'ylashi lozim edi. Buning uchun bir yo'l bor edi: u ham bo'lsa, bu haqda o'ylamaslik. Nexlyudov xuddi shunday qildi.

U qadam qo'ygan yangi hayot – yangi joylar, o'rtoqlar, urush – bu haqda o'ylamaslikka yordam berdi. Ko'p yashagan sayin, buni ko'proq unutardi va nihoyat, butunlay unutib yubordi.

Faqat bir marta, urushdan keyin, Katyushani ko'rish umidida ammalarinikiga tushib o'tganda, uning yo'qligini, Nexlyudov jo'nab ketgandan so'ng oradan bir qancha vaqt o'tgach, tug'ish uchun ketib qolganini, allaqayoqqa borib tuqqanini, ammalarining eshitishicha, butunlay buzilib ketganini bilib, yuragi jizillab ketdi. Tuqqan vaqtini chamalab qaraganda, bola o'ziniki bo'lishi kerak, lekin boshqaniki ham bo'lishi mumkin edi. Ammalari uni buzilib ketgan, onasiga tortgan deyishardi. Ammalarining bu mulohazalari unga yog'dek yoqardi, chunki uni oqlayotgandek bo'lardi. Dastlab Nexlyudov Katyushani ham, bolani ham qidirib topmoqchi bo'ldi. Ammo bu haqda o'ylaganda ich-ichidan azob chekar va uyalib ketardi, shuning uchun qidirib topishga ortiq yuragi bo'lmadi, qilgan gunohi ustida miyasini qotirib o'tirmay, butunlay unutib yubordi.

Ammo endilikda bu g'alati tasodif unga hammasini eslatdi va shunday gunoh bilan o'n yil xotirjam yashashiga yo'l qo'ygan shafqatsizligini, vijdotsizligini, razilligini bo'yniga olishni talab etdi. Lekin Nexlyudov iqrор bo'lishdan hali uzoqda edi. Hozir u faqat o'sha voqea ochilib qolmasa edi, Katyusha yoki uning himoyachisi o'sha voqeani gapirib berib, meni hammaning oldida sharmanda qilmasa edi, deb o'ylardi.

XIX

Nexlyudov sud zalidan chiqib, maslahatchilar xonasiga kirganda ana shunday ruhiy ahvolda edi. U atrofidagi odamlarning gapiga quloq solib, deraza yonida tinmay chekib o'tirardi.

Xushchaqchaq savdogar, aftidan, Smelkovning aysh-ishratiga chin ko'ngildan havas qilgandek ko'rinaradi.

– O‘ziyam, maishatni bilarkan, sibirchasiga maishat qilarkan. Didi joyida, shunday jononni tanlabdi-ya!

Oqsoqol, hamma gap ekspertizada, deb mulohaza yurgizardi. Pyotr Gerasimovich yahudiy sarkor bilan allanima deb hazillashar va negadir ikkovi qah-qahlab kulishardi. Nexlyudov o‘ziga berilgan savollarga mujmal javob qilar, faqat bir narsani – o‘z holiga qo‘yishlarini istardi.

Sud ijrochisi yakkakift bo‘lib chiqib, maslahatchilarni yana sud zaliga chaqirganda, Nexlyudovning nazarida sud qilgani kirayotgan o‘zi emas, balki uni sud qilgani olib ketishayotgandek, vahima bosib ketdi. U ko‘nglida o‘zini odamlarning yuziga tik qarayolmaydigan muttaham deb bilsa-da, odatdagidek gerdayib zalga kirdi va balanddagi joyiga, oqsoqolning yoniga borib oyog‘ini chalishtirib qo‘yib, pensnesini o‘ynab o‘tirdi.

Sudlanuvchilarni ham allaqayoqqa olib chiqishgan edi, endi yana olib kirishdi.

Zalda yangi odamlar – guvohlar bor edi. Nexlyudov Maslovaning panjara oldidagi birinchi qatorda o‘tirgan, tirsagigacha ochiq qo‘lida chiroyli ridikyul* ushlagan, katta bantli baland shlyapa kiygan, shohi-barqutlarga belangan olifta xotindan ko‘z uzolmay, qarab-qarab qo‘yganini sezdi. Keyin bilsa, bu xotin guvoh, Maslova turgan islovatxonaning bekasi ekan.

Guvohlardan ismlari, din-mazhabi va hokazolarni so‘ray boshladilar. So‘roqdan keyin tomonlardan, guvohlarga qanday savol berasiz: qasam ichirib savol berasizmi yoki qasam ichirmasdanmi, deb surishtirishdi. Boyagi keksa pop oyog‘ini zo‘r-bazo‘r sudrab, harir to‘nning ko‘kragidagi sariq xochni to‘g‘rilab, foydali va muhim ish qilayotgandek xotirjamlik va dadillik bilan guvohlarni va ekspertni qasamyod qildirdi. Qasamyod qilish marosimi tugagach, faqat Kitaevani – islovatxona egasini qoldirib, qolgan guvohlarning hammasini olib chiqib ketishdi. Undan bu ish haqida nimalar bilishini so‘rashdi. Kitaeva soxta tabassum bilan, har gapida shlyapa qo‘ndirilgan boshini irg‘ab, nemischa talaffuz bilan batafsil va ravon gapirib bera boshladi.

Eng avval islovatxonaga sibirlik badavlat savdogar uchun qiz olib ketgani tanish xizmatkor Simon kelibdi. Kitaeva Lyubashani yuboribdi.

* Ayollar sumkachasi.

Bir qancha vaqtdan keyin Lyubasha savdogar bilan boshlashib kelib qolibdi.

– Savdogar juda xush-xurujda edi, – dedi Kitaeva sal jilmayib, – biznikida ham ichishini, qizlarni ziyofat qilishini qo‘ymadi; puli yetmay qolgandan keyin xonasiga ana shu Lyubashani yuboradigan bo‘lib qoldi. Savdogar bilan shu Lyubasha ishrat qilishi kerak edi-da, – dedi u sudlanuvchiga qarab qo‘yib.

Nexlyudovning nazarida, Maslova shu gapni eshitib jilmaygandek bo‘ldi. Bu tabassum uni jirkantirdi. Ko‘nglida nafrat aralash achinish hissi g‘alayonga keldi.

Sud tomonidan sudyalikka nomzod qilib ko‘rsatilgan kishi, Maslovaning advokati qizarib-bo‘zarib tortinib:

– Maslova haqida qanday fikrdasiz? – deb so‘radi.

– Juda yaxshi, – deb javob berdi Kitaeva, – o‘qigan qiz, juda yaxshi qiz, yaxshi oilada tarbiya topgan, fransuzchani biladi. Ba’zida ortiqcha ichib qo‘yardi-yu, lekin haddidan oshmasdi. Juda yaxshi qiz.

Katyusha bekasiga qarab o‘tirardi. Keyin birdan maslahatchilarga ko‘z yugurtirdi va Nexlyudovga tikilganicha qarab qoldi, yuzi jiddiy, hatto qahrli tus oldi. Qahrini sochayotgan ko‘zlarning biri xiyol g‘ilay edi. G‘alati boqish qilgan ana shu ikki ko‘z Nexlyudovga uzoq tikilib qoldi. Nexlyudov ham dahshat ichida qolganiga qaramay, soqqasi oppoq g‘ilay ko‘zdan ko‘z uzolmadi. U soy muzlari qarsillab singan o‘sha tumanli, dahshatli kechani esladi. Sahar paytida chiqqan o‘roqsimon oy qandaydir qora va dahshatli narsani yoritgan edi. Ham o‘ziga, ham uning yonidagi narsaga boquvchi bu qora ko‘zlar unga qandaydir qora va dahshatli narsani eslatardi.

«Tanidi!» – deb o‘yladi u. Nexlyudov kaltak tushishini kutgandek g‘ujanak bo‘lib oldi. Lekin Katyusha uni tanimadi. Katyusha bir xo‘rsinib qo‘ydi-da, yana raisga ko‘z tikdi. Nexlyudov ham xo‘rsinib qo‘ydi. «Tezroq tugay qolsaydi», – deb o‘ylardi u. Nexlyudov ov vaqtida yarador bo‘lgan qushni o‘ldirishga to‘g‘ri kelganda shunday narsani his etardi: ham jirkanar, ham achinar, ham afsuslanardi. Chala o‘lik qush xaltada tipirchilaydi: ham jig‘ingga tegadi, ham achinasan, ham tezroq o‘ldirib qutulging keladi.

Nexlyudov guvohlarning so'rog'ini tinglarkan, bir-biri bilan aralashib ketgan ana shunday hislar ko'nglidan kechardi.

XX

Aksiga ish cho'zilib ketdi: guvohlarni va ekspertni yakka-yakka chaqirib so'ralgandan keyin va prokuror yordamchisi, advokatlar tomonidan berilishi zarur deb hisoblangan betayin savollardan keyin rais daliliy ashyolarni ko'zdan kechirishni taklif etdi. Daliliy ashyolar – yo'g'on ko'rsatkich barmoqqa taqiladigan brilliant ko'zli katta uzuk va filtdan iborat edi. Tekshirish shu filtda zahar borligini ko'rsatgan edi. Bu buyumlar muhrlab qo'yilgan va har birining ustiga yorliq yopishtirilgan edi.

Maslahatchilar daliliy ashyolarni ko'rmoqchi bo'lib turganlarida prokuror yordamchisi o'rnidan turib, daliliy ashyolarni ko'zdan kechirishdan oldin jasadni tekshirgan vrachning xulosalarini o'qishni taklif etdi.

Ma'shuqasining oldiga ertaroq borish uchun ishni mumkin qadar tezlashtirishga uringan rais bu qog'ozni o'qish kishini zeriktirishdan va vaqtni olishdan boshqa foydasi yo'qligini bilsada, prokuror yordamchisi buni talab qilishga haqi borligini ko'rsatish uchungina talab etayotganini tushunsa-da, uning iltimosini rad etmadi, rozilik bildirdi. Kotib qog'ozni oldi, yana soqovlanib, «l» va «r» tovushlarini aniq talaffuz etolmay ma'yus ovoz bilan o'qiy boshladi.

– «Tashqi ko'rinishidan quyidagilar aniqlandi:

1) Ferapont Smelkovning bo'yi – 2 gaz 12 vershok.

– Bo'ydan ham bergan ekan, – deb shivirladi savdogar Nexlyudovning qulog'iga.

2) Ko'rinishidan yoshi taxminan qirqlarda.

3) O'lik shishib ketgan.

4) Badani ko'kargan, har yer-har yerida qoramtir dog'lar paydo bo'lgan.

5) Terisi pufak-pufak bo'lib shishib chiqqan, katta-kichikligi turlicha, ba'zi yerida yorilib, parcha-parcha bo'lib osilib qolgan.

6) Sochi to'q sariq, qalin, qo'l tekizilganda teridan ajralib chiqyapti.

7) Ko'zi kosasidan chiqib ketgan, shox soqqasi xira tortgan.

8) Burun teshiklaridan, ikkala qulogʻidan va ogʻzidan koʻpiksimon qon aralash shilimshiq oqib turibdi, ogʻzi yarim ochiq.

9) Yuzi va koʻkragi shishib ketganidan boʻyni bilinmay ketgan».

Va hokazo, va hokazo.

Shaharda aysh-ishrat qilgan semiz savdogarning badburush va shishib ketgan jasadini tashqi koʻrikdan oʻtkazish natijalari toʻrt betga yigirma yetti band qilib, batafsil yozilgan edi. Jirkanib oʻtirgan Nexlyudov jasad tasviri oʻqilganda battar seskanib ketdi. Katyushaning hayoti ham, burun kataklaridan oqib turgan qonli yiring ham, kosasidan chiqib ketgan koʻzlar ham, qizga nisbatan oʻzining qilgan ishi ham – ana shularning hammasi uning nazarida bir-biridan battar narsalar edi, u har tarafdan shu narsalar bilan oʻralib, girdobga tushgan edi. Nihoyat, tashqi koʻrikdan oʻtkazish natijalari oʻqilib boʻlgach, rais, tugagan boʻlsa kerak, degan umidda chuqur tin olib, boshini koʻtardi. Ammo kotib shu zamonAQ ichki tekshirish tasvirini oʻqiy boshladi.

Rais yana boshini quyi soldi va qoʻliga tayanib, koʻzini yumdi. Nexlyudovning yonidagi savdogar mudrab oʻtirar, ahyon-ahyonda bir chayqalib qoʻyardi; sudlanuvchilar va ular orqasida oʻtirgan jandarmlar qimir etmay oʻtirishardi.

– «Ichki aʼzolarni tekshirish natijasida quyidagilar aniqlandi:

1) Bosh suyagining terisi bosh suyagidan osongina koʻchib chiqdi, qontalash joyi koʻrinmadi.

2) Bosh suyagi oʻrtacha qalinlikda va butun.

3) Miyaning qobigʻida har biri toʻrt enli keladigan ikkita dogʻ bor, qobiqning oʻzi xiragina», – va hokazo, va hokazo, shunga oʻxshash yana oʻn uch band.

Keyin xolis kishilarning ismi, imzosi, vrachning fikri yozilgan edi. Jasadni yorib qaralganda, oshqozon hamda qisman ichak bilan buyrakda topilgan va bayonnomaga yozilgan oʻzgarishlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Smelkovning oʻlimi uning oshqozoniga sharob bilan kirgan zahar natijasidir.

Oshqozon va ichaklardagi oʻzgarishlarga qarab, oshqozonga tushgan zaharning qanday zaharligini aniqlash qiyin; Smelkovning oshqozonidan juda koʻp sharob chiqqani uchungina zahar oshqozonga sharob bilan kirgan, deb taxmin qilish mumkin.

– Xo‘p icharkan-da o‘ziyam, – deb yana shivirladi savdogar ko‘zini ochib.

Qariyb bir soat davomida o‘qilgan bayonnoma ham prokuror yordamchisini qanoatlantirmadi. Bayonnoma o‘qilib bo‘lgach, rais unga yuzlanib:

– Ichki a‘zolari tekshirish haqidagi akti o‘qimasa ham bo‘lar, deb o‘ylayman, – dedi.

– Bu akti ham o‘qib eshittirishni so‘rar edim, – dedi qiyshayib o‘rnidan turgan prokuror yordamchisi raisga qaramasdan. U shunday ohangda gapirdiki, bu bilan u bayonnomaning o‘qilishini talab etish huquqiga egaligini, bu huquqdan chekinmasligini bildirmoqchi, mabodo rad etsalar, shikoyatga bahona topiladi demoqchidek bo‘lar edi.

Qovog‘i salqigan, muloyim ko‘zli, oshqozon kasaliga muhtalo bo‘lgan sersoqol sud a‘zosi holdan ketib raisga murojaat qildi:

– Buni o‘qishning nima hojati bor-a? Bekorga vaqtni oladi. Bu yangi supurgi eskisidan toza supurmaydi, qaytaga sekin supuradi.

Tilla ko‘zoynakli sud a‘zosi churq etmadi. U na xotinidan, na hayotdan yaxshilik kutmay, to‘g‘risiga qarab tikilganicha xo‘mrayib o‘tirardi.

Akti o‘qiy boshladilar:

– «Men, quyida imzo chekuvchi kamina 188*-yilning 15-fevral kuni, shifoxona topshirig‘iga muvofiq, shifoxona nazoratchisi muovini ishtirokida 638-raqamli ushbu akti shu xususda tuzdik-kim, – deb yana o‘qiy boshladi kotib mudrab o‘tirganlarning uyqusini qochirish uchun shang‘illab, – ichki a‘zolarini, chunonchi:

1) o‘pkaning o‘ng qismi va yurakni (olti qadoqli shisha idishda);

2) oshqozondan chiqqan narsalarni (olti qadoqli shisha idishda);

3) oshqozonning o‘zini (olti qadoqli shisha idishda);

4) jigar, taloq va buyrakni (uch qadoqli shisha idishda);

5) ichak-chavoqlarni (olti qadoqli sopol idishda) tekshirib...»

Kotib akti o‘qiy boshlagan hamono rais a‘zolaridan biri tomonga engashib nimanidir shivirladi, keyin ikkinchisi bilan shivirlashdi va tasdiq javobini olgach, shu yerga yetganda o‘qishni to‘xtatdi.

– Sud aktning o‘qilishini ortiqcha deb topadi, – dedi u.

Kotib o‘qishdan to‘xtab, qog‘ozlarni yig‘ishtira boshladi, prokuror yordamchisi jahl bilan allanimalarni yoza boshladi.

– Janob maslahatchilar daliliy ashyolarni ko‘zdan kechirishlari mumkin, – dedi sud raisi.

Oqsoqol va maslahatchilarning ba‘zilari o‘rinlaridan qo‘zg‘alishdi va harakatlari yoki qo‘llarining vaziyatidan o‘ng‘aysizlanib stolga yaqinlashishdi, uzukni, shishani va filtrni birma-bir ko‘zdan kechirishdi. Savdogar uzukni hatto barmog‘iga taqib ham ko‘rdi.

– Barmoqdan ham Xudo bergan ekan, – dedi u joyiga qaytib. – Yo‘g‘onligi xuddi o‘qloqdek keladi-ya, – deb qo‘shib qo‘ydi u zavqlanib, zaharlangan savdogarni pahlavondek tasavvur etib.

XXI

Daliliy ashyolar ko‘rib bo‘lgach, rais sud tergovni tamom bo‘lganini e‘lon etdi va tanaffus qilmasdan ishni tezroq tugatmoq uchun qoralovchiga so‘z berdi. Rais o‘zicha, qoralovchi ham odam-ku, uning ham chekkisi, ovqat yegisi kelar, bizlarga rahmi kelar, deb o‘ylagan edi. Ammo prokuror yordamchisi o‘zini ham, ularni ham ayamadi. Prokuror yordamchisi ahmoq odam edi. Buning ustiga, gimnaziyani oltin medal bilan bitirib, universitetda Rim huquqshunosligi bo‘yicha servitut* haqidagi asari uchun mukofot olib, mag‘rurlanib ketgan, o‘ziga bino qo‘ygan edi (xotinlarga manzur bo‘lishi undagi bu xudpisandlikni yana oshirib yuborgan edi), shuning uchun ham u o‘taketgan ovsar edi. So‘z berilgandan keyin u ohista o‘rnidan turdi, mundir kiygan basavlat gavdasini ko‘z-ko‘z qilib, ikki qo‘lini stolga qo‘ydi, boshini biroz qiyshaytirib, sudlanuvchilarga qaramay, zalda o‘tirganlarni ko‘zdan kechirib chiqqida, boshladi.

– Sizlarning ixtiyoringizda bo‘lgan ish, janob sud maslahatchilari, – deb boshladi u bayonnoma va akt o‘qilayotgan paytda tayyorlab qo‘ygan nutqini, – agar shunday deb atash mumkin bo‘lsa, o‘ziga xos jinoyatdir.

Prokuror yordamchisining nutqi, o‘zining fikricha, nom chiqargan advokatlar so‘zlagan mashhur nutqlar singari ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim edi. Sud zalidagilar orasida atigi uch xotin: tikuvchi,

* Birovning mulkidan ma‘lum darajada foydalanish huquqi.

oshpaz xotin, Simonning singlisi va bir izvoshchi o'tirardi. Lekin buning ahamiyati yo'q. O'sha mashhur advokatlar ham shunday boshlagan-da. Prokuror yordamchisining odati shu edi: hamma vaqt o'z vazifasini to'g'ri ado etib, ya'ni jinoyatning psixologik mohiyatini chuqur anglab, jamiyat marazlarini ochib tashlashi kerak edi.

– Janob sud maslahatchilari, siz ko'rib turgan bu hodisa, agar shunday ta'bir joiz bo'lsa, asrimizning oxiriga xos jinoyatdir, bu jinoyatlar jamiyatda bo'lgan unsurlarning buzilishi orqasida kelib chiqqan. Jinoyatkorlar esa shu buzilish jarayonining o'tkir shu'lasida ostida qolgan kishilardir...

Prokuror yordamchisi juda uzoq gapirdi. U bir tomondan o'ylab qo'ygan oqilona so'zlarini eslashga, ikkinchi tomondan va asosan, bir daqiqa ham to'xtamay, bir soatu o'n besh daqiqa tinmay bidillashga urindi. Faqat bir martagina to'xtab anchagacha tupugini yutib turdi-yu, lekin darhol o'zini tutib olib, boyagiday mahmadonalik qildi. U depsinib, sud hay'atlariga tikilib tilyog'lamalik bilan muloyimgina gapirar, goh daftarchasiga qarab-qarab qo'yib, sekin va jiddiy so'zlar, goh bir tomoshabinlarga, bir maslahatchilarga yuzlanib baland, fosh etuvchi ovoz bilan gapirardi. Ammo ko'zlarini uzmay unga tikilib o'tirgan uchala sudlanuvchilarga u bir marta ham ko'z tashlamadi. Uning nutqida o'sha vaqtlarda o'z ulfatlari orasida ko'p ishlatiladigan va hozir ham ilm-fan olamida yangilik deb hisoblanadigan narsalarning hammasi topilardi. Bu nutqda irsiyat masalasi ham, tug'ma jinoyatkorlik ham, Lomoroza ham, Tard ham, evolyutsiya ham, yashash uchun kurash ham, gipnotizm ham, uqdirish ham, Sharko* va dekadentlik ham – hammasidan bir shingildan bor edi.

Prokuror yordamchisining ta'rifiga qaraganda, savdogar Smelkov fe'li keng, zabardast, buzilmagan, ochiqko'ngil rus kishisi bo'lgan. U azbaroyi ochiqko'ngil va tantiligidan o'taketgan buzuq odamlar qo'lida o'lib ketgan.

Simon Kartinkin krepostnoylik huquqi qoldig'i bo'lib, ezilgan, ilmsiz, aqidasiz, hatto dinsiz bir odamdir. Yevfimiya uning o'ynashi va irsiyat qonunining qurbonidir. U ruhiy jihatdan aynigani oshkora

* *Lombrozo*, *Tard* – XIX asr oxirida mashhur bo'lgan olimlar; *Sharko* – XIX asrda yashagan fransuz olimi.

ko'rinib turgan shaxs. Dekadentlikning eng tuban namoyandalarida bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan Maslova jinoyatning asosiy sababchisidir.

– Bu xotin, – dedi prokuror yordamchisi unga qaramay, – ilmi, biz bu yerda, sudda, bekasining gapini eshitdik. U o'qish-yozishdan tashqari, fransuzchani ham biladi. U yetimcha, jinoyatkorlik, balki nasabida ham bo'lgandir. Bu xotin madaniy dvoryan oilasida tarbiya topgan, demak, halol mehnat bilan kun ko'rish mumkin edi; yo'q, bu kishi valene'matlarini tashlab ketadi, shahvoniy xirs ko'yiga tushadi va uni izlab islovatxonaga kiradi. Islovatxonada u ilmi bilan, eng muhimi, hozir bekasidan o'z qulog'ingiz bilan eshitdingiz, janob maslahatchilar, mijozlarga ta'sir etish qobiliyati bilan, ya'ni so'nggi paytlarda fan tomonidan, ayniqsa, Sharko maktabi tomonidan aniqlangan, ta'sir etish deb nomlangan xususiyati bilan boshqa juvonlardan ajralib turadi. U xuddi ana shu xususiyati bilan ochiqko'ngilli rus pahlavonini, ko'ngilchan Sadkoni – badavlat mehmonning boshini aylantiradi va uning anoyiligidan foydalanib bor-yo'g'ini shiladi, keyin, shafqatsizlarcha hayotidan mahrum qiladi.

– Juda oshirib yubordi-ku,– dedi rais iljayib, jiddiy qiyofadagi sud a'zosi tomonga engashib.

– Qip-qizil ahmoq, – dedi jiddiy qiyofadagi sud a'zosi.

– Janob maslahatchilar, – deb davom etdi bu orada prokuror yordamchisi xipcha belini bilanglatib, – mana shu shaxslarning taqdiri sizlarning qo'lingizda. Shuningdek, jamiyat taqdiri ham qisman sizning qo'lingizda, chunki siz o'z hukmingiz bilan bunga ta'sir qilasiz. Sizlar ushbu jinoyatning mohiyatini, mana shu Maslova kabi g'ayritabiiy shaxslarning jamiyat uchun qanday xavfli ekanini sinchiklab o'rganing va jamiyatni zaharlanishdan, bu jamiyatdagi iffatli, mustahkam kishilarni zaharlanishdan va bekor halok bo'lib ketishdan himoya qiling.

O'z nutqiga o'zi qoyil qolgan prokuror yordamchisi sud tomonidan qabul qilinadigan qarorning muhimligidan larzaga kelganday o'tirib qoldi.

Qochiriq gaplarini mustasno qilganda, nutqining mazmuni shundan iborat ediki, Maslova savdogarning boshini aylantirib, uning

ishonchini qozongan-da, kalit bilan xonaga kelib, pulning hammasini o'zi olmoqchi bo'lgan, lekin Simon bilan Yevfimiya uning ustidan chiqib qolishgandan keyin bo'lishib olishga majbur bo'lgan. Keyin jinoyatni yashirish maqsadida savdogar bilan mehmonxonaga qaytib kelgan va uni zaharlagan.

Prokuror yordamchisining nutqidan keyin jinoyatchilar stoli yonida o'tirgan frak kiygan, oppoq ko'ylagining ko'kragi kraxmal-langan o'rta yoshlardagi kishi o'rnidan turdi va Kartinkin bilan Bochkovani yoqlab nutq so'zladı. Bu odam Kartinkin bilan Bochkova uch yuz so'mga yollagan advokat edi. U hamma aybni Maslovaga to'nkab, bularning ikkovini oqlashga urindi.

Advokat Maslovaning: «Pul olayotganimda tepamda Bochkova bilan Kartinkin bor edi», degan gapini rad qilib, zahar berib odam o'ldirishda ayblangan ayolning so'zi inobatga o'tmaydi, deb turib oldi. Ikki ming besh yuz so'm esa, dedi advokat, bu ikkala mehnatkash va insofli odamlar tomonidan ishlab topilgan bo'lishi mumkin. Nimagaki mehmonlar ularga kunda uch so'm, ba'zida esa besh so'm berib ketishadi. Savdogarning pulini esa, shak-shubhasiz, Maslova o'g'irlagan, keyin yo birovga berib yuborgan, yoki bo'lmasa, yo'qotib qo'yan. Zeroki, o'sha paytda u mast bo'lgan. Savdogarni zaharlagan ham Maslovaning o'zi.

Advokat maslahatchilardan ana shu yuqorida zikr etib o'tilganlarni nazarda tutib, Kartinkin bilan Bochkovani gunoh-siz deb hisoblashni, mabodo pul o'g'irlashda aybdor deb hisoblangan taqdirda esa, ularni oldindan tuzilgan rejaga muvofiq zaharlashda aybdor deb hisoblamaslikni so'radi.

So'z oxirida advokat, prokuror yordamchisiga o'chakishib, janob prokuror yordamchisining irsiyat haqidagi so'zlari, garchi irsiyat to'g'risidagi ta'limotni ilmiy jihatdan yoritib ko'rsatsa-da, Bochkovaning ota-onasi noma'lum bo'lgani hozirgi voqeaga aloqasi yo'qligini uqdirib o'tdi.

Prokuror yordamchisi achchiqlanib, zarda bilan allanarsalarni qog'ozga yozib oldi va nafrat aralash hayrat bilan yelkasini qisib qo'ydi.

Keyin Maslovaning advokati o'rnidan turib tutila-tutila, tortinib-gina himoya qila boshladi. U Maslovaning pulni o'g'irlashda ishtirok etganini inkor qilmadi, faqat Maslova Smelkovni o'ldirishni xayoliga

ham keltirmaganini, uni uxlatish uchungina dori ichirganini gapirdi. Advokat Maslova bu tubanlikning barcha achchiq-chuchugini totib turgani holda uni yo'ldan ozdirgan erkak jazolanmay qolgani to'g'risida va'zxonlik qilib, odamlarning ko'nglini yumshatmoqchi bo'lib ko'rdi-yu, lekin uddasidan chiqolmay, qaytaga boshqalarni ham xijolatga soldi. Advokat erkaklarning toshko'ngilligi, xotin-qizlarning zaifligi haqida ezmalik qilayotgandi, rais uni og'ir ahvoldan chiqarish uchun masaladan uzoqlashmasligini iltimos qilib qoldi.

Bu himoyachidan keyin prokuror yordamchisi yana o'rnidan turib, birinchi himoyachiga qarshi o'zining irsiyat haqidagi mulohazalarini yoqlab ketdi va Bochkovaning ota-onasi noma'lum bo'lsa-da, bu bilan chin haqiqat bo'lgan irsiyat qonunini kamsitib bo'lmaydi, irsiyat to'g'risidagi ta'limot ilmiy jihatdan tasdiqlangani sababli, irsiyatga qarab jinoyatni belgilabgina qolmasdan, balki jinoyatga qarab irsiyatni belgilab olamiz, deb uqdirishga urindi. Ikkinchi advokating Maslovani allaqanday bir (u «allaqanday» so'zini aytganda zaharxanda qildi) odam yo'ldan ozdirgan degan fikriga kelganimizda, shuni aytish mumkinki, bil'aks barcha faktlar yo'ldan ozdiruvchi Maslovaning o'zi ekanini va ko'p odamni yo'ldan ozdirganini ko'rsatadi, dedi. Shu so'zlarni aytib bo'lgach, prokuror yordamchisi dabdaba bilan o'tirdi.

Keyin o'zlarini oqlash uchun sudlanuvchilarga so'z berildi.

Yevfimiya Bochkova hamon, hech narsa bilmayman, hech nimada ishtirok etmadim, deb takrorlar, hammasiga o'sha aybdor, deb Maslovani ko'rsatardi. Simon bo'lsa bir necha bor:

– Ixtiyor sizlarda, ammo aybim yo'q, bekor ketyapman, – deb takrorladi, xolos.

Maslova bo'lsa hech narsa demadi. Rais unga, o'zingizni himoya qilish uchun nima deysiz, gapiring, deganda boshini ko'tardi, qafasga tushgan qushdek hammaga mo'ltirab qaradi-da, boshini yerga egib ho'ngrab yig'lab yubordi.

Nexlyudovning yonida o'tirgan savdogar:

– Sizga nima bo'ldi? – deb so'radi Nexlyudovning og'zidan chiqqan g'alati bir tovushni eshitib. Bu – to'satdan to'xtatib qolingan yig'i tovushi edi.

Nexlyudov o'zining hozirgi ahvoriga hamon tushunib yetmagan edi. U ko'z yoshlarini oqizib, ho'ngrab yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tutib qolgan edi. Bu holni u asabiyligidan deb bildi va buni yashirish uchun pensne taqdi, keyin ro'molchasini olib, burnini qoqa boshladi.

Shu yerda, sud zalida o'tirganlar mening qilmishimdan xabardor bo'lib qolsalar, sharmanda bo'laman, degan andisha uning ko'nglida borayotgan kechinmalarni bo'g'ib tashladi. Bu qo'rquv hozirgi paytda hamma narsadan kuchli edi.

XXII

Ayblanuvchilarning so'nggi so'zidan keyin va taraflar masalani qay tariqa qo'yish haqida uzoq talashib-tortishganlaridan keyin maslahatchilar oldiga qo'yiladigan savollar aniqlandi, rais yakunlashga o'tdi.

Sud raisi masalani bayon qilishdan avval talonchilik talonchilik ekanini, o'g'rilik o'g'rilik ekanini, yashirib qo'yilgan joydan o'g'irlash yashirib qo'yilgan joydan o'g'irlash demakligini va ochiq-sochiq yotgan yerdan o'g'irlash ochiq-sochiq yotgan yerdan o'g'irlash demakligini maslahatchilarga yoqimli ovoz bilan anchagacha uqdirdi. Buni tushuntirarkan, rais, bu muhim holatni unga uqdirmsam, zora boshqalarga ham tushuntirib qo'ysa, degandek Nexlyudovga qarab-qarab qo'yardi. Maslahatchilar bu haqiqatni anglab olishdi, degan qarorga kelgandan keyin u boshqa bir haqiqatni tushuntira ketdi. So'ng u, biron harakat natijasida biron kishi o'lsa, bunday harakatni qotillik deyдилar, shuning uchun zaharlash ham o'ldirish hisoblanadi, deb uqdira ketdi. Maslahatchilar bu haqiqatni ham anglab yetdilar, degan xulosaga kelgach, u agar o'g'rilik va qotillik bir vaqtda sodir bo'lgan ekan, u holda jinoyat tarkibi o'g'rilik bilan qotillik bo'lishini tushuntirdi.

Rais o'z kasbiga shu qadar o'rganib qolgandiki, o'zi ishni tezroq tugatib ketishni istasa ham, shveysariyalik ma'shuqasi kutib qolgan bo'lsa ham bir og'zini ochgandan keyin o'zini hech to'xtatib qololmadi. Shuning uchun ham u maslahatchilarga, agar sudlanuvchilarni aybdor deb hisoblasalar, aybdor deb hisoblashga haqli ekanlarini, agar gunohsiz deb hisoblasalar, gunohsiz deb hisoblashga haqli ekanlarini, mabodo bir ishda aybdor, ikkinchisida

aybsiz deb hisoblasalar, u holda, bir ishda aybdor, ikkinchisida aybsiz deb hisoblashlari mumkinligini uqdira ketdi. Keyin rais maslahatchilarga yana bir narsani, ularga bu huquq berilgani bilan, huquqdan o'ylab, oqilona foydalanishlari kerakligini tushuntirdi. U maslahatchilarga yana bir narsani, agar berilgan savolga tasdiq javobini berishsa, bu bilan berilgan savolni to'la-to'kis tasdiqlagan bo'lishlarini, agar savolga to'la-to'kis qo'shilishmasa, u holda nimasiga qo'shilmaganlarini aytib o'tishlari kerakligini ham tushuntirmoqchi edi. Lekin rais soatiga qaradi-yu, besh daqiqa kam uch ekanini ko'rib, yakunlashga o'tdi.

– Bu ish mana shunday sharoitda bo'lgan, – deb boshladi u so'zini. U himoyachilar, prokuror yordamchisi hamda guvohlar bir necha bor gapirib o'tgan so'zlarni takrorladi.

Rais so'zlar, ikki yonida o'tirgan sud hay'atlari esa ma'nodor tusda tinglashar, raisning nutqini yaxshi deb, ya'ni talabga muvofiq deb topishar, lekin sal uzunroq deb hisoblab, ahyon-ahyonda soatlariga qarab qo'yishardi. Barcha sud xodimlari va zalda o'tirganlar singari prokuror yordamchisi ham xuddi shu fikrda edi. Nihoyat, rais yakunlab bo'ldi.

Gap tamom bo'lgandek edi. Ammo rais o'zining gapirish huquqidan sira voz kecholmasdi – o'zining ta'sirchan tovushini eshitish unga shu qadar xush yoqardiki, maslahatchilarga berilgan huquqning muhimligini, maslahatchilar bu huquqdan, suiiste'mol qilmay, ehtiyotkorlik va hushyorlik bilan foydalanishlari kerakligi, o'zlarining qasamyod qilganlari va jamiyatning vijdoni ekanliklari hamda maslahat xonasidagi sirlar muqaddas saqlanishi va hokazo va hokazolar haqida bir necha og'iz gapirib o'tishni lozim deb topdi.

Rais so'zlay boshlagandan keyin Maslova uning biron og'iz so'zini eshitmay qolmaslik uchun undan ko'z uzmay tikilib qoldi. Shu sababli Nexlyudov ko'zi ko'ziga tushib qolishidan qo'rqmay, Maslovaga tikildi. Uning tasavvurida odatdagi shunday bir hol yuz berardi: sevimli odaming ko'pdan buyon ko'rmagan chehrasi dastlab shu ko'rishmagan davr ichida ro'y bergan tashqi o'zgarishlar bilan kishini hayratga soladi va bora-bora barcha o'zgarishlar ko'zdan yo'qolib, ko'p yillar muqaddam qanday bo'lsa, shu holatga qaytadi va botin ko'zi bilan mislsiz yagona bir shaxsni ko'radi.

Nexlyudov xuddi shunday ahvolda edi.

Haqiqatan ham, egnida mahbuslar xalati bo'lishidan qat'iy nazar, gavdasining to'laligi, ko'ksining kattaligi va yuzining pastki qismi to'lishib ketganiga qaramay, peshona va chakkalaridagi ajinlariga, ko'zining shishinqiraganiga qaramay, bu o'sha Katyusha, Isoning tirilish bayrami kuni Nexlyudovga, oshiqiga qiya boqib, quvonchini ichiga sig'dirolmaganidan kulib turgan, ko'zlarida sevgi-muhabbat aks etgan Katyusha edi.

«Qiziq! Kelib-kelib men ishtirok etadigan kunga to'g'ri kelganini qarang-a! O'n yil hech qayerda ko'rmay, kelib-kelib shu yerda, aybdorlar kursisida uchratsam-a! Oxiri nima bo'larkin? Tezroq, tezroq bir yoqliq bo'la qolsaydi!»

Nexlyudov qalbida uyg'onib kelayotgan pushaymon hissiga hamon bo'ysungisi kelmasdi. Nazarida, bu uning hayotiga shikast bermay, o'z-o'zidan o'tib ketadigan tasodifdek tuyulardi. Nexlyudov o'zini uy ichini bulg'atib qo'yan, egasi gardanidan ushlab, burnini shu iflos axlatga nuqib turgan laychadek his etardi. Laycha o'z axlatidan tisarilishga bor kuchi bilan urinadi, uni butunlay unutish uchun chiyillaydi; ammo shafqatsiz xo'jayini qo'yib yubormaydi. Nexlyudov ham qilgan qilg'iligining naqadar qabihligini sezar, xo'jayinning qudratli qo'lini his etardi-yu, ammo qilmishining ma'nisiga tushunib yetmas, xo'jayinini tan olmasdi. U mana shu ko'z o'ngidagi ish o'z ishi ekaniga ishonishni istamasdi. Ammo ko'rinmas shafqatsiz qo'l uni mahkam ushlab olgan. Nexlyudov bu qo'ldan qochib qutulolmasligini his etardi. Shunga qaramay, u hamon o'ziga dalda berar va odatiga ko'ra, oyog'ini chalishtirib, pensnesini beparvogina o'ynatib, birinchi qatordagi ikkinchi stulda kekkayib o'tirardi. Vaholanki, qilgan ishigina emas, balki ishratbozlik, bekorchilik, ifloslik bilan o'tgan umrining naqadar qabih, yaramas va razil ekanini his etardi, mana shu o'n ikki yil davomida uning bu jinoyati va so'nggi yillar ichida kechirgan butun hayotini qandaydir bir mo'jiza bilan to'sib turgan o'sha dahshatli parda tebrana boshladi va parda orqasiga Nexlyudovning ora-sira ko'zi tushib qolardi.

XXIII

Nihoyat, rais soʻzini tugatdi-da, viqor bilan soʻroqlar yozilgan qogʻozini qoʻliga olib, uning oldiga kelgan oqsoqolga uzatdi. Maslahatchilar endi chiqib ketish mumkin, deb mamnun boʻlib oʻrinlaridan turishdi, qoʻllarini qayerga qoʻyishlarini bilmay, nimadandir uyalganday, birin-ketin maslahatxonaga kirib ketishdi. Ularning ketidan eshik yopilishi bilanoq bir jandarm eshik yoniga kelib qilichini qinidan chiqardi-da, yelkasiga qoʻyib, soqchilikda turdi. Sudyalar oʻrinlaridan turib, chiqib ketishdi. Sudlanuvchilarni ham olib chiqib ketdilar.

Maslahatchilar maslahatxonaga kirgach, odatdagidek, avval papiros cheka boshladilar. Maslahatxonaga kirib papiros chekislari bilanoq zalda, oʻz oʻrinlarida oʻtirgan paytlarida ozmi-koʻpmi his etgan gʻayritabiiylik va soxtalikdan asar ham qolmadi. Hammalari biroz yengil tortgandek joylashib oʻtirishdi va gapga tushib ketishdi.

– Qiz bechoraning aybi yoʻq, boshi aylanib qolgan, – dedi koʻngilchan savdogar, – insof qilish kerak.

– Shuni muhokama qilamiz-da,– dedi oqsoqol. – Biz shaxsiy taassurotlarga berilib ketmasligimiz kerak.

– Rais yakunlovchi soʻzini juda bopladi, – dedi polkovnik.

– Boplaganmish! Sal boʻlmasa, uxlab qolay debman-a.

– Hamma gap shundaki, Maslova ular bilan til biriktirgan boʻlmasa, xizmatkorlar puli borligini bilishmasdi, – dedi yahudiy namo sarkor.

– Xoʻsh, nima demoqchisiz, pulni Maslova oʻgʻirlagan demoqchimisiz? – deb soʻradi maslahatchilardan biri.

– Bunga sira ishonmayman, – deb shangʻilladi koʻngilchan savdogar, – bu ishlarning hammasini anovi qizilkoʻz shallaqi qilgan.

– Hammasiyam bir goʻr, – dedi polkovnik.

– Xizmatkor xotin xonaga kirganim yoʻq, deyapti-ku.

– Aytganiga ishonaverasizmi? Men u manjalaqining gapiga oʻlsam ham ishonmayman.

– Nima boʻpti, ishonmasangiz ishonmay qolaverasiz-da, lekin bu kifoya emas, – dedi sarkor.

– Kalit Maslovada ekan-ku.

– Maslovada boʻlsa, nima qipti? – deb eʼtiroz bildirdi savdogar.

– Uzuk-chi?

– Axir, o‘zi aytdi-ku,– deb yana vag‘illadi savdogar, – savdogar bo‘lganda ham zarbi tang ekan, buning ustiga, kayfi taraqqat ekan, uni uribdi. Keyin, rahmi kelib, ma, ola qol, yig‘lama, degan. O‘ziyam tog‘ni talqon qiladigan odam ekan, eshitdik-ku: bo‘yi ikki gazu o‘n ikki vershok, og‘irligi sakkiz pud ekan.

– Gap bunda emas,– deb uning gapini bo‘ldi Pyotr Gerasimovich, – bu ishni boshlagan Maslovami yo xizmatkormi – gap ana shunda.

– Xizmatkor bu ishni yolg‘iz qilolmaydi. Kalit Maslovada bo‘lgan. Bu xildagi poyma-poy suhbat uzoq davom etdi.

– Shoshmanglar, janoblar, – dedi oqsoqol, – avval bunday joylashib o‘tiraylik-da, keyin maslahatlashaylik. Marhamat, – dedi u raislik o‘rniga o‘tirayotib.

– Bunaqa qizlarning o‘ziyam o‘lgudek yaramas bo‘ladi, – dedi gumashta. U asosiy aybdor Maslova degan fikrni tasdiqlash maqsadida shunaqalardan biri xiyobonda o‘rtog‘ining soatini o‘g‘irlab qo‘yganini so‘zlab berdi.

Polkovnik o‘shanga o‘xshash yana bir g‘alati voqeani, ya‘ni kumush o‘ziqaynarni o‘g‘irlash voqearasini so‘zlay boshladi.

– Janoblar, savollarni o‘qishga o‘taylik, – dedi oqsoqol qalam bilan stolni taqillatib.

Hamma jim bo‘lib qoldi. Bu savollar quyidagicha mazmunda edi:

1) 188*-yilning 17-yanvar kuni N shahrida, savdogar Smelkovni talash maqsadida uni o‘ldirish rejasini tuzib, boshqa odamlar bilan til biriktirib, konyakka zahar solib ichirib o‘ldirishda va savdogarning ikki ming besh yuz so‘mga yaqin puli bilan brilliant uzugini o‘g‘irlashda ayblangan, Krapivenskaya uyezding Borkov qishlog‘ida tug‘ilgan o‘ttiz uch yashar dehqon Simon Petrov Kartinkinni gunohkor hisoblaysizmi?

2) Meshchanlardan chiqqan, qirq uch yashar Yevfimiya Ivanovna Bochkovaning birinchi savolda ta‘riflab o‘tilgan jinoyatda gunohkor deb bilasizmi?

3) Meshchanlardan chiqqan yigirma yetti yashar Yekaterina Mixaylovna Maslovani birinchi savolda ta‘riflab o‘tilgan jinoyatda gunohkor deb bilasizmi?

4) Agar sudlanuvchi Yevfimiya Bochkova birinchi savol bo‘yicha gunohkor deb hisoblanmasa, u 188*-yilning 17-yanvar kuni N shah-

rining «Mavritaniya» mehmonxonasida xizmat qilib yurib, shu mehmonxonada turuvchi savdogar Smelkovning qulflog‘liq chamadonidan ikki ming besh yuz so‘m pulini kalit solib ochib o‘g‘irlashda ayblanmaydimi?

Oqsoqol birinchi savolni o‘qidi:

– Xo‘sh, nima deysizlar, janoblar?

Bu savolga darrov javob bera qolishdi. Hamma bir og‘izdan Kartinkinni savdogarni zaharlash va pulini o‘g‘irlashda ishtiroki bor deb topib: «Ha, gunohkor», – deyishdi. Faqat kekxa artelchigina Kartinkinni aybdor deb hisoblashga rozi bo‘lmadi. U hamma savollarga ham oqlab yuborish kerak, degan mazmunda javob qaytarardi.

Oqsoqol artelchi masalaga tushunmadi, shekilli, deb o‘yladi-da, Kartinkin bilan Bochkovaning aybdorligi ochiq-oydin ko‘rinib turibdi, deb uqdira boshlagan edi hamki, artelchi o‘zi ham yaxshi tushunib turganini, har holda shafqat qilish lozimligini gapirdi. «O‘zimiz ham begunoh emasmiz-ku», – dedi u o‘z fikrida qolib.

Bochkova haqidagi ikkinchi savolga, uzoq talashib-tortishuvlardan keyin: «gunohsiz» deb javob berishdi, chunki advokati aytgandek, uning zaharlashda ishtirok etganini isbotlovchi dalil yo‘q edi.

Maslovani oqlash maqsadida savdogar hamma ishni mana shu Bochkova boshlagan, deb turib olgan edi, maslahatchilarning ko‘pchiligi uning fikriga qo‘shilishdi, ammo oqsoqol, qat‘iyan qonunga rioya qilib, savdogarni zaharlashda Bochkova ishtirok etgan deyishda asos yo‘q, dedi. Uzoq tortishuvlardan keyin oqsoqolning fikri maqbul bo‘ldi.

Bochkova haqidagi to‘rtinchi savolga: «Ha, aybdor», deb javob berishdi, keyin artelchining qistovi bilan: «Ammo shafqat qilsa arziydi», deb qo‘shib qo‘yishdi.

Maslova haqidagi uchinchi savol ustida tortishuv boshlanib ketdi. Oqsoqol Maslovani talashda ham, zaharlashda ham ayblardi, savdogar uning fikriga qo‘shilmas, savdogar bilan birga polkovnik ham, sarkor ham, artelchi ham qo‘shilmas edi, boshqalar esa ikkilanishardi. Maslahatchilar charchab qolgani uchun ham oqsoqolning tarafdorlari ko‘payib qoldi; charchaganlari uchun ham tezroq qutulib ketish maqsadida qaysi tomon baland kelsa, shunga qo‘shilishardi.

Maslovaning pulni o'g'irlashda ham, zaharlashda ham aybdor emasligini Nexlyudov sud tergovining borishiga qarab yaxshi anglab olgan edi. Bundan tashqari, u Katyushani juda yaxshi bilardi-ku, axir. Shu sababli u boshqalar ham shu fikrga keladi deb qattiq ishongan edi; ammo keyin qarasaki, savdogar Maslovani himoya etishda no'noqlik qildi. Savdogar Maslovaning qaddiqomati yoqib qolgani uchun ham himoya qilar, buni yashirmasdi. Oqsoqol shularni uning yuziga solib, qattiq zarba bergandan keyin, asosan esa, hamma charchagani tufayli butun ayb Katyushaning bo'yniga tushib qoladigan bo'ldi. Buni sezgan Nexlyudov Maslovaning tarafini olib gapirmoqchi bo'ldi-yu, lekin hamma uning Katyushaga bo'lgan munosabatini sezib qoladigandek, qo'rqib ketdi. Ammo, shunga qaramay, u ishni shu ahvolda qoldirib ketolmasligini, e'tiroz bildirish lozimligini his etar, bir qizarar, bir bo'zarardi, keyin endi gapiraman deb turgan ham ediki, boyadan beri miq etmay o'tirgan Pyotr Gerasimovich, oqsoqolning baland kelib gapira yotganiga g'ashi keldi shekilli, birdan unga e'tiroz bildirdi va Nexlyudov aytmoqchi bo'lib turgan gaplarni ayta boshladi.

– Shoshmang, – dedi u, – qo'lida kalit bo'lgani uchun Maslova o'g'irlagan deyapsiz. Ajabo, u ketgandan keyin xizmatkorlar kalit topib ochisholmasmidi?

– Shunday, shunday, – deb tasdiqladi savdogar.

– Maslova pulni olganmas, nega deganda uni qo'yadigan joyi yo'q.

– Men ham shunday deyapman, – deb tasdiqladi savdogar.

– Maslova kelib-ketganidan keyin xizmatkorlarning niyati buzilib, paytdan foydalanib qolgan, keyin hammasini unga to'nkashgan.

Pyotr Gerasimovich zarda qilib gapirardi, uning achchig'lanib gapirayotganini ko'rgan oqsoqolning ham beshbattar jahli chiqdi va boyagidan battar o'jarlik qilib o'z fikrida turib oldi. Ammo Pyotr Gerasimovich shu qadar ishonchli qilib gapirardiki, ko'pchilik uning gapini ma'qulladi, pul bilan uzukni o'g'irlashda Maslovaning ishtiroki yo'q, uzukni unga savdogarning o'zi sovg'a qilgan degan fikrga kelishdi. Savdogarni zaharlashda Maslovaning ishtiroki bor-yo'qligi haqidagi savolga kelganda, uning qizg'in himoyachisi savdogar,

Katyushada gunoh yo'q deb hisoblash zarur, nimagaki, Smelkovni o'ldirishdan unga manfaat yo'q edi, dedi. Oqsoqol bo'lsa, poroshok berganiga Maslovaning o'zi iqror bo'lgani uchun uni begunoh deb bo'lmaydi, derdi.

– Berishga-ku bergan-a, lekin uni afyun deb o'ylagan-da, – dedi savdogar.

– Afyun bilan ham zaharlab o'ldirish mumkin, – dedi qo'shimcha bayonot berishni yaxshi ko'rgan polkovnik; u qaynisining xotini afyundan zaharlanganini, agar darrov doktor chaqirib vaqtida chora ko'rilmaganda o'lib qolishi hech gap emasligini so'zlay boshladi. Polkovnik viqor bilan shu qadar ta'sirli qilib, ishontirib so'zlardiki, uning gapini bo'lishga hech kim jur'at qilmadi. Faqat gumashtagina, polkovnikdan o'rnak olib, bir voqeani so'zlab berish uchun uning gapini bo'ldi.

– Ba'zi odamlar shu qadar o'rganib ketadiki, – deb gap boshladi u, – bemalol qirq tomchidan ichaveradi; bir qarindoshimiz...

Ammo polkovnik gapini bo'lishga yo'l qo'ymadi va qaynisining xotiniga afyun qanday ta'sir qilganini hikoya qila ketdi.

– Janoblar, axir, soat besh bo'lib qoldi, – dedi maslahatchilardan biri.

– Nima deydigan bo'ldik, janoblar, – dedi oqsoqol, – o'zi gunohkor-u, lekin talashni xayoliga keltirmagan savdogarning buyumini o'g'irlamagan. Shundaymi?

Pyotr Gerasimovich g'alaba qozonganidan sevinib, bu fikrga qo'shildi.

– Ammo-lekin shafqat qilish kerak, – deb qo'shib qo'ydi savdogar.

Hamma uning gapini ma'qulladi. Faqat artelchigina: «Yo'q, gunohsiz» deyish kerak, deb turib oldi.

– O'ziyam shu ma'no chiqyapti, – deb tushuntirdi oqsoqol, – talashni xayoliga keltirmagan, buyumini o'g'irlamagan, deyapmiz-ku. Demak, gunohsiz bo'ladi-da.

– Mayli, shunday deb yoza qol, yana shafqat qilish lozim, deb qo'shib qo'y. Bundan chiqdi, endi qutulibmiz-da, – dedi savdogar xursand bo'lib.

Hamma shu qadar charchagan, talashib-tortishib shu qadar boshlari qotgan ediki, savdogarning joniga qasd qilgan emas, deb qo'shib qo'yish hech kimning xayoliga kelmadi.

Nexlyudov shu qadar hayajonlangan ediki, buni payqamay qoldi. Javoblar xuddi shu taxlitda yozildi va sud zaliga olib kirildi.

Rable shunday deb yozadi: bir yuristning oldiga sudlashmoq uchun kelishibdi. Haligi yurist har turli qonun-qoidalarni nazarda tutib, yigirma bet lotincha yuridik rivoyatlarni o'qib chiqqandan keyin sudlashayotganlarga soqqa tashlashni taklif etibdi. Agar chikka tushsa, da'vogar haq bo'ladi, agar pukka tushsa, javobgar haq bo'ladi, degan ekan.

Bu yerda ham shunday edi. Ma'lum bir qarorga kelinganiga hammaning roziligi sabab bo'lmadi. Bunga sabab, birinchidan, yakunlashni shu qadar cho'zgan rais bu gal har doim aytadigan gapini, ya'ni savolga javob qaytarayotganda maslahatchilar: «Ha, aybdor-u, lekin hayotiga qasd qilgan emas», deyishlari mumkinligini aytishni unutgan edi; ikkinchidan, polkovnik qaynisining xotini boshidan kechirgan voqeani uzoq va zerikarli hikoya qildi; uchinchidan, Nexlyudov shu qadar hayajonlangan ediki, hayotiga qasd qilgan emas, degan izohning yo'qligini payqamadi va «talashni xayoliga keltirgan emas» degan izoh Maslovaning begunohligini ochiq-oydin ko'rsatib beradi, deb o'yladi; to'rtinchidan, oqsoqol savol va javoblarni qaytadan o'qib chiqqan paytda Pyotr Gerasimovich yo'q edi, u tashqariga chiqib ketgan edi. Asosiy sabab shunda ediki, hamma charchagan, hamma tezroq qutulib ketishni o'ylar, shuning uchun ham qaysi qaror ishning tezroq tugashiga yo'l ochsa, shunga qo'shilishga urinardi.

Maslahatchilar qo'ng'iroq chalishdi. Qilichini yalang'ochlab eshik oldida turgan jandarm qilichini qiniga soldi-da, o'zini chetga oldi. Sudyalar joy-joylariga o'tirishdi, maslahatchilar birin-ketin chiqib ketishdi.

Oqsoqol tantanali sur'atda qog'ozni olib keldi. U raisning oldiga kelib, qog'ozni uzatdi. Rais o'qidi va hayron bo'ldi, shekilli, yelkasini qisib qo'ydi-da, yonidagilarga o'girilib maslahatlasha boshladi. Rais maslahatchilarning: «talashni xayoliga ham keltirmagan» deb izoh berib, «joniga qasd qilgan emas» deb izoh bermaganlariga hayron edi. Maslahatchilarning qaroriga binoan, Maslova o'g'irlik, talonchilik qilmagan-u, lekin shunga qaramay, bekordan-bekorga bir odamni zaharlab o'ldirgan bo'lib chiqardi.

– Chiqargan bema’ni qarorlarini ko’ring, – dedi u chap tomonida o’tirgan a’zoga. – Bu – katorga mehnatiga mahkum qilish demak, aslida esa tariqcha gunohi yo’q.

– Nega endi begunoh bo’larkan? – dedi jahldor a’zo.

– Begunoh bo’lgandan keyin begunoh deymiz-da. Menimcha, bunga 818-moddani tatbiq qilish kerak. (818-moddada, agar sud hay’ati qo’yilgan ayb noto’g’ri deb topsa, maslahatchilarning qarorini bekor qilishi mumkin, deyilgan edi.)

– Bunga siz nima deysiz? – dedi rais ko’ngilchan a’zoga yuzlanib.

Ko’ngilchan a’zo javob beraqolmadi. U oldida yotgan qog’ozning raqamiga qaradi-da, raqamlarni qo’shdi, uchga taqsim qilgan edi, bo’linmadi: u taqsim qilganda, agar bo’linsa, qo’shilaman, deb o’ylagan edi, ammo ko’ngilchanligidan taqsim bo’lmasa ham qo’shila qoldi.

– Tatbiq qilinsa, yaxshi bo’lardi, – dedi u.

– Siz nima deysiz? – dedi rais jahldor a’zoga yuzlanib.

– Qo’shilmayman, – deb javob berdi u qat’iy qilib. – Gazetalarda maslahatchilar jinoyatchilarni bekordan-bekorga oqlab yuborishyapti, deb yozganlari yetmaydimi, sudning o’zi oqlab yuborsa, nimalar deyishmaydi. Yo’q, men bunga sira qo’shilolmayman.

Rais soatiga qaradi.

– Esizgina, endi nimayam qilolamiz, – rais shunday dedi-yu, o’qib eshittirish uchun qog’ozni oqsoqolga uzatdi.

Hamma o’rnidan turdi. Oqsoqol turgan joyida depsinib, yo’talib qo’ydi-da, savol-javoblarni o’qiy boshladi. Sud hay’atidagilarning hammasi: kotibdan tortib advokatgacha, hatto prokurorgacha hayron bo’lib qolishdi.

Sudlanuvchilar javoblarning ma’nisiga tushunib yetishmadi, shekilli, jim o’tirishardi. Hamma yana o’z joyiga o’tirdi, rais prokurordan, sudlanuvchilar qanday jazoga loyiq, deb so’radi.

Kutilmaganda Maslova masalasida muvaffaqiyat qozonganidan sevingan prokuror buni notiqligining samarasi deb topdi, qog’ozlarini titkilab qarab olgach, o’rnidan qo’zg’alib qo’ydi-da:

– Simon Kartinkinni 1452-modda va 1453-moddaning 4-bandiga muvofiq, Yevfimiya Bochkovani 1659-moddaga muvofiq, Maslovani esa 1454-moddaga muvofiq jazolash lozim, deb hisoblayman, – dedi.

Bu jazolarning hammasi ham juda og'ir jazolardan edi.

– Sud hukm chiqarish uchun chiqib ketadi, – dedi rais o'rnidan turib.

Uning ketidan hamma o'rnidan turdi va o'zini yaxshi ishni bajargandek ancha yengil his qilib zaldan chiqa boshladi, ba'zilar zalda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

– Ishni rasvo qilib qo'ydik-ku, taqdir, – dedi Pyotr Gerasimovich Nexlyudovning oldiga kelib; oqsoqol Nexlyudovga allanimalarni hikoya qilayotgan edi. – Bechora juvonne katorgaga yuboradigan bo'ldik.

– Nima dedingiz?! – deb qichqirib yubordi Nexlyudov. Hozir u o'qituvchining betakallufigini sezmay ham qolgan edi.

– Aytdim-ku hozir, – dedi Pyotr Gerasimovich. – Javobda: «Gunohkor-u, lekin hayotiga qasd qilgan emas», demabmiz. Menga hozir kotib aytdi: prokuror uni o'n besh yil katorgaga mahkum qilmoqchi, deb.

– O'zimiz shunday qaror qildik-ku, – dedi oqsoqol.

Pyotr Gerasimovich, Maslova pulni olmagandan keyin, savdogarning hayotiga qasd ham qilmagani ochiq-ravshan ko'rinib turibdi, deb tortisha boshladi.

– Bu yoqqa chiqmasdan turib javobni o'z'laringizga o'qib berdim-ku, – deb o'zini oqladi oqsoqol. – Hech qaysingiz e'tiroz bildirmadingiz.

– O'qib bergan vaqtingizda men yo'q edim, tashqariga chiqqandim, – dedi Pyotr Gerasimovich. – Siz nega to'g'rilatmadingiz?

– Bunday bo'lar deb o'ylamabman, – dedi Nexlyudov.

– O'ylamagandan keyin shunday bo'ladi.

– Haliyam to'g'rilasa bo'ladi. – dedi Nexlyudov.

– Yo'q, endi to'g'rilab bo'pmiz.

Nexlyudov sudlanuvchilarga qaradi. Ular, ya'ni taqdiri hal etilayotgan bu kishilar panjara orqasida, askarlar oldida boyagidek qimir etmay o'tirishardi. Maslova nimagadir jilmayib o'tirardi. Nexlyudovning ko'nglida yomon his uyg'ondi. Boya, Katyushaning oqlanishi va shaharda qolishiga ko'zi yetgandan keyin unga qanday munosabatda bo'lishiga hayron bo'lib o'tirgan edi; u bilan munosabatda bo'lish ham qiyin edi. Katorga va Sibirga surgun qilinishi esa unga nisbatan bo'ladigan har qanaqa munosabatga xotima beradi: yaralangan qush ovchining xaltasida tipirchilab, o'zini eslatolmaydi.

XXIV

Pyotr Gerasimovichning taxmini to'g'ri edi.

Rais kengashib chiqdi-da, qog'ozni o'qiy boshladi.

– «Okrug sudining jinoiy ishlarni ko'rish bo'limi imperator hazrati oliylarining farmoniga muvofiq, 188*-yilning 28-aprel kuni janob sud maslahatchilarining qaroriga binoan, jinoiy ishlarni ko'rish Nizomining 771-moddasining 3-bandi, 776-moddasi va 777-moddasiga asosan, 33 yashar dehqon Simon Kartinkin, 27 yashar meshchanka Yekaterina Maslova katorga ishiga hukm etilsin, mol-mulki musodara qilinsin; Kartinkin 8 yilga, Maslova 4 yilga kesilsin. Ikkalovi qonunlar majmuasining 28-moddasiga binoan huquqlardan mahrum etilsin. 43 yashar meshchanka Yevfimiya Bochkova mol-mulki musodara qilinib, 3 yil muddat bilan turmaga qamalsin, qonunlar majmuasining 49-moddasiga binoan huquqdan mahrum etilsin. Shu ish bo'yicha chiqimlar sudlanuvchilarning gardaniga qo'yilib, uchaloviga baravar taqsimlansin. Ularning qurbi yetmagan taqdirda esa xazina hisobiga o'tkazilsin. Shu ish bo'yicha keltirilgan daliliy ashyolar sotilsin, uzuk qaytarib berilsin, shisha idishlar sindirib tashlansin».

Kartinkin barmoqlarini kerib, qo'llarini ikki yoniga tashlab turar, yuzlari pir-pir uchardi. Bochkova judayam xotirjam ko'rinardi. Maslova esa hukmni eshitib qip-qizarib ketdi.

– Gunohim yo'q, gunohim yo'q! – deb ovozining boricha chinqirib yubordi u. – Bu insofdan emas. Gunohim yo'q, o'ylamagandim ham, xayolimgayam kelmagandi. Rost aytyapman. Rost! – Shunday deb u o'rindiqqa o'zini tashlab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Kartinkin bilan Bochkova chiqib ketganda ham u joyida yig'lab o'tirardi, jandarm xalating yengidan tortib turg'izishga majbur bo'ldi.

«Yo'q, buni shu ahvolda qoldirib bo'lmaydi», – deb g'o'ldiradi Nexlyudov o'ziga o'zi, boya ko'nglida paydo bo'lgan yaramas hisni tamomila unutib. Maslovani yana bir bor ko'rib qolish uchun shoshib yo'lakka chiqdi. Nega bunday qilinganini o'zi ham bilmasdi. Ishning tugaganidan xursand bo'lib chiqib ketayotgan maslahatchilar va advokatlar eshik oldida uymalanishardi. Shuning uchun Nexlyudov eshik yonida bir necha daqiqa to'xtalib qoldi. Nexlyudov yo'lakka chiqqanda esa Maslova ancha nariga ketib qolgan edi. Nexlyudov

odamlarning e'tiborini jalb qilayotganiga parvo qilmay tez-tez yurib undan o'zib ketdi-da, to'xtadi. Katyusha yig'idan to'xtagan edi. U o'qtin-o'qtin xo'rsinib qo'yar, qip-qizarib ketgan yuzini durrasining uchi bilan arta-artan Nexlyudovning yonginasidan unga qaramay o'tib ketdi. Katyushani o'tkazib yuborgach, Nexlyudov raisga uchrashish maqsadida qaytib kirganda, rais allaqachon chiqib ketgan edi.

Nexlyudov kiyim yechadigan yerda unga yetib oldi.

– Janob rais, – dedi Nexlyudov. Rais rangi ochiq paltosini kiyib bo'lib, darbon uzatayotgan kumush sopli hassasini olayotganida u yetib borgan edi. – Siz bilan hozir ko'rilgan ish haqida gaplashsam bo'ladimi? Men maslahatchiman.

– Taniyman sizni, yanglishmasam, knyaz Nexlyudov bo'lsangiz kerak? Juda xursandman, ilgariyam bir uchrashgandik, – dedi rais uning qo'lini siqarkan, Nexlyudov bilan uchrashgan o'sha kechada hamma yoshlardan ham yaxshi raqs tushganini mamnuniyat bilan eslab. – Xo'sh, xizmat?

– Maslova haqidagi javobimizda anglashilmovchilik yuz beribdi. Zaharlashda aybi yo'g'-u, bekorga katorgaga hukm etilib ketdi, – dedi Nexlyudov qovog'ini solib, xunob bo'lgancha.

– Sud o'zlaringizning javobingizga asosan hukm chiqardi, – dedi rais eshik tomonga qadam tashlab, – ammo sud hay'atlariga ham javobingiz noto'g'riga o'xshab ko'ringan edi-ya.

Rais maslahatchilarga, kishining joniga qasd qilinganini rad etmay, faqat «Ha, aybdor» deb javob berish, qasddan o'ldirganini tasdiqlaydi, deb tushuntirmoqchi bo'lganini, lekin shoshib turgani uchun indamay qo'ya qolganini esladi.

– Endi shu xatoni tuzatsak bo'lmaydimi?

– Hukmni bekor qilish uchun hamma vaqt bahona topiladi. Advokatlarga murojaat qilish lozim, – dedi rais shlyapasini chakkasiga qo'yib, eshik tomon ketarkan.

– Axir, ish juda rasvo bo'ldi-ku.

Rais Nexlyudov bilan muloyimgina gaplashmoqchi bo'ldi, shekilli:

– Maslova uchun ikki yo'l bor edi, – dedi bakenbardini paltosi yoqasining ustiga chiqarib tekislarkan, keyin uning tirsagidan ushlab eshik tomon boshladi: – Siz ham ketyapsizmi?

– Ha, – dedi Nexlyudov, shoshib-pishib kiyinib; so'ngra rais bilan oldinma-keyin chiqib ketdi.

Ular quyosh nuriga g'arq bo'lgan ko'chaga chiqishdi, toshko'chada g'ildiraklarning taraq-turuqidan qattiq-qattiq gaplashishga to'g'ri keldi.

– Juda g'alati hol, – deb gapida davom etdi rais ovozi bilan balandroq chiqarib, – Maslova uchun atigi ikki yo'l bor edi: yo qamalish – bu oqlanish bilan baravardir, zero, shu kungacha qamoqda o'tirganiyam o'sha hisobga kirardi yoki bo'lmasam katorga – boshqa yo'l yo'q. Agarda siz «joniga qasd qilgan emas», degan so'zlarni qo'shganingizda edi, u oqlanib ketardi.

– Afsus, ming afsuski, bilmabman, – dedi Nexlyudov.

– Hamma gap shunda-da, – dedi jilmayib rais soatiga qararkan.

Klara belgilagan so'nggi muhlatga chorakam bir soat qolgan edi.

– Agar istasangiz, advokatga murojaat qilasiz. Hukumni bekor qildirish uchun bahona topish kerak. Bahona hamma vaqt topiladi. Dvoryanskaya ko'chasiga hayda, – dedi u izvoshchiga, – o'ttiz tiyin, hech ortiq to'lamayman.

– Marhamat, janob oliylari.

– Xush qoling. Agar kerak bo'lib qolsam, Dvoryanskaya ko'cha, Dvornikovning uyi deb so'raysiz, eslab qolish oson.

Shunday deb u muloyimgina xayrlashdi-da, jo'nab ketdi.

XXV

Rais bilan suhbat va ob-havo Nexlyudovni biroz tinchitdi. Endi u, boyadan beri tortgan tashvishim, odatdan tashqari sharoitda kunni kech qilganimdan bo'lsa kerak, deb o'yladi.

«Juda qiziq va g'alati uchrashuv bo'ldi-ya! Uning ahvolini yengillashtirish uchun qo'limdan kelganini ayamasligim, tezroq yordam berishim kerak. Hozirning o'zidayoq ishga kirishish lozim. Shu yerda, sudda Fanarin yoki Mikishinning uyi qayerdaligini bilib olish zarur». U ikkita mashhur advokatni esladi.

Nexlyudov sud idorasiga qaytib keldi, paltosini yechdi-da, yuqoriga chiqdi. Birinchi yo'lakdayoq Fanaringa duch keldi. Nexlyudov uni to'xtatdi-da, ishi borligini aytdi. Fanarin uni yaxshi tanirkan, xizmatga tayyorligini bildirdi.

– Juda charchaganman... agar ko'p vaqt olmaydigan bo'lsa, marhamat qilib ayta qoling, yuring bu yoqqa.

Fanarin Nexlyudovni qandaydir bir xonaga boshlab kirdi. Bu biror sudyaning kabinetini bo'lsa kerak. Ular stol yoniga o'tirishdi.

– Xo'sh, xizmat?

– Avval sizdan bir narsani iltimos qilaman, – dedi Nexlyudov, – bu ishga aralashganimni hech kim bilmasin.

– Bundan tashvishlanmang. Xo'sh...

– Bugun men sudda maslahatchi sifatida qatnashgandim. Ham-mamiz bir bo'lib bir xotinni begunohdan-begunoh katorgaga hukm qilib yubordik. Shu voqea meni juda qiynayapti.

Nexlyudov o'zi ham kutmaganda to'satdan qip-qizarib ketib, so'z topolmay qoldi.

Fanarin unga yalt etib bir qarab qo'ydi-da, yana yerga ko'z tikib, tinglay boshladi.

– Xo'sh, – deb qo'ya qoldi u.

– Begunohdan-begunoh kesilib ketdi. Men hukmni bekor qil-dirishni, ishni yuqori idoralarga oshirishni istardim.

– Senatga, – deb tuzatdi Fanarin.

– Shu ishni zimmangizga olarsiz, deb umid qilaman.

Nexlyudov ishning eng nozik tomonini tezroq bir yoqli qilib yuborishni istagani uchun shartta:

– Quruq qo'ymayman, har qanday chiqim bo'lsa, o'z ustimga olaman, – dedi qizarib.

– Bu yog'ini kelishib olamiz, – dedi advokat uning tajribasizligidan kulib. – Xo'sh, o'zi nima gap?

Nexlyudov bor gapni so'zlab berdi.

– Yaxshi, ertaga ishni ko'rib chiqaman. Indinga, yo'q, payshanba kuni kechqurun soat oltida boring, javobini beraman. Xo'pmi? Qani, keldik bo'lmasam, men hali ma'lumotnomalar olishim kerak bu yerdan.

Nexlyudov u bilan xayrlashib chiqib ketdi.

Advokat bilan suhbatini va Maslovani himoya qilish uchun chora ko'ra boshlagani uni ancha yupatdi. U ko'chaga chiqdi. Havo juda yaxshi edi. Ko'ngli yorishib sof ko'klam havosidan to'yib nafas oldi. Izvoshchilar xizmatiga tayyorliklarini bildirib, manzirat qila boshladilar, ammo u piyoda ketaverdi. Shu zamonoq ming xil fikrlar, Katyusha haqidagi xotiralar va unga nisbatan qilgan gunohi miyasini

chulg'ab oldi. Uning ko'ngli xiralashib, hamma narsa xunuk bo'lib ko'rindi. «Yo'q, bu to'g'rida keyin bir o'ylab ko'rarman, – dedi u o'ziga, – hozir, aksincha, bu og'ir taassurotlardan keyin ko'nglimni ochishim kerak».

U Korchaginlar ovqatga taklif etishganini esladi-da, soatiga qaradi. Hali vaqt bor, ovqatga yetib borish mumkin edi. Yonidan ko'nka jingillab o'tib ketdi. Nexlyudov chopib borib ko'nkaga chiqib oldi. Maydonga yetganda u sakrab tushib qoldi-da, yaxshi izvoshni yollab, o'n daqiqa o'tar-o'tmas Korchaginlarning hashamatli uyi oldiga yetib keldi.

XXVI

Korchaginlarning hashamatli uyi oldida turgan baqaloqdan kelgan shirinso'z darbon g'ichillamaydigan, ikki yoqlama oshiq-moshiqqa ilingan qarag'ay eshikni ocha turib:

– Marhamat qiling, janobi oliylari, sizni kutishyapti, – dedi. – Ovqatlanishyapti, faqat siznigina kiritishga ruxsat berishgan.

Darbon zina yoniga bordi-da, yuqoriga qo'ng'iroq qildi.

– Biron odam bormi? – deb so'radi Nexlyudov yechina turib.

– Janob Kolosov bilan Mixail Sergeyeovich; qolganlari hammasi o'z odamlarimiz, – deb javob berdi darbon.

Zina ustida egniga frak, qo'liga oq qo'lqop kiygan xushro'y yugurdak ko'rindi.

– Marhamat, janobi oliylari, – dedi u. – Taklif etishni buyurishgan.

Nexlyudov zinaga chiqdi-da, o'ziga tanish hashamatli va keng zaldan o'tib, yemakxonaga kirdi. Oilaning barcha a'zolari, hech qachon kabinetidan chiqmaydigan knyaginya Sofya Vasilyevnadan tashqari hamma yemakxonada, stol atrofida o'tirardi. Stolning to'rida keksa Korchagin joylashgan, uning yonida, chap tomonida doktor, narigi yonida Ivan Ivanovich Kolosov degan mehmon – sobiq gubernator boshlig'i, hozir endi bank boshqarmasining a'zosi, Korchaginining liberal o'rtog'i o'tirardi; keyin chap tomonda Missining singlisi murabbiyasi – miss Reder va o'sha to'rt yashar qizning o'zi, o'ng tomonda ularning ro'parasida esa Missining ukasi, Korchaginlarning yolg'iz o'g'li, gimnaziyaning VI sinf o'quvchisi Petya (butun oila uning imtihondan o'tishini kutib shaharda qolgan

edi) va repetitor-talaba o'tirardi, so'ngra chap tomonda qirq yashar slavyanfil qiz Katerina Alekseyevna, uning ro'parasida Missining amakivachchasi Mixail Sergeyeovich, boshqacha aytganda, Misha Telegin joylashgandi; eng pastda Missining o'zi o'tirar, uning yonida qo'l tegizilmagan idish-tovoqlar turardi. Keksa Korchagin yasama tishlari bilan qiynalib va ehtiyotkorlik bilan ovqat chaynarkan:

– Juda soz. O'tiring, biz endi baliqdan boshlab edik, – dedi qip-qizarib ketgan ko'zlarini Nexlyudovga tikib. – Stepan, – deb murojaat qildi u og'zi to'la ovqat bilan semiz, basavlat bufetchiga bo'sh idish-tovoqni ko'zi bilan ko'rsatib.

Nexlyudov kekxa Korchaginni juda yaxshi bilsa-da, uni ovqat ustida ko'p ko'rgan bo'lsa-da, nimchasiga qistirib qo'yilgan qog'ozsochiqcha, lazzatlanib tamshanayotgan bu lablar, bu qip-qizil yuz va yo'g'on bo'yin, ayniqsa, generalning miqtidan kedgan baquvvat gavadasi bugun unga negadir juda yoqimsiz ko'rindi. To'satdan Nexlyudov bu kishining qattiqqo'lligi haqida eshitganlarini: o'lka boshlig'i bo'lgan kezlarida, o'zi badavlat va mashhur, laganbardorlik qilishga ehtiyoj yo'q bo'lishiga qaramay, negadir odamlarni do'pposlatgani, hatto ostirganini esladi.

– Hozir taom suzishadi, janobi oliylari, – dedi Stepan kumush guldonlar tizib qo'yilgan bufetdan cho'mich olarkan, bakenbardli xushro'y yugurdakka imo qilib. Yugurdak bo'lsa darhol Missining yoniga kelib, kraxmallangan, gerbi ko'zga tashlanib turgan qog'ozsochiqcha bilan berkitib qo'yilgan idish-tovoqlarni to'g'rilab ovqat suza boshladi.

Nexlyudov stolni aylanib o'tib, hammaning qo'lini bir-bir qisib chiqdi. Keksa Korchagin bilan ayollardan tashqari hamma u yaqinlashganda o'midan turar edi. Stolni bu tariqa aylanib o'tish, ularning ko'pchiligi bilan hech qachon gaplashmagan bo'lsa-da, shu yerda hozir bo'lganlarning hammasi bilan qo'l siqib ko'rishish, bugun unga, ayniqsa, yoqimsiz va kulgili bo'lib ko'rindi. Nexlyudov kechikib qolgani uchun uzr so'radi-da, stolning quyi tomonidagi Missi bilan Katerina Alekseyevna o'rtasidagi bo'sh o'ringa o'tirmoqchi bo'lgandi, biroq kekxa Korchagin undan sharob ichmaganiga yarasha qisqichbaqa, uvildiriq, pishloq, selyodkalar terilgan dasturxon

atrofiga kelib o'tirib, tamaddi qilishini talab qildi. Nexlyudov qorni bu qadar ochib qolganini payqamagandi. U nonni pishloq bilan qo'shib yeya boshladi va ishtahasi ochilib, ovqatni tushira ketdi.

– Xo'sh, jamiyat negizlarini qo'pordinglarmi? – dedi Kolosov sud maslahatchilari qatnashishi bilan bo'ladigan sudga qarshi bosh ko'tarayotgan teskarichilik gazetasining iborasini istehzoli ohangda ishlatib. – Aybdorlarni oqlab, gunohsizlarning bo'yniga ayb qo'ydingizmi?

– Negizni qo'porish... Negizni qo'porish... – deya takrorladi liberal o'rtog'i va do'stini aqlli, ilmi deb hisoblagan knyaz kulib.

Nexlyudov, nazokatsizlik bo'lsa-da, Kolosovga javob qaytarmadi, bug'i chiqib turgan sho'rvaga tutinarkan, hamon kavshanar edi.

– Uni o'z holiga qo'yinglar, ovqat yeb olsin, – dedi Missi jilmayib, «uni» degan olmoshni ishlatish bilan o'zining Nexlyudovga yaqinligini eslatib.

Bu orada Kolosov maslahatchilar ishtirokidagi sudga qarshi chiqqan, o'zini g'azablantirgan maqolaning mazmunini shang'illab so'zlay boshladi. Korchaginning jiyani Mixail Sergeyevich uning gapini ma'qullab turdi va so'z oxirida xuddi shu gazetadagi boshqa maqolaning mazmunini gapirib berdi.

Missi har vaqtdagidek juda distinguee* va ko'zga tashlanmaydigan, yaxshi kiyim kiygan edi.

– Haddan tashqari charchaganga, och qolganga o'xshaysiz, – dedi Missi Nexlyudovga, u og'zidagi luqmasini chaynab, yutib bo'lgandan keyin.

– Yo'q, u qadar emas. Siz-chi? Surat tomosha qilgani bordingizmi? – deb so'radi Nexlyudov.

– Yo'q, boshqa kunga qoldirdik. Biz Salamatovlarnikida, lawn tennis'e** -da bo'ldik. Janob Kruks haqiqatan o'yinga juda usta ekan.

Nexlyudov bu yerga ko'ngil ochish uchun kelgan edi. Bu uy zo'r hashamati bilangina emas, balki bu muhitdagi xushomadgo'ylik, mehribonlik uning ko'ngliga xush yoqardi. Bugun esa, shunisi qiziqki, bu uydagi narsalarning hammasi – darbondan tortib keng zinagacha, gullardan tortib yugurdaklargacha, tuzalgan stoldan

* Nafis (*fran.*)

** Tennisda (*ingl.*)

tortib Missining o'zigacha uni jirkantirardi. Bugun Missi unga yoqimsiz va soxta bo'lib ko'rindi.

Kolosovning kekkayib, orsizlarcha, liberallik qilib gapirishi Nexlyudovning jig'iga tegar, kekxa Korchaginning ho'kiz sifat kekkaygan qaddi-qomati g'ashini keltirar, slavyanofil Katerina Alekseyevnaning fransuzcha iboralari g'ashiga tegar, murabbiya bilan repetitor yigitning tortinchoq qiyofalari xushiga yoqmas, o'zini «uni» degan olmosh bilan ataganlari esa jonini chiqarardi... Nexlyudov Missiga nisbatan hamma vaqt ikki xil munosabat o'rtasida ikkilanardi: ba'zida ko'zini qisib qaragan vaqtidagidek yoki oydin kehadagidek unda faqat go'zallikni ko'rardi: Missi uning nazarida ham navqiron, ham chiroyli, ham aqlli, ham tabiiy bo'lib ko'rinardi... Ba'zida esa, xuddi oftob yorug'ida ko'rgandek, Missining nuqsonlari ko'ziga yaqqol tashlanar, nuqsonlarini ko'rmas qololmas edi. Bugun uning uchun xuddi shunday kun edi. Bugun u qizning betidagi barcha ajinlarni ko'rar, uning sochi jingalak qilinganini bilib turardi; Nexlyudov qizning tirsagi turtib chiqib turganini ko'rar, ayniqsa, bosh barmog'ining tirnog'i otasinikiga o'xshash yalpoq ekani yaqqol ko'rinardi.

– O'lguday bo'lmag'ur o'yin, – dedi Kolosov tennis haqida gapirib, – undan ko'ra biz yoshligimizda o'ynagan koptok o'yini yaxshiroq edi.

– Yo'g'e, o'ynab ko'rmagansiz-da. Juda qiziq o'yin, – deb e'tiroz bildirdi Missi, Nexlyudovning nazarida u «juda» so'zini g'ayritabiiy talaffuz etgandek ko'rindi.

Shu bilan bahs boshlanib ketdi. Bu bahsda Mixail Sergeyevich ham, Katerina Alekseyevna ham ishtirok etdi. Faqat murabbiya, repetitor va bolalar jim o'tirishardi. Ular, aftidan, zerikib qolishgandi.

– Doim bahslashganlari bahslashgan! – dedi kekxa Korchagin xoxolab. U qog'ozsochiqchasini nimchasidan chiqarib, stulni taraqlatib o'rnidan turgandi, yugurdak epchillik bilan stulni chetga olib qo'ydi. Undan keyin boshqalar ham o'rinlaridan turishdi-da, iliq, xushbo'y suv turgan stol yoniga borishdi va og'izlarini chayqasharkan, hech kimni qiziqirmagan suhbatni davom ettirishdi.

Missi odamning xarakteri hammadan ham o'yinda ochiq ko'rinadi, degan fikrini ma'qullatish uchun:

– To‘g‘rimi? – deb Nexlyudovga murojaat qildi. Qiz uning yuzida parishonlik, ta‘na ifodasini ko‘rdi. Missi undagi bu holatdan juda qo‘rqar va nega bunday qilayotganini bilishni istardi.

– Qaydam, hech qachon bu to‘g‘rida o‘ylamagan ekanman, – deb javob berdi Nexlyudov.

– Oyimning oldiga kirasizmi? – deb so‘radi Missi.

– Ha, ha, – dedi Nexlyudov papirosini olayotib. U shunday ohangda gapirdiki, borgisi kelmayotgani ochiq-oydin sezilib turardi.

Qiz indamay, savol nazari bilan unga qaragandi, Nexlyudovning ko‘ngli bir xil bo‘lib ketdi. «Rost-da, birovnikiga qovoq-tumshug‘imni osiltirgani keldimmi», – deb o‘yladi u o‘zicha; yumshoq gapirishga urinib, agar knyaginya qabul qilsalar, jon deb kirishini aytdi.

– Oyim juda xursand bo‘ladilar. O‘sha yerda cheksangiz ham bo‘ladi. Ivan Ivanovich ham o‘sha yerda.

Uy bekasi, knyaginya Sofya Vasilyevna yotib qolgan edi. U sakkiz yildan beri mehmonlar huzurida to‘rli, lentali duxoba kiyimlarga belanib, dandon, bronzadan qilingan, loklangan, zarhal anjomlar qurshovida yotar, hech qayoqqa bormas, o‘zining aytishicha, faqat «o‘z do‘stlari»ni, ya‘ni, uning fikricha, biron narsasi bilan xaloyiqdan ajralib turadiganlarnigina qabul qilardi. Bu do‘stlar qatorida Nexlyudovni ham qabul qilardi, chunki, avvalo, u aqlli yigit hisoblanardi, onasi bu oilaning yaqin do‘stlaridan edi. Missi unga tegsa, yaxshi ish bo‘lardi, deb o‘ylardi.

Knyaginya Sofya Vasilyevnaning xonasi katta va kichik mehmonxonaning narigi tomonida edi. Katta mehmonxonaga kirganlarida, Nexlyudovdan oldinda ketayotgan Missi shartta to‘xtadi-da, zarhal stulchanning suyanchig‘idan ushlab unga qaradi.

Missining erga tekkisi kelib qolgan, Nexlyudov esa unga munosib edi. Bundan tashqari, Nexlyudov unga yoqardi. Missi o‘zini, u meniki bo‘ladi (u Nexlyudovniki emas, Nexlyudov uniki bo‘ladi), degan fikrga o‘rgatib qo‘ygan va g‘ayriixtiyoriy ravishda, ruhiy kasallarga xos hiylakorlik bilan maqsadiga erishish uchun intilardi. Qiz uning muhabbat izhor etishini kutib gapga soldi.

– Ko‘rib turibman, sizga bir hodisa bo‘lganga o‘xshaydi, – dedi u. – Nima bo‘ldi?

Nexlyudov suddagi uchrashuvni esladi, qip-qizarib qovog‘ini soldi:

– Ha, bo‘ldi, – dedi u rostgo‘y bo‘lishni istab, – g‘alati, favqulodda va muhim bir voqea bo‘ldi.

– Nima ekan? Nimaligini aytolasizmi?

– Hozircha aytolmayman. Gapirmaslikka ijozat bering. Shunday bir voqea bo‘ldiki, men bu xususda o‘ylab ko‘rganimcha yo‘q, – dedi u va avvalgidan battar qizardi.

– Mengayam aytmaysizmi? – Missining beti pirpirab ketdi, u ushlab turgan stulchasini surib qo‘ydi.

– Yo‘q, aytolmayman, – deb javob berdi Nexlyudov. Qizga javob qaytararkan, u ayni zamonda o‘z savoliga o‘zi javob berayotgandek bo‘ldi; haqiqatan ham muhim voqea ro‘y berganiga o‘zi ham iqror bo‘lgan edi.

– Yuring bo‘lmasam.

Qiz keraksiz fikrlarni haydamoqchi bo‘lgandek, boshini silkitib qo‘ydi-da, odatdagidan tezroq yurib ketdi.

Nexlyudovning nazarida Missi yig‘lab yubormaslik uchun labini qimtigandek ko‘rindi. U qizni xafa qilib qo‘yganidan ko‘ngli g‘ash bo‘ldi, lekin sal bo‘sh kelsa, o‘zini o‘zi halok qilishini, taqdirini bog‘lab qo‘yishini his etardi. Shu topda u shunday bo‘lishidan qo‘rqardi, u qiz bilan knyaginyaning kabinetiga borguncha miq etmadi.

XXVII

Knyaginya Sofya Vasilyevna xushta‘m va juda to‘yimli tushki ovqatini yeb bo‘ldi. Nafosatdan yiroq bo‘lgan bunday mashg‘ulot vaqtida birov meni ko‘rmasin, deb hamma vaqt yolg‘iz ovqatlanardi. Uning kushetkasi yonida mo‘jazgina stol bor edi. Stol ustida qahva turar, knyaginya ingichka papiros chekmoqda edi. Knyaginya Sofya Vasilyevna oriqqina, bo‘ydor, tishlari uzun, shahlo ko‘z, qorachadan kelgan, o‘zini yosh qilib ko‘rsatishga urinadigan ayol edi.

Uning doktor bilan munosabati haqida g‘iybat gaplar yurardi. Nexlyudov ilgarilari bu gapni esidan chiqarib yuborgan edi, ammo bugun u faqat eslabgina qo‘ya qolmadi, balki moy surtib yaltiratilgan soqoli ikki tomonga ajratib taralgan doktor knyaginyaning oromkursisi oldida turganini ko‘rganda, boyagidan besh battar nafrati oshdi.

Sofya Vasilyevnaning yonida, pastakkina yumshoq divanda Kolosov stolchadagi qahvani qoshiq bilan chayqaltirib o'tirardi. Stolcha ustida bir qadah likyor bor edi.

Missi onasining oldiga Nexlyudov bilan birga kirdi-yu, lekin bunda ortiq turmadi.

– Oyim charchab, haydab yuborsa, mening oldimga boringlar, – dedi u Kolosov bilan Nexlyudovga, oralaridan hech gap o'tmagandek jilmayib; so'ngra qalin gilam ustida ohista yurib, xonadan chiqib ketdi.

– Salom, do'stim, qani, o'tiring, nima gaplar bor? – dedi knyaginya Sofya Vasilyevna xuddi rostakam kulgiga o'xshash yasama tabassum bilan. U iljayganda ustalik bilan yasalgan, xuddi o'z tishiga o'xshash chiroyli uzun tishlari ko'rinardi. – Suddan juda diqqat bo'lib qaytibsiz, deb eshitdim. Menimcha, bu ko'ngli bo'sh odamlarga juda og'irlik qilsa kerak, – deb qo'ydi u fransuzchalab.

– To'g'ri, – dedi Nexlyudov, – ko'pincha o'zingning nohaqligingni... sud qilishga haqing yo'qligini his qilasan kishi...

Knyaginya har vaqtdagidek hamsuhbatiga xushomad qilib:

– Comme c'est vrai*, – deb nido qildi uning gapi rostligidan hayron qolgandek. – Xo'sh, chizayotgan rasmingiz nima bo'ldi, men juda qiziqib qolganman, – deb qo'shib qo'ydi u. – Agar bedarmon bo'lmaganimda, allaqachon uyingizga borib kelardim.

– Butunlay tashlab qo'ydim, – deb quruqqina javob berdi Nexlyudov. Knyaginyaning tilyog'lamaligi doim yashirib kelayotgan qariligidek ochiq-oydin sezilib turardi. Nexlyudov xushmuomalalik bilan javob qaytarishga nechog'lik urinsa ham sira uddalayolmadi.

– Bekor qilibsiz! Bilasizmi, uning qobiliyati juda zo'r, buni menga Repin aytgan, – dedi knyaginya Kolosovga yuzlanib.

«Yolgon gapirgani uyalmaydiyam-a», – deb o'yladi Nexlyudov qovog'ini solib.

Sofya Vasilyevna Nexlyudovning kayfi buzuqligiga, uni ko'ngilli va oqilona suhbatga jalb etishning iloji yo'qligiga ishonch hosil qilgach, Kolosovga murojaat qilib, yangi drama haqidagi fikrini so'radi. U shunday ohangda so'ragan ediki, go'yo Kolosovning fikri har qanday shubhani hal qilib yuboradi-yu, uning fikri, har bir so'zi abadiy saqlanib qoladi. Kolosov dramani yomonladi, shu

* Juda to'g'ri (*fran.*).

munosabat bilan o'zining san'at haqidagi mulohazalarini gapira boshladi. Knyaginya Sofya Vasilyevna uning mulohazalarining naqadar to'g'riligidan taajjublanar, drama muallifini himoya qila boshlar, lekin shu zahoti yo taslim bo'lar, yoki o'rtacha bir vaziyatni egallardi. Nexlyudov baqrayib, ularning gapiga quloq solardi-yu, lekin qarshisidagilarni emas, balki butunlay boshqa narsalarni ko'rar va eshitardi.

Nexlyudov goh Sofya Vasilyevnaning, goh Kolosovning so'zlarini tinglarkan, birinchidan, na Sofya Vasilyevnaning va na Kolosovning drama bilan ham, bir-biri bilan ham bir chaqalik ishi yo'qligini, gapirishayotgan bo'lsa, azbaroyi ovqatdan keyin tomoq va til mushaklarini ishga solish kabi fiziologik zarurat tufayli gapirishayotganini ko'rib turardi; ikkinchidan, u Kosovning aroq, sharob, likyor ichib olib mast bo'lganini, ahyon-ahyonda ichadigan mujiklar singari emas, balki sharob ichishga odatlanib qolgan odamlar singari mast bo'lganini payqab turardi. U gandraklamas, og'ziga kelganini gapirib valaqlamas edi-yu, ammo kayfi oshgan, o'zidan mamnun edi; uchinchidan, Nexlyudov Sofya Vasilyevnaning oftob nuri ustimga tushib, qariligimni bildirib qo'yadi, deb tashvishlanayotganini, gap orasida oftob tushib turgan derazaga qarab-qarab qo'yayotganini payqagandi.

– Juda topib gapiringiz, – dedi Sofya Vasilyevna Kolosovning allaqanday mulohazasiga qo'shilib. Keyin kushetka yonidagi, devordagi qo'ng'iroq tugmachasini bosdi.

Shu mahal doktor o'rnidan turdi, o'z uyida yurgandek, hech narsa demasdan chiqib ketdi. Sofya Vasilyevna gapini davom ettirib, uni ko'zi bilan kuzatib qoldi.

– Filipp, marhamat qilib, shu pardani tushirib qo'ysangiz, – dedi u qo'ng'iroq tovushini eshitib kirgan ko'rkam yugurdakka. – Yo'q, nima desangiz, deng, unda qandaydir sirli bir narsa bor, sirli narsa bo'lmagan joyda she'riyat bo'lmaydi, – derdi u qora ko'zining bittasi bilan pardani tushirayotgan yugurdakning harakatlarini kuzatarkan. – She'riyatsiz mistitsizm – xurofot, mistitsizmsiz she'riyat esa nasr, – dedi u g'amgin jilmayarkan, pardani to'g'ri-layotgan yugurdakdan ko'z uzmay. – Filipp, boshqa pardani aytyapman – katta derazaning pardasini, – dedi joni achigandek Sofya

Vasilyevna. U shu soʻzlarni aytguncha koʻp kuch sarflagani uchun oʻziga achingandek edi; oʻzini tinchlantirish maqsadida uzuklarga belangan qoʻli bilan xushboʻy hid taratayotgan papirosni ogʻziga tutdi.

Keng yagʻrinli, goʻshtdor, koʻrkam Filipp afv soʻragandek, yengilgina taʼzim qildi, kuchli boldirlari oʻynab chiqqan oyoqlarini sekin-asta bosib, gilam ustida asta yurib, itoatkorlik bilan indamay narigi deraza tomonga oʻtdi. Sofya Vasilyevnaga tangadek quyosh nuri tushirmaslikka harakat qilib, knyaginyaga qarab-qarab qoʻyib pardani yopa boshladi. Ammo bu gal ham u allanarsani oʻrniga qoʻyolmadi shekilli, azob chekkan Sofya Vasilyevna yana mistitsizm haqidagi soʻzini yarmida toʻxtatib, gap uqmas, shafqatsizlik bilan oʻzini tashvishga solayotgan Filippga aql oʻrgatishga majbur boʻldi. Filippning koʻzlarida uchqun paydo boʻldi, bir lahza yondi-yu, yana soʻndi.

«Senga nima kerakligini shaytonning oʻzi ham bilmaydi», deyapti Filipp ichida», deb oʻyladi bu tomoshani kuzatib turgan Nexlyudov. Ammo koʻrkam va kuchli Filipp toqatsizlanganini yashirib, tinkasi qurigan, notavon, turish-turmushi qalbaki Sofya Vasilyevnaning buyrugʻini ohista bajara boshladi.

– Darvin taʼlimotida anchagina haqqoniyat bor, albatta, – derdi past oromkursida yalpayib oʻtirgan Kolosov mudroq bosgan koʻzlarini Sofya Vasilyevnaga tikib, – lekin u haddan oshib ketyapti-da, shunday.

– Siz irsiyatga ishonasizmi? – deb soʻradi knyaginya Sofya Vasilyevna Nexlyudovdan; uning jim turgani knyaginyaga malol kelgandi.

– Irsiyatga deysizmi? – deb qaytarib soʻradi Nexlyudov. – Yoʻq, ishonmayman, – dedi u negadir shu topda xayolxonasida tugʻilgan gʻalati obrazlarga berilib. U koʻrkam va kuchli Filippni naturachi deb tasavvur etdi va uning yonida qorni tarvuzday, mushaksiz qoʻllari kosovdek, boshi yargʻoq Kolosov turganini koʻz oldiga keltirdi. Sofya Vasilyevnaning shohi va barqutlar tashlangan yelkasi aslida qanday ekani ham koʻz oʻngida gʻira-shira gavdalandi. Ammo koʻz oʻngida gavdalangan bu manzara shu qadar dahshatli ediki, Nexlyudov uni unutishga shoshildi.

Sofya Vasilyevna uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi.

– Missi sizni kutib qolgandir, – dedi u. – Bora qoling, u sizga Shumanning yangi narsasini chalib bermoqchi edi... Juda ajoyib...

«Hech narsa chalmoqchi bo'lgan emas. Negadir bo'lmagan gaplarni o'ylab chiqaryapti», – deb o'yladi o'rnidan turib, Sofya Vasilyevnaning uzuklar bilan bezangan oriqlik, oppoqlik qo'lini siqar ekan Nexlyudov.

Mehmonxonada Katerina Alekseyevna uchrab qoldi-da, shu zahoti gapga tushib ketdi.

– Maslahatchilik lavozimi sizni juda ezib qo'yibdi, – dedi u har vaqtdagiday fransuzchalab.

– Ha, kechirasiz, bugun kayfim yo'qroq, boshqalarning ham kayfini buzishga haqim yo'q, – dedi Nexlyudov.

– Nega kayfingiz buzilgan?

– Sababini aytmaslikka ijozat etgaysiz, – dedi u shlyapasini axtarayotib.

– Esingizdami, hamma vaqt rost gapirish kerak, deb turib olganingiz. O'shanda hammamizga shunday achchiq haqiqatni gapirardingiz. Nega endi bugun aytgingiz kelmayapti? Esingdami, Missi? – deb murojaat qildi Katerina Alekseyevna shu topda kirib kelgan Missiga.

– Nega deganingizda, u o'yin edi, – deb javob berdi Nexlyudov. – O'yinda hammasi mumkin. Ammo haqiqatda bizlar shunday yomonmizki, ya'ni men shunday yomonmanki, har holda rostini gapirish mumkin emas.

– Gapni burgandan ko'ra, yaxshisi, yomonligimiz nimadiligini aytib bering, – dedi Katerina Alekseyevna Nexlyudovning jiddiyligini sezmagandek, askiya qilib.

– Kayfing buzilganini tan olishdan yomoni yo'q, – dedi Missi. – Men hech qachon buni tan olmayman, shuning uchun ham doim kayfim joyida. Yuring, men bilan. Birgalashib sizning o'sha mauvaise humeur*-ingizni tarqatamiz.

Nexlyudov o'zini shunday his etdiki, jilovlab, keyin aravaga qo'shish uchun qashlayotganlarida ot o'zini xuddi shunday his qilishi mumkin edi. Bugun u, ayniqsa, bo'yinturuqqa kirgisi kelmadi.

* Yomon kayfiyat (*fran.*)

Nexlyudov uyiga ketishi kerakligini aytib, uzr so‘radi va xayrlasha boshladi. Missi uning qo‘lini odatdagidan uzoqroq ushlab turdi.

– Yodingizda bo‘lsinki, siz uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa do‘stlaringiz uchun ham ahamiyatlidir, – dedi u. – Ertaga kelasizmi?

– Qaydam, – dedi Nexlyudov va izza tortganidan qip-qizarib, shoshib chiqib ketdi. O‘zi uchun izza bo‘ldimi yoki Missi uchunmi, buni o‘zi ham anglab ololmadi.

– Tinchlikmi o‘zi? Comme cela m’intrigue*, – dedi Katerina Alekseyevna Nexlyudov ketgandan keyin. – Albatta, bilib olaman. Qandaydir bir affaire d’amour-propre: il est tres susceptible, notre cher Mitya**.

Missi boya Nexlyudovga qaraganidan ko‘ra butunlay boshqacha, qandaydir ma‘yuslik bilan bir nuqtaga tikilgan edi. «Plutot une affaire d’amour sale***», – demoqchi bo‘ldi-yu, lekin mazmuni xunuk bu qochiriq gapni hatto Katerina Alekseyevnaga ham aytmadi. Faqat:

– Hammamizning ham ba‘zan dimog‘imiz chog‘, ba‘zan ichimizga chiroq yoqsa, yorimaydigan kunlar bo‘ladi, – deb qo‘ya qoldi.

«Nahotki buyam aldab ketsa, – deb o‘yladi Missi. – Shuncha gap bo‘lib o‘tgandan keyin ham tashlab ketsa, juda xunuk ish qilgan bo‘ladi».

Agar Missi: «Shuncha gap bo‘lib o‘tgandan keyin ham» degani nimaligini tushuntirishi lozim bo‘lsa edi, o‘zi biron tayin narsani aytib berolmasdi, ammo shunga qaramay, uning bilishicha, Nexlyudov uni umidvor qilibgina qo‘ymay, balki va‘da berib ham qo‘ygan edi. Bular so‘z bilan izhor etilgan bo‘lmasa-da, imo-ishoralar, ko‘z urishtirishlar, tabassumlar, luqmalar, sukut qilib turishlar orqali idofadalanar edi. Lekin shunga qaramay, qiz uni o‘ziniki hisoblar, undan ajralib qolish qiz uchun juda og‘ir edi.

* Bu meni juda qiziqtirib qo‘ydi (*fran*).

** Izzat-nafsiga bog‘liq biron ish bo‘lgandir: qimmatli Mityamiz juda serzarda (*fran*).

*** To‘g‘rirog‘i, iflos muhabbat aralashgan ish bo‘lgan (*fran*).

XXVIII

Bu orada Nexlyudov tanish ko'chalardan uyiga piyoda qaytarkan: «Sharmandalik, razillik, sharmandalik», deb xayol qilardi. Missi bilan so'zlashgan vaqtdagi og'ir hislar ko'ngliga tinchlik bermasdi. U, agar shunday deyish mumkin bo'lsa, rasmiy jihatdan qiz oldida haqli edi: chunki u qizga uylanishni taklif etmagan, u bilan o'zini bog'laydigan biron so'z aytmagan edi. Ammo asliga kelganda esa u o'zini qiz bilan bog'langan, unga va'da etgan deb hisoblar, lekin shunga qaramay, bugun u Missiga uylanolmasligini butun vujudi bilan his etardi. U faqat Missiga bo'lgan munosabati haqidagina emas, balki boshqa hamma narsalar haqida ham gapirib: «Sharmandalik, razillik», deb takrorlardi. Nexlyudov uyiga yetib kelib zinapoyadan chiqayotganida ham hamon: «Razillik, sharmandalik», deb takrorlardi o'zicha.

– Ovqat yemayman, – dedi u idish-tovoq va choy hozirlab qo'yilgan yemakxonaga ketidan kirgan Korneyga. – Boravering.

Korney:

– Xo'p bo'ladi, – dedi-yu, lekin chiqib ketmay stol ustidagi narsalarni yig'ishtira boshladi. Nexlyudov Korneyga qarab turib g'ijindi. Nexlyudov odamlar uni o'z holiga qo'yishlarini istar, nazarida, aksiga olib, jig'iga tegishayotandek tuyulardi. Korney chiqib ketgach, Nexlyudov choy damlash uchun o'ziqaynar yoniga borayotgan ham ediki, Agrafena Petrovnaning qadam tovushini eshitib qoldi va uni uchratmaslik uchun mehmonxonaga chiqib, eshikni yopib oldi. Bundan uch oy muqaddam onasi shu uy – shu mehmonxonada vafot etgan edi. Hozir bittasi otasining portreti yoniga, ikkinchisi onasining portreti yoniga qo'yilgan ikkita shamchiroq yoqilgan xonaga kirarkan, u so'nggi vaqtlarda onasiga bo'lgan munosabatini esladi. Bu munosabatlar unga soxta va jirkanch tuyuldi. Bu ham uyaltirar, ham jirkantirardi. Nexlyudov onasi bemor yotgan so'nggi kunlarda kasalning o'lgani yaxshi, uydagilarning tingani yaxshi, deb o'ylaganini esladi. U, bechora onam azob tortishdan qutulsin, deganim uchun shuni tilayapman, deb o'zini o'zi yupatardi-yu, aslida esa onasining azob tortishini ko'rishdan qutulish uchun shunday degan edi.

Nexlyudov onasi haqidagi yaxshi xotiralarni eslash uchun uning atoqli rassom tomonidan besh ming so'mga chizilgan portretiga qaradi. Onasi ko'ksi ochiq, qora barqut ko'ylakda tasvirlangan edi.

Rassom ko'krakni, ikki ko'krak orasidagi chuqurchani, nihoyatda go'zal yelkasi va bo'ynini zo'r ishtiyoq bilan chizgan bo'lsa kerak. Bunisi o'taketgan sharmandalik, razillik edi. Onasining bu holda, yarim yalang'och bir malak sifatida tasvirlanishida qandaydir qabihlik va tahqirlash bor edi. Bu shuning uchun ham qabih ediki, mana shu ayol uch oy muqaddam xuddi mana shu xonada cho'pdek oriqlab, murdadek qoqshol bo'lib, faqat xonanigina emas, balki butun uyni hech narsa bilan ketkazib bo'lmaydigan qandaydir qo'lansa hidga to'ldirib yotgan edi. Uning nazarida, shu hid hozir ham dimog'iga urilgandek bo'ldi. Nexlyudov onasi o'lmasdan bir kun ilgari uning oppoq, kuchli qo'llarini qorayib, oriqlab ketgan qo'llariga olib ko'ziga tikilganini: «Mendan rozi bo'l, Mitya, yaxshi-yomon gapirgan bo'lsam, kechir», deganini, azob chekkanidan xiralashgan ko'zlariga yosh kelganini esladi: «Naqadar jirkanch!» dedi yana bir bor Nexlyudov o'ziga o'zi, marmardek oq yelkasi va qo'llarini ko'z-ko'z qilib, gerdayib jilmayib turgan yarim yalang'och ayolga bir qarab. Ko'ksi ochiq ayol surati kuni kechagina boshqa bir yosh ayolning xuddi shunday yarim yalang'och holda ko'rganini esiga tushirdi. Bu Missi edi. U balga kiyib borayotgan yangi ko'ylagida Nexlyudovga ko'rinish uchun bir bahona topib, uni kechqurun chaqirtirgandi. Nexlyudov Missining chiroyli yelkasi va qo'llarini eslarkan, nafratlandi. O'tmishda zolim bo'lgan, hayvonsifat, qo'rs otasi, yomon nom chiqargan bel esprit* onasi ko'z oldiga keldi. Hammasi razillik, shu bilan birga, sharmandalik edi. Sharmandalik va razillik edi.

«Yo'q, yo'q, – deb o'ylardi u, – ozod bo'lib olish kerak, hamma soxta munosabatlarni uzish, Korchaginlardan ham, Marya Vasilyevnadan ham, merosdan ham, boshqa narsalardan ham xalos bo'lish kerak... Erkinroq nafas olish kerak. Chet elga – Rimga ketish, rassomlik bilan shug'ullanish kerak... – U iste'dodi borligiga shubhalanganini esladi. – Ishqilib, shu yerdan qutulib ketsam bo'ldi, erkin nafas olaman-ku. Avval Istambulga boraman, keyin Rimga, faqat sud maslahatchiligidan tezroq qutulib olsam bo'ldi. Keyin advokatdagi ishni ham bir yoqli qilsam».

Birdan qora, g'ilay ko'zli mahbus ayol ko'z oldida yaqqol gavdalandi. Sudlanuvchilarga oxirgi so'z berilgan vaqtda uning

* Gapga chechan (*fran.*).

yig'lab yuborishini qarang! Nexlyudov chekib bo'lgan papirosini shoshilinch o'chira turib kuldonga ezg'ilab tashladi-da, boshqasini tutatib, xona ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Katya bilan birga kechgan daqiqalar uning tasavvurida birin-ketin gavdalana boshladi. U Katyusha bilan bo'lgan oxirgi uchrashuvni, o'sha mahal butun vujudini qamrab olgan hayvoniy hirsni, shahvoniy hirsni qongandan keyin esa birdan ko'ngli sovib qolganini esladi. Zangori lentali oq ko'ylakni, ertalabki ibodatni esladi: «Axir, men uni sevardim, haqiqatan ham o'sha kecha uni yaxshi, sof muhabbat bilan sevganman. Undan avval ham sevardim, ammalarimnikida birinchi bor turgan, asarimni yozgan kezlarim naqadar sevardim uni!» Nexlyudov o'sha vaqtda o'zining qanday ekanini esladi. O'sha sofflik, yoshlik, to'lib-toshgan hayot esib o'tganday tuyuldi va shu on ko'ngli vayron bo'ldi.

O'sha vaqtdagi holati bilan hozirgi ahvoli o'rtasidagi farq juda katta edi: o'sha vaqt cherkovda ko'rgan Katyusha bilan hozirgi fohisha, ya'ni savdogar bilan ichkilikbozlik qilgan, shu bugun ertalab o'zlari sud qilgan Katyusha orasidagi farq qancha bo'lsa, shuncha, balki undan ham ortiq farq bor edi. U vaqtlarda o'zi tetik, oldida benihoya imkoniyatlar quchoq ochib turgan erkin odam edi, endi u o'zini har tomondan bema'ni, puch, muayyan bir maqsadsiz, arzimas hayotning changaliga tushgandek sezar, bu changaldan qutulishning iloji yo'qdek ko'rinar, aksari o'zi qutulishni istamas edi. U bir vaqtlar o'zining haqqoniyligi bilan mag'rurlanib yurganini, hamma vaqt haqqoniy gap gapirishni o'ziga qoida qilib olganini va haqiqatan ham rostgo'y bo'lganini, endi bo'lsa o'zini qurshagan barcha odamlar haq deb topgan yolg'onchilik botqog'iga botganini esladi. Bu yolg'onchilik girdobidan qutulishning iloji yo'q edi, xullas, bu ahvoldan qutulishning yo'lini topolmasdi. Nexlyudov shu botqoqqa botib, o'rganib ketdi, huzur qiladigan bo'ldi.

Qanday qilib Marya Vasilyevna va uning eri bilan, unga va bolalarining ko'ziga qarashga uyalmaydigan bo'lib aloqani uzsa ekan? Missi bilan munosabatini yolg'on-yashiqsiz qay tariqa bir yoqli qilsa? Qanday qilib yerga bo'lgan xususiy egalikning qonunga zidligini tan olish bilan onasidan qolgan merosga egalik qilish o'rtasidagi qarama-qarshilikdan qutulsa? Qanday qilib Katyushaga

nisbatan qilgan gunohini yuvolsa? Bu ahvolda qoldirib bo'lmaydiku, axir. «Bir vaqtlar o'zim sevgan ayolni tashlab ketishga, bir vaqtlar unga pul berib, to'g'ri qildim, deb o'ylaganimdek, advokatga pul berib, katorga azobidan qutqazib, aybimni pul bilan yuvib ketishga haqqim yo'q, axir, u begunohdan-begunoh katorgaga hukm qilingan-ku».

Shu mahal, bir vaqtlar yo'lakda ketidan yetib borib, qo'liga pul qistirgani va qochib ketgani shu bugungidek esiga tushdi. «Eh, bu pul! – bu daqiqalarni u xuddi o'sha vaqtdagidek dahshat va nafrat bilan esladi. – Eh! Naqadar jirkanch ish! – dedi u xuddi o'sha vaqtdagidek ovozi chiqarib. – Faqat razil, yaramas odamgina shunday qiladi! O'sha yaramas, o'sha razil odam men! – dedi u ovozi chiqarib. – Nahotki, haqiqatan ham, – u yurib turib to'xtab qoldi, – nahotki, o'sha yaramas men bo'lsam? Sen bo'lmay, kim? – deb javob berdi o'ziga o'zi. – Koshki, shuning o'zigina bo'lsa? – deb o'zini o'zi fosh qilardi u. – Marya Vasilyevna bilan uning eriga bo'lgan munosabating qabih emasmi? Mulkka bo'lgan munosabating-chi? Pullar onamdan qolgan degan bahona bilan g'ayriqonuniy deb bilganing boyliklardan foydalanasan. Bekorchilik bilan o'tadigan iflos hayoting-chi? Katyushaga bo'lgan munosabating hammasidan oshib tushadi. Yaramas, razil! Ular (odamlar) men to'g'rimda nima deb o'ylasa, o'ylayversin, ularni aldayolaman, lekin o'zimni aldayolmayman-ku».

To'satdan u keyingi vaqtlarda odamlarga nisbatan, ayniqsa, bugun knyazga, Sofya Vasilyevnaga, Missiga, Korneyga nisbatan his etgan nafrati – o'zidan nafratlanish ekanini tushundi. Shunisi qiziqki, o'zining qabihligiga iqror bo'larkan, bir tomondan, alam qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, negadir shodlik his etar, xotirjam bo'lardi.

Nexlyudov o'z umrida, uning ta'biricha, bir necha bor «qalbini pokizalab olgan» edi. Ba'zan, oradan anchagina vaqt o'tgach, u ma'naviy hayoti susayib yoki turg'unlikka uchrab qolganini his etar va ko'nglida yig'ilib qolgan bu turg'unlikka sabab bo'lgan barcha ifloslikni tozalay boshlardi. Ana shunday ruhiy ahvolni «qalbni pokizalash» deb atardi.

Ana shunday uyg'onishlardan keyin Nexlyudov o'ziga qoida tuzar va butun umr shu qoidaga rioya etishga qasd qilardi: kundalik

daftar tutar va umrining oxirigacha shunday yashashga ahd qilib, yangicha hayot boshlardi, turning a new leaf*, derdi u o'ziga o'zi. Lekin har safar dunyodagi turli-tuman havaslar uni qamrab olar, u o'zi sezmaganda holda yana tubanlashar, ko'pincha avvalgidan ham pastlashib ketardi.

Shu zayl u bir necha bor o'zini poklab oldi va tubanlikdan ko'tarildi; yozda ammalarinikiga birinchi bor kelganda, xuddi shu ahvolda edi. Bu – jonli, zavqli uyg'onish edi. Uning oqibati ham ancha uzoqqa bordi. U fuqarolik xizmatini tashlab, jonini fido qilish uchun urush vaqtida harbiy xizmatga kirganida shunday uyg'onish yuz bergan edi. Lekin bu yerda u juda tez buzildi. Keyin yana uyg'onish ro'y berdi, u iste'foga chiqib, chet elga jo'nab ketdi va rassomlik bilan shug'ullana boshladi.

O'shandan beri to shu bugungacha uzoq muddat hech qanday tozalanish degan narsa bo'lmadi. Shuning uchun ham u hech qachon bu qadar ifloslikka borib yetmagandi. Vijdoni buyurgan hayot bilan hozirgi hayoti o'rtasidagi farq shu qadar katta ediki, buni ko'rib butun vujudini dahshat qamrab oldi.

Bu farq shu qadar katta, ifloslik shu qadar kuchli ediki, avvaliga u pokizalanishdan umidini uzdi. «Yaxshiroq bo'lishga harakat qilding, lekin hech nima chiqmadi-ku, – deb shayton vasvasaga solardi uni, – yana bir karra urinishdan nima foyda bor? Faqat sengina emas, hamma shunaqa – hayot o'zi shunday», – derdi yana shu ovoz. Lekin har vaqt haqqoniy, har vaqt qudratli, mangu bo'lgan ozod, ma'naviy mavjudot Nexlyudovning dilida allaqachon uyg'ongan edi. Uning bu mavjudotga ishonmay iloji yo'q edi. Nexlyudovning hozirgi ahvoli bilan o'zi istagan ahvol o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lmasin, ma'naviy mavjudot uchun buning hech qanday og'irligi yo'q edi.

«Oyoq-qo'limni chambarchas bog'lagan yolg'onni qanday qilib bo'lsayam parchalab tashlayman, hammasiga iqror bo'laman, hammaga to'g'risini aytaman, haqqoniy ish tutaman, – dedi u o'ziga o'zi shartta ovozini baland chiqarib. – Missiga to'g'risini aytaman, buzuq odamligimni, unga uyulanolmasligimni, bekorga bezovta qilganimni aytaman; Marya Vasilyevnaga (dvoryanlar boshlig'ining xotiniga) aytaman. Aytganday, unga gapirishning hojati yo'q, eriga aytaman,

* Yangi sahifa ochish (*ingl.*).

yaramas odam ekanimni, uni aldab yurganimni aytaman. Meros haqida ham shunday buyruq qilamanki, haqqoniyat yuzaga chiqmay qolmasin. Yaramas odam ekanimni, uning oldida gunohkorligimni, taqdirini yengillatish uchun nimaiki qilish lozim bo'lsa, hammasini qilishimni unga, Katyushaga aytaman. Ha, uni ko'raman va meni afv etishini o'tinaman. Ha, gunohimdan o'tishini bolalar singari yalinib so'rayman. – U jim bo'lib qoldi. – Agar lozim bo'lib qolsa, unga uylanaman».

U to'xtadi, yoshlik chog'laridagi singari qo'lini ko'kragida qovushtirdi, ko'zini osmonga tikib, kimgadir murojaat qilayotganday gapira boshladi:

– Parvardigori olam, o'zing qo'lla, yo'l ko'rsat, menga tavfiq ber, meni marazlardan pok et.

U topinar, Xudodan yordam berishni, ko'nglini musaffo qilishni, tavfiq berishni tilardi, vaholanki, u tilagan narsa allaqachon ro'yobga chiqqan edi. Uning dilidan joy olgan rahmon ongini uyg'otdi. Nexlyudov Tangriga yetishganini his etdi, shuning uchun ham erkinlik, bardamlik va hayot zavqinigina emas, balki ezgulikning naqadar qudratli ekanini his etdi. U o'zini inson qo'lidan keladigan har qanday ezgulikka qodirdek his qildi.

U o'ziga o'zi shularni aytar ekan, ko'zlariga ham xayrli, ham xayrsiz yosh keldi; buni shuning uchun ham xayrli ko'z yoshlari deymizki, Nexlyudovning dilida shuncha yillardan buyon uxlab yotgan ma'naviy mavjudotning uyg'onish shodiyonasi bo'lgan ko'z yoshlari edi. O'zining yaxshiligidan, fazilatli ekanidan iyib ketib ko'ziga yosh olgani uchun bu xayrsiz ko'z yoshlari edi.

U bo'g'riqib ketdi. Ikkinchi tavaqasi olib qo'yilgan deraza yoniga keldi-da, ochib yubordi. Deraza boqqa qaragandi. Sokin, salqin va oydin kecha edi. Ko'chada g'ildiragini taraqlatib arava o'tib ketdi, keyin yana jimlik cho'kdi. Darazaning naq yonginasida supurib tozalangan maydonchadagi qum ustida baland, yalang'och terak shoxlarining soyasi tushib turardi. Chap tarafdagi omborning tomi oy nurida oppoq bo'lib ko'rinardi. Oldinda, bir-biriga chirmashib ketgan daraxt shoxlari orasidan devorning qop-qora ko'lankasi ko'zga tashlanardi. Nexlyudov oy nuriga cho'mgan boqqa, tomga, terak soyasiga qarar va o'pkasini to'ldirib salqin havodan so'lish olardi.

«Qanday yaxshi! Ey Parvardigori olam, naqadar yaxshi», – derdi u ko‘nglidan kechayotganlar haqida.

XXIX

Maslova kameraga kechqurun soat oltida, horib-charchab, tosh yo‘lda o‘n besh chaqirim piyoda yurganidan oyoqlari zirqirab, kutilmaganda chiqqan bunday qattiq hukmdan ko‘ngli vayron bo‘lib, buning ustiga, qorni och holda qaytib keldi.

Tanaffuslarning birida soqchilar uning yonida non bilan pishgan tuxum yeyishayotganda, og‘zining suvi kelib, qorni ochganini his etdi-yu, lekin ulardan tilab olib yeyishga or qildi. Oradan uch soat o‘tgandan keyin ishtahasi bo‘g‘ilib, bo‘shashib ketayotganini his qildi. Shu ahvolda ekan, u sira kutmagan hukmni o‘qib eshitdirishdi. Boshda u yanglish eshitgan bo‘lsam kerak, deb o‘yladi, quloqlariga ishonmadi, o‘zini katorgachi bo‘lishini aqliga sig‘dirolmadi. Ammo sudyalar, maslahatchilar hukmni tabiiy bir narsadek xotirjam tinglab o‘tirishganini ko‘rib, g‘azabi qaynadi va gunohi yo‘qligini aytib, qichqirib yubordi. Lekin baqirganini ham tabiiy, kutilgan bir narsadek qarshi olishganini, foydasi yo‘qligini sezib, bu shafqatsizlikka va uni hayratga solgan adolatsizlikka itoat etish kerakligini his qilib, yig‘lab yubordi. Keksa erkaklar emas, hamma vaqt unga muloyimgina qaraydigan yoshgina erkaklarning ayamay qoralaganlari Maslovani ayniqsa hayratga solardi. Bittasini – prokuror yordamchisini u butunlay boshqacha kayfiyatda ekanini ko‘rdi. Katyusha sud bo‘lishini kutib mahbuslar xonasida o‘tirganida, majlislar orasidagi tanaffus paytlarida ana shu erkaklar, boshqa bir ish bilan ketayotganday, eshik yonidan o‘tar yoki uni bir ko‘rib chiqish uchun xonaga kirar edilar. Kelib-kelib shu erkaklar, uning tamomila aybsiz ekaniga qaramay, negadir katorgaga hukm qilib yubordilar. Boshda Katyusha yig‘ladi, keyin dami ichiga tushib ketdi, jo‘natishlarini kutib mahbuslar xonasida esankirab o‘tirdi. Hozir u faqat bir narsani: chekishni istardi. Hukmdan so‘ng Bochkova bilan Kartinkin xuddi shu xonaga olib kirilganda, Katyusha shu kayfiyatda edi. Bochkova kirishi bilanoq Maslovani urisha ketdi va katorgachi deb haqorat qila boshladi.

– Ha, qo‘lingdan nima keldi? Baribir qutulib ketolmading-ku, manjalaqi. Nima ekkan bo‘lsang, shuni o‘rsan. Katorgadayam oliftagarchilik qilaman, deb o‘ylama.

Maslova qo‘llarini xalatining yengiga tiqib, boshini quyi solib, ikki qadam nariga, iflos polga tikilganicha qimir etmay o‘tirar va:

– Sizlarga tegayotganim yo‘q-ku, qo‘yinglar o‘z holinga, – derdi faqat. – Axir, tegayotganim yo‘q-ku, – deb takrorladi u bir necha bor, keyin butunlay jim bo‘lib qoldi. Kartinkin bilan Bochkovani olib ketganlaridan keyin qorovul unga uch so‘m pul olib kelgandagina u sal jonlandi.

– Maslovamisan? – deb so‘radi u. – Ma, ol, boyvuchcha xonim berib yubordi, – dedi u pulni Maslovaga uzata turib.

– Qanaqa boyvuchcha?

– Olishingni bilsang-chi, senlar bilan ham gaplashib o‘tiranmanmi!

Bu pulni islovatxonaning egasi Kitayeva kirgizgan edi. U suddan chiqib ketaturib sud ijrochisidan Maslovaga ozroq pul berib ketish mumkinmi, deb so‘radi. Sud ijrochisi mumkin, deb aytdi. Ijizat olgandan keyin Kitayeva do‘mboqqina oppoq qo‘lidan uch tugmali yumshoq qo‘lqopini yechib, shohi yubkasining orqa tomonidagi burmalaridan yangi rasm bo‘lgan hamyon chiqardi, hozirgina chiptadan qirqib olingan ancha kupon orasidan, uyida ishlab topgan pullardan bitta ikki yarim so‘mlikni oldi, unga ikkita bir tangalik va bitta yarim tangalikni qo‘shib ijrochiga berdi. Ijrochi qorovulni chaqirdi va sadaqa beruvchining ko‘zi oldida bu pulni qorovulga berdi.

– Iltimos qilaman, hammasini bering, – dedi Karolina Albertovna qorovulga.

Bu ishonchsizlik qorovulga qattiq botdi. Shuning uchun ham u Maslovaga qo‘pol muomala qildi.

Maslova pulni ko‘rib o‘zida yo‘q quvondi. Chunki hozir shu tufayli istagan narsasini olishi mumkin edi.

«Qani endi papiros topib, bir cheksam», – deb o‘ylardi u. Hozir butun fikri-yodi ana shunda edi. Maslovaning shu qadar chekkisi kelardiki, u kabinetlarning yo‘lakka qaragan eshiklaridan chiqayotgan tamaki hidini yutoqib ichiga tortardi. Lekin uzoq kutib qolishga to‘g‘ri keldi. Chunki uni jo‘natib yuboradigan kotib sudlanuvchilarni

unutib qo'yib, gap bilan ovora edi, hatto man etilgan bir modda haqida advokatlardan biri bilan bahslasha ketdi. Suddan keyin ham bir necha yosh va qari kishilar Maslovani ko'rish uchun kirishdi, bir nimalar deb shivirlashishdi. Lekin Maslova ularga parvo qilmasdi.

Nihoyat, soat beshlarda unga ijozat berishdi va konvoylar – nijegorodlik va chuvash uni sudning orqa eshigidan olib chiqib ketishdi. Yo'lakka chiqqanlari hamon Maslova ularga yigirma tiyin berib ikkita kulcha bilan papiros sotib olib berishlarini iltimos qildi. Chuvash kulib yubordi, pulni oldi-da:

– Mayli, olib beramiz, – dedi. Haqiqatan ham gapida turib, papiros bilan ikkita kulcha sotib olib keldi, hatto ortgan pulni ham berdi.

Yo'lda chekish mumkin emas edi. Shu sababli Maslova turmaga yaqinlashganida ham xumor qilib turardi. Uni eshik yoniga olib kelishgan paytda poezddan yuztacha mahbus keltirishdi. Maslova yo'lakda ularga duch keldi.

Mahbuslar – soqoli o'sgan, qirilgan, qari, yosh ruslar, g'ayriruslardan iborat edi. Ba'zilarining sochi yarim olingan. Ular oyoqlaridagi kishanlarini shiqirlatib kelishar, yo'lakni chang-to'zonga, g'ovurg'uvurga, achchiq ter hidiga to'ldirishar edi. Mahbuslar Maslovaning yonidan o'tib ketayotib yeb qo'ygudek bo'lib boshdan-oyoq tikilishardi. Ba'zilarining hirsleri qo'zg'aganidan afti-angorlari o'zgarib unga yaqinroq kelar, tegishishardi.

– Zap jonon ekanmi, – derdi biri.

– Salom berdik, xolajon, – deb qo'yardi ikkinchisi ko'zini qisib.

Boshining orqa tomonidagi sochi qirilgan yeri ko'karib turgan, soqolini oldirib mo'ylov qo'ygan, qorachadan kelgan bir mahbus kishanlariga o'ralashib, shiqirlatib, Maslovaning yoniga sakrab o'tdida, quchoqlab oldi. Maslova uni itarib yuborgandan keyin esa ko'zlarini ola-kula qilib, tishini irjaytirib:

– Ha, tanimay qoldingmi jazmaningni? Muncha oliftagarchilik qilasan?! – deb o'shqirdi.

– Bu nima qiliq, ablah? – deb qichqirdi noib orqa tomondan kelib qolib.

Mahbus g'ujanak bo'lib qoldi va apil-tapil o'zini chetga oldi. Noib esa:

– Bu yerda nima qilib yuribsan? – deb Maslovaga do'q ura ketdi.

Maslova, meni suddan olib keldilar, deb aytmog'chi bo'ldi-yu, lekin shu qadar charchagandiki, gapirishga erindi.

– Suddan kelyapmiz, janob oliylari, – dedi ichkariga kirib ketayotgan mahbuslar orasidan o'tib va qo'liga qalpog'ini olib.

– Katta nozir topshirsang bo'lmaydimi! Bu qanday noma'qulchilik!

– Xo'p bo'ladi, janob oliylari.

– Sokolov! Qabul qil, – deb qichqirdi noib.

Katta nozir keldi va jahl bilan Maslovaning yelkasiga turtidda, yur, degandek boshini silkib, ayollar yo'lagiga boshlab ketdi. Ayollar yo'lagida Maslovani boshdan-oyoq paypaslab, tintib chiqishdi-da, hech narsa topolmay (bir quti papiros kulcha orasiga tiqib qo'yilgan edi), ertalab chiqqan kamerasi kiritib yuborishdi.

XXX

Maslova joylashgan kamera bo'yi to'qqiz, eni yetti gaz keladigan ikkita derazali uzun xona edi. Bu xonada suvoqlari ko'chgan pechka va taxtalari qurigan, kameraning uchdan ikki bo'lagini egallagan so'ri bor edi. Eshikning ro'parasida, o'rta bir yerda sham yopishtirib qo'yilgan, qorayib ketgan ikona turardi. Uning pastki tomoniga ilib qo'yilgan guldastani chang bosib ketgandi. Eshikning chap tomonida, qorayib ketgan pol ustida badbo'y yog'och paqir turardi. Hozirgina yo'qlama qilib, xotin-xalajlar ustidan qulflab chiqib ketgan edilar.

Bu kamerada hammasi bo'lib o'n besh kishi turar: shularning o'n ikkitasi ayol va uchtasi yosh bola edi.

Hali yop-yorug' edi. Faqat ikki xotin so'ri ustida yotardi: ularning biri pasporti bo'lmagani uchun qamalgan devona ayol edi, u boshini xalatiga burkab yotardi – u hamma vaqt uxlagani uxlagan edi. Ikkinchisi o'g'irlik qilgani uchun qamoqqa olingan sil xotin edi. Bunisi xalatini boshiga qo'yib, tomog'ini qitiqlayotgan balg'amni qaytarib, yo'talmaslikka urinib baqrayib qarab yotardi. Hammalari boshyalang, bir xil bo'z ko'ylak kiygan, boshqa ayollarning ba'zilari so'ri ustida ish tikib o'tirar, ba'zilari hovlidan o'tib ketayotgan mahbuslarni tomosha qilib, deraza yonida turishardi. Ish tikib o'tirgan uch xotinning biri Maslovani uzatib qolgan kampir edi. Korablyova qovog'i soliq, yuzini ajin bosgan, baqbaqasi salqib tushgan novcha, malla sochi chakkalaridan oqara boshlagan, yuzidagi

so'galidan soch o'sib chiqqan baquvvat xotin edi. Bu kampir erini bolta bilan chopib tashlagani uchun katorgaga hukm etilgandi. U qiziga shilqimlik qilavergani uchun erini o'ldirgan edi. U kameraning oqsoqoli bo'la turib, sharob ham sotardi. Korablyova ko'zoynak taqib, ishda chiniqqan katta qo'llarida ignani dehqonchasiga uch barmoq bilan ushlab, uchini o'ziga qaratib tikardi. Uning yonida past bo'yli, puchuqqina, qorachadan kelgan, mitti qora ko'z, ochiqko'ngil, ezma xotin qop tikib o'tirardi. Bu temiryo'l budkasining qorovuli bo'lib, poezd kelar oldidan bayroq ko'tarib chiqmagani, poezd halokatga uchrangani uchun uch oy qamoqqa hukm etilgan edi. Ish tikib o'tirganlarning uchinchisi Fedosya, o'rtoqlari Fenichka deb ataydigan juvon edi. U oppoqqina, ikki beti qip-qizil, moviy ko'zlari bolalarnikidek chaqnaq turadigan, ikkita qilib o'rilgan uzun sochlarini kichkinagina boshiga chamberak qilgan yoshgina, xushsurat juvon. U eriga zahar berib o'ldirmoqchi bo'lgani uchun qamalgan edi. Fedosyani o'n olti yoshida erga berishgan, u erini to'yning ertasigayoq zaharlamoqchi bo'lgan. Kafilga olinib chiqilgach, sud bo'lguncha, sakkiz oy mobaynida u eri bilan yarashib, unga qattiq muhabbat qo'ygan, apoq-chapoq bo'lib ketgan. Eri bilan, ayniqsa, uni yaxshi ko'rib qolgan qaynonasi, sudda uni oqlashga harchand urinishgan bo'lsalar-da, bunga qaramay u Sibirga, katorga ishiga hukm etilgan edi. Xushfe'l, xushchaqchaq kulimsak Fedosya Maslovaning yonida yotardi. U Maslovani jonidek yaxshi ko'rar, unga g'amxo'r bo'lib, xizmatini bajo keltirib turardi. So'ri ustida yana ikki xotin bekor o'tirardi. Ularning biri yoshi qirqlarga borgan, rangsiz oriq yuzi bir vaqtlar go'zal bo'lgan, hozir ozib-to'zib ketgan rangpar xotin edi. Uzun, oq ko'kragi bilan qo'lidagi chaqalog'ini emizib o'tirardi. Bu ayolning gunohi shu ediki, ularning qishlog'idan, mujiklarning fikricha, nohaq askarlikka olingan yigitni olib ketishayotganda xaloyiq askarni olib qolgan. Bu xotin nohaq olingan yigitning xolasi, askar tushgan aravaga qo'shilgan otning jilovidan birinchi bo'lib tortgan. So'ri ustida yana yuzini ajin bosgan, sochi oqargan, past bo'yli, soddadil, bukri bir kampir bekor o'tirardi. Bu kampir so'rida, pechka yonida o'tirib, qiqir-qiqir kulib yonidan u yoqdan bu yoqqa chopqillab o'tib turgan, sochi kalta qilib olingan to'rt yashar do'mboq o'g'il bolani tutmoqchi bo'layotganday harakat qilib qo'yardi. Ko'ylak kiygan bola uning yonidan yugurgilab

o'tib ketar va hadeb: «Ha, tutolmading-ku!» derdi. Bu kampir o'g'li bilan birga o't qo'yishda ayblangan edi. U qamoqda kechayotgan kunlarini juda bemalol o'tkazar, faqat o'zi qatori qamoqda o'tirgan o'g'liga achinardi. Lekin u tashqarida qolgan cholini ko'p o'ylar, kelini ketib qolib kirni yuvadigan odam qolmagani uchun bitlab ketadi, deb qo'rqardi.

Mana shu yetti ayoldan tashqari yana to'rttasi ochiq derazalarning biri yonida turishar, temir panjarani ushlaganlaricha, boya Maslova darvoza yonida duch kelgan, hovlidan o'tib ketayotgan mahbuslar bilan baqirib-chaqirib, imo-ishoralar bilan gaplashardi. Shularning biri o'g'rilik qilgani uchun jazosini o'tayotgan, xomsemiz, yuzi va qo'llarini oqimtir-sarg'ish sepkil bosgan, yoqavayron, bo'yni yo'g'on xotin edi, u deraza yonida turib, xirillagan tovush bilan beadab so'zlar aytib qichqirardi. Uning yonida bo'yi o'n yashar qiznikidek keladigan qoracha, tanasi uzun, oyog'i kalta, beso'naqay mahbus xotin turardi. Uning yuzi qip-qizil, dog' bosgan, ko'zlari bir-biridan uzoqda o'mashgan bo'lib, qalin, do'rdoq lablari so'yloq tishlarini berkitolmas edi. U hovlida bo'layotgan narsalarga o'qtin-o'qtin qiyqirib kulib qo'yardi. Olifaligi uchun Xoroshavka deb atalgan bu mahbus juvon o'g'irlik qilgani va o't qo'ygani uchun sud qilingan edi. Ularning orqasida juda kir kulrang ko'ylak kiygan, ahvoli ayanchli, tomirlari o'ynab chiqqan, oriq, og'iroyoq xotin turardi, u o'g'irlik molni yashirgani uchun sud qilingan edi. Bu xotin tovush chiqarmay, hovlida bo'lib o'tayotgan narsalarni ma'qullagandek, iyib tabassum qilardi. Deraza yonida turganlarning to'rtinchisi mayfurushlik qilgani uchun qamalgan o'rta bo'yli, ko'zlari bodragan xushfe'l qishloqi xotin edi. Bu xotin – uyida qoldirib keladigan odami bo'lmagani uchun o'zi bilan qamoqqa yetti yashar qizi bilan o'g'limi olib kelgan edi. Kampir bilan o'ynashayotgan bola shuning bolasi edi. Bu xotin ham boshqalar kabi derazaga qarar, lekin to'xtovsiz paypoq to'qir, hovlidan o'tib ketayotgan mahbuslarning so'zini eshitganda, jirkanib yuzini burishtirar, ko'zini yumardi. Malla sochlari orqasiga sochilib tushgan yetti yashar qiz kichkinagina oriq qo'lchalari bilan onasining yubkasini changallab olgan, ko'zini bir nuqtaga tikkanicha, xotinlar bilan tashqaridagi mahbuslar bir-biriga aytayotgan haqoratli so'zlarga diqqat bilan quloq solar va

bu soʻzlarni yodlab olayotgandek, hadeb shivirlab qoʻyardi. Oʻn ikkinchi mahbus dyachokning* qizi boʻlib, nikohsiz tuqqan bolasini quduqqa tashlagani uchun qamalgan edi. Bu baland boʻyli, qad-qomati kelishgan qiz edi; uning bir oʻrim kaltagina yoʻgʻon sariq sochi yoyilib, patak boʻlib ketgan, bodragan koʻzlarini bir nuqtaga tikib turardi. U atrofida boʻlayotgan narsalarga parvo qilmay, yalangoyoq boʻlib, kulrang kir ich koʻylakda kameraning boʻsh joyida u yoqdan bu yoqqa yurib turar, devorga borib yetganda keskin burilib orqasiga qaytardi.

XXXI

Qulf shaqirlab, Maslovani kameraga kirgizganlarida hamma unga oʻgirilib qaradi. Hatto dyachokning qizi ham bir daqiqaga toʻxtab, qoshlarini kerib, Maslovaga bir qarab qoʻydi-da, hech narsa demasdan yana avvalgidek katta-katta qadam tashlab yura boshladi. Koʻzoynak taqqan Korablyova ignasini qalin boʻzga sanchdi-da, Maslovaga savol nazari bilan qaradi.

– Ana xolos! Qaytib kelibsanda. Men boʻlsam oqlab yuborishgandir, deb oʻylagandim, – dedi u erkaklarcha xirillagan boʻgʻiq tovush bilan. – Kesib yuborishgan koʻrinadi.

U koʻzoynagini oldi, tikayotgan ishini soʻri ustiga, yonginasiga qoʻydi.

– Kampir ikkovimiz boʻlsak seni chiqarib yuborishgandir, deb oʻylovdik, chirogʻim. Baʼzi vaqtda boʻshatib ham yuborishadi. Ustiga pul ham berishadi, qamalgan kuningdan boshlab, – deb gapira boshladi qorovul xotin xush ovoz bilan. – Tusmolimiz toʻgʻri chiqmadiya. Xudoning xohishi boʻlarkan-da, – derdi u muloyimgina.

Fedosya bolalarnikiga oʻxshash mehribon moviy koʻzlarini Maslovaga tikib:

– Nahotki, kesib yuborishgan boʻlsa? – deb soʻradi rahmdillik bilan. Uning chehrasi oʻzgarib, yigʻlab yuborgudek boʻldi.

Maslova javob qaytarmay oʻz oʻrniga, chekkadan hisoblaganda ikkinchi oʻringa, Korablyovaning yoniga oʻtib, taxta soʻrining bir chekkasiga oʻtirdi.

– Tuz ham totmagandirsan, – dedi Fedosya oʻrnidan turib, Maslovaga yaqinlasharkan.

* *Dyachok* – pravoslav cherkovida: eng quyi darajadagi ruhoni.

Maslova javob qaytarmay qo'lidagi kulchalarni o'rinning bosh tomoniga qo'ydi. Egnidan chang bosgan xalatini yechdi, jingalak qora sochlaridan durrasini oldi-da, o'tirdi.

So'rining narigi boshida bola bilan o'ynashayotgan bukri kampir ham yaqin kelib, Maslovaning ro'parasida to'xtadi.

– Tts, tts, tts! – deb tilini taqillatdi u va achinib bosh chayqab qo'ydi.

Kampirning ketidan bola ham yetib keldi va ko'zlarini katta ochib, yuqori labini cho'zib, Maslova olib kelgan kulchaga tikilib qoldi. Boshidan shuncha voqealarni kechirgan Maslova ro'parasida unga rahm qilib tikilib turganlarni ko'rib yig'lab yuborayozdi, lablari pir-pir ucha boshladi. Lekin u o'zini tutishga urindi va to kampir bilan bola yaqinlashguncha o'zini tutib turdi. Kampirning achinib, tilini taqillatib qo'rganini eshitgandan keyin, ayniqsa, jiddiy ko'zlarini nondan uzib unga tikkan bolaning boqishlariga ko'zi tushgach, o'zini tutib turolmadi. Yuzi titrab ketdi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Aytdim-ku senga, yaxshi advokat topgin, deb, – dedi Korablyova. – Nima bo'ldi, surgun qilishdimi? – so'radi u.

Maslova javob qilmoqchi bo'ldi-yu, lekin javob qaytarolmadi, ho'ngrab yig'laganicha kulcha orasidan papiros qutini oldi-da, Korablyovaga uzatdi. Quti ustiga sochini baland qilib turmaklab qo'rgan, ko'ksi uchburchak shaklida ochiq turgan, ikki yuzi qip-qizil xotin surati tushirilgan edi. Korablyova suratga qarab, Maslova pulni bo'lmag'ur narsaga sarf qilganiga achinib boshini chayqab qo'ydi, bitta papiros olib, lampaga tutib yondirib oldi-da, Maslovaga uzatdi. Maslova hamon yig'idan tinmay, ustma-ust tamaki tutunini ichiga tortib, puflab chiqara boshladi.

– Katorga, – dedi u piq-piq yig'larkan.

– Xudodan qo'rqishmaydiyam, odamxo'rlar, la'nati qonxo'rlar, – dedi Korablyova. – Bechora qizni bekordan-bekor kesib yuborishibdi-ya.

Deraza yonida turgan ayollar shu mahal qah-qahlab kulib yuborishdi. Qizcha ham kulib yubordi. Uning qo'ng'iroqday jarangdor kulgisi uch xotinning xirillagan, qiyqirib kulgan tovushiga qo'shilib ketdi. Hovlidagi mahbusning allaqanday qiligi derazadan qarab turganlarga shunday ta'sir qilgan edi.

– Eh, yaramas ko‘ppak! Qilig‘ing qursin, – dedi malla xotin; uning xo‘ppasemiz gavdasi biltanglab ketdi, u yuzini panjaraga tirab behayo so‘zlar aytib qichqira boshladi.

– Baqaloq o‘lgur! Muncha vag‘illaydi! – dedi Korablyova malla xotinga qarab boshini chayqab, keyin yana Maslovaga yuzlandi: – Necha yil berishdi?

– To‘rt yil, – dedi Maslova, uning ko‘z yoshlari shu qadar duvillab oqa boshladiki, bir tomchisi papirosiga tushdi.

Maslova jahl bilan papirosini mijig‘lab tashladi-da, boshqasini oldi.

Qorovul xotin, o‘zi chekmasa-da, chekib tashlangan papirosni shu zahoti yerdan oldi, vaysashdan tinmasdan, qo‘li bilan papirosni tekislay boshladi.

– Bundan chiqdi, – derdi u, – haqiqat yo‘q deganlari rost ekan-da, chirog‘im. Ko‘ngillariga kelganini qilishadi. Matveyevna: chiqarib yuborishadi, deydi. Men bo‘lsam: yo‘q, chirog‘im, u bechorani yetti yamlab bir yutishadi, dilim sezib turibdi, dedim. Aytganim keldi, – derdi u o‘z ovozi bilan mamnuniyat bilan tinglab.

Bu orada erkak mahbuslar hovlidan o‘tib ketishgan ular bilan gap otishayotgan xotinlar deraza oldidan Maslova yoniga kelishgan edi. Eng avval ko‘zi bodragan mayfurush xotin qizi bilan uning oldiga keldi.

– Shuncha jabr qilib bo‘ladimi-a? – dedi u Maslovaning yoniga o‘tirayotib, tez-tez paypoq to‘qirkan.

– Puli yo‘q-da, shuning uchun ham qattiq jazolashadi. Puli bo‘lganda, bitta korchalonni yollardi-yu, oqlanib ham ketardi, – dedi Korablyova. – Anovi, xah, oti nimaydi-ya, burni katta, pahmoq bor-ku – o‘sha, o‘shani yollaganda edi, suvdan quruq olib chiqardi.

– Yollash oson bo‘libdi-da, – tishini irjaytirdi ularning yoniga kelib o‘tirgan Xoroshavka, – u ming so‘mni pul demaydi.

– Peshonang sho‘r ekan-da, – dedi o‘t qo‘yishda ayblanib qamalgan kampir. – Zulm emasmi, axir, birovning xotinini yo‘ldan ozdirib, yana erini bitga yem bo‘lsin deb qamatib qo‘yibdi-ya! Qarigan chog‘imda meniyam uning yoniga tiqtirdi, – deb u yuz martalab gapirib bergan kechmishini yana so‘zlay boshladi. – Peshonamizga yo to‘rvaxalta, yoki bo‘lmasa, turma bitilgan ekan-da. To‘rvaxaltadan qutuldim, turmaga tutildim.

– Ular – boshimizga bitgan balo, – dedi mayfurush ayol qizining boshiga tikilib qarab, keyin paypoqni yoniga qo‘ydi-da, qizchani ikki oyog‘i orasiga tortib, bitini tera boshladi. – «Nega may sotasan» mish. Bo‘lmasa, bolalarimni qanday boqaman? – dedi u qo‘li o‘rganib ketgan ishini davom ettirib.

Mayfurushning bu so‘zlari Maslovaga sharobni eslatdi.

U ko‘ylagining yengi bilan ko‘z yoshlarini artarkan, o‘qtin-o‘qtin xo‘rsinib turib:

– Qani endi, sharob bo‘lsaydi, – dedi Korablyovaga.

– Garmdori solinganimi? Mayli bo‘lmasam, – dedi Korablyova.

XXXII

Maslova non orasidan boyagi pullarni oldi-da, kupon ajratib Korablyovaga uzatdi. Korablyova kuponni oldi, savodi bo‘lmasa-da, bir qarab qo‘ydi, ko‘pni bilguchi Xoroshavkaga ko‘rsatib, bu qog‘oz ikki so‘m ellik tiyinlik pul ekanini bildi-da, sharob solib yashirib qo‘yilgan shishani olish uchun tuynuk tomonga ketdi. Buni ko‘rgan ayollar joy-joylariga tarqalishdi. Bu orada Maslova durrasi va xalatining changini qoqdi, so‘riga chiqib non yeya boshladi.

– Senga choy asrab qo‘yib edim, sovib qolgandir, – dedi Fedosya tokchadan paytavaga o‘ralgan tunuka choynak bilan do‘lchani olayotib.

Allaqachon sovib qolgan suvdan choydan ko‘ra ko‘proq temir isi kelib turardi. Lekin shunga qaramay, Maslova do‘lchaga quyib, nonning ustidan choy icha boshladi.

– Finashka, ma, – dedi u va kulchadan bir burda ushatib, og‘ziga termilib turgan bolaga uzatdi.

Bu orada Korablixa sharob solingan shisha bilan do‘lcha uzatdi. Maslova Korablyova bilan Xoroshavkaga manzirat qildi. Bu uch mahbus ayolning yonlarida pullari bo‘lib, bor-yo‘qlarini o‘rtada baham ko‘rar, shuning uchun kameraning zodagonlari hisoblanishardi.

Oradan bir necha daqiqa o‘tgach, Maslovaga jon kirib, sud to‘g‘risida gapirib bera boshladi, prokurorni mazax qilib, sudda o‘zini hayratga solgan boshqa narsalar haqida qizishib hikoya qila ketdi. Sudda hamma unga suqlanib qarab-qarab qo‘yganini, uni ko‘rish uchun ataylab mahbuslar xonasiga kirib turishganini so‘zlardi.

– Hatto soqchi ham: «Seni koʻrgani kirishyapti», dedi. Bittayarimtasi falon qogʻoz shu yerdami deb yo boshqa narsani bahona qilib kiradi-yu, koʻzi bilan yeb qoʻygudek boʻlib menga tikiladi. Men boʻlsam unga hech qanday qogʻoz kerakmasligini juda yaxshi sezib oʻtiribman, – derdi u jilmayib, taajjublanganday bosh chayqab qoʻyib. – Artistlik qilishadi.

– Boʻlgan-turganlari shu, – deydi Katyushaning gapiga qoʻshilib qorovul xotin, keyin qoʻngʻiroqday jingillab gapira boshlaydi. – Shakarga yopishgan pashshadek xira boʻlishadi. Biron boshqa narsaga shudlari boʻlmasayam, bunga aqlari yetadi. Ularning koʻziga hech narsa koʻrinmay qoladi...

– Bu yerda-chi, – uning gapini boʻldi Maslova. – Bu yerdayam qoʻlga tushdim. Meni endi olib kelishgan ham ediki, shu mahal vokzaldan bir toʻda mahbuslarni olib kelib qolishdi-ku. Holi-jonimga qoʻyishmadi, qanday qochib qutulishni bilolmay qoldim. Yaxshiyamki, noib haydab yubordi. Bittasi yelimday yopishib oluvdi, qoʻlidan zoʻrgʻa chiqib qutuldim.

– Aft-boshi qanaqa? – soʻradi Xoroshavka.

– Qorachadan kelgan, moʻylovdor.

– Xuddi oʻsha.

– Kim?

– Shcheglov-da. Hozir oʻtib ketdi.

– Qanaqa Shcheglov?

– Shcheglovni bilmaydi-ya! Shcheglov ikki bor katorgadan qochgan. Endi yana tutib olishibdi, u baribir yana qochib ketadi. Undan hatto nazoratchilar ham qoʻrqishadi, – dedi mahbuslarga xatlar olib berib, turmadagi voqealardan boxabar boʻlib turadigan Xoroshavka. – Baribir qochib ketadi.

– Qochganidan nima foyda, baribir bizni olib ketmaydi, – dedi Korablyova. – Undan koʻra, menga ayt-chi, – dedi u Maslovaga yuzlanib, – advokat shikoyat yozish haqida nima dedi, endi shikoyat-noma berish kerakdir?

Maslova hech nima bilmasligini aytdi.

Shu choq malla xotin sepkil bosgan ikkala qoʻlini paxmoq qoʻngʻir sochlari orasiga tiqib, tirnoqlari bilan boshini qashiy-qashiy sharob ichayotgan «zodagonlar» yoniga keldi.

– Katerina, men senga aytsam, – deb so‘z boshladi u. – Eng avval suddan noroziligingni yozishing kerak, keyin prokurorga ariza berasan.

– Ha, senga nima? – deb o‘shqirdi unga Korablyova do‘rillab. – Sharobni hidi kelib qoldi-da, a? O‘vora bo‘lasan. Nima qilish kerakligini sendan yaxshi bilamiz, senga zormasmiz.

– Sen bilan gaplashayotganim yo‘q-ku, muncha o‘dag‘aylaysan.

– Sharob ichging kep qoldimi? Avrashga tushdingmi?

O‘zining bor-yo‘g‘ini hamma bilan baham ko‘radigan Maslova:

– Qo‘ysang-chi endi, bera qol ungayam, – dedi.

– Men adabini berib qo‘yaman...

– Qani, berib ko‘r-chi! – dedi malla Korablyova tepasiga bostirib kelib. – Sendan qo‘rqib bo‘pman.

– Avaxta kalamushi!

– O‘zing kalamush!

– Pishmagan xomkalla!

– Men xomkallamanmi? Katorgachi, qotil! – deb qichqirdi malla xotin.

– Nari tur, deyapman, – deb g‘o‘ldiradi Korablyova xo‘mrayib.

Ammo malla hamon bostirib kelardi. Axiyri, Korablyova uning ochiq, semiz ko‘ksidan itarib yubordi. Malla xuddi shuni kutib turgandek, to‘satdan bir qo‘li bilan Korablyovanning sochidan yumdalab, ikkinchi qo‘li bilan yuziga tushirmoqchi bo‘ldi-yu, lekin Korablyova uning bu qo‘lini ushlab qoldi. Maslova bilan Xoroshavka mallaning qo‘lini ajratish uchun unga mahkam yopishishdi. Lekin sochni mahkam changallagan qo‘lini yozib bo‘lmas edi. Malla qo‘lini bir daqiqa bo‘shatdi, lekin u Korablyovanning sochini mushtiga o‘rab olish uchun shunday qilgan edi. Boshi qiyshayib ketgan Korablyova bir qo‘li bilan mallani do‘pposlar, qo‘lini tishlashga urinardi. Xotinlar mushtlashayotganlarning tepasida to‘dalashib turar, ularni ajratishga urinar va qichqirishardi. Hatto sil xotin ham ular tepasiga keldi va yo‘tala-yo‘tala mushtlashayotganlarni tomosha qila boshladi. Bolalar bir-birlariga qisilishib yig‘lashardi. Bu shovqin-suronni eshitib nazoratchi xotin bilan nazoratchi kirdi. Mushtlashayotganlarni ajratishdi. Sochlari paxmayib chuvalib ketgan Korablyova yulib olingan sochlarini ajrata-ajrata, malla esa yirtilib

parcha-parcha bo'lib ketgan ko'ylagi bilan ko'ksini berkitishga urina-urina, baqirib shikoyat qilishar, o'z gaplarini ma'qullatishga urinishardi.

– Bilaman, hamma janjallaring sharobdan kelib chiqqan, ertaga bosh nazoratchiga aytib beray, bir adablaringni berib qo'ysin. Sezib turibman – sharob isi kelyapti, – derdi nazoratchi xotin. – Nom-nishonasi qolmasin, yo'qsa, o'zlaringga yomon bo'ladi, qaysi biring aybdorligingni surishtirishga hozir vaqt yo'q. Joy-joylaringga borib, qisib o'tiringlar.

Ammo kamerada g'ovur-g'uvur anchagacha cho'zildi. Xotinlar yana anchagacha so'kishib, janjal qanday boshlanganini va ayb kimdaligini gapirib vaysashdi. Nihoyat, nazoratchi bilan nazoratchi xotin chiqib ketdi. Xotinlar biroz tinchishib, yotish uchun o'rin sola boshlashdi. Kampir ikona yoniga kelib cho'qina boshladi.

To'satdan so'rining narigi boshidan malla xotinning xirillagan ovozi keldi, u har bir so'z orasiga boloxonador so'kishlar qo'shib:

– Ikkita katorgachi bir bo'lib olibdi, – derdi.

– Qarab tur hali, yana sho'ringga sho'rva to'kib qo'ymay tag'in, – deb javob qaytardi darhol Korablyova xuddi o'shanday boloxonador so'kishlar bilan. Ikkovi jim bo'lib qoldi.

– Xalaqit berishmaganda ko'zingni o'yib, qo'lingga olib berardim-a... – dedi yana malla; darhol Korablyovaning xuddi boyagidek javobi eshitildi.

O'rtaga tushgan jimlik ancha uzoqqa cho'zildi, keyin so'kishlar eshitildi. Sukunat borgan sayin cho'zilardi, nihoyat, butunlay jimlik cho'kdi.

Hamma joy-joyida yotardi, ba'zilar xurrak ota boshladi. Hamma vaqt uzoq cho'qinadigan kampirgina hamon ikonaga sajda qilardi. Dyachokning qizi esa nazoratchi xotin chiqib ketishi bilan o'rnidan turdi-da, kamerada yana u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

Maslova uyg'oq yotar, hamon o'zining katorgachi ekani haqida o'ylar, shu bugun uni ikki marta shunday deb atashdi: bir marta Bochkova, ikkinchi bor malla xotin shunday dedi, o'zining katorgaga hukm qilinganiga u sira ko'nikolmasdi. Maslovaga orqasini o'girib yotgan Korablyova unga o'girildi.

– Shunday bo‘lar deb sira o‘ylamagandim, – dedi Maslova sekin. – Boshqalar ne-ne ishlar qilishadi – ularga baloyam bo‘lmaydi, men bo‘lsam begunohdan-begunoh azob chekishim kerak.

– Ko‘p xafa bo‘laverma, qizim. Sibirda ham odamlar yashaydi. Sen o‘sha erda ham xor bo‘lmaysan, – deb ovutardi uni Korablyova.

– Xor bo‘lmasligimni bilaman-ku-ya, lekin shunday bo‘lsayam alam qilarkan. Yaxshi yashab o‘rganganman, taqdirim butunlay boshqacha bo‘lishi kerak edi-da.

– Xudoning xohishi bo‘ladi, – dedi Korablyova xo‘rsinib, – Xudoning xohishiga qarshi turib bo‘ladimi.

– Bilaman, xola, baribir qiyin-da.

Ikkovi jimib qoldi.

– Eshityapsanmi anovi manjalaqini, – dedi Korablyova so‘rining narigi boshidan kelayotgan g‘alati tovushlarga Maslovaning diqqatini tortib.

Bu – piq-piq yig‘layotgan malla xotinning tovushi edi. Malla xotin hozir o‘zini so‘kib haqoratlaganlari, kaltaklaganlari, sharob bermaganlari uchun alam qilib yig‘lardi. Axir, shu qadar sharob ichgisi kelgandiki... U yana umri bino bo‘lib hali yorug‘ kun ko‘rmaganiga, so‘kish va qarg‘ishlar, piching va haqoratdan boshqa so‘z eshitmaganiga, kaltakdan boshi chiqmaganiga yig‘lardi. Umrida birinchi marta usta Fedka Molodyonkovga ko‘ngil qo‘yanini eslab biroz yupanmoqchi bo‘lgandi, lekin bu muhabbatning oqibati ham yodiga tushdi. Bir kuni ana shu Molodyonkov mast bo‘lib kelib, hazil uchun uning eng nozik yeriga to‘tiyo so‘rdi va og‘riqdan uning aft-basharasi bujmayib, tipirchilaganini ko‘rib, o‘rtoqlari bilan qotib-qotib kuldi. Bu muhabbat ana shu yo‘sin xotima topdi. Malla xotin shularni esladi va o‘ziga o‘zining rahmi kelib, ovozimni hech kim eshitmayapti, deb o‘ylab yig‘lab yubordi. U yosh bolalardek burnini torta-torta, sho‘rtak ko‘z yoshlarini yuta-yuta yig‘lardi.

– Bechoraga rahmim kelyapti, – dedi Maslova.

– Albatta, kishining rahmi keladi, lekin o‘zi yopishmasin-da.

XXXIII

Ertasiga ertalab Nexlyudov ko‘zini ochar-ochmas o‘ziga bir narsa bo‘lganini his etdi. Nima bo‘lgani esiga kelmagan bo‘lsa-da, bir muhim va yaxshi narsa ro‘y berganini bilgan edi. «Katyusha, sud».

Ha, yolg'on gapirishni bas qilish, bor haqiqatni ochiq aytish kerak. Buning ustiga, xuddi shu kuni ertalab, nihoyat, uyezd boshlig'ining xotini Marya Vasilyevnadan xat keldi, bu maktubni ko'pdan buyon u kutardi, bu hozir juda zarur edi. Marya Vasilyevna xatda unga o'z erkingiz o'zingizda, uylansangiz, baxt tilayman, deb yozgandi.

– Uylanish! – deb g'o'ldiradi u istehzo bilan. – Uylanishni endi xayolimgayam keltirgim kelmaydi!

Nexlyudov kecha Marya Vasilyevnaning eriga hamma gapni aytib bermoqchi, tavba-tazarru qilib, qanday jazo beradigan bo'lsa, rozi ekanini izhor qilmoqchi bo'lganini esladi. Lekin bugun ertalab kecha osongina bo'lib ko'ringan narsa hazilakam ish emasligini angladi. «Eri-ku, bilmas ekan, uni bekorga baxtsiz qilishning nima keragi bor? Agar o'zi so'rab qolsa, rostini aytaman. Ataylab borib aytishning hojati bormi? Yo'q, hojati yo'q».

Missiga butun haqiqatni aytish ham bugun ertalab o'limdan qattiq ko'rindi. Gap boshlash ham juda og'ir edi, haqoratdek borib tegishi turgan gap. Ma'lum narsalar, turmushda bo'ladigan ko'p narsalar qatori, shu holicha qolib ketmog'i kerak edi. Shu kuni ertalab u Missilarnikiga endi sira bormaslikka, agar so'rab qolishsa, gapning po'stkallasini aytishga jazm qildi.

Lekin Katyusha ikkovining munosabati ochiq va ravshan bo'lishi lozim.

«Turmaga boraman, unga aytaman, meni afv etishini so'rayman. Agar lozim bo'lsa, ha, agar lozim bo'lib qolsa, unga uylanaman», – deb o'ylardi u.

Bu fikr, ma'naviy qanoat hosil qilish maqsadida hamma narsadan voz kechib Maslovaga uylanish kerak, degan fikr shu bugun ertalab uning ko'nglini yumshatardi.

Ko'pdan buyon Nexlyudov tongni bunday g'ayrat, shijoat bilan kutib olmagandi. Yoniga kirib kelgan Agrafena Petrovnaga, darhol, bundan buyon bu kvartirada turishga va sizning xizmat-ingizga ehtiyojim qolmadi, deb aytdi. U shu qadar keskinlikni o'zidan hech qachon kutmagan edi. Nexlyudov bu haqda hech narsa demagan bo'lsa-da, bu katta va qimmat kvartirani shu yerda uylanish uchun ijaraga olgani ma'lum edi. Shuning uchun ham kvartirani topshirish ayniqsa zarur edi. Agrafena Petrovna unga hayron bo'lib qaradi.

– Menga qilgan g'amxo'rligingiz uchun katta rahmat, Agrafena Petrovna, lekin endi menga katta uy ham, xizmatkorlar ham kerakmas. Agar menga yordam berishni istasangiz, marhamat qilib, buyumlarni hozircha oyim hayot paytidagidek qilib yig'ishtirib qo'ysangiz. Natasha kelgandan keyin uyni o'zi boshqaraveradi. (Natasha Nexlyudovning opasi edi).

Agrafena Petrovna boshini chayqab qo'ydi.

– Nega yig'ishtiraman? Kerak bo'lib qoladi-ku, axir, – dedi u.

Uning qay ma'noda bosh chayqaganini sezgan Nexlyudov:

– Yo'q, kerak bo'lmaydi, Agrafena Petrovna, kerak bo'lmasa kerak, – dedi unga javoban. – Marhamat qilib, Korneygayam aytasangiz, endi uning ham keragi bo'lmaydi, moyanasini ikki oy oldin berishim mumkin.

– Bekor qilyapsiz-da, Dmitriy Ivanovich, – dedi Agrafena Petrovna. – Chet elga ketsangiz ham baribir uy kerak bo'ladi-ku.

– Yo'q, Agrafena Petrovna, chet elga ketmayman; ketadigan bo'lsam ham butunlay boshqa joyga boraman.

U to'satdan qip-qizarib ketdi.

«Unga ochig'ini aytish kerak, – deb o'yladi Nexlyudov, – yashirishning keragi yo'q, hammaga gapning ochig'ini aytish kerak».

– Kecha juda g'alati va muhim bir hodisa bo'lib o'tdi. Ammam Marya Ivanovnanikidagi Katyusha esingizdami?

– Bo'lmasam-chi, o'zim kiyim tikishni o'rgatgandim.

– Kecha sudda xuddi o'sha Katyushani sud qilishdi, men sudda maslahatchi edim.

– Voy sho'rlik-ey! – dedi Agrafena Petrovna. – Nima gunoh qila qolibdi?

– Qotillikda ayblashdi, lekin hammasiga men aybdorman, men.

– Nega siz aybdor bo'larkansiz? Qiziq gaplarni gapirasiz-a, – dedi Agrafena Petrovna, uning keksa ko'zlarida kinoyali kulgi chaqrab ketdi.

U Katyusha voqeasini bilardi.

– Ha, hammasiga men aybdorman. Shuning uchun ham rejalarim tamomila o'zgardi.

– Buning sizga nima daxli bor, nega sizning hayotingizda o'zgarish bo'lishi kerak? – dedi Agrafena Petrovna kulgisini tiyib.

– Uning shu yo‘ldan ketishiga men sabab bo‘lganman-da. Shuning uchun ham qo‘limdan kelganicha yordam berishim kerak unga.

– Maylingiz-u, lekin sizda ayb yo‘q, desa bo‘ladi. Hammaning ham boshidan o‘tadi. Aqlli-hushli odamlar bunaqa narsalarni unutilib ham yuboradi, – dedi Agrafena Petrovna qat‘iy va jiddiy, – buni ko‘nglingizga olmasangiz ham bo‘ladi. Uning oyog‘i egriligini ilgariyam bir eshitgandim, bunga kim aybdor?

– Men aybdorman. Shuning uchun ham to‘g‘ri yo‘lga solmoqchiman.

– E, endi to‘g‘ri yo‘lga solish qiyin.

– Bu mening ishim. Ammo agar siz o‘zingizni o‘ylayotgan bo‘lsangiz, oyimning ko‘ngillaridagini...

– O‘zimni o‘ylayotganim yo‘q. Marhuma onangiz menga ko‘p yaxshilik qilganlar, u kishidan juda minnatdorman, menga ortiq hech narsa kerakmas. Meni Lizanka chaqiryapti (bu Agrafena Petrovnaning turmushga chiqqan jiyani edi), sizga kerak bo‘lmay qolganimdan keyin o‘shaning oldiga ketaman. Lekin siz bu narsalarni hadeb ko‘nglingizga olavermang, bunaqa narsalar hammaning ham boshidan o‘tadi.

– Bu to‘g‘rida men boshqacha fikrdaman. Lekin har holda kvartirani topshirib, buyumlarni yig‘ishtirishga yordam bering, iltimos qilaman sizdan. Mendan xafa bo‘lmang. Xizmatlaringiz uchun sizdan juda minnatdorman.

Shunisi kiziqki, Nexlyudov o‘zini nomussiz deb bilib, o‘zidan ixlosi qaytgandan keyin boshqalar uning ko‘ziga yomon ko‘rinmaydigan bo‘ldi, qaytaga Agrafena Petrovnaga ham, Korneyga ham hurmati oshdi; ularni hurmat qila boshladi. Nexlyudov Korney oldida ham qilgan gunohlariga iqror bo‘lmoqchi edi-yu, lekin Korney tavoze qilib, o‘zini shu qadar jiddiy tutardiki, bunga Nexlyudovning yuragi dov bermadi.

Xuddi o‘sha ko‘chalarda, xuddi o‘sha izvoshda sudga borarkan, yo‘l-yo‘lakay Nexlyudov bugun o‘zini butunlay boshqa odamdek his etar, o‘ziga o‘zi hayron qolardi.

Kechagina Missiga uylanish yaqin orada bo‘ladigan narsaga o‘xshar, bugun esa butunlay mumkin bo‘lmagan narsadek tuyulardi. Kechagina u, Missi menga jon deb tegadi, bunga shubham yo‘q, deb

o'ylardi, bugun esa u Missiga uylanish u yoqda tursin, unga hatto yaqin yo'lashga ham o'zini noloyiq deb his etardi. «Agar mening qanaqa odamligimni bilsa, o'laqolsayam uyiga yaqin yo'latmasdi. Tag'in men, anovi janobga nozu karashma qilding, deb undan xafa bo'lib yuribman. Yo'q, yo'q, endilikda, agar u menga tekkan taqdirdayam, men manavining shu yerda, turmadaligini, erta yo' indin bosqichma-bosqich o'tib katorgaga jo'nashini bila turib, baxtiyor bo'lish u yoqda tursin, tinch turolarmikanman? O'zim xarob qilgan anovi ayol katorgaga ketsa-yu, men bu yerda tabriklar eshitib, yosh xotini bilan mehmonma-mehmon yursam. Yo bo'lmasam anovi, xotini ikkovimiz sharmandalarcha aldab yurganimiz uyezd boshlig'i bilan majlislarda maktablar inspeksiyasi qarorlariga berilgan ovozlarni sanash va shunga o'xshash ishlar bilan shug'ullansam, keyin xotini bilan biron xilvatda uchrashsam (naqadar qabihlik!); yoki surat chizishni davom ettirsam, bu surat o'lgur ham bitadigan baloga o'xshamaydi, nega deganda, bunday bo'lmag'ur narsalar bilan shug'ullanishimning keragi yo'q, baribir endi hech qaysi biriga qo'lim bormaydi», – deb o'ylardi u ko'nglida ro'y bergan, hozir o'zi his etayotgan bu o'zgarishdan quvonib.

«Eng avval, – deb o'ylardi u, – advokatga uchrashish, uning fikrini bilish kerak, keyin... keyin turmaga borib uni, kechagi mahbus xotinni ko'rish, hammasini o'ziga aytish kerak».

U Katyusha bilan uchrashuvini, hamma gapni ochib aytishini, unga qilgan gunohiga iqror bo'lishini, qilgan aybini yuvish uchun qo'ldan kelguncha yordamini ayamasligini, unga uylanishini aytishini tasavvur etganda zavq-shavqqa to'lib, ko'zlariga yosh kelardi.

XXXIV

Nexlyudov sudga kelishi bilanoq, yo'lakda kechagi sud ijrochisini uchratdi-da, sud bo'lib, kesilgan mahbuslar qayerda ekanini, ular bilan uchrashuv uchun kimdan ruxsat olish mumkinligini so'radi. Sud ijrochisi mahbuslar boshqa-boshqa yerda turishini, qat'iy hukm e'lon qilinguncha ular bilan uchrashuv prokurorga bog'liqligini gapirib berdi.

– O'zim aytaman sizga, sud majlisidan keyin o'zim oborib qo'yaman. Prokuror hali kelganicha yo'q. Hozircha, marhamat qilib, sudga boring. Boshlanib qoladi.

Nexlyudov bugun ko'ziga ayniqsa ayanchli bo'lib ko'ringan ijrochiga qilgan iltifoti uchun minnatdorlik bildirib, maslahatchilar xonasi tomon yurdi.

Nexlyudov eshikka yetay deganda, ichkaridan maslahatchilar chiqib qolishdi. Ular majlislar zaliga kirmoqchi ekanlar. Savdogar xuddi kechagidek quvnoq, xuddi kechagidek shirakayf edi. U Nexlyudovni xuddi qarddon do'stdek kutib oldi. Pyotr Gerasimovichning betakallufigi va qah-qahlab kulishi ham bugun Nexlyudovning g'ashiga tegmas edi.

Nexlyudov kechagi sudlanuvchi xotinga bo'lgan munosabatini maslahatchilarning hammasiga aytishni xohlardi. «Aslida, – deb o'ylardi u, – kecha sud vaqtida o'rnimdan turib butun gunohimni ochiq aytishim kerak edi». Lekin maslahatchilar bilan boshlashib majlislar zaliga kirgach, xuddi kechagidek yana «Sud kelyapti», deyilgandan keyin yoqa tutgan uch kishi baland joyga chiqdi, yana jimlik cho'kdi, maslahatchilar suyanchig'i baland stulga o'tirishdi, jandarm, portret, pop – xullas, kechagi rasm-marosim boshlangach, u ko'ngliga kelgan narsani amalga oshirish kerak bo'lsa-da, kecha bu tantanali marosimni buzolmasligini his etdi.

Sudga hozirlik ko'rish (maslahatchilarni qasamyod ettirish va raisning ularga murojaat qilib gapirgan nutqidan tashqari) xuddi kechagi tarzda o'tdi.

Bugun ko'riladigan ish: qulfni buzib kirib o'g'irlik qilish to'g'risida edi. Qilich yalang'ochlagan ikki jandarm qo'riqlagan sudlanuvchi kulrang xalat kiygan, rangi bo'zdek oqarib ketgan, oriq, yigirma yashar kifti tor yigit edi. U qora kursida yolg'iz o'tirar, kirib kelayotganlarni yer tagidan kuzatardi. Yigit o'rtog'i bilan ombor qulfni buzib kirib, uch so'm oltmish yetti tiyinli eski palosni o'g'irlashda ayblanardi. Aybnomada ko'rsatilishicha, yigit palosni yelkasiga tashlab olgan sherigi bilan ketayotganda mirshab to'xtatgan. Yigit ham, sherigi ham darhol aybini bo'yniga olgan va ikkovi ham qamoqqa olingan. Yigitning sherigi, chilangar yigit qamoqda o'lgan. Shunday qilib, yigit yolg'iz sud qilinmoqda edi. Eski palos dalillar stolida yotardi.

Ish xuddi kechagi tartibda o'tdi, bir dunyo dalillar ro'kach qilindi, guvohlar chaqirildi, ular qasamyod ettirildi, so'roq, ekspert

va chap-rostiga so'roqqa tutish boshlandi. Guvoh mirshab rais, qoralovchi va oqlovchining savollariga bir xilda: «Xuddi shunday», «Bilolmadim» va yana «Xuddi shunday», deb sust javob qaytarardi. Lekin uning o'taketgan ovsarligi va ixtiyorsiz bo'lib qolganiga qaramay, yigitga achinayotgani, uni qo'lga tushirgani haqida o'lganning kunidan so'zlayotgani sezilib turardi.

Ikkinchi guvoh, uy xo'jasi, o'sha palosning egasi, serzardagina choldan, shu palos siznikimi, deb so'rashganda, istar-istamas tan oldi; prokuror undan bu palosni nima qilmoqchi ekanini, unga juda zarur-zarur emasligini so'ray boshlaganda, uning zardasi qaynab:

– Palos bo'lmay nomi o'chsin, tariqchayam keragi yo'q menga, – deb javob berdi. – Bu zormandani deb boshimni shuncha qotirishlarini bilganimda, qidirish u yoqda tursin, so'roqqa sudrab yurishmasin, deb bir so'lkavoyini, bir emas, ikki so'lkavoyini yonimdan to'lagan bo'lardim. Izvoshning o'ziga besh so'mcha pulim ketdi. Koshki o'zim sog' bo'lsam, churram tushgan, buning ustiga, bodim bor.

Guvohlarning ham gapi shu edi. Ayblanuvchi esa hamma aybini bo'yniga olar, qo'lga tushgan yovvoyi hayvon bolasidek to'rt tarafga olazarak bo'lar, tutila-tutila bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay hikoya qilardi.

Voqea ravshan edi, ammo prokuror yordamchisi, xuddi kechagidek, yelkasini ko'tarib hiylakor jinoyatchini ilintiradigan nozik savollar berardi.

U o'z so'zida qulfni sindirib, birovning uyiga kirib o'g'irlik qilinganini, bola eng og'ir jazoga sazovorligini isbot qilardi.

Sud tomonidan belgilangan oqlovchi esa o'g'irlik turar joyda sodir bo'lmaganini va shu sababli, jinoyatni inkor qilib bo'lmasa-da, har holda, bu jinoyat jamiyat uchun prokuror ta'kidlab o'tgan darajada xavfli emasligini isbot qilardi.

Rais xuddi kechagidek o'zini xolis va odil qilib ko'rsatib, maslahatchilar juda yaxshi bilgan, bilmasligi mumkin bo'lmagan narsalarni batafsil tushuntira boshladi. Xuddi kechagi singari tanaffus bo'lib turar, chekishar, sud ijrochisi xuddi kechagidek irg'ib turib: «Sud kelyapti», deb qichqirar, ikki jandarm yalang'ochlangan qilichi bilan jinoyatkorga dahshat solib, uxlashdan o'zlarini tiyib o'tirishardi.

Ish jarayonida ma'lum bo'lishicha, bu yigitning otasi bolalik chog'idayoq uni tamaki fabrikasiga yugurdaklikka bergan, bola u yerda besh yil yashagan. Bu yil xo'jayini bilan ishchilar orasida bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqeadan keyin xo'jayin uni bo'shatib yuborgan va ishsiz qolgan yigit bor-yo'g'ini sotib-sovurib ichkilikbozlik qilib shaharda ishsiz yurgan. Qovoqxonada xuddi o'ziga o'xshash, o'zidan ham avval ishsiz qolgan, ko'p ichadigan chilangar bilan topishgan, g'irt mast holda ikkovi kechasi qulfni buzib omborga kirishgan va birinchi duch kelgan narsani olib chiqishgan. Ularni tutib olishgan. Ikkovi aybiga iqror bo'lgan. Ularni qamoqqa solishgan. Chilangar yigit sud bo'lmasdan o'lib qolgan. Endilikda yigitni xavfli shaxs sifatida, undan jamiyatni xalos qilish maqsadida sud qilishardi.

«Bu ham xuddi kechagi jinoyatchi juvondaqa xavfli shaxs-da, – deb o'ylardi Nexlyudov ko'z o'ngida bo'layotgan gaplarga quloq solarkan. – Ular xavfli-yu, biz xavfli emasmizmi?.. Men – buzuqiman, aldanchiman. Mening shunaqaligimni ko'ra-bila turib mendan naf-ratlanish u yoqda tursin, qaytaga hurmat qilishadi, hammamiz shunaqamasmi? Ammo bu bola jamiyat uchun, shu zalda o'tirgan odamlarning hammasidan ham xavfli bo'lsa, qo'lga tushgan taqdirda, uni nima qilish kerak edi?

Bu bola qandaydir bir boshqacha yovuz emasdir, axir, uning oddiygina odamligini hamma ko'rib turibdi-ku. U xuddi ana shunday odamlarni yetishtiradigan muhitda yashagani uchungina jinoyatkor bo'lgan, axir. Mana shunday bolalar bo'lmasligi uchun esa bunday baxtsiz zotlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ladigan sharoitlarni yo'q etishga harakat qilish lozimligi aniq-ravshan ko'rinib turibdi-ku.

Biz bo'lsak nima qilyapmiz? Biz bunaqa yigitlarning ming-larchasi qo'lga tushmay chetda qolib ketayotganini bila turib, ana shunday qo'qqisdan qo'lga tushib qolgan bittasiga mahkam yopishib olib, turmada uning umrini bekorga yoki bema'ni mehnat bilan o'tkazamiz, xuddi o'zi singari adashib, holdan toygan odamlar bilan birga qamaymiz, keyin davlat hisobiga eng yaramas odamlar qatori Moskvadan Irkutsk gubernasiga surgun qilamiz.

Shunday odamlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan sharoitni yo'qotish uchun harakat qilish o'rniga bundaylarni yetishtiradigan

korxonalarni qo'llab-quvvatlaymiz ham. Bular: fabrika va zavodlar, ustaxonalar, qovoqxonalar, islovotxonalaridir. Biz bunday joylarni yo'q qilish u yoqda tursin, ularni zarur deb hisoblab qo'llab-quvvatlaymiz, tartibga solamiz».

Nexlyudov polkovnik yonidagi kursida o'tirib, oqlovchi, prokuror va raisning turli ohangda gapirayotgan gapini tinglar, viqor bilan qo'llarini paxsa qilib ma'qullatishlarini kuzatarkan, bittani emas, millionlab odamlarni shu taxlitda tarbiyalaymiz-da. Bittasini tutib olib, o'zimizcha bir ish qildik, uni Moskvadan Irkutsk gubernasiga jo'natib yuborib o'zimizni xavf-xatardan xalos qildik, endi bizdan hech narsa talab qilmasayam bo'ladi, deb o'ylab yuramiz, deb o'ylardi benihoya ziyraklik bilan. Nexlyudov bu bahaybat zalni, bu portretlarni, qandillarni, kursilarni, mundirlarni, bu qalin devorlarni, derazalarni bir-bir ko'zdan kechirarkan, bu binoning naqadar kattaligini, bu mahkamaning esa undan ham salmoqdorligini, faqat bu yerdagina emas, balki butun Rossiyada hech kimga keragi bo'lmagan kulgili narsalar uchun moyana oladigan amaldorlar, mirzalar, qorovullar, choparlar armiyasi naqadar ko'pligini eslab: «Mana shu munofiklikka ozmuncha kuch, ozmuncha mablag' sarf bo'ladimi, axir, – deb o'yladi. – Shunga ketayotgan kuchimizning yuzdan bir hissasini biz o'z kayf-safoli hayotimizni ta'min etadigan mana shu xo'rlangan bechoralarga yordam uchun sarf qilganimizda, nimalar bo'lmasdi?! Axir, – deb o'ylardi Nexlyudov taka-puka bo'lgan bolaning za'foron yuziga qarab, – yo'qchilikdan uni qishloqdan shaharga yuborayotgan paytda bironta rahmdil odam topilganda edi yoki bo'lmasam, u shaharga kelgandan keyin ham fabrikada o'n ikki soat ishlab chiqqach, o'zidan katta kishilar orqasidan qovoqxonaga ergashib borayotganida: «Borma, Vanya, yaxshi emas», – deydigan odam topilganda, bola bormas va nojo'ya ish qilmas edi.

Bola bechora shaharda yovvoyi hayvon bolasidek dovdirab yashagan, bitlab ketmaslik uchun sochini qirdirib, ustalarining bozorini qilib berib yurgan, shuncha yil davomida unga rahm-shafqat qiladigan bironta odam topilmagan; aksincha, shaharga kelganidan beri ustalaridan, o'rtoqlaridan, kimki aldab ketsa, ichsa, birovni so'ksa, kimki birovni kaltaklasa, buzuqilik qilsa – shu mard odam, degan gapdan boshqani eshitmagan.

U bemor bo'lib qolgach, og'ir mehnat, piyonistalik, buzuqlik tufayli ishdan chiqib qolgach, esi og'ib behudadan-behuda shaharda sang'ib, ahmoqlik qilib, qandaydir bir omborga kirib, hech kimga keragi yo'q palosni o'g'irlab chiqqandan keyin esa biz, davlatmand, o'qimishli kishilar bolani mana shu ahvolga tushirgan sabablarni yo'qotish o'rniga bolani halok qilish yo'li bilan ishni to'g'rilamoqchi bo'lamiz.

Naqadar dahshat! Bu qattiqqo'llikmi yo bema'nilikmi, bilmaysan kishi. Ikkovi ham haddan tashqari oshib ketgan ko'rinadi».

Nexlyudov endi ko'z o'ngida bo'lib o'tayotgan narsalarga ortiq quloq solmay, ana shularni o'ylardi. Borgan sayin ochilayotgan bu haqiqat uni dahshatga solardi. U shularni oldin nega payqamaganiga, boshqalar nega ko'rolmasliklariga hayron bo'lardi.

XXXV

Birinchi tanaffus boshlanishi bilanoq Nexlyudov o'rnidan turdida, sudga qaytib kirmaslikka qasd qilib, yo'lakka chiqdi. Uni nima qilishsa qilishsinki, lekin bu qadar yaramas va noma'qulchilikka ortiq ishtirok etolmaydi.

Nexlyudov prokurorning kabineti qaysiligini bilib olib, o'sha yoqqa bordi. Xat-xabar tashuvchi prokurorning hozir bandligini aytib, Nexlyudovni kirgizishni istamadi. Ammo Nexlyudov uning gapiga itoat qilib o'tirmay, eshik tomon yurdi va ro'parasidan chiqqan amaldorga o'zining maslahatchi ekanini, prokurorda juda zarur ishi borligini aytib, kirib xabar berishni iltimos qildi. Knyazlik unvoni va kiyimining po'rimgi Nexlyudovga qo'l keldi. Amaldor prokurorga xabar qildi, shunday qilib, Nexlyudovni kirgizib yuborishdi. Prokuror Nexlyudovning o'zi bilan uchrashuvini qattiq turib talab qilganidan norizo bo'ldimi, uni tik turgan holda qabul qildi.

– Xo'sh, xizmat? – so'radi prokuror jiddiy.

Nexlyudov, hozirgi xatti-harakati o'zining butun hayot-mamotini hal etishga qodir ekanini his etib, qizara-qizara:

– Men maslahatchiman, familiyam Nexlyudov, sudlanuvchi Maslovani ko'rishim zarur edi, – dedi shoshib-pishib shartta.

Prokuror kalta qilib qirqilgan sochlariga oq oralay boshlagan, yiltillab turuvchi o'ynoqi ko'zli, quyuq soqolli, quyi jag'i katta, o'rta bo'lyi, qorachadan kelgan kishi edi.

– Maslova, deysizmi? Ha, taniyman, taniyman. Zaharlashda ayblangan, – dedi prokuror xotirjam. – Nega uni ko‘rmoqchisiz? – Keyin savolini birmuncha yumshatmoqchi bo‘ldi, shekilli: – Sababini bilmasdan turib, sizga ijozat berolmayman, – deb qo‘shib qo‘ydi.

– Men uchun juda muhim bir ish yuzasidan uchrashishim zarur, – deb javob qaytardi Nexlyudov qip-qizarib.

– Hm, – dedi prokuror boshini ko‘tarib Nexlyudovni sinchiklab ko‘zdan kechirib. – Ishi ko‘rilganmi yo hali ko‘rilgani yo‘qmi?

– Kecha sudi bo‘ldi, nohaqdan nohaq to‘rt yil katorgaga hukm qilindi. Zarracha gunohi yo‘q.

– Hm. Agar kechagina sud bo‘lgan esa, – dedi prokuror Nexlyudovning Maslovaning begunohligi haqidagi so‘ziga parvo qilmay, – hukm uzil-kesil e‘lon etilguncha dastlabki qamoq uyida saqlanishi lozim. U yerda faqat ma‘lum kunlarda ko‘rishish mumkin. O‘sha yerdagilarga murojaat qilishingiz maslahat berar...

Nexlyudov qat‘iy daqiqalarning yaqinlashib qolganini his etib:

– Axir, men uni imkon qadar tezroq ko‘rishim kerak, – dedi. Uning pastki jag‘i titrab ketdi.

– Nega endi albatta uchrashmoqchisiz? – deb so‘radi prokuror bezovtalanib, qoshini kerib qo‘yib.

– Negaki u begunohdan-begunoh katorgaga hukm etilib ketdi. Asli, hammasiga men gunohkorman, – dedi Nexlyudov ovozi qaltirab, shu bilan bir qatorda, u aytish lozim bo‘lmagan narsani aytib qo‘yganini his etib.

– Qanday qilib? – deb so‘radi prokuror.

– Chunki men uni yo‘ldan ozdirdim, uning shu ahvolga tushishiga sabab bo‘ldim. Agar men uni shu ko‘ylarga solmaganimda edi, uning bo‘yniga bunaqa ayblar qo‘yilmagan bo‘lardi.

– Lekin baribir uning uchrashuvga nima daxli borligini tushunmayapman.

– Daxli shundaki, men u bilan izma-iz ketmoqchiman, keyin... unga uylanmoqchiman, – dedi Nexlyudov. Shu haqda gap ochish bilanoq har vaqtdagidek ko‘zi jiq yoshga to‘ldi.

– A? Shunaqa deng! – dedi prokuror. – Bu haqiqatan ham favqulodda hodisa. Yanglishmasam, siz Krasnoper zemstvosining a‘zosisiz-a? –

deb so'radi prokuror hozir ana shunaqa g'alati bir narsani ixtiyor qilgan bu Nexlyudov haqida ilgarilari ham eshitganini eslaganday bo'lib.

– Kechirasiz, menimcha, bu narsaning iltimosimga aloqasi bo'lmasa kerak, – dedi qip-qizariʻ ketgan Nexlyudov achchiq bilan.

Prokuror hech tap tortmay:

– A-albatta, albatta, – dedi sal jilmayib, – faqat siz shunday g'ayrioddiy narsaga ixtiyor bildiriyapsizki, istagingiz urf-odatdan shu qadar yiroqki...

– Ayting-chi, menga ijozat beriladimi?

– Ijozat? Ha, men hozir ruxsatnoma yozib beraman. Birpas o'tira turing.

Prokuror stol yoniga bordi-yu, o'tirib yoza boshladi.

– Marhamat, o'tira turing.

Nexlyudov hamon tik turardi.

Prokuror ruxsatnomani yozib bo'lgach, Nexlyudovni maroq bilan kuzatarkan, unga qog'ozni uzatdi.

– Yana shuniyam aytib qo'yishim lozimki, – dedi Nexlyudov, – men ortiq sessiyada ishtirok etolmayman.

– O'zingizga ma'lumki, buning uchun sudga uzrli sabablar ko'rsatish kerak.

– Sababi shuki, men har qanaqa sudni faqat befoydagina emas, balki g'ayriaxloqiy narsa deb bilaman.

– Hm, – dedi prokuror hamon boyagiday sezilar-sezilmas jilmayib. Bu tabassum bilan u, bunday gaplar menga ma'lum, kulgili narsa, demoqchi edi. – Hm, ammo men sud prokurori bo'lganim uchun sizning gapingizga qo'shilolmasligimni tushunsangiz kerak. Shu sababli bu haqda sudga ma'lum qilishingizni maslahat beraman. Sud arizangizni uzrli yoki uzrsiz deb topadi, mabodo, uzrsiz deb hisoblagudek bo'lsa, chorangizni ko'radi. Sudga murojaat qiling.

– Men arzimni aytdim, ortiq hech qayerga bormayman, – dedi Nexlyudov jahl bilan.

Bu g'alati odamdan tezroq qutulmoqchi bo'ldi, shekilli:

– Xo'p bo'lmasam, – dedi prokuror boshini engashtirib.

– Bu kim edi o‘zi? – deb so‘radi sud a‘zosi Nexlyudov chiqib ketishi bilan prokuror kabinetiga kirayotib.

– Nexlyudov, taniysiz, Krasnoper uyezdida, zemstvoda u bir necha bor g‘alati masalalar qo‘ygandi. Buni qarang, u maslahatchi, sudlanuvchilar orasida esa katorgaga hukm etilgan qizmi, xotinmi bor ekan. Aytishicha, bir vaqtlar uni aldab tashlab ketgan ekan, endi kelib-kelib o‘shanga uylanmoqchi.

– Yo‘g‘-e?

– Menga o‘zi aytdi... o‘ziyam hovliqqan, hayajonlangan.

– Hozirgi yosh-yalanglar shunaqa tentaknamo o‘zi.

– O‘zi u qadar yosh ham emas.

– Anovi mashhur Ivashenkovingiz ham jonimga tegib ketdi. Gapiragapira tinka-madorimni quritib yubordi.

– Bunaqalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘xtatish kerak, qip-qizil ishbuzarmanlar shular-da...

XXXVI

Prokurorning yonidan chiqib, Nexlyudov to‘g‘ri dastlabki qamoq uyiga jo‘nadi. Lekin u yerda hech qanaqa Maslova yo‘q ekan, mutasaddi Nexlyudovga, u balki eski jo‘natish turmasida bo‘lsa kerak, deb tushuntirdi. Nexlyudov o‘sha yoqqa yo‘l oldi.

Haqiqatan ham Yekaterina Maslova o‘sha yerda edi. Bundan olti oy muqaddam jandarmlar tomonidan bir siyosiy ish ko‘tarilib, haddan tashqari bo‘rttirib yuborilgan, dastlabki qamoq uylaridagi barcha o‘rinlar talabalar, shifokorlar, ishchilar, tolibalar va feldsher ayollar bilan to‘lib ketganini prokuror unutgan edi.

Dastlabki qamoq uyidan jo‘natish turmasining orasi ancha uzoq bo‘lib, Nexlyudov u yerga kechqurunga yaqin yetib bordi. Nexlyudov bahaybat ko‘rimsiz binoning eshigi tomon yurgan edi, lekin soqchi uni yaqinlashtirmadi, qo‘ng‘iroq chalib qo‘ya qoldi. Qo‘ng‘iroq tovushini eshitib nazoratchi chiqdi. Nexlyudov qo‘lidagi ruxsatnomasini ko‘rsatdi. Ammo nazoratchi to mutasaddining ijozati bo‘lmaguncha kiritolmasligini aytdi. Nexlyudov mutasaddini qidirib ketdi. Nexlyudov zinapoyadan chiqayotgan vaqtidayoq eshikdan fortepianoda chalinayotgan allaqanday murakkab, sho‘x kuyni eshitdi. Ko‘zi bog‘loqlik, serzarda oqsoch xotin eshikni

ochgan paytida esa bu musiqa tovushi xonadan otilib chiqqandek bo'lib uni karaxt qilib qo'ydi. Bu List degan bastakorning chalina-verib jonga tegib ketgan rapsodiyasi* edi. Shu topda bu rapsodiyani faqat ma'lum bir yerigacha mohirlik bilan ijro etmoqda edilar. Shu joyiga yetganda yana boshidan takrorlanardi. Nexlyudov ko'zi bog'loqlik oqsoch xotindan, mutasaddi uydami-yo'qmi, deb so'radi. Oqsoch xotin yo'q deb javob berdi.

– Kelib qolarmikin?

Rapsodiya yana to'xtadi va boyagi sehrli joyga yetguncha yana mohirlik bilan ijro etildi.

– Borib so'rab kelay-chi.

Oqsoch chiqib ketdi.

Rapsodiya endi avjga chiqa boshlagan ham ediki, to'satdan sehrli joyga yetmay tindi, allakimning ovozi eshitildi.

Ichkaridan ayol kishining:

– Yo'q ekan, bugun kelmas ekan, deb borib ayt. Mehmonga ketgan, muncha xira bo'lishmasa, – degan ovozi eshitildi, yana rapsodiya chalina boshlandi, yana tindi va stulning surib qo'yilayotgani eshitildi. Achchiqlangan pianinochi bemahalda kelib, jonga tegayotgan odamga o'zi tanbeh berib qo'ymoqchi bo'ldi, shekilli.

G'amgin ko'zlarining tagi ko'karib turgan, sochlari paxmaygan, ayanchli ahvoldagi rangpargina qiz chiqib kelayotib:

– Dadam yo'qlar, – dedi jahl bilan. Keyin yaxshi palto kiygan yigitni ko'rib biroz yumshadi. – Marhamat, ichkari kiring... Xo'sh, nima xizmatlari bor?

– Qamoqdagi bir mahbus xotinni ko'rishim kerak.

– Siyosiy mahbus bo'lsa kerak?

– Yo'q, siyosiy emas. Prokurordan ijozatnomamay olganman.

– Men hech narsa deyolmayman. Dadam yo'qlar. Marhamat, kiring ichkariga, – deb taklif qildi u kichkina dahlizdan turib. – Yo bo'lmasa, yordamchilariga murojaat qilib ko'ring. U hozir idorasida, o'sha bilan gaplasha qoling. Familiyangiz nima sizning?

– Ko'p rahmat, – dedi Nexlyudov savolga javob qaytarmay, so'ngra chiqib ketdi.

Nexlyudovning orqasidan eshik yopilar-yopilmas yana boyagi noo'rin chalinayotgan va zo'r berib o'rganilayotgan musiqa, ayanchli

* *Rapsodiya* – xalq kuylari asosida ishlangan musiqa asari.

qizning o'ziga munosib bo'lmagan, sho'x, xushohang sadolar eshitila boshladi. Nexlyudov hovlida mo'ylovi bo'yalgan yosh zobitni uchratdi va undan mutasaddining noibini so'radi. Buning xuddi o'zginasi noib edi. U Nexlyudovning qo'lidan ruxsatnomani olib qaradi-da, dastlabki qamoq uyiga berilgan ruxsatnoma bilan kiritolmasligini aytdi. Buning ustiga, yana kech bo'ldi, deb bahona qildi...

– Ertaga keling. Ertaga soat o'nda ko'rishish hammaga ruxsat etiladi. Kelsangiz, mutasaddiniig o'ziyam uyida bo'ladi. Unda umumiy xonada ko'rishishingiz mumkin, agar mutasaddi ijozat bersa, idoradayam ko'risholasiz.

Nexlyudov shu kuni ko'rishuvning ilojini topolmay, oxiri uyiga qaytib ketdi. Maslovani ko'rish haqidagi fikrdan hayajonga kelgan Nexlyudov endi sudni emas, prokuror va mutasaddi bilan gaplashganini eslab ko'chama-ko'cha borardi. Maslova bilan uchrashuvga uringani, maqsadini prokurorga aytgani va Katyushani ko'rish uchun ikkita turmaga borgani uni shunday hayajonlantirib yuborgandiki, u anchagacha o'ziga kelolmadi. Uyiga kelishi bilanoq, allaqachondan beri qo'l tegizilmay yotgan kundalik daftarini olib ba'zi joylarini o'qib chiqdi-da, quyidagilarni yozib qo'ydi: «Ikki yildan beri kundalik daftarga qo'l tekkizmay, endi hech qachon bunday bachkana ish bilan shug'ullanmayman, deb o'ylagandim. Ammo bu bachkana ish emas. Bu o'zing bilan, haqiqiy, har bir insonda yashovchi ilohiy bir kuch bilan suhbatlashish edi. Shu mahalgacha ana shu kuch uxlab yotardi, kim bilan suhbatlashishimni bilmasdim. Uni 28 aprel kuni men maslahatchilik qilgan sudda bo'lib o'tgan voqea uyg'otdi. Men uni, o'zim tomonimdan aldangan Katyushani mahbuslar xalatida ko'rdim. G'alati bir anglashilmovchilik va mening xatom tufayli uni katorgaga hukm qildilar. Men bugun prokuror huzurida, turmada bo'ldim. Meni uning oldiga kiritmadilar, lekin men uni ko'rib, uning oldida aybimga iqror bo'lish va unga uylanish yo'li bilan bo'lsa-da, aybimni yumshatishga qaror qildim. Yo Parvardigor, O'zing qo'lla! Ko'nglim shod, ruhim yengil».

XXXVII

Shu kecha Maslova anchagacha uxlolmadi, ko'zini ochib, goh u yoqqa, goh bu yoqqa borib kelib turgan dyachixa to'sib turgan eshikka qarab va malla xotinning pishillashini tinglab, xayol surib yotdi.

U Saxalinda hech qachon katorgachiga erga tegmaslik haqida, bir iloj qilib boshqacha hayot qurish, boshliqlardan birontasi bilan yoki mirza, yo bo'lmasa, nazoratchi bilan, hech bo'lmasa, uning yordamchisi bilan birga bo'lish haqida o'ylardi. Ularning hammasi bunaqaga uchadi. «Ishqilib, ozib ketmay-da. Bo'lmasam, ish pachava». Maslova oqlovchining unga qanday qaraganini, raisning boqishlarini, duch kelib qolganlar va sudda ataylab yonidan o'tib turgan kishilar qanday ko'z tikib qaraganini esladi. U avaxtada yotganida ko'rgani kelgan Berta, Kitayevanikida yashagan paytingda seni sevib yurgan talaba yigit kelib-ketdi, seni so'rab-surishtirdi va juda achindi, deb aytib berganini esladi. Malla xotin bilan bo'lib o'tgan mushtlashish esiga tushdi va unga rahmi keldi; ortiqcha non berib yuborgan nonfurushni esladi. Maslova ko'plarni eslab o'tar, Nexlyudov esa xayolining ko'chasigayam kelmasdi. Bolalik chog'larini va yoshligini, ayniqsa, Nexlyudovga bo'lgan muhabbatini hech qachon esiga olmasdi. Uni eslaganda, yuragi siqilardi. Bu xotiralar ko'nglining bir burchida o'rni qo'zg'atilmagan holda yotardi. U hatto tushidayam hech qachon Nexlyudovni ko'rmagan edi. Bugun sudda Nexlyudovni tanimaganining sababi uni so'nggi bor ko'rganida egnida harbiy kiyim, o'zi soqolsiz, qo'ng'iznusxa mo'ylovli, kisqagina bo'lsa-da, lekin qalin, qo'ng'iroq sochli bo'lib, endi qarinaroq, soqolli ekanida emas. Buning sababi shundaki, Maslova u to'g'rida hech qachon o'ylamagan edi. Maslova u bilan birga o'tkazgan barcha xotiralarni, Nexlyudov armiyadan kelayotib ammalarinikiga tushib o'tmagan o'sha dahshatli qorong'i kechada ko'mib tashlagan edi.

Shu kechagacha Nexlyudov kirib o'tar, deb umid qilib yurgan kezlari yuragi ostida saqlab kelayotgan go'dak unga og'irlik qilmas edi. Balki ko'pincha go'dakning yumshoqqina, ba'zan tez-tez qimirlab qo'yishi uni iydirib yuborardi. Ammo shu kechadan boshlab hamma narsa boshqacha tus oldi. Dunyoga kelajak go'dak ham unga bir to'siq bo'lib qoldi.

Ammalari Nexlyudovning kelishini kutardilar, shuning uchun undan kirib o'tishni iltimos qildilar. Ammo u Peterburgga o'z vaqtida yetib borishi kerak bo'lgani uchun kirib o'tolmasligini telegraf orqali bildirdi. Bundan xabar topgan Katyusha uni ko'rish uchun stansiya borishga qaror qildi. Poezd kechasi soat ikkida o'tardi. Katyusha bekalarini uxlatdi, oshpaz xotinning qizi Mashkani birga borishga ko'ndirib, oyog'iga eski boshmoq kiydi, ro'mol o'radi-da, pisib-biqinib chiqib ketib, stansiya tomon yugurdi.

Yomg'ir yog'ib turgan, shamol esib turgan zim-ziyo kuz kechalaridan biri edi. Yomg'ir goh iliq yirik tomchilar bilan savalay boshlar, goh tinardi. Dalada oyoq ostidagi yo'lni ko'rib bo'lmasdi. O'rmon qozonning qorakuyasidek qop-qora, shu sababdan Katyusha yo'lni yaxshi bilishiga qaramay, o'rmonda adashib qoldi va poezd uch daqiqa to'xtab o'tadigan kichik stansiya o'zi o'ylaganidek barvaqtroq emas, balki ikkinchi qo'ng'iroqdan keyin yetib bordi. Katyusha platformaga yugurib kirgan zahoti nufuzli vagon derazasida Nexlyudovni ko'rib qoldi. Bu vagon boshqalardan ko'ra yorug'roq edi. Syurtuksiz ikki zobit duxoba oromkursida ro'parama-ro'para o'tirib qarta o'ynardi. Deraza yonidagi kichik stolda yerib tushayotgan yo'g'on sham yonardi. Ana u – badanini sirib turgan tor shim va oq ko'ylak kiyib oromkursining suyanchig'iga qo'l tashlab, yondorida o'tirar va nimagadir kulardi. Uni tanigan zahoti Katya sovqotgan qo'llari bilan derazani taqillatdi. Ammo shu mahal uchinchi qo'ng'iroq chalindi-da, poezd harakatga keldi, avval orqaga, keyin vagonlar bir-bir siltanib olib, oldinga siljiy boshladi. O'ynayotganlarning biri qo'lidagi qartasi bilan o'rnidan turib derazadan qaray boshladi. Katyusha derazani yana taqillatdi-da, yuzini oynaga tutdi. Shu mahal bu vagon ham bir siltandi va harakatga keldi. Katyusha derazadan ko'zini uzmay vagon bilan yonma-yon ketaverdi. Zobit derazani tushirmoqchi bo'lar, lekin sira uddasidan chiqolmasdi. Nexlyudov o'rnidan turdi-da, boyagi zobitni chetlatib, derazani tushira boshladi. Poezd yurishini tezlatdi. Katyusha poezddan qolishmay, tez-tez yurib borardi. Ammo poezd borgan sayin yurishini tezlatardi, nihoyat, deraza tushirilgan chog'da konduktor uni itarib yuborib, irg'ib vagonga chiqib oldi. Katyusha orqaroqda qoldi, ammo hamon platformaning ho'l taxtalarida yugurib borardi; keyin platforma

tugadi, u zinapoyadan chopib tusharkan, o'zini yiqilib tushishdan zo'rg'a tutib qoldi. U hamon yugurar, ammo nufuzli vagon allaqachon ilgarilab ketgan edi. Hozir uning yonidan ikkinchi klass vagonlari o'tib borardi, keyin uchinchi klass vagonlari avvalgilaridan ham tez g'ildirab o'ta boshladi, ammo Katyusha hamon yugurib borardi. Orqasiga fonar qo'ndirilgan so'nggi vagon o'tib ketganda u quduqxonaning naryog'ida, yalanglikka chiqib qolgandi. Shamol kelib urildi-da, boshidan ro'molini yelkasiga tushirdi, ko'ylagining etagini oyog'iga yopishtirib qo'ydi. Shamol ro'molini uchirib ketdi, lekin u hamon yugurardi.

– Xolajonim Mixaylovna! – deb qichqirardi qizcha uning ketidan zo'rg'a yetib olib.– Ro'molingiz tushib qoldi!

«U yop-yorug' vagonida, duxoba oromkursida hazil-mazax qilib, ichishib o'tirsa-yu, men bu yerda, loyda, qorong'ida, yomg'irda ivib, shamolda yig'lab tursam», – deb o'yladi Katyusha, so'ngra to'xtab, yuzini yuqoriga qaratib boshini mahkam changallaganicha ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Ketib qoldi! – deb qichqirib yubordi u.

Qizcha qo'rqib ketdi-da, Katyushaning ho'l ko'ylagidan quchoqlab oldi.

– Xolajonim, uyga ketaylik.

Bu orada Katyusha: «Poezd o'tsa, tagiga o'zimni tashlayman, qutulaman-qo'yaman», – deb o'ylardi qizchaga javob qaytarmay.

U shunday qilishga ahd qildi. Ammo shu topdayoq, hayajon bosilgandan keyin ilk daqiqalarda bo'ladigan hodisa ro'y berdi, o'shaning bolasi, shuncha vaqtdan buyon ko'tarib kelayotgan bola birdan qimirladi, tepindi, ohistagina cho'zilib yana qandaydir nozik, muloyim va o'tkir narsasi bilan turta boshladi. To'satdan hozirgina uni shunchalar qiynagan, dunyoni ko'ziga qorong'i qilib ko'rsatgan azob, Nexlyudovga nisbatan uyg'ongan qahr-g'azab va o'z o'limi bilan undan o'ch olish istagi yo'q bo'ldi-qo'ydi. U tinchib, u yoq-bu yog'ini tuzatdi, ro'moliga o'ralib oldi-da, tez-tez yurib uyga ketdi.

U horib-charchagan, ivigan, loyga belangan holda uyga qaytib keldi. Shu kundan boshlab unda keskin ruhiy o'zgarish yuz berdi, natijada u mana shu hozirgi ahvoriga tushib qoldi. Ana shu

dahshatli tundan boshlab u yaxshilikka ishonmaydigan bo‘lib qoldi. U ilgari yaxshilikka ishonardi va odamlar ham shunga ishonadi, deb o‘ylardi. Lekin shu kechadan boshlab hech kimga ishonmasligiga va Xudo haqida, yaxshilik haqida gapiruvchilar faqat odamlarni aldash uchungina shunday qilishlariga ishonch hosil qildi. Katya uni sevgan, u Katyani sevgan edi (buni Katya bilardi), o‘sha odam Katya bilan ayshini surib va uning hissiyotlarini tahqirlab, tashladi-ketdi. Yana u Katya bilgan odamlarning eng yaxshisi edi-ya. Haliyam bo‘lsa boshqalar undan yomonroq. Maslovaning boshidan kechgan voqealar buni har qadamda tasdiqlab turardi. Nexlyudovning ammalari, xudojo‘y kampilrlar, endilikda avvalgiday xizmat qilolmaganidan keyin, uni haydab yuborishdi. U to‘qnash kelgan odamlarning hammasi, xotinlar u orqali pul topishga urinar, erkaklar esa, keksa stanovoydan tortib turma nazoratchilarigacha unga kayf-safo bag‘ishlovchi narsa deb qarardilar. Hamma olamda xuddi mana shu lazzat uchungina yurgandek edi. Ikkinchi yil erkinlikda yurgan kezlari bir keksa yozuvchi bilan topishganda bu fikrga qattiqroq ishonch hosil qildi. O‘sha yozuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri unga, butun baxt-saodat mana shu huzur-halovatda, der va shu narsani poeziya va estetika deb atardi.

Hamma faqat o‘zi uchun, o‘z huzur-halovati uchun yashar va Xudo haqidagi, ezgulik haqidagi so‘zlarning hammasi aldamchilikdan iborat edi. Agarda olam nega bu qadar bema’ni yaratilgan, nega hamma bir-biriga yomonlik qilgani qilgan, nega hamma alam chekadi, degan savol tug‘iladigan bo‘lsa, bu haqda o‘ylamay qo‘ya qolish kerak. Zerikadigan bo‘lsang, chekasan yoki ichasan, yo bo‘lmasam, eng yaxshisi, biron erkakka yoqib qolsang bo‘ldi – hammasi unut bo‘lib ketadi.

XXXVIII

Ertasiga, yakshanba kuni, ertalab soat beshda turmaning ayollar yo‘lagida odatdagidek hushtak chalinganda, uyg‘oq yotgan Korablyova Maslovani uyg‘otdi.

Maslova ko‘zlarini ishqalab, ertalabga yaqin ayniqsa sasib ketadigan badbo‘y havodan nafas olarkan, «Katorgachi», deb o‘yladi dahshatga tushib va behushlik olamiga ketish niyatida yana uxlamochi edi-yu, lekin qo‘rquv hissi uyqudan zo‘r chiqib, boshini ko‘tardi, oyog‘ini quchoqlab, alanglanib o‘tirdi. Ayollarning hammasi

turgan, faqat bolalargina hamon uxlashar edi. Ko'zi bodragan mayxonachi ayol, bolalarni uyg'otib yubormaslik uchun, xalatini ohistagina ularning tagidan tortib ola boshladi. Isyonchi xotin bolasining yo'rgaklarini – latta-puttalarni pechka yonida yoyish bilan ovora edi, bolasi esa moviyko'z Fedosyaning qo'lida big'-big' yig'lar, Fedosya uni qo'lida tebratib mayin ovoz bilan allalardi. Yonoqlari qizarib turgan sil xotin ko'kragini changallaganicha yo'talar, ora-chora chuqur nafas olib, ingrab yuborar edi. Malla xotin uyg'onib, biqqi oyoqlarini bukib osmonga qarab yotar, xursand bo'lib, ko'rgan tushini qattiq-qattiq hikoya qilardi. O't qo'ygan kampir hozir ham ikona yonida turar, o'sha-o'sha so'zlarni shivirlab cho'qinar va sajda qilardi. Dyachixa so'rida hali uyqusi o'chmagan ko'zlarini bir nuqtaga tikkanicha qimir etmay o'tirardi. Xoroshavka moy bosgan tikandek qora sochlarini barmog'iga o'rab jingalak qilardi.

Yo'lakda shipillagan oyoq tovushlari eshitildi, qulf shiqirlab ochildi, egniga kurtka, pochalari to'pig'idan baland kalta kulrang shim kiygan, jiddiy, serzarda ikki parashachi* mahbus kirdi-da, sassiq yog'och paqirni ko'tarib chiqib ketdi. Xotinlar yuvinish uchun yo'lakka, kran yoniga chiqishdi. Malla xotin kran yonida boshqa kameradan chiqqan xotin bilan janjallashib qoldi. Yana haqorat, yana oh-faryod, shikoyat...

– Kartserga** tushgilaring kelib qoldimi! – deb baqirdi nazoratchi va malla xotinning kir bosgan yalang'och kiftiga shapatilab shunday tushirdiki, butun yo'lakka eshitildi. – Ovozingni o'chir, ikkinchi eshitmay.

– Hazillashging kelmay qolsin, chol,– dedi malla xotin uning bu qilig'ini erkalash deb tushunib.

– Qani, tez bo'linglar! Ibadatga jo'nanglar.

Maslova sochini tarab ulgurmasdan mutasaddi mulozimlari bilan kirib qoldi.

– Yo'qlamaga chiqlaring! – deb qichqirdi nazoratchi.

Boshqa kameradan o'zga mahbus ayollar chiqishdi va hammalari yo'lakda ikki qator bo'lib saf tortishdi. Bunda orqa qatorda turgan ayollar, oldingi qatordagi ayollarning yelkasiga qo'lini qo'yib turishi kerak edi. Hamma sanab chiqildi.

* *Parasha* – axlat va yuvindi idishi.

** *Karts er* – bir kishilik tor kamera.

Yo'qlamadan keyin nazoratchi ayol keldi va barcha mahbus ayollarni cherkovga boshlab ketdi. Maslova bilan Fedosya barcha kameralardan chiqqan yuzdan ortiq ayoldan iborat bo'lgan safning o'rta bir yerida edi. Ayollarning hammasi oq kofta, oq yubka va oq durrada edi. Faqat ahyon-ahyondagina o'zining guldor kiyimida yurgan xotinlar uchrab qolardi. Bular erlarining ketidan ketayotgan bolali xotinlar edi. Mana shu xotinlar safi zinani to'ldirgan edi. Yog'och kavush kiygan oyoqlarning dupuri, g'ovur-g'uvur gap, ba'zan kulgilar eshitalardi. Muyulishga yetganda Maslova oldinda ketayotgan raqibi Bochkovning serjahl yuzini ko'rib qoldi-da, uni Fedosyaga ko'rsatdi. Pastga tushgach, xotinlar jim bo'lib qoldilar, cho'qinib ta'zim qilganlaricha hali bo'm-bo'sh turgan, zarhal bezaklardan yaltirayotgan cherkovning ochiq eshigidan ichkariga kira boshladilar. Ularning joyi o'ng tomonda edi, mahbus ayollar qisilishib-turtinishib joy ishg'ol qildilar: ayollarning ketidan boshqa yerlarga jo'natilayotgan, o'z muddatlarini o'tayotgan kulrang xalatli mahbuslar, surgunga ketayotganlar kirishdi, qattiq-qattiq yo'talishib, cherkovning chap tomoni va o'rtasiga kelib turishdi. Tepada, boloxonada esa ilgariroq keltirib qo'yilgan mahbuslar bir tomonda, sochining yarmi olingan katorgachilar (shu yerdaliklarini ular kishanlarining jingillashi bilan bildirib turardilar), ikkinchi tomonda – sochi olinmagan, kishanlanmagan tergov qilinayotganlar turishardi.

Qamoqxona cherkovini bir badavlat savdogar o'n minglab pul sarf qilib qaytadan qurgan, bezatgan edi, cherkov zarhal va rang-barang bo'yoqlar bilan tovlanib turardi.

Cherkovda bir qancha vaqtgacha jimlik hukm surdi, faqat odamlarning burun tortib qo'ygani, yo'talgani, go'daklarning qiyqirig'i, ahyon-ahyonda kishanlarning shiqirlagani eshilib turardi. Mana, nihoyat, o'rtada turgan mahbuslar chetlanib, o'rtadan yo'l ochib bir-birlariga qisilib turdilar. Mutasaddi bu yo'ldan yurib, hammadan oldinga o'tib, cherkovning o'rta yeridan joy oldi.

XXXIX

Ibodat boshlandi.

Ibodat qilish shundan iborat ediki, g'alati va beso'naqay kimxob kiyim kiyib olgan pop nonni burda-burda qilib kesib likopchaga solar, keyin har xil ismlarni tilga olib, duo o'qib turib, ularni

sharobli idishga sola boshlardi. Dyachok bo'lsa bu orada, ayniqsa, tez o'qilgani va qo'shiq qilib aytilgani uchun tushunish qiyin bo'lgan har xil slavyan duolarini tinmasdan o'qir, keyin mahbuslar bilan galma-gal honish qilardi. Duolarning mazmuni, aksariyat, imperator hazratlari va ularning oilalariga sog'-salomatlik tilashdan iborat edi. Bu haqda boshqa ibodatlar ichida ham, alohida tiz cho'kib turib ham juda ko'p duo o'qildi. Bundan tashqari, dyachok havoriylar haqida bahs etgan kitobdan bir necha oyatni allatovur g'alati ovoz bilan shu qadar kuchanib o'qidiki, hech narsaga tushunib bo'lmadi. So'ngra pop Mark Injilidan Isoning tirilgandan keyin, osmonga uchib ketmasidan va borib otasining o'ng tomoniga o'tirmasdan ilgari Mariya Mojalonning yoniga borgani, undagi yetti shaytonni quvib chiqargan joyini dona-dona qilib o'qib berdi. Iso o'n bir shogirdini chaqirib barcha ins-jinsga Injilni targ'ib qilishni buyuribdi va kimda-kim bunga iymon keltirmasa, halok bo'lishini, kimki iymon keltirsa, cho'qinsa, xalos bo'lishini, bundan tashqari, iblisni quvib chiqarishini, odamlarning dardiga shifo bera olishini, yangi-yangi tillarda gapirib, ilonni bemalol ushlaydigan, zahar ichsa ham o'lmay sog'-salomat qoladigan bo'lishini aytibdi.

Ibodotning ma'nosi shundan iborat ediki, pop burda-burda qilib kesgan va ma'lum bir murakkab qo'l harakatlari va duolar bilan sharobga botirilgan non Xudoning tani va qoniga aylanadi, deb faraz etilardi. Bu murakkab qo'l harakatlari esa quyidagi-lardan iborat ediki, egniga kiyib olgan kimxob qopning xalaqit berishiga qaramay, ikkala qo'lini baland ko'tarib turar, keyin tiz cho'kar, stolni va stolda turgan narsalarni o'pard. Bu harakatlarning eng muhimi shu ediki, pop sochiqni ikki qo'llab ushlab likopcha va oltin kosa ustida bir me'yorda silkitardi. Faraz etilishicha, non bilan sharobdan xuddi shu mahal tana va qon vujudga kelar edi. Shu sababli ham toat-ibodat qilish ayniqsa tantanali o'tkazilardi.

Shundan keyin pop to'siqning narigi tomonidan turib: «Yo azizlarning azizi, poko Parvardigar», deb qattiq qichqirardi va xor tantanali sur'atda jo'r bo'lardi, Mariya qiz bo'la turib Isoni tuqqani uchun maqtab ko'klarga ko'tarish juda savob ish ekani, shu sababli qandaydir oddiy bir farishta, qayoqdagi bir maloikadan ko'ra zo'r shon-shuhratga ega ekani haqida kuylay boshlardi. Shundan keyin non bilan may tana va qonga aylandi, deb hisoblanardi; pop

taqsimcha ustidagi sochiqni olib, o'rtada turgan non burdasini to'rtga bo'lib, uni avval sharobga, keyin og'ziga solardi. U Xudo tanasining bir parchasini yegan va bir qultum qonini ichgan deb hisoblanardi. Shundan keyin pop pardani tortdi, o'rta eshikni ochdi-da, tilla suvi yugurtirilgan kosani qo'liga olib o'rta eshikdan chiqdi, istaganlarga kosadagi Xudoning tanasidan yeb, qonidan ichishni taklif qildi.

Bir necha bolagina buni istaganini bildirdi.

Pop avval bolalardan ismlarini so'rab olgan bo'ldi-da, qoshiqchadan kosadagi non bilan sharobdan olib, birin-ketin bolalarning og'ziga sola boshladi, dyachok bo'lsa shu zahoti bolalarning og'zini artdi va bolalar Xudoning tanasini yeb, qonini ichayotganlari haqida kuyladi. Shundan keyin pop kosani pardaning orqasiga olib kirib ketdi-da, kosadagi qolgan qonning hammasini ichib, Xudo tanasining bor-yo'g'ini yeb oldi, yaxshilab mo'ylovini yalab, og'zini va kosani artdi-da, chehrasi ochilib, etigining yupqa tagcharmini g'archillatib, parda orqasidan dadil qadam tashlab chiqib keldi.

Nasroniylikning asosiy ibodati shu yo'sin tugadi. Ammo pop bechora mahbuslarga tasalli berish uchun odatdagi ibodatga yana alohida bir ibodat qo'shdi. Bu alohida ibodat shundan iborat ediki, pop hozir o'zi yeb olgan Xudoning o'nlab shamlar bilan yoritilgan taxminiy zarrin tasviri (yuzi va qo'llari qop-qora tasvir) oldiga borib, g'alati, yasama tovush bilan quyidagilarni xonish qilib o'qiy boshladi: «Mehribonlarning mehriboni Iso, havoriylarni qo'llagan, ummatiy-chun jabr ko'rgan, bandalarning panohi, sendan madad so'raganlarni shafolat et, qo'lla, ibodatlarimizni qabul et, yo payg'ambarlar sarvari, bizlarga jannatdan joy ato et, ey bandalariga mehribon Iso!»

Shu yerga yetganda pop to'xtadi, nafasini rostlab, cho'qinib oldi, sajda qildi, boshqalar ham shunday qilishdi. Mutasaddi ham, nazoratchilar ham, mahbuslar ham sajda qildi, yuqoridan kishanlarning jaranglagan ovozi qattiqroq eshitildi.

– «Farishtalarni yaratgan Parvardigor, – deb davom etdi u, – karomatbaxsh Iso, maloikalarni hayratda qoldirgan, ajdodlarimizni qutqargan qudratli, shirinso'z Iso, rahnamolarga quvvat bergan, podsholarga shavkat bag'ishlagan, payg'ambarlarning sarvari bo'lgan Iso, din yo'lida jabr ko'rib, azob chekuvchilarni qutqargan,

zohidlarning ko'nglini ravshan qilgan, ro'za tutuvchilarga qanoat bergan, avliyolarga shodlik bag'ishlagan, marhamatlilarning marhamatlisi, gunohkorlarning panohi, mangu umr ko'ruvchi, zurriyoti Xudo, ummatingga shafqat qil, Iso», – dedi u, nihoyat, nuqtaga yetib. «Iso» so'zini aytganda ovozi hushtak chalgandek chiqar edi. Shoyi astarli jubbasini ushlab turib, bir tizzasini yerga qo'yib, ta'zim qildi, xor esa oxirgi misralarni kuylay ketdi.

– «Zurriyoti Xudo, ummatingga shafqat qil, Iso».

Mahbuslar sajda qilib, boshlarining yarmida qolgan sochlarini silkitib, oriq oyoqlarini shilayotgan kishanlarini jangillatib qadlarini rostlar edilar.

Ibodot shu zaylda anchagacha davom etdi. Avvaliga: «Ummatingga shafqat qil», so'zi bilan tamomlanuvchi hamdu sanolar o'qilib turdi, keyinchalik esa «alli-luyya» so'zi bilan tugovchi yangi hamdlar boshlandi. Mahbuslar esa cho'qinishar, egilishar, sajda qilishardi. Boshda mahbuslar har to'xtalishda ta'zim qilib turishdi, bora-bora bir tanaffus, keyinchalik esa ikki tanaffusdan keyin bosh egadigan bo'ldilar. Xullas, barcha hamdu sanolar tugab pop yengil nafas olib, kitobini yopib to'siqning narigi tomoniga o'tib ketganida, hamma juda sevinib ketdi. Endi bitta, so'nggi marosim qolgan edi. U ham bo'lsa shundan iborat edi: pop kattakon stol ustida yotgan, uchiga emalli medalyon osilgan zarhal xochni olib cherkovning o'rtasiga chiqdi. Eng avval pop yoniga mutasaddi bordi va xochni o'pdi, keyin uning noibi, so'ngra nazoratchilar va nihoyat, eng keyin bir-birlarini turta-surta, shivirlashib so'kina-so'kina mahbuslar kela boshlashdi. Pop mutasaddi bilan gaplashib qolib, xoch bilan qo'lini o'z yoniga kelgan mahbuslarning ba'zan og'ziga, ba'zan burniga turtardi, mahbuslar esa ham xochni, ham popning qo'lini o'pishga harakat qilishardi. Adashgan bandalarni yupatish va ularga nasihat qilish uchun bajo keltirilayotgan nasroniylik ibodati ana shu yo'sinda tamom bo'ldi.

XL

Pop boyadan beri nomi juda ko'p marta tilga olgan, har xil g'alati so'zlar bilan maqtalgan Iso shu yerda bo'lib o'tgan ushbu narsalarning hammasini man qilgani cherkovda hozir bo'lganlardan hech qaysi birining, popdan tortib mutasaddi-yu, Maslovagacha hech qaysi

birining esiga kelmas edi; Iso poplarning valdirab, dinni masxara qilib, non va sharob bilan mana shunaqa bema'ni jodugarlik qilishlarini man qilibgina qolmay, odamlarning biri boshqa birini ustoz deb atashini, ibodatxonada toat-ibodat qilishni ham taqiqlagan, ularni vayron qilishga kelganini aytib, hammaga yolg'iz, lekin chin yurakdan ibodat qilishni buyurgan edi; muhimi shundaki, bu yerda bo'layotgani kabi odamlarni sud qilib, qamoqqa tashlash, azoblash, sharmisor etish, qatl qilishni taqiq qilibgina qolmay, asirlarni ozod qilgani kelganini aytgan, odamlarga o'tkaziladigan har qanday zo'raonlikni man qilgan edi.

Bu yerda Iso nomidan o'tkazilgan marosim Isoning o'zini tahqirlash, mazax qilish degan narsa ekani hech kimning xayoliga kelmas edi. Pop olib chiqib o'pish uchun odamlarga tutgan, uchiga emalli medalyon qadalgan zarhal xoch Iso osilgan dorning surati edi; Iso uning nomini pesh qilib o'tkaziladigan mana shu marosimni man qilgani uchun o'ldirilgani hech kimning xayoliga kelmas edi. Non va suv shaklida, Isoning tani va qonini yeb-ichyapmiz, deb faraz qilayotgan poplar haqiqatan ham Isoning tani va qonini eb-ichyaptilar, degan o'y hech kimning aqligayam kelmas edi. Lekin bular Isoning tani va qonini bir burda non va sharob shaklida emas, balki Iso o'zi bilan teng deb hisoblagan shu «osiy bandalarni» yo'ldan ozdirish, u olib kelgan ezgulikdan odamlarni mahrum etish, rohat-farog'atdan mahrum qilib, og'ir azob-uqubatlarga solish yo'li bilan uning tanasini yeb, qonini ichar edilar.

Pop mana shu ishlarini vijdonan bajarardi. Chunki unga yoshligidanoq haqiqiy iymon – burungi aziz-avliyolar topingan, hozirgi ruhoniylar va jamiyat boshliqlari ishongan iymon shu deb o'rgatilgan. U nondan tana paydo bo'lganiga, ko'p gapirish kishi ruhi uchun foydali ekaniga yoki haqiqatan ham Xudoning bir parcha tanini yeganiga ishonmas edi, yo'q, bunga ishonish mumkin emas, u shu dinga iymon keltirish lozim bo'lgani uchungina ishonar edi. Uni shu dinga e'tiqodi oshib borishiga sabab bo'lgan asosiy narsa shunda ediki, bu e'tiqodni targ'ib qilgani uchun o'n sakkiz yildan beri daromad olib, butun bir oilasini boqar, o'g'lini gimnaziyada, qizini diniy maktabda o'qitib kelardi. Dyachok esa bunga popdan ko'ra ko'proq ishonar edi. Chunki u ushbu din aqidalarining mohiyati nimadan iborat ekanini allaqachon butunlay unutib yuborgan bo'lib,

xayrixohlik ko'rsatgani, duoi-fotiha o'qigani, takbir tushirgani, qasida o'qigani uchun ma'lum bir narx belgilangan bo'lib, haqiqiy nasroniylar bu haqni bajonidil to'lab turishlarini bilar, shuning uchun ham o'tin, un, kartoshka sotayotgan odamdek ishonch bilan «O'zing mag'rifat qil», deb xonish qilar, tilovat qilinishi kerak bo'lgan narsalarni qiroat bilan o'qir edi. Turma boshlig'i va nazoratchilar bu din aqidalarining mohiyati nimadan iborat ekanini hech bilmasalar-da, cherkovda o'tkazilayotgan bu marosimning ma'nosi nimaligini tushunmasalar-da, bu dinga hech so'zsiz e'tiqod qilish kerakligini bilar edilar, chunki barcha boshliqlar va hatto podshoning o'zi ham shu dinga e'tiqod qiladi. Bundan tashqari, salpal bo'lsa-da, bu din o'zlarining shafqatsiz xizmatlarini oqlashini bilar edilar (qay tariqadalgini o'zlari tushuntirib berolmasdilar). Shu din bo'lmaganda edi, hozir xotirjamgina bajarib turgan ishga, odamlarni azoblashga bor kuchlarini sarf qilishga vijdonlari yo'l qo'ymagan bo'lar edi. Mutasaddi shu qadar ko'ngilchan kishi ediki, agarda ushbu dindan tasalli topmaganda bu ahvolda sira-sira yashayolmasdi. Shuning uchun ham u qimir etmay tippa-tik turar, zo'r berib ta'zim qilar, cho'qinar, «Hurlarning huri»ni xonish qilib aytishayotganda ko'nglini yumshatishga urinardi. Bolalarga cherkov sharobidan ichirilayotganda esa oldinga chiqib, sharob ichirilayotgan bolani o'z qo'li bilan ko'tarib turardi.

Mahbuslarning ko'pchiligi esa bu dindagi odamlarni laqillatishganlarini yaxshi tushunib, ichlarida kulib turgan bir nechasini hisobga olmaganda, ko'pchilik mana shu zarhal sanamlar, shamlar, qadahlar, kimxob choponlar, xochlarda hamda «marhamatlilarning marhamatlisi» va «shafolat qil» kabi anglab bo'lmaydigan so'zlarda bu dunyo va u dunyoda rohat bag'ishlovchi sirli bir kuch borligiga ishonardi. Ularning ko'pchiligi sig'inish, ibodat qilish, sham yoqish yo'li bilan bu dunyo rohatiga erishish uchun bir necha bor harakat qilib, bir narsa chiqarolmagan bo'lsalar-da, qilgan ibodati inobatga o'tmagan bo'lsa-da, ularning har biri bu muvaffaqiyatsizlikni tasodifiy deb bilar va ulamolar, mitropolitlarga* manzur bo'lgan bu marosimlar, bu dunyo uchun bo'lmasa-da, u dunyo uchun zarur va muhim deb ishonardilar.

* *Mitropolit* – oliy ruhoniyluk darajasi.

Maslova ham xuddi shunday ishonardi. Uni ham, boshqalar kabi, ibodat paytida zo'r ehtirom va zerikish hislari qamrab olgan edi. U avval to'siqning berigi tomonida, olomon o'rtasida turgan edi. Shuning uchun ham o'rtoqlaridan boshqa hech kimni ko'rmas edi; cherkov sharobidan ichmoqchi bo'lgan ayollar oldinga chiqqanda Fedosya ikkalovi oldinga surilishdi, shunda mutasaddi bilan nazoratchining o'rtasida turgan mallasoqol, sariqsoch mujikka – Fedosyaning eriga ko'zi tushdi. U xotiniga tikilganicha qarab turardi. Qasida o'qilayotganda Maslova uni kuzatib, Fedosya bilan shivirlashib turdi, boshqalar cho'qinib, ta'zim qilgandagina u ham cho'qinib ta'zim qildi.

XLI

Nexlyudov uyidan erta chiqib ketdi. Ko'chada qishloqi mujik arava haydab borar va g'alati ovoz bilan:

– Qaymoqli sut, kep qoling! – deb qichqirardi.

Kecha iliqqina ilk bahor yomg'iri yog'ib o'tgan edi. Tosh yotqizilmagan hamma yerlarda birdan giyohlar ko'kardi, bog'lardagi qayinlar yashil kuchala bilan qoplandi, shumurt daraxtlari va teraklar uzun xushbo'y barg yoza boshladilar, uylarda va do'konlarda deraza romlarini ko'chirib, arta boshladilar. Chayqov bozorida (Nexlyudov shu bozor yonidan o'tib ketishiga to'g'ri keldi), qator-qator do'konlar yonida olomon uymalanar, qo'ltig'iga etik qistirgan, dazmollangan shim va nimchani yelkasiga tashlab olgan juldur kiyimli kishilar u yoq-bu yoqqa o'tib turishardi.

Mayxonalar yonida fabrikadan ishdan chiqqan, ozodagina belburma kamzul, yaltirama etik kiygan erkaklar, boshlariga yaltiroq shohi ro'mol o'rab, shisha munchoq qadalgan paltoli xotin-xalaj tiqilishardi. To'pponchalarining sariq bog'ichi osilib turgan mirshablar, tartibsizlik ro'y berib qolmasmikan, deb nazorat qilib o'z joylarida turishardi. Tartibsizlik ularni bu og'ir zerikish azobidan qutqargan bo'lardi. Xiyobonlar o'rtasidan o'tgan yo'llarda, ko'm-ko'k bo'lib yashnab turgan maysazorda bolalar va itlar yugurib o'ynab yurishar, xushchaqchaq enagalar o'rindiqlarda bir-birlari bilan gaplashib o'tirishardi.

Chap tomoni soya-salqin, o'rtasi qurigan tosh ko'chada og'ir kirakash aravalar gumburlab, yengil aravalar shaldirab, ko'nkalar* jingillab to'xtovsiz o'tib turardi. Havo, hozirgina turmada bo'layotganidek, ibodatga chorlovchi qo'ng'iroq tovushlaridan larzaga kelgan edi. Yasangan-tusangan xaloyiq o'z qavmi bilan cherkovga qarab yo'l olardi.

Izvoshchi Nexlyudovni turma yonigacha olib bormay, turma tomonga buriladigan muyulishda tushirib qoldirdi.

Turmadan yuz qadamcha beridagi bu muyulishda ko'pchiligi tugun ko'targan erkak va ayollar turishardi. O'ng tomonda pastakkina yog'och binolar, chap tomonda ustiga lavha qoqilgan ikki qavatli bino turardi. Toshdan yasalgan bahaybat turma binosi ro'parada bo'lib, hech kimni unga yaqin yo'latishmas edi. Miltiq ko'targan soqchi askar u yoqdan bu yoqqa yurib, so'roqsiz o'tib ketmoqchi bo'layotganlarni baqirib qaytarib turardi.

Yog'och uyning eshigi yonida, o'ng tomonda, soqchining ro'parasidagi so'ri ustida uqa tutilgan mundir kiygan nazoratchi yozuv daftarchasi ushlab o'tirardi. Odamlar uning yoniga borib, ko'rmoqchi bo'lgan kishilarining nomini aytar, nazoratchi yozib olardi. Nexlyudov ham uning yoniga bordi va Katerina Maslovaning nomini aytdi. Uqali mundir kiygan nazoratchi yozib oldi.

– Nega shu mahalgacha kiritishmaydi? – deb so'radi Nexlyudov.

– Ibodat qilishyapti. Ibodat tugasin, kiritishadi.

Nexlyudov kutib turuvchilar to'dasi yoniga qaytdi. Shu mahal olomon orasidan juldur kiyimli, shlyapasi g'ijimlangan, yalang oyog'iga dabdalasi chiqqan poyabzal kiygan, yuzi qip-qizil chandiq kishi chiqib to'ppa-to'g'ri turma tomon ketaverdi.

– Qayoqqa suqilyapsan? – deb qichqirdi unga miltqli askar.

Juldur kiyimli kishi soqchining baqirganidan cho'chimay:

– O'zing nega bo'kirasan? – deb javob qaytardi-da, orqasiga qaytdi. – Kirgizmasang kirgizma – kutib turaman. Generalga o'xshab baqirmasang, kimning ko'ngli qolibdi.

Olomon orasidan ma'qullab kulgan ovozlar eshitildi. Bu yerdagilarning kiyimlari yupun, hatto juldur kiyingan odamlar edi. Ammo tashqi qiyofasiga qaraganda, odamshavanda erkak va ayollar ham bor edi. Nexlyudovning yonida yaxshi kiyingan, soch-soqoli

* *Ko'nka* – ot qo'shilgan tramvay.

oldirilgan, tuguncha ko'targan ikki beti qip-qizil semiz bir kishi turardi. Tugunchasidagi narsa kiyim-bosh bo'lsa kerak. Nexlyudov undan, bu yerlarga birinchi kelishingizmi, deb so'radi. Tugun ko'targan kishi har yakshanba kelishini aytdi, shunday qilib, ular gaplashib qolishdi. Bu kishi bank darboni edi; u qalbaki hujjat yasashda ayblangan ukasini ko'rish uchun kelgan edi. Bu soddadil kishi boshidan o'tgan butun voqeani Nexlyudovga gapirib berdi va undan surishtirmoqchi bo'lib turgan ham ediki, zotli qora ot qo'shilgan rezina g'ildirakli aravada kelib qolgan talaba bilan yuziga to'r tutgan ayol ularning diqqatini o'ziga tortdi. Talabaning qo'lida kattagina tugun bor edi. U Nexlyudovning yoniga keldi va undan, xayr-sadaqaga olib kelgan nonini mahbuslarga kiritish mumkinmi, buning iloji bormi, deb so'radi.

– Qaylig'imning ixtiyori bilan shunday qilyapman. Bu kishi mening qaylig'im. Uning ota-onasi shu narsalarni mahbuslarga eltib berishni maslahat ko'rishdi.

– Mening ham birinchi kelishim, bilmadim endi, – dedi Nexlyudov va mundiriga uqa tutilgan, o'ng tomonda daftar ushlab o'tirgan nazoratchini ko'rsatdi. – Shu odamdan so'rab ko'ring, aytib bersa kerak.

Nexlyudov talaba bilan gaplashib turganda turmaning o'rtasida tuynugi bo'lgan katta temir darvozasi ochildi-da, boshqa bir nazoratchi bilan mundir kiygan zobit chiqdi, daftar ushlagan nazoratchi esa odamlarni kiritish boshlanishini e'lon qildi. Soqchi o'zini chetga oldi, ko'chada poylab turganlarning hammasi, kechikib qolishdan qo'rqqandek, ba'zilar tez-tez yurib, ba'zilar chopqillab turma eshigidan kira boshladilar. Eshik yonida bir nazoratchi turar va odamlar yonidan o'tgan sayin baland ovoz bilan: «O'n olti, o'n yetti» va hokazo deb sanardi. Bino ichkarisidagi ikkinchi nazoratchi narigi eshikdan kirayotganlarga qo'lini tegizib, ularni yana qaytadan sanardi, u turmada birontayam chet kishi qolib ketmasligi yoki biron mahbusni chiqarib yubormaslik uchun qaytib chiqayotganlarida qaytadan sanab, hisobga to'g'ri keltirish uchun shunday qilayotgan edi. O'tayotgan odamlarning basharasiga qaramay sanayotgan bu nazoratchi Nexlyudovning yelkasiga qoqib qo'ydi. Uning qo'li kelib tegishi boshda Nexlyudovga tahqiromuz tuyuldi, ammo bu

yerga nima uchun kelgani esiga tushib, ranjigani va norizo bo'lganiga xijolat tortdi.

Eshikdan kiraverishdagi birinchi xona gumbaz taxlit qilib ishlangan bo'lib, kichkinagina derazasiga panjara o'rnatilgan edi. To'planish xonasi deb atalgan bu xonaning tokchasida Nexlyudov kutilmaganda butga parchinlangan Isoning kattakon suratini ko'rib qoldi.

Isoning tasvirini mahbuslar bilan emas, ozod etilganlar bilan baqamti deb tasvir etgan Nexlyudov o'zicha: «Bunga na hojat?» deb o'yladi.

Bu yerga qamalgan yovuzlardan qo'rqish, kechagi bola bilan Katyusha kabi begunohlarga achinish hislari bilan to'lib-toshgan, hozir yuz beradigan uchrashuvni o'ylab ko'ngli yumshagan, xijil bo'lgan Nexlyudov shoshilayotganlarni oldinga o'tkazib yuborib, sekin qadam tashlab kira boshladi. Birinchi xonadan chiqilayotganda, xonaning narigi tomonida turgan nazoratchi allanima dedi. Ammo xayolga cho'mgan Nexlyudov bunga e'tibor qilmadi, ko'pchilik orqasidan ergashib ketaverdi, ayollar bo'limiga emas, erkaklar bo'limiga qarab yo'l oldi.

U shoshilayotganlarni oldinga o'tkazib yuborib, uchrashuv xonasiga eng oxirida kirdi. Eshikni ochib bu xonaga kirganda, yuzlab og'izdan chiqqan ovozlari qo'shilib hosil qilgan ola-g'ovur uni hayratga soldi. Shakarga yopishgan pashsha singari, xonani ikkiga bo'lib turgan simto'rga yopishgan odamlarga yaqin kelganidan keyingina Nexlyudov nima gapligini tushundi. Derazalari orqa tomonda bo'lgan bu xona shiftdan yergacha tortilgan bir emas, ikki qator simto'r bilan ikkiga ajratilgan edi. To'rlar orasida nazoratchilar yurardi. To'rnin narigi tomonida – mahbuslar, bu tomonida – ularni ko'rgani kelganlar turishardi. Har ikkala tomonni bir-biridan ikki qator to'r va uch gaz masofa ajratib turardi. Biron narsa berish u yoqda tursin, hatto bir-birining yuzini ko'rish, ayniqsa, ko'zi xiraroq bo'lgan odam uchun amrimahol edi. Gapirish ham qiyin edi, gapimni eshitsin, degan odam qichqirib gapirishga majbur bo'lardi. Ikkala tomondagilar ham, xotinlar, erlar, otalar, onalar, bolalar bir-birlarini ko'rib aytadigan gaplarini aytib olishga urinib, to'rga yuzlarini mahkam tirab olgan edilar. Ammo har bir kishi aytgan gapini

hamsuhbati eshitadigan qilib gapirishga urinardi. Uning yonidagilar ham xuddi shunday qilar, natijada ular bir-biriga xalaqit berar va har kim bir-biridan qattiqroq gapirishga harakat qilardi. Shuning uchun ham bu xonada Nexlyudov kirgan zamon uni tang qoldirgan g'ovur-g'uvur hukm surardi. Kimning nima deyayotganini uqib olish mahol edi. Nima to'g'rida gaplashayotganlarini, so'zlashayotganlarning bir-biriga munosabatini ularning aftlaridangina payqab olish mumkin edi. Nexlyudovning yonida boshiga ro'mol o'ragan bir kampir turardi. U simto'rga yopishib olib, sochining yarmi qirilgan rangsizgina yigitga allanimalar deb qichqirar, iyagi titrar edi. Mahbus qoshlarini kerib, peshonasini tirishtirib zo'r e'tibor bilan uning so'zlarini tinglardi. Kampirning yonida belburma kamzul kiygan yigit turardi. U qo'lini qulog'iga qo'yib, boshini chayqab, rang-ro'yi bir holatda, soqoliga oq tusha boshlagan, xuddi o'ziga o'xshagan mahbusning gaplariga quloq solardi. Uning narigi yog'ida juldur kiyimli kimsa turar, qo'lini silkitib allanima deb qichqirar va kulardi. Uning yonida yaxshi tivit ro'mol o'ragan, bola ko'targan xotin, to'rnig narigi tomonidagi sochi olingan, kishan solingan mahbuslar kamzuli kiygan, oppoq sochli kishini birinchi bor ko'rishi bo'lsa kerak, yerda o'tirib yig'lar edi. Nexlyudov bilan gaplashgan darbon shu ayolning tepasida turib, narigi tomondagi boshi yarg'oq, ko'zlari chaqnaq turgan mahbusga bor kuchi bilan baqirib gapirardi.

Ana shunday sharoitda gapirishiga majbur ekanini anglagach, Nexlyudovning ushbu qoidani chiqargan va uni amalga oshirayotganlarga qarshi g'azabi keldi. Bu vahshiyona ahvol, insoniy hislarning bu qadar tahqirlanishi hech kimga qattiq botmayotganiga u juda hayron qoldi. Askarlar ham, mutasaddi ham, ko'rgani kelganlar va mahbuslar ham go'yo shunday bo'lishi lozimdek, bu tartibga rioya qilardilar.

Nexlyudov bu xonada ekan, o'zining biror chora ko'rishga ojizligidan yuragi qisilib, dunyodan bezib ketganini his qildi: kema chayqalganda ko'ngli behuzur bo'lgandek, ma'naviy iztirob his qildi.

XLII

«Harna bo‘lsayam, o‘ylagan ishimni bitiray, – dedi u o‘ziga o‘zi dalda berib. – Nima qilsam ekan?»

U boshliqlardan biri ko‘rinib qolmasmikan, deb ko‘zi bilan qidira boshladi, odamlarning orqasida u yoqdan bu yoqqa yurib turgan, zobitlik pogoni taqqan, pastakkina, mo‘ylovdor kishiga ko‘zi tushib, unga murojaat qildi:

– Muhtaram janoblari, – dedi u zo‘rma-zo‘raki xushmuomalalik bilan, – ayollar qayerda bo‘lishini, ular bilan qayerda ko‘rishish mumkinligini aytib berolmaysizmi?

– Ayollar bo‘limiga bormoqchimingiz?

– Ha, bir mahbus xotinni ko‘rishim kerak edi, – deb javob qaytardi Nexlyudov haligidek nazokat bilan.

– Boya to‘planish xonasida ekaningizda shunday desangiz bo‘lmasmidi? Kimni ko‘rmoqchi edingiz?

– Yekaterina Maslovani ko‘rishim kerak.

– Siyosiy mahbusmi? – deb so‘radi turma mutasaddisining noibi.

– Yo‘q, u shunchaki...

– Nima, hukm qilinganmi o‘zi?

Nexlyudov qayg‘usiga hamdardlashgandek ko‘ringan mutasaddining kayfini bir nima qilib buzib qo‘ymaslik uchun:

– Ha, o‘tgan kuni hukm qilingandi, – deb javob berdi itoatkorona.

Mutasaddi Nexlyudovning kiyim-boshiga qarab, e‘tibor qilsa arziydigan odam ekan, degan xulosaga keldi, shekilli:

– Ayol kishini ko‘radigan bo‘lsangiz, marhamat qilib, bu yoqqa yuring, – dedi.

– Sidorov, – deb murojaat qildi u medal taqqan mo‘ylovdor unter-zobitga, – mana bularga ayollar xonasini ko‘rsatib qo‘y.

– Xo‘p bo‘ladi.

Shu mahal to‘r tutilgan tomondan allakimning yurakni o‘rtab yuboruvchi faryodi eshitildi.

Nexlyudovga hamma narsa juda g‘alati tuyulardi. Yana shunisi ham borki, bu yerda qo‘llanilayotgan yovuzliklarni amalga oshirayotgan kishilarga – mutasaddi va bosh nazoratchiga tashakkur bildirishga, ulardan minnatdor bo‘lishga to‘g‘ri kelardi.

Nazoratchi Nexlyudovni erkaklar xonasidan yo'lakka boshlab chiqdi va ro'paradagi eshikni ochib, ayollar bilan uchrashuv xonasiga olib kirdi. Bu xona ham erkaklarniki singari ikki qator to'r bilan uchga ajratilgan bo'lib, kichikroq edi. Bu yerda ko'rgani kelganlar ham, mahbuslar ham bir qadar kam bo'lishiga qaramay, shovqin-suron erkaklar xonasidagidan qolishmas edi. Bu yerdayam to'rlar orasida boshliqlar u yoqdan bu yoqqa yurib turardi. Engiga uqa tutilgan, ko'k hoshiyali mundir kiygan erkak nazoratchilar kabi kamar bog'lagan nazoratchi xotinlar bu yerda boshliq o'rnida edi. Bu yerdayam xuddi erkaklar xonasidagidek to'rning ikki tomoniga odamlar yopishib olgan edi: bu tomonida – har xil kiyimdagi shahar aholisi, narigi tomonida – ba'zilari oq kiyingan, ba'zilari o'z kiyimida qolgan mahbus ayollar. To'rni u boshidan bu boshigacha odam qoplab olgan. Ba'zi birovlar ovozim yaxshiroq eshitilsin, deb oyoq uchida turib, boshqalarning tepasidan boshlarini cho'zib, boshqalari esa yerga o'tirib olib gaplashishar edi.

Mahbus ayollar ichida boshqalardan ko'ra qattiqroq baqirgan lo'li xotin kiyim-boshi bilan ajralib turardi. Jingalak sochlaridan durrasi sirg'alib tushib osilib qolgan bu paxmoqsoch xotin to'rning narigi tomonida, xonaning o'rtasidagi ustun yonida turib, ko'k syurtuk kiygan, belini pastdan qisib bog'lagan lo'liga qo'llarini tez-tez qimirlatib, allanimalar deb baqirardi. Lo'lining yonida bir askar yerga o'tirib olib mahbus ayol bilan gaplashardi, nariroqda esa beti qip-qizarib ketgan, oyog'iga chipta kavush kiygan malla soqolli yoshgina mujik to'rga mahkam yopishib, yig'lab yuboray deb turardi. U bilan oq-sariqdan kelgan xushro'ygina mahbus juvon gaplashardi. Juvon moviy ko'zlarini suhbatdoshidan uzolmay tikilib qarab turardi. Bu Fedosya bilan eri edi. Ularning yonida juldur kiyimli bir kishi sochlari paxmoq, yuzi oytovoqday xotin bilan so'zlashardi, nariroqda ikkita xotin, bir erkak, yana bir xotin, ularning har birining ro'parasida bittadan mahbus ayol turardi. Ular orasida Maslova yo'q edi. Ammo mahbus ayollarning orqasida, narigi tomonda yana bir ayol turardi. Bu ayol xuddi o'sha ekanini Nexlyudov darrov fahmladi, fahmladi-yu, shu zahoti yuragi duk-duk ura boshlaganini, nafasi tiqilib qolganini his etdi. Masala bir yoqli bo'ladigan payt yaqinlashardi. Nexlyudov simto'rga yaqinroq bordi va uni

tanidi. Maslova moviyko'z Fedosyaning orqasida turar va uning gapini jilmayib tinglardi. Maslova o'tgan kundagi xalatda emas, oq kofta kiyib olgan – beli kamar bilan qisib qo'yilgan, ko'ksi do'ppaygan edi. Jingalak qora sochlari durrasi tagidan xuddi sud vaqtidagi singari chiqib turardi.

«Hozir bir yoqli bo'ladi, – deb o'ylardi Nexlyudov. – Nima deb chaqirsam ekan? Yo o'zi yaqinroq kelarmikan?»

Lekin Maslova yaqin kelavermadi. U Klarani kutar, mana shu turgan erkak o'zini so'rab kelganini xayoligayam keltirmasdi.

– Sizga kim kerak? – deb so'radi to'r orasida u yoqdan bu yoqqa yurib turgan nazoratchi xotin Nexlyudovning yoniga kelib.

– Yekaterina Maslova, – dedi Nexlyudov zo'rg'a.

– Maslova, seni yo'qlab kelishibdi, – deb qichqirdi nazoratchi xotin.

XLIII

Maslova o'girilib qaradi, keyin boshini ko'tardi, ko'ksini oldiga chiqarib, Nexlyudovga tanish itoatkorlik ifodasi bilan panjara yoniga keldi, ikkita mahbus ayol orasiga suqilib kirdi-da, Nexlyudovni taniyolmay, unga ajablanib qarab qoldi.

Lekin egni-boshidan bu kishining boy odamligini bilib, jilmaydi.

Kulib turgan g'ilay ko'zli Maslova yuzini panjaraga yaqinlashtirib:

– Meni so'rab keldingizmi? – deb so'radi.

– Ko'rgani kelgandim... – Nexlyudov «sizsirash»niyam, «sensirash»niyam bilmay tutilib qoldi, keyin «siz» deb gapira boshladi. Lekin ovozi odatdagidan baland emasdi. – Ko'rgani kelgandim sizni... men...

Uning yonidagi juldur kiyimli kishi:

– Meni laqillatmay to'g'risini gapiraver. Olganmisan yo olmaganmisan? – deb baqirardi.

– O'lar holatda yotibdi, deyapman-u, yana nima kerak senga?! – deb qichqirardi allakim boshqa tomondan.

Nexlyudovning gapi Maslovaning qulog'iga kirmasdi, ammo gapirayotganda yuzining ifodasiga qarab turib to'satdan uni esladi. Lekin Maslova o'ziga ishonmadi. Shunday bo'lsa-da, yuzidagi tabassumi so'ndi, ruhiy azob chekayotgandek peshonasi tirishib ketdi.

Maslova ko'zini qisib qararkan:

– Gapingizni eshitmayapman, – deb qichqirdi peshonasini battar burishtirib.

– Men kelgandim...

«Ha, men burchimni ado etyapman, tavba qilyapman», – deb o'yladi Nexlyudov. Shunday deb o'ylab ham ediki, ko'zi jiq yoshga to'ldi, tomog'iga allanarsa kelib tiqildi, u panjarani mahkam changallaganicha, ho'ngrab yig'lab yubormaslikka urinib jim bo'lib qoldi.

– Bo'lmagan ishga tumshug'ingni tiqib nima qilasan, deyapman senga... – deb qichqirishardi bir tomondan.

– Xudo haqi, bilmayman, dedimmi, bilmayman, – deb qichqirardi mahbus ayol boshqa tomondan.

Nexlyudovning hayajonlanayotganini ko'rib, Maslova uni tanidi.

– Tanisam ham ko'zlarimga ishonmayapman, – deb qichqirdi Maslova. Uning qip-qizarib ketgan yuzi avvalgidan battar tumtayıb ketdi. Nexlyudov baland tovush bilan xuddi yodlangan darsni so'zlayotgan kishidek bir ohangda:

– Men sendan kechirim so'rash uchun kelgandim, – deb qichqirdi.

Shu so'zlarni baqirib aytganidan u uyalib ketdi-da, atrofga alanglab qaradi. Lekin shu zahoti, «Modomiki uyalayotgan ekanman, bu qaytangga yaxshi, nimaga deganda, uyaladigan ish qilib qo'ygandim-da», degan fikr keldi. Shunday qilib, u boyagidek baland tovush bilan gapira boshladi:

– Meni kechir, sening oldingda gunohkorman... – deb qichkirdi u yana.

Maslova qimir etmay turar, g'ilay ko'zlarini undan uzmasdi.

Nexlyudov ortiq gapini davom etdirolmadi, ko'kragini qisib kelayotgan yig'ini to'xtatib qolish uchun to'rdan yiroqlashdi.

Ayollar bo'limiga yo'l ko'rsatgan boyagi mutasaddi Nexlyudovga qiziqib qolgan bo'lsa kerak, shu bo'limga yana qaytib keldi-da, uning to'rdan chetda turganini ko'rib, nima sababdan tegishli odami bilan gaplashmayotganini surishtirdi. Nexlyudov burnini qoqdi, bir silkinib oldi-da, o'zini xotirjam tutishga harakat qilib:

– Panjara orqali gaplasholmayman, hech narsa eshitib bo'lmaydi, – deb javob berdi.

Mutasaddi o'ylanib qoldi.

– Unday bo'lsa, birpasga shu yoqqa chiqarsak bo'ladi.

– Marya Karlovna! – dedi u nazoratchi ayolga. – Maslovani tashqariga olib chiqing.

Biror daqiqadan keyin yon tomondagi eshikdan Maslova chiqib keldi. U shipillab yurib, Nexlyudovning oldiga keldi-da, to'xtab, unga xo'mrayib qaradi. Qop-qora sochlari xuddi o'tgan kundagidek qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib durrasi tagidan chiqib turardi, lo'ppigina oqargan nosog'lom yuzi jozibali va xotirjam edi; faqat tim qora g'ilay ko'zlarigina shishinqiragan qovoqlari tagida chaq'lab turardi.

– Shu yerda gaplashsangiz bo'ladi, – dedi nazoratchi, so'ngra nariroqqa borib turdi.

Nexlyudov devor tagida turgan o'rindiqlik tomon qadam tashladi.

Maslova mutasaddi noibiga savol nazari bilan qaradi, keyin hayron bo'lgandek yelkasini qisib qo'ydi-da, Nexlyudov ketidan o'rindiqlikka borib yubkasini to'g'rilab qo'yib, uning yoniga o'tirdi.

– Meni afv etishingiz juda og'ir, bilaman, – deb Nexlyudov gap boshladi-yu, lekin yig'i xalaqit berayotganini his qilib yana jim bo'lib qoldi, – o'tgan xatoni tuzatib bo'lmas ekan, endilikda qo'limdan qanday yordam kelsa, hammasini qilaman. Ayting...

Maslova uning savoliga javob qaytarmay:

– Meni qanday qilib topdingiz? – deb so'radi g'ilay ko'zlari bilan Nexlyudovga ham qarab, ham qaramay.

Nexlyudov Katyushaning hozir shunday o'zgargan, xunuklashgan yuziga qararkan: «Yo Rabbii! Madad ber menga. Nima qilish kerakligini o'rgat!» – derdi o'ziga o'zi.

– O'tgan kuni sudda sizni sud qilishganda, sud maslahatchisi bo'lgandim, – dedi Nexlyudov. – Meni tanimadingizmi?

– Yo'q, tanimadim. Taniydigan ahvolda emasdim. Qaraganim ham yo'q, – dedi Maslova.

– O'shanda bola bo'lgandi-a? – deb so'radi Nexlyudov, o'zining ikki beti qip-qizarib ketganini his etib.

Maslova yuzini teskari o'girib alam bilan:

– Xudoga shukur, o'sha vaqtlardayoq o'lib ketdi, – deb qisqagina javob qildi.

– Nega, qanday qilib?

– O‘zim kasal edim, o‘lar holatda edim, – dedi u ko‘zini yerdan uzmasdan.

– Ammalarim sizni qanday qilib chiqarib yuborishdi?

– Bolali oqsochning kimga keragi bor? Sezishlari bilanoq haydab yuborishdi. Gapirib ham nima qildim, hech narsa esimda yo‘q, hammasini unutganman. Bo‘lar ish bo‘ldi, tamom-vassalom.

– Yo‘q, undaymas. Men buni shunday qoldirib ketolmayman. Hech bo‘lmaganda, endilikda, gunohimni yuvmoqchiman.

– Yuvadigan nimasi qoldi; bo‘lar ish bo‘ldi, o‘tdi-ketdi, – dedi Maslova, keyin to‘satdan Nexlyudovga qandaydir yoqimsiz, shu bilan bir paytda, jozibador qarash qilib qo‘ydi, ma’yusgina jilmaydi. Nexlyudov buni sira kutmagan edi.

Maslova uni ko‘rarman deb, ayniqsa, hozirgi paytda va bu yerda ko‘rarman deb sira xayoliga keltirmagan edi. Shu sababli Nexlyudovning paydo bo‘lib qolishi dastavval uni juda hayron qilib qo‘ydi, to shu kungacha hech qachon esga olmagan narsalarni xotirlashga majbur qildi. Maslova dastlabki daqiqalarda shu narsalarni g‘ira-shira esladi: bir vaqtlar uni sevgan va sevilgan bu ko‘rkam yigit unga yangi mo‘jizakor his va fikrlar dunyosini ochib bergan edi, keyin yigit negadir shafqatsizlik qilib uni tashlab ketdi, sehrli baxtning oqibati shu bo‘ldiki, Maslova qator-qator xo‘rlik va tahqirlarga duchor bo‘ldi. Maslovaning ko‘ngli vayron bo‘lib ketdi. Ammo buni to‘g‘ri tushunib olmay, boshqa vaqtlarda qanday qilgan bo‘lsa, hozir ham shunday qildi: bu xotiralarni o‘zidan nari haydadi va ularni fohish hayotning o‘ziga xos pardasi bilan xaspo‘shlashga harakat qildi. Dastlab u hozir yonida o‘tirgan kishi bilan bir vaqtlar jonidek ko‘rgan yigit ikkisi bir odam deb tasavvur qildi, lekin uning ko‘ngli buzildi. Shundan keyin Maslova bu kishi bilan u yigit ikkisi bir odam deb o‘ylamadi. Maslovaning nazarida, endi bu ozoda kiyingan, soch-soqoliga atir sepilgan olifta kishi bir vaqtlar sevgan Nexlyudov emasdi. Maslova uchun endi bu kishi xohlagan paytida Maslova singari ayollardan istifodalanib yurgan odamlardan biri edi. Maslova singari ayollar esa bunday kishilardan iloji boricha foyda ko‘rib qolishga harakat qilardi. Shuning uchun ham Maslova unga jozibador tabassum qildi. U Nexlyudovdan qanday qilib foydalanib qolishni o‘ylab jim bo‘lib qoldi.

– Bo‘lar ish bo‘ldi, – dedi Maslova, – mana, katorgaga hukm qilib ham yuborishdi.

Shu dahshatli so‘zlarni aytganida uning lablari titrab ketdi.

– Sizning begunoh ekaningizni bilardim, ishonchim komil edi, – dedi Nexlyudov.

– Begunohman, albatta. Nahotki, men o‘g‘irlik qilsam yo tovlamachi bo‘lsam. Bizdagilarning aytishicha, hammasi advokatga bog‘liq emish, – deb davom etdi u. – Ariza berish kerak, deyishadi. Faqat, aytishlariga qaraganda, juda qimmatga tusharmish...

– Albatta, ariza berish kerak, – dedi Nexlyudov. – Men oqlovchi bilan gaplashdim.

– Pulni ayamalik kerak, yaxshisini olish kerak.

– Nimaiki qilish mumkin bo‘lsa, hammasini qilaman.

Oraga sukunat cho‘kdi.

Maslova yana boyagidek tabassum qilib qo‘ydi.

– Men sizdan... agar iloji bo‘lsa, pul so‘ramoqchi edim. Ko‘p emas... o‘n so‘m, ortiq kerak emas, – dedi u to‘satdan.

– Albatta, albatta, – dedi Nexlyudov xijolat chekib, so‘ngra hamyoniga qo‘l uzatdi.

Maslova kamerada u yoqdan bu yoqqa yurib turgan nazoratchiga yalt etib qarab qo‘ydi.

– Uning oldida bermang, nariroq ketganda bering, bo‘lmasam, olib qo‘yishadi.

Nexlyudov mutasaddi naryoqqa qarashi bilan hamyonini chiqardi, ammo o‘n so‘mlik qog‘oz pulni uzatishga ulgurmasidan mutasaddi yana ular tomonga o‘girildi. U pulni mahkam g‘ijimlab oldi.

U bir vaqtlar shu qadar dilovar, endilikda murdor bo‘lgan lo‘ppi yuzga, nazoratchini va uning pul g‘ijimlagan qo‘lini kuzatib turgan, qandaydir xunuk yaltirayotgan qora g‘ilay ko‘zga qararkan:

«Axir, odamgarchilikdan chiqqan xotin bu», – deb o‘yladi va bir lahza ikkilanib qoldi.

Har vaqtdagidek, nima qilmoq kerak, degan savoldan uni chalg‘itib, shu qilgan ishingning oqibati nima bo‘ladi va qaysi biri foydali, degan savolni beruvchi, kecha kechasi uni vasvasaga solgan kuch Nexlyudovning ko‘nglida tilga kirdi.

«Bu xotinni hech nima qilolmaysan, – derdi o‘sha ovoz, – faqat o‘z bo‘yningga bir og‘ir tosh boylab olasan. Shu tosh seni cho‘ktirib yuboradi, boshqalarga foyda keltirishga xalaqit beradi. Qo‘liga yoningdagi bor-yo‘q pulning hammasini bergin, xayrlash, shu bilan ishni bir yoqli qilib qo‘ya qolsang-chi?»

Ammo shu zahotiyog, xuddi shu topda, shu lahzada ko‘nglida qandaydir muhim bir narsa sodir bo‘layotganini, o‘zining ichki dunyosi shu topda tarozining pallasiday lopillab turganini, sal tegib ketilsa yo u, yoki bu tomonga bosib ketishini his etdi. Shunday qilib, u kecha ko‘nglida his etgan rahmonni chorlagandi, u shu zahoti aks sado berdi. Nexlyudov shu topdayoq dilidagining hammasini aytib solishga qaror qildi.

– Katyusha! Sening yoningga afv so‘rab keldim, sen bo‘lsang afv etdingmi, vaqti kelganda afv etasanmi, shuni aytmading, – dedi u to‘satdan sensirab.

Uning gapi Maslovaning qulog‘iga kirmasdi. U goh Nexlyudovning qo‘liga, goh nazoratchiga qarardi. Nazoratchi orqasini o‘girishi bilan Maslova darhol unga qo‘lini uzatdi, pulni ola solib tasma-sining tagiga qistirdi.

– Qiziq gaplarni gapirasiz-a, – dedi u jilmayib, Nexlyudovning nazarida u nafrat bilan jilmaygandek tuyuldi.

Nexlyudov Maslovada mana shu hozirgi holatdagi Maslovani himoya etuvchi, uning qalbiga ta‘sir etishga xalaqit beruvchi o‘ziga dushman bir narsa borligini his etdi.

Ammo, qizig‘i shundaki, bu uni Maslovadan nafratlantirmas, balki avvalgidan ortiq o‘ziga tortardi. U Maslovani ruhan uyg‘otishi kerakligini, buni amalga oshirish juda qiyin ekanini tushunardi; bu ishdagi ana shu qiyinchilik uni qiziqtirardi. Nexlyudovning Maslovaga nisbatan bo‘lgan hozirgi hissi shunday ediki, Nexlyudov hech qachon na Maslovaga nisbatan va na boshqa odamga nisbatan shunday narsani his etmagandi. Uning hissiyotida tariqcha bo‘lsin, shaxsiy g‘araz yo‘q edi. Nexlyudov Maslovadan biron manfaat ko‘rishni xayoligayam keltirmasdi. Hozir u faqat bir narsani istardi: Maslova hozirgi ahvoldan qutulsa, uyqudan ko‘zi ochilsa, avval qanday bo‘lsa, shunday bo‘lib qolsa.

– Katyusha, nega bunday deysan? Axir, men seni yaxshi bilaman-ku. Haliyam yodimda, o‘shanda, Panovoda...

– O‘tganni eslashning nima keragi bor? – dedi Katyusha quruqqina.

– Men qilgan gunohimni yumshatish, yuvish uchun eslayapman, Katyusha, – deb gap boshladi Nexlyudov, keyin unga uylanmoqchiligini aytmoqchi ediyamki, Maslovaning ko‘ziga ko‘zi tushdi va uning boqishlarida qandaydir dahshatli, xunuk va jirkantiruvchi bir ifodani ko‘rdi-da, gapi og‘zida qoldi.

Shu mahal ko‘rgani kelganlar chiqib keta boshlashdi. Mutasaddi Nexlyudovning yoniga keldi-da, uchrashuv muddati tugatanini aytdi. Maslova o‘rnidan turdi, qachon kiritib yuborishlarini itoatkorlik bilan kuta boshladi.

– Xayr, sizga juda ko‘p aytadigan gaplarim bor edi, lekin ko‘rib turibsizki, hozir iloji yo‘q, – dedi Nexlyudov qo‘lini uzatarkan. – Men yana kelaman.

– Hammasini aytdingiz chog‘i...

Maslova qo‘lini uzatdi-yu, lekin uni qismadi.

– Yo‘q, siz bilan gaplashib olish mumkin bo‘lgan joyda yana uchrashishga harakat qilaman. Sizga aytmoqchi bo‘lgan eng muhim gapimni o‘shanda aytaman, – dedi Nexlyudov.

Maslova erkaklarga yoqishni istagan paytida qandan tabassum qilsa, shunday jilmayib:

– Nimayam derdim, kelavering, – dedi.

– Siz men uchun singildan ham yaqin odamsiz, – dedi Nexlyudov.

– Qiziqsiz-a, – deb takrorladi Maslova, keyin boshini sarak-sarak qilib panjara ortiga o‘tib ketdi.

XLIV

Nexlyudov birinchi uchrashuv paytida, Maslova meni ko‘rib, o‘ziga xizmat qilmoqchiligimni bilgach va afsuslanayotganimdan xabardor bo‘lgach, sevinib, iyib ketadi va yana avvalgi Katyusha bo‘ladi-qoladi, deb o‘ylagandi. Keyin qarasaki, Katyushadan asar yo‘q, faqat Maslova qolibdi. Bu hol uni juda hayron qilib qo‘ydi, vahmini keltirdi.

Nexlyudovni ayniqsa hayratga solgan narsa shu ediki, Maslova o‘zining shu ko‘yga tushib qolganidan sira uyalmas edi. Yo‘q,

mahbuslikdan emas (mahbusligidan uyalardi), fohishaligidan sira-sira uyalmasdi, qaytaga shundayligidan mamnundek, hatto faxrlanayotgandek ko'rinardi. Zotan, bundan boshqacha bo'lishiyam mumkin emasdi. Har qanaqa odam bir ish qilish uchun, avvalo, shu ishini juda muhim va yaxshi, deb hisoblamog'i lozim. Shu sababli odam qay alpozda bo'lmasin, u turmush haqida shunday bir xulosaga kelib qo'yadiki, nazarida o'zining faoliyatini muhim va yaxshi deb biladi.

Odatda, o'g'ri, qotil, josus, fohisha va hokazolar o'z kasblarini yomon deb hisoblab or qilishlari kerak, deb o'ylaydilar. Aslida, shuning tamomila aksi bo'ladi. Taqdir va gunohlari – xatolari tufayli bir alpozga tushib qolgan kishilar tutayotgan ishlari qanchalik noto'g'ri bo'lmasin, turmush haqida shunday bir xulosaga kelib qolgan bo'ladilarki, nazarlarida hozirgi tutgan o'rinlari va qilayotgan ishlari yaxshi va e'tiborli bo'lib ko'rinadi. Shu fikrlari yo'qqa chiqmasligi uchun odamlar beixtiyor turmush haqidagi fikrlarini tan oladigan va o'zlarining unda tutgan o'rinlari yaxshi ekanini inkor etmaydigan kishilar doirasidan chiqmaslikka harakat qiladilar. O'g'rilar ephilliklari, fohishalar buzuqliklari, qotillar bag'ritoshliklari bilan maqtanishsa, biz tang qolamiz. Biz bu ahvolga shuning uchun ham tang qolamizki, bu odamlar yashagan doira, muhit juda cheklangan, biz esa shu muhitdan chetdamiz. Lekin shunisi ham borki, boylarning o'z boyligi, ya'ni talovchiligi bilan maqtangani, lashkarboshilarning o'z g'alabalari, ya'ni qonxo'rliklari bilan maqtangani, hokimlarning o'z qudratlari, ya'ni zo'ravonliklari bilan maqtangani shu hodisaning xuddi o'zginasi emasmi? Bu odamlarning hayotida o'z mavqelarini oqlash uchun hayot haqidagi, ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchani buzayotganlarini ko'rmasligimizning sababi shundaki, shu tariqa tushunchasi buzuq kishilar doirasi katta, buning ustiga, o'zimiz ham xuddi shu toifa odamlardanmiz.

Maslova ham hayotga va o'zining dunyoda ishg'ol etgan mavqeyiga nisbatan xuddi shunday tushuncha hosil qilgan edi. U katorgaga hukm etilgan fohisha edi. Ammo shunga qaramay, shunday fikrga kelib qo'ygan ediki, bu bilan u o'z ishini ma'qullay olar, hatto o'zining mavqeyi bilan odamlar oldida mag'rurlana olar edi.

Uning dunyoqarashi quyidagilardan iborat edi: barcha erkaklar, hech bir mustasnosiz, keksalar, yoshlar, gimnazistlar, generallar,

o'qimishlilar, savodsizlar – hamma-hammasining baxt-saodat deb bilgan narsasi ko'hlikkina xotinlar bilan don olishishdan iborat bo'lib, hamma erkaklar o'zlarini boshqa ish bilan mashg'ul qilib ko'rsatsalar-da, aslida, faqat bitta narsani, shunigina istaydilar. U – ko'hlik xotin, xohlasa, ularning shu istaklarini qondiradi, xohlamasa yo'q, bundan chiqdi, u ham e'tiborli, ham zarur odam. Maslovaning avvalgi va hozirgi hayoti bu tasavvurning haqliligini to'la-to'kis tasdiqlardi.

O'n yil davomida u qayerda bo'lmasin, hamma yerda, Nexlyudovdan tortib stanovoy cholu turma nazoratchisigacha, hamma erkaklarning unga zorligini ko'rardi; Katyusha o'ziga ehtiyoji bo'lmagan kishilarni ko'rmasdi ham, nazar-pisand qilmasdi ham. Shuning uchun ham uning nazarida butun dunyo o'lib-qutulib o'z hirsini qondirishga urinayotgan odamlardan, qo'lidan kelgan yo'l bilan: aldash, zo'rlik qilish, sotib olish, hiylakorlik yo'li bilan uni qo'lga tushirishga harakat qiluvchi odamlardan iborat edi.

Maslova hayotni ana shunday tushunar va hayotni bunday tushunish natijasida u o'zini keraksiz odam emas, balki zarur odam deb hisoblardi. Shunday qilib, Maslova hayotni shu tariqa tushunishni hamma narsadan afzal ko'rardi. Shu tariqa tushunchani qadrlamay ham iloji yo'q edi. Chunki hayotni shu tariqa tushunishdan voz kechsa, bu tushuncha tufayli odamlar ichida o'zini qadrli deb hisoblab yurgan Maslova o'sha qadrini yo'qotib qo'ygan bo'lardi. O'zining hayotdagi qadrini yo'qotib qo'ymaslik uchun ham u beixityor hayotga xuddi o'zi singari qaraydigan odamlar doirasidan chetga chiqmas edi. Nexlyudov uni tamomila boshqa bir olamga olib chiqmoqchi bo'layotganini his qilgach esa unga qarshilik ko'rsata boshladi, chunki Nexlyudov boshlab bormoqchi bo'lgan o'sha boshqa olamda o'z o'rnini yo'qotib qo'yishi mumkinligini sezardi, bu hayoti o'ziga ishonch va hurmat baxsh etardi. Yoshlik chog'idagi xotiralarni va Nexlyudov ikkovining o'rtasidagi ilk munosabatlarni eslamaslikka harakat qilishning sababi ham shunda edi. U xotirotlar Maslovaning hozirgi dunyoqarashiga tamomila zid bo'lgani uchun ham butunlay yodidan ko'tarilib ketgan, to'g'rirog'i, xotirasining bir chekkasida saqlanardi-yu, lekin asalarilar butun qilgan mehnatlarini qurtlari zoe ketkazib qo'ymasligi uchun

ularning yo'lini berkitib, qurtlarining ustidan suvab tashlagandek, suvab qo'yilgan edi. Shu sababdan ham hozirgi Nexlyudov Katyusha uchun bir vaqtlar sof muhabbat bilan sevgan kishi emas, foydalanib qolishi mumkin bo'lgan bir badavlat janob edi xolos, barcha erkaklar bilan qanday munosabatda bo'lsa, bu bilan ham munosabati xuddi shunday edi.

«Yo'q, eng muhim gapni aytolmadim, – deb o'ylardi Nexlyudov hamma bilan birga chiqib ketayotib. – Unga uylanmoqchiligimni aytmadim. Aytmagan bo'lsam ham shu ahdimning ustidan chiqaman», – deb o'ylardi u.

Nazoratchilar eshikning ikki tomonida turib, biron kishi ortiq chiqib ketmasin yo ortiqcha biron odam turmada qolib ketmasin deb, chiqib ketayotganlarni ikki kishilashib sanashardi. Sanab turib orqasiga shapillatib urib qo'yishgani bu gal Nexlyudovni tahqirlamadi, u hatto buni payqamadi ham.

XLV

Nexlyudov katta uyini ijaraga qo'yib, xizmatchilarni bo'shatib yubormoqchi, o'zi mehmonxonaga ko'chib o'tmoqchi, shu tariqa hayot tarzini o'zgartirmoqchi bo'ldi. Ammo Agrafena Petrovna to qishgacha turmushini o'zgartirishga hech qanday asos yo'qligini isbot etdi; avvalo, yozda ijaraga o'tiradiganlar topilmaydi, bundan tashqari, mebel va buyumlarni saqlash uchun, yashash uchun ham joy kerak. Shunday qilib, Nexlyudovning hayot tarzini o'zgartirish uchun qilgan barcha urinishlaridan (u talabalar singari oddiygina kun kechirmoqchi edi) hech narsa chiqmadi. Ahvol avvalgiday qolgani bir sari, buning ustiga, uyda ish qizib ketdi: jun va mo'yna buyumlarini yoyish, shamollatish, qoqish boshlandi. Bu ishda qorovul va uning yordamchisi, oshpaz va shaxsan Komeyning o'zi ishtirok etdi. Dastlab hech qachon va hech kim kiymagan allaqanday mundirlar, g'alati mo'yna buyumlarni olib chiqib arqonga osa boshladilar; keyin gilamlar va mebellarni olib chiqishdi. Qorovul bilan yordamchisi shu buyumlarni, yenglarini shimarishib, mushakdor qo'llari bilan bir maromda qoqa boshladilar, hamma xonalarni kuldori isi bosib ketdi. Nexlyudov hovlidan o'tib keta turib, ba'zan esa derazadan qarab bisotidagi buyumlarning ko'pligiga hayron qolardi. Buning ustiga, birontasining ham keragi yo'q edi. «Mana shu narsalar, – deb

o'ylardi Nexlyudov, – Agrafena Petrovna, Korney, darbon, uning yordamchisi va oshpaz xotinning mashq qilib turishi uchungina yaraydi. Maslovaning ishi bir yoqli bo'lmay turib, turmushimni o'zgartirishning keragi yo'q. Bu – oson gap emas. Maslovani chiqarib yuborishsa yoki surgun qilishsa, hammasi o'z-o'zidan o'zgaradi. Men uning ketidan jo'nayman».

Nexlyudov advokat Fanarin belgilagan kuni uyiga bordi. Nexlyudov advokatning uyiga borganda uning qabulxonasida, xuddi doktorlarnikidagi singari, navbat kutib o'tirgan arzgo'ylarni ko'rdi. Advokatning ajoyib o'simliklar o'sgan, derazalariga antiqa darpardalar osilgan hashamatli uyidagi qimmatbaho buyumlar uy egasining bebiliska pul topib, to'satdan boyib ketganini ko'rsatardi. Arzgo'ylar ermak uchun stoldagi suratli jurnallarni varaqlab o'tirishardi. Baland stol yonida o'tirgan advokat yordamchisi Nexlyudovni tanib oldiga keldi, u bilan ko'rishdi-da, hozir kirib boshlig'iga xabar berishini bildirdi. Ammo yordamchi kabinet eshigiga yetmasdanoq, eshik ochilib ketdi, yap-yangi ko'ylak kiygan, mo'ylovdor, yuzi qip-qizil, miqtidan kelgan, o'rta yashar kishining Fanarin bilan kuyib-pishib gaplashayotgani eshitildi. Ikkovi ham foydali, lekin xunuk bir ishni bitirgan kishilar qiyofasida edi.

– Ayb o'zingizda, taqsir, – derdi Fanarin jilmayib.

– Gulni orzu qilaman-u, lekiniga tikani bor-da.

– Qo'ying-e, bilmaydi deysizmi.

Ikkovi ham zo'rma-zo'raki kulib qo'yishdi.

– E, knyaz, keling-keling, – dedi Fanarin Nexlyudovni ko'rib qolib, keyin chiqib ketayotgan savdogarga yana bir bor bosh irg'ab qo'ydi-da, Nexlyudovni ishbilarmon kishining kabinetini singari jihozlangan bo'lmasiga boshlab kirdi. – Marhamat, cheking, – dedi advokat Nexlyudovning ro'parasiga o'tirayotib. U oldingi ish muvaffaqiyatli bitganidan tanobi qochgan og'zini yig'ishtirib ololmasdi.

– Rahmat, Maslovaning ishi yuzasidan kelgandim.

– Ha, esimda, hozir. Juda muttaham-da, bu puldor odamlar! – dedi u. – Haligi shovvozni ko'rdingizmi? O'n ikki millioncha puli bor. Yana lekiniga deydi. Agarda yigirma besh so'mligingizni olishga ko'zi yetsa, tishi bilan sug'urib oladi.

Nexlyudov gapining ohangi bilan ikkovimiz bir toifadan, kelayotgan arzgo'ylar va boshqalar o'zga bir toifadagi odamlar, deb gap ma'qullatishga uringan bu betakalluf kishidan nafratlanib: «U lekiniga», deydi, sen bo'lsang «Yigirma besh so'mlik», deysan», – deb o'ylardi.

– Meni juda qiynab yubordi, uchiga chiqqan muttaham ekan. Siz bilan bir otamlashay degandim-da, – dedi advokat asosiy masaladan chetga chiqib ketganini oqlash uchun. – Xo'-o'sh, endi sizning ishingizga kelsak... Men uni diqqat bilan o'qib chiqdim, Turgenev aytganidek, «ushbuning mazmunini ma'qul ko'rmadim». Ya'ni advokat juda bo'sh ekan, shikoyatga sabab bo'luvchi bahonalarni qo'ldan chiqarib yuboribdi.

– Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz?

– Hozir. Unga aytingki, – dedi u kirib kelgan yordamchisiga, – men nima degan bo'lsam, shunday bo'ladi, xohlasa – xo'p, xohlama – o'zi biladi.

– Rozi bo'lmayapti.

– Rozi bo'lmasa, undan nari, – dedi advokat. Uning xushchaqchaq va ochiq chehrasi o'zgarib, qovog'i osilib ketdi.

– Advokatlar tekin pul topadilar, deyishadi, – dedi u boyagidek xushchaqchaq ko'rinishga tirishib. – Bir kambag'al bechora qarzdorni nohaq ayblanishdan qutqarib qolgandim, endi hammasi menga yuguradi. Har bitta ishni bitirishga ozmuncha kuch kerakmi! Axir, biz ham, bir yozuvchi aytganidek, yuragimizning qoni bilan yozamiz. Shunday qilib, sizning ishingiz, to'g'rirog'i, sizni qiziqtirgan ish, – deb davom etdi u, – juda yomon olib borilgan, shikoyat yozish uchun bahona qolmagan, lekin shunga qaramay, hukmni bekor qildirishga urinib ko'rish mumkin. Mana, yozganimni eshiting.

U to'ldirib yozilgan bir varaq qog'oz oldi-da, ba'zi rasmiy so'zlarni yamlab, boshqalarini viqor bilan o'qiy boshladi.

– «Jinoiy ishlar shikoyat departamentiga falon-pismadonchidan ariza. Falon-pismadon sudning hukmiga asosan, Maslova savdogar Smelkovni zaharlab o'ldirishda aybdor hisoblanib, qonunlar to'plamining 1454-moddasiga asosan, faloncha yilga katorga ishiga hukm etilgan va hokazo, va hokazo».

U jim bo'lib qoldi; bunga juda odatlanib qolganidan qat'i nazar, u o'zi yozgan arizani o'zi huzur qilib tinglar edi.

– «Bu hukm juda muhim proessual xato va buzishlar natijasidir, shu sababli, – deb davom etdi u dabdabali qilib, – bekor etilishi lozim. Birinchidan, sud tergovni davomida Smelkovning ichki a'zolarini tekshiruv akti o'qila boshlangan hamono rais o'qishni to'xtatib qo'ygan, bu – bir.

– Ayblovchi o'qib eshittirishni talab etgandi-yu, – dedi Nexlyudov hayron bo'lib.

Baribir advokat ham shuni talab etishga haqi bor edi.

– Lekin buning hech keragi yo'q edi.

– Har nima bo'lsayam, bahona-da. U yog'ini eshiting: «Ikkinchidan, Maslovaning advokati, – deb o'qishda davom etdi advokat, – Maslovaning shaxsini tavsiflash paytida, uning bunday tuban tushuvining ichki sabablari haqida gapira boshlaganda sud raisi, bu gaplarning ishga daxli yo'q, degan bahona bilan to'xtatgan. Vaholanki, senatning dasturilamallarida, jinoiy ishlarini ko'rishda sudlanuvchining xarakteri va ma'naviy qiyofasi uning javobgarligini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega, deb ko'rsatib o'tiladi, bu – ikki, – dedi u Nexlyudovga bir qarab.

– Advokat juda yomon gapirgandi-da, gapini hatto tushunib ham bo'lmagandi, – dedi Nexlyudov boyagidan battar hayron bo'lib.

– O'zi ko'p befarosat odam, undan aqlliroq gap chiqmaydi, – dedi Fanarin kulib, – har nima bo'lsayam, bahona-ku. Xo'sh, undan keyin. «Uchinchidan, rais o'zining oxirgi so'zida jinoiy ishlarni ko'rish Nizomining 801-modda, 1-bandida qat'iy talab etilishiga qaramay, sud maslahatchilariga aybdorlik qandayin yuridik unsurlar yig'indisidan iborat bo'lishini tushuntirmagan hamda Maslovaning Smelkovga zahar berganini isbot qilingan, deb hisoblagan taqdirda ham Maslova odam o'ldirishga qasd qilmaganini nazarda tutish kerakligini, uni jinoyatkorlikda ayblamaslik, ehtiyotsizlik qilgani tufayli savdogarning o'limiga beixtiyor sabab bo'lib qolganini ta'kidlab o'tish lozimligini aytmagan». Eng muhimi ana shu.

– Buni o'zimiz ham tushunishimiz mumkin edi. Bu bizning xato.

– «Nihoyat, to'rtinchidan, – deb davom etdi advokat, – sudyaning Maslova gunohkormi, begunohmi, degan savoliga sud maslahatchilari

bir-biriga zid bo'lgan javoblar bergan. Maslova Smelkovni g'araz bilan qasddan zaharlab o'ldirishda ayblangan, sud maslahatchilari esa bergan javoblarida Maslovaning yomon niyatda ekanini, savdogarning narsalarini o'g'irlashda ishtirok etganini inkor etganlar. Bundan, sud maslahatchilari sudlanuvchining qotilligini ham inkor etmoqchi bo'lganlar, degan xulosaga kelish mumkin. Raisning oxirgi so'zi to'liq bo'lmagani uchun maslahatchilar bu fikrlarini to'lato'kis bayon etmaganlar, shu sababdan ularning bu javobi jinoiy ishlarni ko'rish Nizomining 816- va 808-moddasi qo'llanishini talab etardi, ya'ni rais sud maslahatchilariga o'z xatolarini tushuntirishi, qaytadan majlis qurib sudlanuvchining gunohkor, begunohligi haqidagi savolga qaytadan javob berishni ulardan talab etishi kerak edi», – deb o'qidi Fanarin.

– Rais nega shunday qilmagan bo'lmasa?

– Negaligini men ham bilishni istardim! – dedi Fanarin kulib.

– Binobarin, senat bu xatoni tuzatarkan-da?

– Bu ish ko'rilayotganda qanday xudoyixo'rlar ishtirok etishiga bog'liq.

– Qanaqa xudoyixo'rlar?

– Shu, mahkamadagi xudoyixo'rlar. Xo'sh, endi bu yog'ini eshiting: «Ana shu sabablarga binoan, – deb tez-tez o'qiy boshladi u, – Maslovani jinoiy javobgarlikka tortish uchun sudda asos yo'q edi. Jinoiy ishlarni ko'rish Nizomining 771-modda, 3-bandining Maslovaga nisbatan qo'llanilishi hozirgi jinoiy ishlarni ko'rish jarayonlarining asosiy qoidasini qo'pol ravishda buzadi. Yuqorida sanab o'tilgan asoslarga ko'ra va hokazo, va hokazo, jinoiy ishlarni ko'rish Nizomining 909, 910-moddalari, 912-moddaning 2-bandi va 928-moddaga asosan va hokazo, va hokazo, ushbu ishni qayta ko'rib chiqish uchun o'sha sudning boshqa bir bo'limiga yuborishlaringizni so'rayman».

Shunday, qo'limdan kelganining hammasini qildim. Lekin ochig'ini aytaman, yutib chiqishimiz ehtimoldan uzoq. Shunday bo'lsayam, masala senat departamentining tarkibiga bog'liq. Agar tanishingiz bo'lsa, harakat qilib ko'ring.

– Bir-ikkita tanishim bor.

– Harakatingizni tezroq qiling, bo'lmasam, hammalari bavoasilini davolagani ketib qolishadi, unda yana uch oy kutib qolishga

to'g'ri keladi... Agar ish o'ngidan kelmay qolsa, Oliy hazratlariga ariza yozish kerak bo'ladi. Bu ham maxfiy sur'atda yordam beruvchilarning topilishiga bog'liq. Bu holdayam xizmat qilishga, ya'ni maxfiy sur'atda emas, balki ariza yozib berishga tayyorman.

– Ko'p rahmat, xizmat haqi qancha...

– Yordamchim arizani oqqa ko'chirib beradi, o'shanda aytadi.

– Yana bir narsani so'ramoqchi edim: prokuror turmada o'sha odam bilan ko'rishishga ruxsatnoma berdi, turmadagilar bo'lsa, belgilangan kun va joydan tashqari kunlarda uchrashish uchun gubernatorning ruxsati bo'lishi kerak, deyishadi. Shu kerakmi?

– Ha, kerak bo'ladi. Ammo hozir gubernator yo'q, o'rinbosari ishlayapti. Shunday qip-qizil ahmoqki, u bilan bir ish chiqarishingiz qiyin.

– Maslennikovni aytyapsizmi?

– Ha.

– Men uni taniyman, – dedi Nexlyudov. Keyin chiqib ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi.

Shu mahal xonaga puchuq, oriq, o'lgudek xunuk, rangi sapsariq kichkinagina xotin – advokatning rafiqasi tez-tez yurib kirdi. U o'zining bedavolidan tariqcha xafa bo'lmasa ham kerak. Advokatning xotini juda g'alati kiyingan edi, uning ustiga, ham barqut, ham shohi, ham sariq, ham ko'k matolar tashlangan edi, siyrak sochlari ham jingalak qilingan bo'lib, shohi yoqali syurtuk kiygan, oq bo'yinbog' taqqan, jilmayib turgan, yuzi za'faron novcha kishi bilan boshlashib kirdi. Bu kishi yozuvchi edi, Nexlyudov uni uzoqdan tanidi.

– Anatol, – dedi xotin eshikni ochayotib, – yur mening xonamga. Semyon Ivanovich she'rini o'qib bermoqchi, undan tashqari, o'zing ham, albatta, Garshin haqida o'qib berishing kerak.

Nexlyudov chiqib ketmoqchi bo'lgandi, lekin advokatning xotini eri bilan pichirlashib oldi-da, shu zahoti unga gap qotdi:

– Marhamat, knyaz, men sizni taniyman, shuning uchun ham bir-birimiz bilan tanishtirishlarini ortiqcha deb bilaman, bizning adabiy ertaligimizda ishtirok eting. Juda maroqli. Anatol o'qishga juda usta.

Anatol qo'llarini kerib jilmayarkan, shunday go'zal xonimning iltimosini qaytarib bo'ladimi, degandek xotinini ko'rsatib:

– Mana shu singari har xil ishlar boshimdan oshib-toshib yotibdi, – dedi.

Nexlyudov ma'yus va jiddiy qiyofada, tavoze bilan advokatning xotinigga tashakkur bildirdi, iloji yo'qligini aytib uzr so'radi-da, qabulxonaga chiqdi.

Nexlyudov chiqib ketgandan keyin advokatning xotini:

– Muncha oliftagarchilik qiladi?! – dedi u to'g'rida.

Qabulxonada advokatning yordamchisi Nexlyudovga tayyor arizani olib chiqib berdi-da, Nexlyudovning xizmat haqi to'g'risidagi savoliga Anatoliy Petrovich ming so'm belgilaganini aytib, aslida, Anatoliy Petrovich bunday ishlarni olmasligini, faqat uning uchun qilayotganini ta'kidlab o'tdi.

– Arznomaga kim qo'l qo'yadi endi? – deb so'radi Nexlyudov.

– Sudlanuvchining o'zi qo'l qo'yishi kerak. Agar buning iloji bo'lmasa, undan ishonch qog'ozi olib, Anatoliy Petrovich o'zlari qo'l qo'ysalar ham bo'ladi.

Nexlyudov Maslovani belgilangan kundan oldin ko'rishga bahona topilganidan sevinib:

– Yo'q, o'zim borib qo'l qo'ydirib kelaman, – dedi.

XLVI

Odatdagidek qamoqxona yo'laklarida nazoratchilarning hushtagi churilladi; yo'lak va kameralarning eshigi sharaq-shuruq qilib ochildi, yalang oyoqlarning shipillagani, yog'och kavushlarning poshnasi do'qillagani eshitildi, keyin yo'lakni sasitib parashachilar o'tib ketishdi; mahbuslar va mahbus ayollar kiyinishib, yo'qlamadan o'tish uchun yo'lakka chiqdilar, yo'qlamadan keyin esa choy damlash uchun qaynoq suv olib kelgani tarqaldilar.

Shu bugun choy mahalida, avaxtaning hamma kameralarida, bugun ikki mahbusning kaltaklanishi haqida hovliqib gapirishardi. O'sha mahbuslardan biri, xat-savodi chiqqan yigit, rashk ustida o'ynashini o'ldirib qo'ygan sarkor Vasilyev edi. Xushchaqchaqligi, ochiqqo'lligi, boshliqlarga nisbatan qattiq turishi tufayli kameradagi o'rtoqlari uni yaxshi ko'rishardi. Vasilyev qonunni bilar va uni to'g'ri ijro etishni talab qilardi. Shu sababdan boshliqlar uni ko'rarga ko'zlari yo'q edi. Bundan uch hafta muqaddam nazoratchi yangi mundiriga karam sho'rva to'kib yuborgani uchun parashachini

urgan. Vasilyev mahbusni urish qonunda yo‘q, deb parashachining yonini olgan. Nazoratchi: «Men senga qonunni ko‘rsatib qo‘yaman», – deb qichqirgan, Vasilyevni so‘kkan. Vasilyev ham indamay turmagan, u ham so‘kkan. Shunda nazoratchi uni urmoqchi bo‘lgan, ammo Vasilyev uning qo‘lini mahkam changallab olgan va uch daqiqacha shunday ushlab turgan, qayirib turib itarib eshikdan chiqarib yuborgan. Nazoratchi shikoyat qilgan, shundan keyin mutasaddi Vasilyevni kartserga qamashni buyurgan.

Kartser ustidan tambalab qo‘yiladigan bir qator qorong‘i hujra edi. Qop-qorong‘i, sovuq kartserda na karavot, na stol va na stul bor edi, bu yerga qamalgan kishi iflos yerda o‘tirar yoki yotardi. Kartserda kalamush shu qadar ko‘p, ular shu qadar dadil edilarki, bu yerga qamalgan kishining ustidan sakrab o‘tar, o‘rimalab yurar edilar. Qorong‘ida nonni ulardan asrashning iloji yo‘q edi. Kalamushlar mahbusning yonginasida turgan nonni yeb qo‘yar, mabodo qimirlamay yotgudek bo‘lsa, hatto o‘ziga ham tashlanardilar. Vasilyev begunoh bo‘lgani uchun kartserga bormasligini aytgan. Uni zo‘rlab sudray boshlaganlar. U qarshilik ko‘rsatgan, ikki mahbus unga nazoratchilardan qutulib qolishga yordam bergan. Nazoratchilar yig‘ilishgan, ular ichida zo‘rligi bilan mashhur bo‘lgan Petrov ham kelgan. Mahbuslarni kartserga itarib kiritishgan. Shu zahoti gubernatorga, isyonga o‘xshash bir voqea sodir bo‘ldi, deb xabar berishgan. Keyin yuqoridan ikki asosiy aybdorga – Vasilyev bilan sayoq Nepomnyashchiyga o‘ttiz tayoqdan urilsin, degan buyruq kelgan.

Jazolash ayollarning uchrashuv xonasida o‘tkazilishi lozim edi.

Bu narsa avaxtadagilarning hammasiga kecha kechqurundan beri ma‘lum bo‘lib, kameralarda duv-duv gap yurar edi.

Korablyova, Xoroshavka, Fedosya va Maslova allaqachon isqotidan ichib olib, o‘z burchaklarida qip-qizarishib, qizishib o‘tirishardi. Endi Maslovada sharobning keti uzilmas, u dugonalaridan sharobni sira ayamasdi. Hozir ular choy ichishib o‘tirarkan, shu to‘g‘rida gaplashishardi.

Korablyova mahkam tishlari bilan qanddan qitday-qitday tishlab olib:

– Axir, u janjal chiqargani yo‘q-ku, – derdi. – Nihoyati, o‘rtog‘i-ning yonini oldi. Hozir hech yerda mahbusni ursin deyilmagan.

Choynak turgan so‘rining qarshisida g‘o‘la ustida o‘tirgan uzun sochli Fedosya:

– O‘zini juda yaxshi yigit deyishadi, – deb qo‘shib qo‘ydi.

– Qani endi unga aytsak, Mixaylovna, – dedi qorovul xotin Maslovaga yuzlanib. «Unga» deganda Nexlyudovni nazarda tutgan edi.

Maslova boshini silkitib:

– Aytaman. Og‘zimdand chiqqanini tillodan bitadi, – dedi jilmayib.

– Qachon keladi endi, ular bo‘lsa yigitni olib kelgani ketishgan-mish, – dedi Fedosya, – sho‘ri qursin, – deb qo‘shib qo‘ydi u xo‘rsinib.

Qorovul xotin uzundan-uzoq bir voqeani hikoya qila boshladi.

– Men ham bir mahal volostda bir mujikni kaltaklashganini ko‘ruvdim. Qaynotam oqsoqolga borib kel, deb yuborgandi. Borganimni bilaman, bunday qaragam...

Yuqori yo‘lakdan kelgan ovozlar va qadam tovushlari qorovul xotinning hikoyasini bo‘ldi.

Ayollar jim bo‘lib, diqqat bilan quloq sola boshlashdi.

– Sudrab ketishdi, ablahlar, – dedi Xoroshavka. – Endi o‘lguday kaltaklashadi. Nazaratchilarga kun bermasdi, endi undan toza o‘ch olishadi-da.

Yuqori yo‘lak suv quygandek jimjit bo‘lib qoldi. Qorovul xotin volostda bir omborda mujikni savalashganda qo‘rqib ketgani, yuragi qinidan chiqib ketay deganini gapirib, hikoyasini tamomladi. Xoroshavka bo‘lsa Shcheglovni qamchi bilan savalashgandayam miq etmaganini so‘zlab berdi. Keyin Fedosya dasturxonni yig‘ishtirdi, Korablyova bilan qorovul xotin tikishga tushdi. Maslova esa nima qilishini bilmay, so‘rida tizzasini quchoqlaganicha, zerikib o‘tirdi. U endi yotib uxlamoqchi bo‘lib turgan ham ediki, nazoratchi xotin uni chaqirib, bir odam kelib idorada kutib turganini aytdi.

Maslova yarmidan ortiq siri ko‘chib ketgan oyna oldida durrasini tuzatarkan:

– Biz to‘g‘rimizdayam gapirib qo‘y, – dedi unga Menshova degan kampir, – biz o‘t qo‘yganimiz yo‘q. O‘sha ablah o‘lgurning o‘zi o‘t qo‘ygan, xizmatkori ham ko‘rgan; mening bolam bunday ishni qilib diyonatini yutmaydi. Unga aytgin, Mitriyni chaqirsin.

Mitriy ipidan-ignasigacha gapirib beradi; bizni qamab qo'yishgan, biz bundan butunlay bexabar, u bo'lsa birovning xotini bilan ayshini surib yotibdi, qovoqxonama-qovoqxona kezadi.

– Nohaqlik bu! – deb ma'qulladi Korablixa.

– Aytaman, albatta, aytaman, – deb javob qaytardi Maslova. – Dadilroq bo'lish uchun ozgina ichib olsammikan, – deb qo'shib qo'ydi u ko'zini qisib.

Korablixa yarim stakan quyib berdi. Maslova ichib oldi, labini artdi-da, kayfi chog' bo'lib: «Dadilroq bo'lish uchun», degan so'zlarini takrorlay-takrorlay, boshini chayqab qo'ydi-da, jilmayib nazoratchi xotin ketidan ergashib yo'lak bo'ylab ketdi.

XLVII

Nexlyudov dahlizda anchadan beri kutib turardi.

U qamoqxonaga yetib kelganidan keyin ko'cha eshigining qo'ng'irog'ini shing'irlatdi, so'ngra navbatchi nazoratchiga prokurorning ijozatnomasini uzatdi.

– Sizga kim kerak?

– Maslova degan mahbusni ko'rmoqchiman.

– Hozir mumkin emas: mutasaddi band.

– Idorasidami? – deb so'radi Nexlyudov.

– Yo'q, shu yerda, uchrashuv xonasida, – deb javob berdi nazoratchi.

Nexlyudovning nazarida u xijolat tortayotgandek ko'rindi.

– Bugun qabul kunlarimas, shekilli?

– Yo'q, boshqa ish chiqib qoldi, – dedi u.

– Uni qanday qilib ko'rsa bo'ladi?

– Hozir chiqadilar, shunda aytasiz. Shoshmay turing.

Shu payt yon tomondagi eshik ochilib uqasi yarqiragan, yorishgan yuzi kulib turgan, mo'ylovi tamaki tutunidan sarg'ayib ketgan o'nboshi chiqib keldi-da, nazoratchiga qarab, qat'iy gapira ketdi:

– Nega bu yerga kiritdingiz?.. Idoraga...

O'nboshining ham negadir tashvishlanayotganini sezib hayron bo'lgan Nexlyudov:

– Menga mutasaddi shu yerda deb aytishgandi, – dedi.

Shu mahal ichkari eshik ochildi-da, terlab-pishib ketgan Petrov chiqib keldi.

– Esidan chiqmaydigan bo‘ldi, – dedi u feldfebelga qarab.

Feldfebel ko‘zi bilan Nexlyudovga imo qilgandi, Petrovning dami ichiga tushib, qovog‘i solingan holda orqa eshikdan chiqib ketdi.

«Kimning esidan chiqmaydigan bo‘ldi? Nega hammasi bu qadar xijolat? O‘nboshi nega unga imo qilib qo‘ydi?» – deb o‘ylardi Nexlyudov.

– Bu yerda kutish mumkinmas, idoraga kiring, – dedi o‘nboshi Nexlyudovga.

Nexlyudov endi chiqib ketmoqchi bo‘lib turgan ham ediki, orqa eshikdan mutasaddi chiqib keldi. U yordamchilaridan ham ko‘proq xijolat edi. U xo‘rsinib-xo‘rsinib qo‘yardi. Nexlyudovga ko‘zi tushishi bilanoq nazoratchiga qarab:

– Fedotov, beshinchi ayollar kamerasidagi Maslovani idoraga chaqir, – dedi.

– Marhamat qilsinlar, – dedi u Nexlyudovga yuzlanib.

Ular tik zinadan chiqib, bitta derazali kichkina xonaga kirishdi. Xonada bitta yozuv stoli va bir necha stul bor edi. Mutasaddi o‘tirdi.

– Vazifamiz og‘ir, juda og‘ir, – dedi Nexlyudovga yonidan yo‘g‘on papirosini chiqararkan.

– Charchagan ko‘rinasiz, – dedi Nexlyudov.

– Xizmatdan charchadim, vazifamiz juda og‘ir. Qismatlarini yengillashtirmoqchi bo‘lsang, teskarisi kelib chiqadi; qanday qilib bo‘shab ketishni o‘ylaydigan bo‘lib qoldim; vazifamiz og‘ir, juda og‘ir.

Nexlyudov mutasaddi uchun xizmatining og‘irligi nimadan iboratligini bilmasdi, ammo bugun kayfi qandaydir boshqacha ekanini, g‘amgin va umidsiz ekanini ko‘rib turardi.

– Ha, men ham shunday deb o‘ylayman, og‘ir bo‘lsa kerak, – dedi u. – Shu ishning bahridan kechsangiz bo‘lmaydimi?

– Mablaga‘im yo‘q, qanday kun ko‘raman. Jo‘jabirdek jonman.

– Sizga og‘irlik qilsa...

– Lekin sizga shunisiniyam aytayki, ishqilib, qo‘limdan kelganча yordam berib turaman. Mening o‘rnimda boshqa odam bo‘lganda edi, ahvol butunlay boshqacha bo‘lardi. Ikki mingdan ortiq jon bilan muomala qilish hazil gapmi, yana qanaqa odamlar deng! Kim bilan qanday muomala qilishni bilish kerak. Ular ham odam, rahming keladi, lekin erk berib ham bo‘lmaydi.

Mutasaddi yaqinda mahbuslar orasida mushtlash bo'lganini, uning o'lim bilan tugaganini so'zlab berdi. Nazoratchi bilan Maslovaning kirib kelishi uning hikoyasini bo'lib qo'ydi.

Nexlyudov Katyushani eshikka yetib kelishi bilanoq ko'rgandi, Maslovaning hali mutasaddiga ko'zi tushganicha yo'q, beti qip-qizil edi. Maslova nazoratchining ketidan dadil yurib kelar, hadeb boshini chayqar, yuzidan tabassum arimasdi. Mutasaddiga ko'zi tushgach, Maslova taka-puka bo'lib, unga tikilib qoldi-yu, lekin shu zahoti o'zini tutib olib Nexlyudovga dadil va xushchaqchaqlik bilan gapira boshladi.

Jilmayib turib:

– Salom, – dedi cho'zib, so'ngra Nexlyudovning qo'lini qattiq silkitib ko'rishdi, o'tgan safar bunday qilmagandi.

Nexlyudov Maslovaning bu gal dadil kutib olayotganiga hayron bo'lib:

– Sizga qo'l qo'ydirgani manovi arizani olib kelgandim, – dedi. – Advokat arizani yozib berdi, unga imzo chekish kerak. Keyin Peterburgga yuboramiz.

– Hay, mayli, qo'l qo'yvoraveramiz. Hammasi mumkin, – dedi u bir ko'zini qisib, jilmayib.

Nexlyudov cho'ntagidan taxlangan qog'ozni oldi-da, stol yoniga keldi.

– Shu yerda qo'l qo'yish mumkinmi? – deb so'radi Nexlyudov mutasaddidan.

– Bu yoqqa kel, o'tir, – dedi mutasaddi, – mana, senga qalam. Qo'l qo'yishni bilasanmi?

– Bir vaqtlar bilardim, – dedi Maslova va jilmayib turib, yubkasini, koftasining engini tuzatdi, stol yoniga o'tirdi-da, serharakat kichkinagina qo'li bilan ruchkani beso'naqay ushladi, keyin kulib yuborib, Nexlyudovga o'girilib qarab qo'ydi.

Nexlyudov qayerga nima deb yozish kerakligini ko'rsatdi.

Maslova ruchkani avval siyohga botirib, keyin silkitib, o'z ismini yozdi.

U goh Nexlyudovga, goh mutasaddiga qarab, ruchkani goh siyohdonga, goh qog'oz ustiga qo'ya turib:

– Boshqa hech narsa kerakmasmi? – deb so'radi.

– Sizga aytadigan gaplarim bor edi, – dedi Nexlyudov uning qo‘lidan ruchkani olarkan.

– Mayli, gapira qoling, – dedi u. To‘satdan allanarsani o‘ylagandek yoki uyquasi kelib qolgandek jiddiy bo‘lib oldi.

Mutasaddi o‘rnidan turib chiqib ketdi. Nexlyudov Maslova bilan yuzma-yuz yolg‘iz qoldi.

XLVIII

Maslovani boshlab kelgan nazoratchi stoldan nariroqdagi deraza tokchasiga o‘tirdi. Nexlyudov uchun hal qiluvchi payt kelgandi. U o‘sha birinchi uchrashuvda Maslovaga eng muhim gapni – unga uylanmoqchi ekanini aytmagani uchun zo‘r berib o‘zini o‘zi koyir edi. U hozir o‘sha gaplarni aytishga qat‘iy qasd qildi. Maslova stolning narigi tomonida o‘tirardi. Nexlyudov uning ro‘parasiga kelib o‘tirdi. Xona yorug‘ edi. Nexlyudov shunday yaqindan turib uning yuzini, ko‘zi atrofidagi ajinlarini, qovoqlarining shishinqiraganini birinchi marta ko‘rdi, Maslovaga avvalgidan battar rahmi kelib ketdi.

Nexlyudov deraza yonida o‘tirgan, soqoliga oq oralagan, juhudbashara nazoratchi gapimni eshitmasin, deb qo‘lini stolga tirab, faqat Maslova eshitadigan qilib gapira boshladi:

– Agar bu arizamizning natijasi yaxshi chiqmasa, Oliy hazratlariga ariza beramiz. Iloji boricha harakat qilamiz.

– Boshida advokat durust bo‘lganida edi... – dedi uning gapini bo‘lib Maslova. – Qayoqdagi bir tentak himoyachiga ro‘para bo‘lib qoldim. Menga gap otishdan boshqani bilmaydi, – dedi-da kulib yubordi. – Sizga tanish ekanimni o‘shanda bilishgandayam boshqacharoq bo‘lardi. Bo‘lmasa, meni o‘g‘ri deb o‘ylashadi.

«Bugun juda g‘alati-ya»,– deb o‘yladi Nexlyudov. Endi gapirmoqchi bo‘lib turgan ham ediki, Maslova yana tilga kirdi.

– Bir gapim bor edi. Bizda bitta kampir bor, bilasizmi, hamma hayron. Shunday yaxshi kampirki, begunohdan begunoh o‘tiribdi – o‘ziyam, o‘g‘liyam; begunohligini hamma biladi, ularni esa o‘t qo‘yishda ayblashib, qamab qo‘yishibdi. O‘sha kampir mening siz bilan tanishligimni eshitib qolibdi, – dedi Maslova boshini qimirlatib, unga qarab qo‘yib, – endi desangiz: «Unga ayt, o‘g‘limni chaqirtirish-

sin, hammasini gapirib beradi», deyapti. Ularning familiyasi Menshov. Nima, yordam qilasizmi? Shunday ajoyib kampirki, asti qo'yaverasiz; bekordan-bekorga o'tirgani ko'rinib turibdi. Aylanay, bir harakat qilib ko'ring, – dedi Maslova unga bir qarab olib, ko'zini yerga tikib jilmayarkan.

Nexlyudov Maslovaning betakalluf gaplashayotganiga hayrati ortib:

– Xo'p, surishtirib bilaman, harakat qilaman, – dedi. – Ammo hozir siz bilan o'z ishim haqida gaplashmoqchi edim. O'tgan gal gapirgan gaplarim esingizdami? – dedi u.

– Juda ko'p gapirdingiz. Aytgandek, o'tgan gal nima devdingiz? – dedi u hamon jilmayarkan, boshini goh u yoqqa, goh bu yoqqa o'girib.

– Sizdan afv so'rab keldim, degandim, – dedi Nexlyudov.

– Nuqul afv et, afv et, deysiz, nima keragi bor shu gaplarning... undan ko'ra...

– Gunohimni yuvaman, degandim, – davom etdi Nexlyudov. – So'z bilan emas, ish bilan ko'rsatmoqchiman buni. Sizga uylanmoqchiman.

Maslovaning yuzida qo'rquv alomati paydo bo'ldi. G'ilay ko'zlari bir nuqtaga tikilib qoldi, unga qarayatganiniyam, qaramayotganiniyam payqab bo'lmasdi.

– Buning nima keragi bor yana? – dedi u jahl bilan qovog'ini solib.

– Xudo oldida shunday qilishim kerakligini his etib qoldim.

– Yana qanaqa Xudo topib oldingiz? Nuqul allaqayoqdagi gaplarni gapirasiz-a. Xudo deysizmi? Qanaqa Xudo? Undan ko'ra o'shanda Xudoni yod qilsangiz bo'lasmidi, – dedi-da, og'zini ochganicha to'xtab qoldi.

Faqat shundagina Nexlyudov uning og'zidan sharob hidi kelayotganini his qildi va Katyushaning hayajonlanayotganining sababini tushundi.

– Biroz tinchlaning, – dedi Nexlyudov.

Maslova to'satdan bidirlab gapira boshladi:

– «Tinchlan»mish. Meni mast deb o'ylayapsanmi? Ha, mastman, lekin og'zimdan chiqqan gapni bilib turibman, – dedi u qip-qizarib

ketib: – men katorgachiman, men buzuqiman, siz bo‘lsangiz beksiz, knyaz, meni xotin qilib o‘zingni bulg‘ab nima qilasan? Bor, o‘sha knyajnalaringni oldiga, mening narxim – bir chervon.

– Har qancha qattiq gapirsang ham men his etgan narsalarni aytolmaysan, – dedi asta Nexlyudov titrab ketib, – sening oldingda gunohkorligimni qay daraja his etayotganimni xayolinggayam keltirolmaysan!

– «Gunohkorligimni his etaman»mish, – dedi Maslova jahl aralash mazax qilib. – O‘shanda yuz so‘mni qistirganingda his etmagandingku, ma, ol, sening narxing shu deb...

– Bilaman, bilaman, endi nima qilay? – dedi Nexlyudov. – Endi seni tashlab ketmaslikka qaror qildim, – deb takrorladi u, – aytganimning ustidan chiqaman.

– Ustidan chiqib bo‘psan, – dedi-da, u qattiq kulib yubordi.

– Katyusha! – dedi Nexlyudov uning qo‘liga tegib.

– Qoch, tegma. Men katorgachiman, sen knyazsan, bu yerda senga nima bor? – deb qichqirdi u qo‘lini tortib olib. Jahli chiqqan Maslova tamom o‘zgarib ketgandi. – Sen meni orqa qilib qutulib qolmoqchisan-da, – deb davom etdi u ko‘ngliga kelgan gaplarni aytib solish uchun shoshib. – Bu dunyoda mendan lazzatlanganding, endi nariga dunyodayam men orqali rohat ko‘rmoqchimisan! O‘zingniyam, ko‘zoynagingniyam, semiz naxs basharangniyam ko‘rarga ko‘zim yo‘q. Yo‘qol, yo‘qol ko‘zimdan! – deb qichqirdi Katyusha irg‘ib o‘rnidan turib.

Nazoratchi ular yoniga keldi

– Nega janjal qilyapsan? Bu nima qiliq?

– Qo‘ying, aralashmang, – dedi Nexlyudov.

– O‘zini tutsin-da, – dedi nazoratchi.

– Xo‘p, xo‘p, hozir, – dedi Nexlyudov.

Nazoratchi yana deraza tomon ketdi.

Maslova joyiga o‘tirib, ko‘zini yerga tikdi, barmoqlarini chalishtirib kichkinagina qo‘llarini qovushtirib oldi.

Nexlyudov nima qilarini bilmay uning tepasida turardi.

– Menga ishonmayapsan, – dedi u.

– Uylanaman, deysiz, lekin ikki dunyoda bu niyatingizga yetolmaysiz. Sizga tekkandan ko‘ra o‘zimni osib o‘ldiraman! Vassalom.

– Baribir xizmatida bo‘laman.

– Bilganingizni qiling. Faqat menga hech narsangiz kerakmas. Gapning ochig‘i shu, – dedi u. – Nega o‘sha mahalda o‘lib ketmagan ekanman-a? – deb qo‘shib qo‘ydi u va o‘ksib yig‘lab yubordi.

Nexlyudovning tili kalimaga kelmay qoldi. U Maslovaning ko‘z yoshlarini ko‘rib qattiq ta’sirlanib ketgan edi.

Maslova boshini ko‘tarib unga qaradi-da, hayron bo‘lgandek, yuzidan oqib tushayotgan ko‘z yoshlarini durrasi bilan arta boshladi.

Nazoratchi yana ularning oldiga keldi, vaqt tugaganini eslatdi. Maslova o‘rnidan turdi.

– Hozir asabiylashib turibsiz. Agar xo‘p desangiz, ertaga kelaman. Ungacha siz bir o‘ylab ko‘rarsiz, – dedi Nexlyudov.

Maslova javob qaytarmadi, unga qaramasdan nazoratchi ketidan chiqib ketdi.

Maslova kameraga qaytib kirgach:

– Ishlaring endi besh, – dedi Korablyova. – Senga oshiqi beqaror bo‘lib qolganga o‘xshaydi; vaqti g‘animatda foydalanib qol. Ishingni to‘g‘rilab beradi. Boylarning qo‘lidan har ish keladi.

– Gapning ochig‘iyam shu, – dedi qorovul kampir jarangdor ovoz bilan. – Kambag‘alning qo‘li qisqa, badavlat odamning og‘zidan chiqqani tillodan bitiladi – bizda xuddi shunaqa bir mo‘tabar odam shunday bir ish qildiki, jonginam...

– Xo‘sh, mening ishim to‘g‘risida gaplashdingmi? – deb so‘radi kampir.

Ammo Maslova dugonalariga javob qilmadi. U g‘ilay ko‘zlarini bir burchakka tikkanicha kechgacha yotdi. Uning ko‘nglida og‘ir kurash borardi. Nexlyudov aytgan gaplar u azob chekkan va keyin tushunmasdan, nafratlanib tashlab chiqib ketgan olamni yana xotiriga tushirgan edi. Maslova ilgari hammasini unutib yuborgan bo‘lsa, hozir o‘sha holatidan uyg‘ongan edi. O‘sha bo‘lib o‘tgan narsalar esida ravshan saqlanib qolarkan, yashash juda og‘ir edi. Kechqurun u yana sharob sotib oldi va dugonalari bilan birga rosa ichdi.

XLIX

Nexlyudov qamoqxona darvozasidan chiqarkan, bugun qilgan qilmishi naqadar zo‘r gunohligini faqat shu topdagina chuqur anglab: «E, hali, shunaqa ekan-da... Shunaqa ekan-da...» – deb o‘ylardi.

Agar u qilgan gunohini yuvmoqchi bo'lmaganda edi, o'sha o'z qilmishlari naqadar zo'r jinoyat ekanini anglamagan bo'lardi; u ham mayli-ya, Maslova ham o'ziga o'tkazilgan jabrni his etmagan bo'lardi. Mana, endi hammasi yuzaga chiqib, butun dahshati bilan namoyon bo'ldi. Bu xotinning ko'nglini vayron qilganini Nexlyudov endi payqadi, Maslovaning ham endi ko'zi ochildi, endigina tushundi. Ilgari Nexlyudov o'zining tavba qilayotganidan zavqlanayotgan bo'lsa, endi bu hol uni dahshatga solardi. Maslovani endi tashlab ketolmas, buni u his etardi, ammo shu bilan birga, Maslovaga bo'lgan munosabatidan nima kelib chiqishini tasavvur etolmasdi.

Eshikdan chiqib ketayotganida Nexlyudovning yoniga xoch va medallar taqqan, yoqimsiz, ko'rinishidan mug'ombir nazoratchi keldida, yashiriqcha xat berdi.

– Bir ayoldan, siz janobi oliylariga... – dedi u Nexlyudovga uzata turib.

– Qanaqa ayol?

– O'qisangiz bilasiz. Siyosiy mahbus. Men o'shalarga qarab turaman. Shu xatni mendan iltimos qilgandi. Bunga ijozat berilmasada, odamgarchilik yuzasidan... – dedi yasama ovoz bilan nazoratchi.

Nexlyudov siyosiy mahbuslarni kuzatib turish uchun qo'yilgan nazoratchining qamoqxonaning o'zginasida, hammaning ko'z oldida xat berayotganiga juda hayron qolgan edi; u mahallarda Nexlyudov bu kishining ham nazoratchi, ham ayg'oqchi ekanini bilmasdi. Shunday qilib, u xatni oldi va turmadan chiqqach o'qidi. Epchillik bilan, ayirish belgisi qo'yilmay yozilgan ushbu xatda quyidagilarni o'qidi:

«Sizning bir jinoiy mahbus ayolning taqdiri bilan qiziqib, qamoqqa kelib turganingizni eshitib, siz bilan uchrashgim kelib qoldi. Men bilan uchrashuvni iltimos qiling. Sizga ruxsat berishadi, men himoyangiz ostidagi odam uchun ham, bizning guruhimiz uchun ham muhim narsalarni aytaman. Sizdan mingdan-ming minnatdor Vera Bogoduxovskaya».

Vera Bogoduxovskaya bir vaqtlar Nexlyudov o'rtoqlari bilan ayiq oviga borib qolgan uzoq Novgorod gubernasida muallimalik qilardi. Shu o'qituvchi qiz kursga o'qishga jo'nab ketish uchun pul berishini so'rab Nexlyudovga murojaat qilgandi, Nexlyudov unga kerakli pulni bergan, keyin uni unutib yuborgan edi. Endi

bilsa, o'sha xonim siyosiy jinoyatkor bo'lib chiqibdi, qamalibdi. Mana, endi u shu yerda Nexlyudov voqeasini eshitib, unga o'z xizmatini tavsiya etayotgan edi. U vaqtlarda hamma narsa naqadar yengil va osonlikcha bitar edi. Endilikda, hammasi og'ir va murakkab. Nexlyudov quvonch bilan o'sha vaqtlarni va Bogoduxovskaya bilan tanishganini esladi. Bu voqea temiryo'ldan oltmish chaqirimcha ichkarida, Maslenitsa* arafasida bo'lib o'tgandi. Ov juda yaxshi o'tib, ikkita ayiqni o'ldirishgan edi. Endi ovqatlanib bo'lib, jo'nab ketamiz deb turishganda, ular tushgan uy egasi kirib keldi-da, dyakonning qizi kelganini va knyaz Nexlyudov bilan ko'rishmoqchi ekanini aytdi.

– O'zi yaxshiginami? – deb so'radi allakim.

– Qo'yinglar-e! – dedi Nexlyudov, yuziga jiddiy tus berdida, og'zini artib o'rnidan turdi. Keyin dyakonning qiziga nega kerak bo'lib qolganiga hayron bo'la-bo'la, mezbonning uyiga qarab ketdi.

Xonada namat shlyapa, po'stin kiygan, qotmadan kelgan, xunukkina qiz turardi. Uning kerilgan qoshlari ostidagi ko'zlarigina chiroyli edi.

– Mana, Vera Yefremovna, gaplash endi bular bilan, – dedi uy egasining kampiri, – knyaz shu kishi bo'ladilar, men chiqib keta qolay.

– Xizmat? – dedi Nexlyudov.

– Men... men... Siz juda boysiz, bo'lmag'ur narsalarga, ovga pul xarjlaysiz, bilaman, – deb gap boshladi qiz xijolat tortib, – menga esa faqat bir narsa kerak – odamlarga foyda keltirishni xohlayman-u, lekin hech narsa chiqarolmayman. Nimaga deganda, hech narsa bilmayman.

Qizning ko'zlari rostgo'y, muloyim edi. Uning butun qiyofasi, ham qat'iyligi, ham tortinchoqligi shu qadar ta'sir etdiki, Nexlyudov (unda shunday ahvol yuz berib turardi) birdan qizning ahvoliga o'zini qo'yib ko'rdi-da, iltimosiga tushundi, rahmi keldi.

– Mendan nima istaysiz?

– Men muallimaman, kursga kirgim keladi-yu, lekin meni yuborishmayapti. Yo'q, ular-ku yuborishga yuborishyapti-yu, lekin pul kerak. Menga pul berib turing, kursni tugatganimdan keyin

* Qishni kuzatish bayrami.

to'layman. Badavlat kishilar ayiq o'ldirishadi, mujiklarni ichirib mast qilishadi – nazarimda, bo'lmag'ur ish bular. Bir yaxshilik qilishsa, nima bo'пти? Menga faqat sakson so'm kerak. Bermasangiz bermay qo'ya qoling, menga baribir, – dedi u jahl bilan.

– Nega endi, iona qilishga qulay fursat topilgani uchun sizdan minnatdorman, qaytaga... Hozir olib kelaman, – dedi Nexlyudov.

U dahlizga chiqdi, bu yerda ularning gaplariga quloq solib turgan o'rtog'ini ko'rib qoldi. U o'rtog'larining haziliga quloq solmay, sumkasidan pul oldi-da, qizga olib borib berdi.

– Marhamat, minnatdorlikning sira, sira keragi ko'q. Men sizga minnatdorlik bildirishim kerak.

Ana shularni eslarkan, Nexlyudovning ko'ngli ochilar edi; bir zobit o'rtog'i bu voqeani xunuk bir hazilga aylantirmoqchi bo'lganida, u bilan urishib qolay deganini, bir o'rtog'i uning tarafini olganini, shu bahona bilan bu o'rtog'iga juda yaqinlashib qolganini, ovning yaxshi o'tganini, kechasi temiryo'l stansiyasiga qaytayotganida vaqti chog' bo'lganini eslash nash'ali edi. Chanalar juft-juft bo'lishib, tor yo'ldan turnaqator bo'lib, ba'zan baland daraxtlar, ba'zan butalar, qor bosgan archalar oralab borardi. Ovchilarning bironyasi xushbo'y papirosini tutatar, qorong'ida cho'g'i yiltirab ko'rinardi. Ayiq ovlashda yordamlashgan Osip tizzasigacha qorga botib u chanadan bu chanaga o'tib yurar, qor kechib, tog'teraklarning po'stlog'ini g'ajib yurgan bug'ular, chuqur uylariga kirib olib, pish-pish uxlab yotgan ayiqlar haqida hikoya qilardi.

Nexlyudov ana shularning hammasini, ayniqsa, sog'lomligi, kuch-quvvatga to'lgani, beg'amligini, o'zini baxtli sezganini esladi. O'pkalar sovuq havo bilan nafas olar, po'stinlar tarang bo'lib turar, do'g'a tegib ketgan shoxlardan yuzlarga qor to'kildi. Badani issiqqina, betlari muzdekkina, ko'nglida na g'am, na tashvish, na qo'rquv va na istak bor. Qanday yaxshi edi-ya! Endi-chi? E Parvardigor, bularning hammasi naqadar og'ir, naqadar mashaqqatli!..

Vera Yefremovna inqilobchi bo'lsa kerak. Endi o'sha inqilobiy ishlari tufayli qamoqqa olingan. U bilan uchrashish kerak. U Maslovaning ahvolini qanday qilib yaxshilash kerakligi to'g'risida maslahat bermoqchi.

L

Ertasiga ertalab uyg'onib, Nexlyudov kecha bo'lgan voqeani esladida, qo'rqib ketdi.

Ammo bu dahshatga qaramay, u boshlagan ishini davom ettirishga har qachongidan ham qattiqroq bel bog'ladi.

Nexlyudov bo'ynidagi shu burchini his etib, uydan chiqdi va qamoqxonada Maslovadan tashqari yana Menshova degan kampir bilan o'g'lini ham ko'rishga ijozat berishini so'rash uchun Maslennikovnikiga jo'nadi. Bundan tashqari, u Bogoduxovskaya bilan uchrashishga ham ruxsat so'ramoqchi edi. Bogoduxovskayaning Maslovaga foydasi tegib qolishi mumkin-ku, axir.

Nexlyudov Maslennikovni ko'pdan beri, polkda xizmat etgan chog'idan buyon bilardi. Maslennikov u mahalda polk g'aznachisi bo'lib ishlardi. U xushfe'l, ishchan, dunyoda polk va podsholik xonadonidan boshqa hech narsani tan olmaydigan zobit edi. Endi Nexlyudov Maslennikovni uchratgan mahalda u polkni tashlab, gubernava gubernani boshqarish bilan band bo'lgan ma'mur edi. U badavlat va shaddod bir xotinga uylangan edi. Uni harbiy xizmatdan fuqaro xizmatiga ko'chishga majbur qilgan ham shu xotin edi.

U erini rom qilingan hayvonidek erkalatar, ermak qilardi. Nexlyudov o'tgan yili qishda ularnikida bir marta bo'lgan edi. Lekin bu er-xotin unga yoqmasdi, shundan keyin ularnikiga qaytib oyoq bosmadi.

Maslennikov Nexlyudovni ko'rib, og'zi qulog'iga yetdi. Uning yuzi hamon avvalgidek go'shtdor va qip-qizil, gavdasi basavlat, xuddi harbiy xizmatdagidek bashang kiyingan edi. Harbiy xizmatda u hamma vaqt ozoda, so'nggi urfda tikilgan mundir yoki tujurka kiyar edi; endi u so'nggi urfda tikilgan fuqarolik kiyimi kiygan, ko'k-ragini ko'tarib yuruvchi savlatdor kishi edi. Hozir uning egnida vitsmundir. Ikkalovining yoshi bir-birinikidan ancha farq qilsa-da, (Maslennikov qirqlarga borib qolgan edi) ular sensirashib gaplashishardi.

– Kelib yaxshi qilibsan, yur, xotinimning oldiga kiraylik. Majlis oldidan o'n daqiqa bo'sh vaqtim bor. Boshlig'im ketib qolgan. Hozir gubernaga o'zim boshliqman, – dedi u xursandligini yashirolmay.

– Senga bir ish bilan keldim.

Maslennikov to'satdan sergaklanib, cho'chigandek:

– Nima gap?! – dedi qat’iy qilib.

– Qamoqda meni qiziqtirgan bir odam bor («qamoq» so‘zini eshitib Maslennikovning yuzi yana jiddiylashdi), men u bilan umumiy xonadamas, idorada belgilangan kunlardan tashqari kunlardayam uchrashib turishni istardim. Hammasi sening qo‘lingda ekan, deb eshitdim.

– Albatta, mon cher*, sen uchun har nima qilishga tayyorman, – dedi Maslennikov ikkala qo‘li bilan Nexlyudovning tizzasiga asta tutib. Bu bilan u o‘zini kamtarin qilib ko‘rsatmoqchi edi, – to‘g‘rilash mumkin, lekin men ham bir soatli xalifaman.

– U bilan uchrashib turish uchun qog‘oz yozib berolasanmi, yo‘qmi?

– Xotin kishimi?

– Ha.

– Nega qamalgan?

– Zaharlashda ayblanadi. Lekin nohaq sudlangan.

– Ana senga odil sud, ils ne’n font point d’aures**, – dedi u negadir fransuzchalab. – Bilaman, mening fikrimga sen qo‘shilmaysan, lekin nima qilay, s’est mon opinion bien arrete***, – deb qo‘shib qo‘ydi u, bir yildan beri muxolif, konservativ gazetada o‘qib bilgan fikrlarini bayon etib. – Sening liberalligingni bilaman.

Biron kishini sud qilarkanmiz, avvalo, uning so‘zini tinglash kerak, sud oldida barcha baravar, odamlarni umuman qiynamaslik va urmaslik kerak. Ayniqsa, sudlanmagan kishilarga sira azob bermaslik kerak, deb yurgani uchun uni liberal va qandaydir bir partiyaga taalluqli deb bilganlariga hamma vaqt hayron bo‘lib yuradigan Nexlyudov:

– Liberalmanmi yo boshqamanmi, bilmadim, – dedi jilmayib. – Libaralmanmi yo yo‘qmi, bilmadim-u, lekin shunga aminmanki, hozirgi sudlar qanchalik rasvo bo‘lmasin, burungidan ko‘ra har holda ancha durust.

– Oqlovchilikka kimni olding?

– Fanarinni.

O‘tgan yili sudda shu Fanarin Maslennikovni guvoh sifatida so‘roq qilib o‘taketgan nazokat bilan yarim soat mobaynida rosa kalaka qilgan edi. Maslennikov buni eslab:

* Azizim (*fran.*).

** Shundan boshqaga yaramaydi bular (*fran.*).

*** Shunga qat’iy ishonaman (*fran.*).

– He, Fanarin degin! – dedi yuzini burishtirib. – Menga qolsa, shu bilan aloqa qilmaganing ma’qul, Fanarin – est un home tare!*

– Yana bitta iltimos, – dedi Nexlyudov unga javob qaytarmay. – Ko’pdan buyon bir muallimani bilardim. Juda ayanchli ahvolda edi, hozir turmada ekan, men bilan uchrashuvni istaydi. Yoniga kirib chiqishga ijozatnoma berasanmi?

Maslennikov boshini bir tomonga egdi-da, o’ylanib qoldi.

– Siyosiy mahbusmi?

– Ha, shunaqa deyishgandi.

– Bilib qo’y, siyosiy mahbuslarga faqat qarindosh-urug’lari bilan uchrashuvga ruxsat beriladi, lekin senga umumiy ruxsatnoma beraman. Je sais que vous n’abuseres pas**... O’sha rotegee ning ismi nima?.. Bogoduxovskaya dedingmi? Elle est jolie?***

– Hideuse.****

Maslenikov ma’qullamagandek bosh chayqab qo’ydi-da, stol yoniga kelib, bosma harflar bilan sarlavha tushirilgan qog’ozga tez-tez yoza boshladi: «Ushbuni ko’rsatguvchi knyaz Dmitriy Ivanovich Nexlyudovga qamoqdagi meshchanka Maslova va shuningdek, feldsher Bogoduxovskaya bilan turma idorasida uchrashib turishga ruxsat beraman». U yozib bo’ldi-da, katta qilib imzo chekdi.

– Tartib qanaqaligini ko’rasan. U yerda tartib o’rnatish osonmas. Nega deganingda, tiqilib yotibdi, ayniqsa, jo’natiladiganlar ko’payib ketgan; ammo men juda qattiq nazorat qilaman, o’zim shu ishni yaxshi ko’raman. Ko’rasan, u yerda ular uchun sharoit yaxshi, o’zlariyam juda minnatdor. Faqat ular bilan muomala qila bilish kerak. Mana, yaqinda itoatdan bosh tortish kabi ko’ngilsiz bir voqea ro’y berdi, mening o’rnimda boshqa odam bo’lganda edi, buni isyon deb hisoblar, ko’plarni baxtiqaro qilgan bo’lardi. Biz esa ishni juda silliq o’tkazib yubordik. Bir tomondan g’amxo’r, ikkinchi tomondan qattiqqo’l bo’lish kerak, – dedi u tilla ilmatugma taqilgan oppoq yeng uchidan chiqib turgan, feruzako’z uzuk taqqan semiz qo’lini musht qilib, – ham g’amxo’r, ham qattiqqo’l bo’lish kerak.

* Obro’si ketgan odam (fran.).

** Sen bundan cuiiste’mol qilmasligingni bilaman... (fran.)

*** Chiroylimi (fran.).

**** Bedavo (fran.).

– Bunisini bilmadim, – dedi Nexlyudov, – men u yerda ikki marta bo‘ldim, menga juda yomon ta‘sir qildi.

– Bilasanmi, nima? Grafinya Passek bilan uchrashishing kerak, – deb davom etdi gapga tushib ketgan Maslennikov, – u shu ishga berilgan. Elle fait beaucoup de bien*, u tufayli, soxta kamtarinlikni yig‘ishtirib qo‘yib aytadigan bo‘lsam, men sababli ko‘p narsa o‘zgarib ketdi. Shunday o‘zgarishlar kiritildiki, hozir u yerda ilgari dahshatlardan asar ham qolmagan, mahbuslar rohat qilib yotishibdi. Mana, hali ko‘rarsan. Fanarin bo‘lsa, uni shaxsan tanimayman, bundan tashqari, jamiyatdagi mavqemiz ham tamomila boshqa-boshqa, lekin o‘zi juda bema‘ni odam. Buning ustiga, sudda shunday valdiraydiki, shunday valdiraydiki...

Nexlyudov qog‘ozni olib:

– Ko‘p rahmat, – dedi-da, uning gapini oxirigacha tinglamasdan sobiq o‘rtog‘i bilan xayrlashdi.

– Xotinimning oldiga kirmaysanmi?

– Yo‘q, kechirasan endi, hozir vaqtim yo‘q.

Maslennikov sobiq o‘rtog‘ini zinaning birinchi maydonchasigacha kuzatib qo‘yarkan:

– Meni sira kechirmaydi-da, bu qilg‘ing uchun, – dedi. U ikkinchi darajali deb hisoblagan odamlarini o‘sha yergacha kuzatardi, Nexlyudovni ham shular qatorida ko‘rardi.

– Kirsang-chi, bir kirib chiqsang-chi.

Ammo Nexlyudov so‘zida qattiq turib oldi. Yugurdak bilan darbon yugurib yoniga kelib, biri paltosini kiygizdi, ikkinchisi narigi tomonida mirshab turgan eshikni ochdi. Nexlyudov hozir sira iloji yo‘qligini aytdi.

– Bo‘lmasam, payshanba kuni kel. Xotinimning qabul kuni. Men unga aytib qo‘yaman! – deb qichqirdi Maslennikov zinadan turib.

LI

Nexlyudov o‘sha kuniyoq Maslennikovnikidan chiqib to‘g‘ri qamoqxonaga keldi-da, mutasaddining o‘sha tanish uyi tomon yo‘l oldi. Bu gal ham yana o‘tgan galdagidek buzuq fortepiano tovushi eshitildi. Lekin endi rapsodiyani emas, Klementi etyudlarini xuddi o‘tgan galdagidek qattiq-qattiq va shiddat bilan chalishardi.

* Ko‘p ezgu ishlar qilyapti (*fran.*).

Ko'zini bog'lab olgan oqsoch eshikni ochdi-da, kapitan uydaligini aytib, Nexlyudovni kichkinagina mehmonxonaga boshlab kirdi. Bu xonada divan, stol turar, jundan to'qilgan qog'ozsochiqcha ustiga bir chekkasi kuygan qog'oz qalpoqli kattakon lampa qo'yilgan edi. Bosh mutasaddi chiqdi. Uning qiyofasi horg'in va ma'yus edi.

– Marhamat, nima xizmat bilan? – dedi u mundirining o'rtadagi tugmasini qaday turib.

– Vitse-gubernator yonida bo'lgandim, mana, ijozatnoma, – dedi Nexlyudov qog'ozni uzata turib. – Men Maslovani ko'rishni istayman.

– Markovani? – deb so'radi mutasaddi musiqa tovushidan uning so'zini yaxshi eshitolmay.

– Maslovani.

– Ha, shunday deng!

Mutasaddi o'rnidan turdi-da, Klementi musiqasi eshitalayotgan eshik yoniga bordi.

– Marusya, birpas chalmay tur, – dedi u, musiqa jonidan to'ydirib yuborgani tovushidan bilinib turardi, – hech narsa eshitib bo'lmayapti.

Fortepiano jimib qoldi, noxush qadam tovushlari eshitildi, allakim eshikdan boshini chiqarib qaradi.

Mutasaddi o'rtaga tushgan bu tanaffusdan yengil tortgandek bo'ldi, tamakisi kuchsiz yo'g'on papiros cheka boshladi. Nexlyudovga ham papiros tutgandi, u rad qildi.

– Men Maslovani ko'rmoqchi edim.

– Maslovani bugun ko'rib bo'lmaydi, – dedi mutasaddi.

– Nega?

– O'zingiz aybdorsiz, – dedi mutasaddi kulimsirab. – Knyaz, qo'liga sira pul bermang. Agar bermoqchi bo'lsangiz, menga bering. Hammasi o'ziga tegadi. Kecha pul beribsiz, shekilli, sharob sotib olibdi, shu narsani sira yo'q qilib bo'lmadi-da. Bugun g'irt mast bo'lib, to'polon qildi.

– Nahotki?

– Xuddi shunday, hatto chora ko'rishgayam majbur bo'ldim – boshqa kameraga o'tkazdim. O'zi-ku mo'min-qobil xotin-ku-ya, lekin iltimos qilaman, unga pul bermang. Bular shunday xalqiki...

Nexlyudov kechagi voqeani eslab, uni yana dahshat bosdi.

Nexlyudov biroz jim turdi-da, keyin:

– Bo‘lmasam siyosiy mahbus Bagoduxovskayani ko‘rsam bo‘ladi-mi? – deb so‘radi.

– Mayli, ko‘rsa bo‘ladi, – dedi mutasaddi. – Ha, nima qilib yuribsan? – dedi u xonaga kirib kelgan besh-olti yoshlar chamasidagi qizchaga. Qizcha Nexlyudovdan ko‘zini uzmay dadasi tomon yurib kelardi. – Hozir yiqilib tushasan, – dedi mutasaddi qizchani Nexlyudovga anqayib, gilamchaga qoqilib ketib dadasining yoniga chopqillab kelganiga jilmayib.

– Agar mumkin bo‘lsa, bora qolay.

Mutasaddi hamon Nexlyudovdan ko‘zini uzmay, tikilayotgan qizchani quchoqlab turib:

– Ha, mumkin, – dedi-da, o‘rnidan turdi, keyin qizchasini muloyimlik bilan sekin chetlatdi-da, dahlizga chiqdi.

Mutasaddi ko‘zi bog‘liq qiz uzatib turgan paltosini kiyib eshikdan chiqmasdanoq yana Klementi musiqasi yangray boshladi.

– Konservatoriyada o‘qiyotgandi, hozir u yerda tartibsizlik. Iste‘dodi zo‘r, – dedi mutasaddi zinadan tushayotib. – Konsertlarda chiqib chalmoqchi.

Mutasaddi bilan Nexlyudov qamoqxonaga yaqinlashishdi. Mutasaddi yaqin kelishi bilanoq, eshik o‘z-o‘zidan ochilib ketdi. Nazoratchilar unga g‘oz qotib harbiychasiga salom berishib, ko‘zlari bilan kuzatib qolishardi. Sochining yarmi olingan, yog‘och paqirda allanima ko‘tarib kelayotgan to‘rt kishi yo‘lakda ularga duch kelib qoldi, mutasaddiga ko‘zlari tushishi bilanoq g‘ujanak bo‘lib ketishdi. Ularning bittasi bukchayib oldi, qovog‘i solinib, qora ko‘zlari yaltirab ketdi.

– Iste‘dodni, albatta, takomillashtirish kerak, behudaga nobud qilish yaramaydi, lekin shunisi borki, kichkinagina uyda juda qiyin, – deb gapida davom etdi mutasaddi mahbuslarga parvo qilmay. U horg‘in qadam tashlab, Nexlyudovga hamroh bo‘lib umumiy xonaga kirdi.

– Siz kimni ko‘rmoqchi edingiz? – deb so‘radi nazoratchi.

– Bogoduxovskayani.

– Yuqori qavatda turishadi. Biroz kutib qolishga to‘g‘ri keladi, – dedi u Nexlyudovga.

– Ungacha mahbus Menshovlar bilan, o‘t qo‘yishda ayblangan ona-bola bilan uchrashish mumkin emasmikin?

– Ular yigirma birinchi kamerada turishadi. Mayli, chaqirtirish mumkin.

– Menshovning kamerasiga kirib ko‘rsam bo‘ladimi?

– Umumiy xonada gaplashganingiz yaxshiroq.

– Yo‘q, men juda qiziqaman-da.

– Nimasiga qiziqasiz?

Shu mahal yon tomondagi eshikdan olifta noib zobit chiqdi.

– Knyazni Menshovning kamerasiga olib boring. Yigirma birinchi kamera, – dedi mutasaddi noibga, – keyin idoraga boshlab keling. Ungacha men chaqirtiraman. Ismi nima edi uning?

– Vera Bogoduxovskaya, – dedi Nexlyudov.

Mutasaddining noibi oq-sariqdan kelgan, mo‘ylovi qop-qora qilib bo‘yalgan zobit edi. Undan atir hidi anqib turardi.

– Marhamat, – dedi u Nexlyudovga muloyim jilmayib. – Bizning mahkama bilan qiziqarkansiz-da?

– Ha, bundan tashqari, odamlarning aytishicha, begunohdan begunoh qamalgan o‘sha odam bilan ham qiziqaman.

Noib yelkasini qisdi.

U mehmonni nazokat bilan oldinga, keng, badbo‘y yo‘lakka o‘tkazib yuborib:

– Ha, shunaqasiyam bo‘lib turadi, – dedi beparvogina. – Yolg‘onni qotiradiganlari ham bo‘ladi. Marhamat.

Kameralarning eshigi ochiq edi. Bir necha mahbus yo‘lakda turardi. Noib nazoratchilarga sezilar-sezilmas bosh irg‘ab, devorga qisilib o‘z kameralariga o‘tib ketayotgan yoki qo‘llarini yonlariga qilib, boshliqlarni ko‘zlari bilan askarchasiga kuzatib qolayotgan mahbuslarga ko‘z qirini tashlab, Nexlyudovni bir yo‘lakdan olib o‘tdi, chap tomondagi temir eshigi yopiq, boshqa yo‘lakka olib chiqdi.

Bu yo‘lak birinchisidan ko‘ra qorong‘iroq va badbo‘yroq edi. Yo‘lakning ikki tomonida kichkinagina qulflog‘liq eshiklar bor edi. Yo‘lakda ma‘yus, afti bujmaygan, keksa nazoratchidan bo‘lak hech kim yo‘q edi.

– Menshov qaysi birida? – deb so‘radi noib.

– Chap tomondan sakkizinchisi.

LII

– Qarasam maylimi? – deb so‘radi Nexlyudov.

– Marhamat – dedi noib muloyim jilmayib, keyin nazoratchidan allanimani so‘ray boshladi. Nexlyudov bir tuynukdan mo‘raladi: kamerada novcha, bir tutam soqolli, qop-qora bir yigit ich kiyimda u yoqdan bu yoqqa yurib turardi; eshik tomondan shitir-shitir ovoz eshitib, shu yoqqa bir qarab qo‘ydi, qovog‘ini soldi-da, yana boyagidek u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

Nexlyudov boshqa tuynukka qaradi: uning ko‘zi ichkaridan qarab turgan, qo‘rquv to‘la kattakon ko‘zga tushdi; Nexlyudov darrov o‘zini chetga oldi. Uchinchi tuynukdan qaragandi, karavotda xalatiga burkanib, g‘ujanak bo‘lib uxlab yotgan kichkina odamni ko‘rdi. To‘rtinchi kamerada yuzi yalpoq, rangsiz kishi boshini egib, tirsagini tizzasiga tirab o‘tirardi. Oyoq tovushini eshitib, u boshini ko‘tarib qarab qo‘ydi. Uning yuzi, ayniqsa, katta-katta ko‘zlariga qayg‘u-hasrat cho‘kkan edi. Kamasiga qarayotgan kishi kim ekani uni zarracha qiziqtirmasdi. Kim qarasayam, u hech kimdan hech qanaqa yaxshilik kutmasdi. Nexlyudovni dahshat bosdi; u tuynukdan mo‘ralashni bas qildi-da, Menshov turgan yigirma birinchi kamera yoniga bordi. Nazoratchi qulfni burab, eshikni ochdi. Bo‘yni uzun, muloyim, quralay ko‘z, soqoli bir tutam, mushakdor yigit karavoti yonida turar, taka-puka bo‘lib, shosha-pisha xalatini kiyarkan, kirib kelayotganlarga tikilardi.

Savol nazari bilan goh Nexlyudovga, goh nazoratchi, keyin noibga qarab jovdiragan bu yigitning muloyim, dumaloq ko‘zlari Nexlyudovni, ayniqsa, hayron qoldirdi.

– Bu janob sendan ishing to‘g‘risida surishtirmoqchilar.

– G‘oyat minnatdorman.

Nexlyudov kamera ichkarisiga kirib, panjarasimon iflos deraza yonida to‘xtadi-da:

– Menga sizning ishingiz haqida so‘zlab berishdi, – dedi. – Endi o‘z og‘zingizdan ham bir eshitmoqchi edim.

Menshov ham deraza yoniga keldi-da, avval jur‘atsizlik bilan nazoratchiga qaray-qaray, keyin esa borgan sayin dadil gapira boshladi; mutasaddi kameradan yo‘lakka chiqib ketib, allaqanday buyruqlar bera boshlaganda, u o‘zini ancha tutib oldi. Uning hikoyasi tili jihatidan ham, uslubi jihatidan ham eng oddiy, yaxshi

mujik yigitning hikoyasiga o'xshardi, kishini sharmisor qiladigan kiyimdagi, turmada o'tirgan mahbus og'zidan bu hikoyani eshitish Nexlyudovga erish tuyuldi. Nexlyudov uning hikoyasini tinglarkan, ayni vaqtda ichiga xashak tiqilgan to'shakli pastak karavotni, yo'g'on temir panjarali derazani, zax bosgan, suvalgan iflos devorni va xalat kiygan, rasvoyi jahon bo'lgan bechora mujikning ayanchli yuzi va qaddini ko'zdan kechirar, yuragi borgan sayin qisilardi: shu muloyim kishining hikoyasi rostligiga ishongisi kelmasdi, zeroki, kishiga ham ozor berib, ham shu ozor yetkazganlari uchununga mahbuslik kiyimi kiygizib, mana shu rasvo joyga keltirib tashlaganlar, deb o'ylash juda og'ir edi. Yana shunisi ham borki, mana shu muloyim kishining haqqoniy hikoyasini yolg'on, uydirma deb o'ylash undan battar dahshatli edi. Uning boshidan kechirganlari quyidagilardan iborat edi: uylanganidan keyin ko'p vaqt o'tmay, qovoqxona egasi uning xotinini tortib olib qo'yibdi. Yigitning qonun qidirib bormagan joyi qolmabdi. Qovoqxona egasi hamma yerda boshliqlarni sotib olaveribdi, uni oqlab yuborishaveribdi. Bir kuni xotinini zo'rlab uyiga olib ketgan ekan, lekin xotini ertasigayoq qochib ketibdi. Shundan keyin u qovoqxonachinikiga xotinimni ber, deb boribdi. Qovoqxona egasi xotining yo'q, debdi (u kirib ketayotganda xotinini ko'rgan ekan), haydab solibdi. Lekin u ketmabdi. Qovoqxona egasi xizmatkori bilan birgalashib o'lasini qilib uribdi, ertasiga qovoqxona egasining hovlisiga o't tushibdi. Aybni yigit bilan uning onasiga to'nkashibdi. Aslida, yigit o't qo'ymagan, otaxonnikiga ketgan ekan.

– Rostdan o't qo'ymaganmisan?

– Xayolimgayam kelganmas, begim. U yaramas o'zi o't qo'rgan bo'lsa kerak. Uyini sug'urta qildirgan deyishadi. U bo'lsa oyim ikkovimizga to'nkadi, biz unga po'pisa qilganmishmiz. O'sha gal so'kkanim rost, chidayolmadim-da. Lekin o't qo'rganmasman. O't tushgan paytda u yerda bo'lgan ham emasman. U bo'lsa ataylab oyim ikkovimiz borgan kunni mo'ljallagan. Sug'urta qildirgani uchun o'zi o't qo'rgan-u, bizga tuhmat qilgan.

– Nahotki, shunday qilsa?

– Xudo haqi, shunday qilgan, begim. Bir otalik qiling! – U ergacha engashib ta'zim qilmoqchi edi, Nexlyudov zo'rg'a to'xtatib qoldi. – Yordam bering, begim, begunohdan-begunoh azob chekib

yotibman, – deb davom etdi u. To‘satdan uning yuzi pir-pir uchib, yig‘lab yubordi va xalatining yengini shimarib, iflos ko‘ylagining yengi bilan ko‘z yoshlarini arta boshladi. – Bo‘ldinglarmi? – deb so‘radi mutasaddi.

– Ha. Xafa bo‘lmang, qo‘limizdan kelganча harakat qilamiz, – dedi Nexlyudov, so‘ngra chiqib ketdi.

Menshov bo‘sag‘ada turgan edi, nazoratchi eshikni yopa turib uni eshik bilan itarib yubordi. Nazoratchi eshikni qulflab bo‘lguncha Menshov eshikning tuynugidan mo‘ralab turdi.

LIII

Keng yo‘lakda och-sariq keng, kalta shim va yog‘och kavush kiygan, o‘ziga qiziqib qarayotgan odamlar orasidan o‘tib, orqaga qaytarkan (ovqatlanish payti bo‘lgani uchun kameralarning eshigi ochiq edi), Nexlyudov o‘zini juda g‘alati his etdi. Bir tomondan shu yerda o‘tirgan odamlarga rahmi kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularni shu yerga qamab qo‘yganlardan g‘azablanar, hayron bo‘lar edi, undan tashqari, shu odamlarni xotirjamgina tomosha qilayotganidan uyalardi.

Yo‘laklarning birida allakim yog‘och kavushini to‘qillatib, kamera eshigidan yugurib kirib ketgandi, u yerdan odamlar chiqib, Nexlyudovning yo‘lini to‘sishti, unga ta‘zim qila boshlashdi.

– Buyuring, janobi oliylari, kechirasiz, ismingizni bilmayman, bizning ishimizni bir yoqli qilishsin.

– Men boshliqmasman, hech narsa bilmayman.

– Baribir tegishli odamga, boshliqlarga ayting, – dedi allakim norizo ohangda. – Tariqcha gunohimiz yo‘q, ikki oydan beri begunohdan-begunoh azob chekib yotibmiz.

– Qanaqasiga? Nega? – deb so‘radi Nexlyudov.

– Bekordan-bekorga qamab qo‘yishdi. Ikki oydan beri qamoqdamiz, gunohimiz nimaligini bilmaymiz.

– To‘g‘ri, shunday bo‘lgan, – dedi mutasaddi noibi, – bu odamlar pasportsiz yurgani uchun qamalган. Ularni o‘z gubernalariga yuborish kerak edi-yu, lekin u yerning qamoqxonasiga o‘t tushib ketibdi. Gubernadagilar u yoqqa yubormasligimizni so‘rab xat yuborishdi. Shunday qilib, boshqa gubernaliklarni jo‘natib yubordig-u, bularni shu erda olib qoldik.

– Iye, hali faqat shunga tutib turibsizlarmi? – deb so‘radi Nexlyudov eshik yonida to‘xtab.

Mahbuslar xalati kiygan qirq nafarcha odam Nexlyudov bilan noibni qurshab oldi. Bir necha odam baravariga gapira boshladi. Yordamchi to‘xtatdi.

– Bittang gapir!

Odamlar orasidan ellikka borib qolgan, istarasi issiq, novcha bir dehqon ajralib chiqdi. U hammalari pasportsiz bo‘lganlari sababli turmaga qamalib, surgun qilinganlarini Nexlyudovga gapirib berdi. Aslida pasportlari bor ekan-u, faqat ikki haftacha muhlati o‘tib ketgan ekan. Har yili ham pasportining muhlati o‘tib ketarkan, lekin hech kim hech narsa qilmas ekan, bu yil esa ikki oydan beri bir jinoyatkordek qamab qo‘yishibdi.

– Hammamiz tosh yotqizamiz, hamkasbmiz. Gubernamizdagi qamoqxonaga o‘t tushib ketgan deyishadi. Bizda nima gunoh. Xudo xayringizni bersin, yordam qilvoring.

Nexlyudovning qulog‘iga gap kirardi-yu, lekin istarasi issiq kishining nima deyatotganiga tushunmasdi. Nega deganda, uning fikri-zikri istarasi issiq tosh yotqizuvchi cholning yuzida, soqoli orasidan o‘rmalab ketayotgan to‘q kulrang tUSDagi, ko‘p oyoqli kattakon bitda edi.

– Nahotki, shunday bo‘lsa? Nahotki, faqat shuning uchun qamab qo‘yishgan bo‘lsa? – deb so‘radi Nexlyudov mutasaddidan.

– Ha, boshliqlar xatoga yo‘l qo‘yishgan. Ularni jo‘natib, hammasini uy-uyiga qaytarib yuborish kerak edi, – dedi u.

Mutasaddi gapini tamom qilishi bilan olomon orasidan mahbuslik xalati kiygan pakanagina kishi chiqdi-da, og‘zini g‘alati qilib qiyshaytirib, bu yerda bekordan-bekor azob berayotganlari haqida gapira ketdi.

– Itdan battar qiynashadi... – deb boshladi u.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, tilingni tiy, bilasanmi...

– Nimani bilaman? – alam bilan gapira boshladi pakana kishi. – Bizning gunohimiz nima?

– Ovozingni o‘chir! – deb boshliq qichqirgandi, pakana kishi jim bo‘lib qoldi.

Nexlyudov kameradan chiqarkan, eshiklardan mo'ralayotgan, yo'lakda ko'zlarini tikkan mahbuslarni ko'rib, saf orasidan o'tayotgan jinoyatchidek bo'ldi.

«Bu nima degan gap o'zi?» – derdi o'ziga o'zi.

– Nahotki, begunoh kishilarni qamab qo'rganlari rost bo'lsa? – dedi Nexlyudov yo'lakdan chiqqanlaridan keyin.

– Nimayam qilardik? Lekin yolg'onni qotiradiganlariyam bor. Ularning gapini eshitadigan bo'lsangiz, hammasi begunoh, – dedi noib.

– Axir, bularning tariqcha gunohi yuqligi ochiq-oydin-ku.

– Bunga gumonim bor. Lekin juda rasvo odamlar. Qattiq tutmasa bo'lmaydi. Bularning ichida shunday shaddodlari borki, bo'sh kelsang, boshingga chiqib olishadi. Kecha ikkitasini jazolashga majbur bo'ldik.

– Jazoladik, deysizmi? – so'radi Nexlyudov.

– Yuqoridan buyurilganicha tayoq urildi...

– Axir, tayoq bilan jazolash yo'q qilingan-ku.

– Huquqdan mahrum qilinganlar bundan mustasno. Bularni jazolash mumkin.

Nexlyudov kecha dahlizda kutib turganda ko'rganlarini esladi, jazolash xuddi o'sha paytda, u dahlizda kutib o'tirgan vaqtida bo'lib o'tganini tushundi. Uning ko'nglini qiziqsinish, alam, hayrat tuyg'ulari chulg'ab oldi.

Uning kayfi buzilib, ko'ngli behuzur bo'ldi. Nexlyudov hech qachon o'zini shunday his etmagani edi.

Nexlyudov mutasaddi noibning gapiga quloq solmay, hech qayoqqa qaramay shoshib-pishib yo'lakdan chiqdi-da, idora tomon ketdi. Mutasaddi yo'lakda turgan edi. U boshqa ish bilan ovora bo'lib, Bogoduxovskayani chaqirishni unutgan edi. Nexlyudov idoraga kirib kelganidagina u Bogoduxovskayani chaqirtirmoqchi bo'lganini esladi.

– Hozir chaqirtiraman, birpas o'tira turing, – dedi mutasaddi.

LIV

Idora ikki xonadan iborat edi. Suvoqlari ko'chib tushgan, pechka turtib chiqqan, ikkita kir derazali birinchi xonaning bir burchagida mahbuslarning bo'yini o'lchaydigan qora o'lchagich turardi. Ikkinchi

burchagida esa barcha uqubatxonalarning doimiy bezagi – Isoning kattakon rasmi osilgan edi. Bu rasmning kelib-kelib shu g'urbatxonaga qo'yilgani Iso ta'limotini mazax qilgandek tuyulardi. Mana shu birinchi xonada bir necha nazoratchi turardi. Ikkinchi xonada, devor tagida yigirma chog'li erkak-xotin to'da-to'da yoki ikkita-ikkita bo'lishib, sekin-sekin gaplashib o'tirishardi. Deraza yonida yozuv stoli turardi. Mutasaddi yozuv stoli yoniga o'tirdi-da, Nexlyudovga shu yerda turgan stulga o'tirishni taklif etdi. Nexlyudov o'tirib xonadagi odamlarni ko'zdan kechira boshladi.

O'rta yashar, qoraqosh bir ayolga allanimani qo'llarini silkita-silkita qizg'in uqdirayotgan, kaltagina nimcha kiygan istarasi issiq yigit Nexlyudovning diqqatini o'ziga tortdi. Uning yonida ko'k ko'zoynak taqqan keksa kishi mahbus kiyimi kiygan juvonning qo'lidan ushlab, qimir etmay gapini tinglab o'tirardi. Real maktabi o'quvchisi qo'rqa-pisa ko'zlarini choldan uzmasdi. Ulardan nariroqda, burchakda bir-biriga oshiq-ma'shuq bo'lgan yoshlar o'tirishardi: biri oq-sariqdan kelgan, sochi kalta qilib qirqilgan, xushro'ygina qiz. Chiroyli ko'ylak kiygan bu qizning yuzidan uning serg'ayrat ekani bilinib turardi. Yuzi xushbichim, sochlari qo'ng'iroq, chiroyli yigit egniga guttapercha* kamzul kiygan edi. Oshiq-ma'shuqlar burchakda shivirlashib, bir-birlariga mahliyo bo'lib o'tirishardi. Sochiga oq tushgan, qora ko'ylak kiygan bir xotin stolga hammadan yaqinroq o'tirgan edi. U bolasini ko'rgani kelgan ona bo'lsa kerak. Ayol xuddi shunaqa kiyim kiygan silnomo yigitdan ko'zini uzmas, allanimalar deyishga shaylanardi-yu, ko'z yoshlari xalaqit bergani uchun hech nima deyolmasdi: gap boshlardiyu, yana to'xtab qolardi. Yigit qog'oz ushlab turar, nima qilishini bilmaganidan bo'lsa kerak, qovog'ini solib, qog'ozini g'ijimlardi. Ularning yonida kulrang ko'klak bilan pelerina** kiygan ikki beti qip-qizil, qo'yko'z, chiroyli, to'ladan kelgan qiz o'tirardi. Qiz yig'layotgan onasining yelkasini muloyimgina silardi. U qizning oppoq, katta qo'llari ham, qirqilgan qo'ng'iroq sochlari ham, burni ham, labi ham – hammasi chiroyli edi; lekin qizning muloyim qo'y ko'zlari husniga husn qo'shar edi.

* *Guttapercha* – kauchukka o'xshagan kulrang elastik modda.

** *Pelerina* – yelkaga tashlab yuradigan engsiz kalta kiyim.

Nexlyudov kirib kelganda qiz chiroyli ko‘zlarini onasidan olib, unga qaradi, ularning ko‘zlari uchrashdi. Lekin u shu zahoti ko‘zini undan uzdi, onasiga allanimani gapira boshladi. Oshiq-ma’shuqlardan nariroqda qosh-qovog‘i osilgan, qop-qora paxmoq kishi o‘tirar, bichilgan odamga o‘xshash ko‘sa kishiga jahl bilan allanima derdi. Nexlyudov mutasaddi bilan yonma-yon o‘tirdi-da, qiziqsinib atrofiga qaray boshladi. Sochi taqir qilib olingan o‘g‘il bola uning yoniga kelib, ingichka tovush bilan:

– Siz kimni kutyapsiz? – deb so‘radi.

Bu savolni eshitib Nexlyudov hayron qoldi. Lekin bolaning jiddiy yuziga, yonib turgan ko‘zlariga ko‘zi tushib, unga sipolik bilan javob berdi, bir tanish xotinni kutayotganini aytdi.

– Kimingiz u, singlingizmi? – deb so‘radi bola.

– Yo‘q, singlim emas, – deb javob qildi Nexlyudov hayron bo‘lib. – Sen bu yerda kim bilan turasan? – deb so‘radi u boladan.

– Oyim bilan. U siyosiy mahbus, – deb g‘urur bilan javob berdi bola.

Mutasaddi Nexlyudovning bola bilan gaplashayotganini qonunga xilof deb topdi shekilli:

– Marya Pavlovna, Kolyani oling, – dedi.

Marya Pavlovna, boya Nexlyudovning diqqatini o‘ziga tortgan chiroyli, qo‘yko‘z qiz gavdasini rostlab o‘rnidan turdi-da, erkakchasiga katta-katta qadam tashlab, Nexlyudov bilan bolaning yoniga keldi.

U Nexlyudovga muloyimgina boqib:

– Kimlingizni so‘rayaptimi? – deb so‘radi jilmayib. U shunday muloyim, shunday ochiq yuz bilan boqardiki, uning hamma bilan shunday oddiy, shunday dilkash, do‘stona muomalada bo‘lib kelayotganiga va bundan keyin ham shunday bo‘lishiga shubha qilinishi mumkin emasga o‘xshardi. – Hamma narsani bilgisi keladi, – dedi u va bolaga shunday muloyim, shunday chiroyli tabassum qildiki, bola ham, Nexlyudov ham beixtiyor jilmaydi.

– Ha, kimni ko‘rgani kelganimni so‘rayapti.

– Marya Pavlovna, chet kishi bilan gaplashish mumkin emas. Bilasiz-ku o‘zingiz, – dedi mutasaddi.

– Xo‘p, xo‘p, – dedi Marya Pavlovna. U katta oppoq qo‘li bilan undan ko‘zini uzmayotgan Kolyani yetaklab sil yigitning onasi yoniga bordi.

– Bu kimning o‘g‘li? – deb so‘radi Nexlyudov mutasaddidan.

– Bir siyosiy mahbus ayolning o‘g‘li, turmada tug‘ilgan, – dedi u mamnunlik bilan, go‘yo o‘z mahkamasining shunaqa antiqa joyligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgandek.

– Rostdanmi?

– Ha, endi onasi bilan Sibirga ketyapti.

– Bu qiz kim?

– Javob berolmayman, – dedi mutasaddi yelkasini qisib. – Mana, Bogoduxovskaya ham kelib qoldi.

LV

Orqa tomondagi eshikdan sochi kalta, oriq, muloyim ko‘zlari katta-katta, oq-sariq Vera Yefremovna likillab chiqib keldi.

– Kelganingizga rahmat, – dedi u Nexlyudovning qo‘lini qisa turib. – Meni eslaysizmi? Keling, o‘tiramiz.

– Sizni shu ahvolda ko‘rarman deb o‘ylamagandim.

Vera Yefremovna katta-katta yumaloq ko‘zlari bilan har vaqtdagidek, qo‘rquv aralash Nexlyudovga qaradi va koftasining g‘ijimlangan iflos yoqasidan chiqib turgan sariq, ingichka, paydor bo‘ynini burib:

– E, mening ahvolim juda soz! Shunday yaxshiki, shunday yaxshiki, bundan ortiq bo‘lishini istamayman, – dedi.

Nexlyudov undan qanday qilib bu ahvolga tushib qolganini so‘ray boshladi. Vera Yefremovna uning savoliga javob berarkan, o‘z ishi haqida jonlanib gapira boshladi. U targ‘ibot qilish, tartibni buzish, guruhlar, seksiyalar va shu seksiyalar haqidagi chet tildagi so‘zlarni qo‘shib gapirar edi. Vera Yefremovna bu so‘zlarni hamma biladi, deb o‘ylardi. Ammo Nexlyudov bularni eshitmagandi.

Vera Yefremovna *narodovolstvo** sirlari Nexlyudovni juda qiziqtiradi, yoqadi, deb ishongan bo‘lsa kerak, jonlanib hikoya qilardi. Nexlyudov esa uning ingichka bo‘yniga, siyrak, chigal sochlariga qarar va Vera Yefremovnaning nega shunday ishlar bilan shug‘ullanganiga, nega hikoya qilib berayotganiga hayron bo‘lardi.

* *Narodovolstvo* – «Narodnaya volya» degan yashirin tashkilot.

Nexlyudov unga achinardi. Lekin bu achinish butunlay boshqacha edi. Nexlyudov unga shu sassiqlik turmada begunohdan-begunoh qamalib yotgan mujik Menshovga achingandek achinmasdi. Vera Yefremovna boshini g'ovlatgan chalkash fikrlar orqasida shunday achinarli holga tushgan edi. Vera Yefremovna o'zini ishining g'alaba qozonishi uchun jonini fido qilishga tayyor qahramon deb o'ylasa kerak. Lekin shunisi aniq ediki, shu ish nimadan iboratligini, uning g'alabasi nimaga olib kelishini o'zi ham tushunib yetolmasdi.

Vera Yefremovnaning Nexlyudov bilan gaplashmoqchi bo'lgan ishi quyidagidan iborat edi: uning Shustova degan bir dugonasi, Vera Yefremovnaning so'ziga qaraganda, ularning guruhiga kirmasligidan qat'i nazar, bundan besh oy muqaddam u bilan birga Petropavlovsk qal'asiga qamalibdi. Shustovaning uyidan ehtiyot qilib saqlash uchun berilgan kitob va qog'ozlar chiqqan ekan.

Vera Yefremovna Shustovaning qamalishida o'zini qisman aybdor deb sanab, tanish-bilishlari ko'p bo'lgan Nexlyudovdan Shustovani ozod etish uchun qo'lidan kelganicha harakat qilib ko'rishni iltimos qilardi. Bogoduxovskyaning ikkinchi iltimosi Petropavlovsk qal'asida qamalib yotgan Gurkevichga qarindosh-urug'lari bilan uchrashib turishga va ilmiy ishlari uchun zarur bo'lgan ilmiy kitoblarni olib turishga ijozat olib berishdan iborat edi.

Nexlyudov Peterburgga bordi deguncha qo'lidan kelganicha harakat qilishga va'da berdi.

Vera Yefremovna boshidan kechirganlarini ham hikoya qilib berdi. Doyalik kursini tugatgach, narodovoletslar bilan topishibdi-da, ular bilan birga ish olib boribdi. Boshda ishlari yaxshi ekan: proklamatsiyalar yozishar, fabrikalarda tashviqot yurgizishar ekan. Lekin bir kuni bir mashhur odam qamalib qolibdi, qog'ozlari qo'lga tushibdi. Shunday qilib, asta-sekin boshqalarni ham tutib qamashaveribdi.

– Meniyam qamashdi, mana, endi surgun qilishyapti... – deb tugatdi u boshidan kechirganlarini. – Hechqisi yo'q. O'zimni yaxshi his qilyapman, kayfiyatim joyida, – dedi u, lekin g'amgin jilmaydi.

Nexlyudov qo'yko'z qizning kimligini so'radi. Vera Yefremovna u generalning qiziligini, ko'pdan buyon inqilobiy partiyaga mansubligini, jandarmga o'qni men otdim, deb bo'yniga olgani

uchun qamalganini aytib berdi. U bosmaxona uskunasi oʻrnatilgan maxfiy uyda yashagan. Kechasi tintuvga kelishgan paytda uydagilar oʻzlarini himoya qilmoqchi boʻlgan, chiroqni oʻchirib dalillarni yoʻqota boshlaganlar. Politsiya bostirib kirgan. Shunda fitnachilarning biri oʻq uzib jandarmni ogʻir yarador qilgan. Kim otdi, deb soʻroq qilishganida, umri bino boʻlib toʻpponcha ushlamagan, chumoliga ozor bermagan qiz, men otdim, deb boʻyniga olgan. Shu-shu aybdor boʻlib qolgan. Mana endi katorgaga joʻnab ketyapti.

– Oʻz manfaatidan voz kechadigan, mehribon odam... – dedi Vera Yefremovna uni maqtab.

Vera Yefremovna gaplashmoqchi boʻlgan uchinchi masala Maslovaga taalluqli edi. U qamoqxonadagilar singari Maslovaning boshidan kechirgan voqealardan, Nexlyudovning unga munosabatidan xabardor boʻlgan edi. Endi u Maslovani siyosiy mahbuslar orasiga yoki hech boʻlmasa kasalxonaga kasal boquvchilikka oʻtkazishga harakat qilishni maslahat berdi. Hozir kasalxonada bemorlarning koʻpligini, ularga qarab turadigan odam kerakligini aytdi. Nexlyudov bergan maslahati uchun unga minnatdorlik bildirdi va shu maslahatidan foydalanishga harakat qilishini aytdi.

LVI

Mutasaddi oʻrnidan turdi-da, uchrashuv soati tugaganini, tarqalish kerakligini eʼlon etib ularning gapini boʻldi. Nexlyudov oʻrnidan turdi, Vera Yefremovna bilan xayrlashib, eshik yoniga borib turdi-da, koʻz oldida boʻlib oʻtayotgan manzarani kuzata boshladi.

– Janoblar, vaqt tugadi, boʻldi, – derdi mutasaddi goh oʻrnidan turib, goh oʻtirib.

Mutasaddining talabi xonadagilarni, mahbuslar va koʻrgani kelganlarni jonlantirdi, lekin hech kim tarqalishni xayoligayam keltirmasdi. Baʼzilar oʻrinlaridan turib, tikka turganlaricha gaplashishardi. Baʼzilar esa hamon gaplashib oʻtirardilar. Baʼzilar xayrlashib yigʻlay boshlashdi. Ayniqsa, sil yigit bilan onasining ahvoli taʼsirli edi. Yigit onasiga qoʻshilib yigʻlab yuborishdan oʻzini saqlab qolish uchun zoʻr berib qoʻlidagi qogʻozni ezgʻilar, borgan sari tajang boʻlardi. Onasi esa xayrlashish kerakligini eshitib, oʻgʻlining yelkasiga osilib oldi-da, burnini torta-torta

yig'lay boshladi. Qo'yo'z qiz (Nexlyudov beixtiyor uni kuzatib turardi) ho'ngrab yig'layotgan onasini allanimalar deb yupatardi. Ko'k ko'zoynak taqqan chol qizining qo'lini ushlab tik turar, uning gapini ma'qullab boshini silkitardi. Oshiq-ma'shuqlar o'rinlaridan turishdi, qo'l ushlab, bir-birlarining ko'zlariga tikilib qolishdi. Nexlyudovning yonida, xuddi u singari, xayrlashayotganlarni kuzatib turgan, kalta nimcha kiygan yigit:

– Faqat shulargina xursand, – dedi oshiq-ma'shuqlarni ko'rsatib.

Oshiq-ma'shuqlar – guttapercha kamzul kiygan yigit bilan oq-sariqdan kelgan, istarasi issiq qiz Nexlyudov bilan yigitning o'zlariga qarab turganlarini sezib, ushlab turgan qo'llarini cho'zib, o'zlarini orqaga tashladilar va kula-kula chir-chir aylana boshladilar.

– Bugun kechqurun qamoqxonada to'ylari bo'ladi, keyin qiz yigit bilan Sibirga jo'naydi, – dedi yigit.

– Yigit kim?

– Katorgachi. Shularning sho'xlik qilganiyam yaxshi, qon bo'lib ketadi kishi, – dedi nimcha kiygan yigit sil yigitning onasi ho'ngrashiga quloq solarkan.

– Janoblar! Bo'ldi, bo'ldi endi! Jiddiy chora ko'rishga majbur qilmang meni, – derdi mutasaddi bir gapni hadeb takrorlab. – Bo'ldi endi, bo'ldi, deyaqman! – derdi u ohista va bo'shgina. – Bu nima qilganingiz? Vaqt allaqachon o'tib ketdi. Bu ishingiz yaramaydi. So'nggi marta aytaman, – deb takrorlardi u ma'yuslik bilan papirosini goh yoqib, goh o'chirib.

Hech qanday javobgarlikni his etmay birovga yomonlik qilishga imkon beradigan dalillar qanchalik zo'r, qanchalik odat tusiga kirib qolgan bo'lmasin, mutasaddi o'zini bu xonada yuzaga chiqayotgan g'am-alamning sababchilaridan biri deb hisoblamasdan iloji yo'q edi, o'zini yomon his etishining sababi ham shu bo'lsa, ajab emas.

Nihoyat, mahbuslar ham, ko'rgani kelganlar ham tarqalishdi, birlari ichkari eshikka kirib, boshqalari tashqi eshikdan chiqib ketishdi. Erkaklar – guttapercha kamzul kiygan yigit, sil yigit va qora, paxmoq kishi o'tib ketishdi; Marya Pavlovna qamoqxonada tug'ilgan bolani yetaklab olib ketdi.

Ko'rgani kelganlar ham chiqib keta boshlashdi. Ko'k ko'zoynak taqqan kishi gurs-gurs qadam tashlab chiqib ketdi. Nexlyudov uning ketidan ergashdi.

Gapdon yigit Nexlyudov bilan birga zinadan tusharkan:

– Shuyam tartib bo'ldi-yu, – dedi uzilib qolgan suhbatni davom etdirayotgandek. – Yaxshiyamki, kapitan ko'ngilchan odam, qoidalarga rioya qilmaydi. Har holda gaplashib, xumordan chiqishadi.

– Boshqa turmalarda bunaqa uchrashuv yo'qmi hali?

– E-e, qayoqda? Ko'rgazsayam, o'rtada panjara ajratib turadi.

Nexlyudov Medinsev bilan (yigit o'zini shunday deb tanishtirdi) gaplashib, dahlizga tushganida mutasaddi horg'in qiyofada ularning yoniga keldi.

U Nexlyudovning ko'nglini olish uchun:

– Maslovani ko'rmoqchi bo'lsangiz, marhamat, ertaga keling, – dedi.

– Juda soz, – dedi Nexlyudov, so'ngra shoshib-pishib chiqib ketdi.

Menshovning begunohdan-begunoh azob chekishi, yolg'iz u jismoniy azob emas, bekordan-bekor o'zini qiynoqqa solayotgan odamlarning toshko'ngilligini ko'rib ezgulik va Xudodan noumid bo'lishi juda dahshatli edi; qog'ozda boshqacha yozilib ketgani tufayli shuncha begunoh odamni bu qadar sharmandalikka, azob-uqubatga mahkum etish – mudhish hodisa edi: o'z og'aynilarini azoblash bilan shug'ullanib, yana yaxshi va muhim ishni bajaryapmiz, deb ishongan, miyasi aynigan nazoratchilar dahshatli edi. Nexlyudovga hammadan ham dahshatli ko'ringan narsa xuddi o'ziga va bolalariga o'xshash odamlarni bir-biridan – onani boladan, otani qizidan judo qilishga majbur bo'lgan kekxa, bedarmon va ko'ngilchan mutasaddi edi.

Nexlyudov hamma vaqt turmaga kelganida his etganidek ko'ngli buzilib o'zini behuzur his etdi.

«Nega shunday?» deb so'rar va bunga javob topolmasdi.

LVII

Nexlyudov ertasiga advokatnikiga bordi, Menshovlarning ishi haqida so'zlab, ularni himoya qilishni so'radi. Advokat

gapga quloq solib turdi-da, ishni ko'rib chiqaman, agar voqea siz aytganday bo'lsa, ehtimol shundaydir, ularni hech qanday haq olmasdan himoya qilaman, deb aytdi. Nexlyudov yana yanglish qamab qo'yilgan bir yuz o'ttiz kishi haqida gapirib berdi-da, bu ish kimning qo'lidaligini, kim aybdorligini so'radi. Advokat to'g'ri javob qaytarish uchun bo'lsa kerak, biroz o'ylab qoldi.

– Kim aybdor, deysizmi? Hech kim, – dedi u dadil. – Prokurorga aytsangiz, u – gubernator aybdor, deydi, gubernatorga aytsangiz – prokuror aybdor, deb aytadi. Aybni hech kim bo'yniga olmaydi.

Hozir Maslennikovnikiga ketyapman, hammasini unga aytaman.

– He-e, foydasi yo'q, – deb e'tiroz bildirdi advokat. – U shunday, mabodo qarindoshingiz yo do'stingizmasmi? U shunday qovoqboshki, aybga buyurmaysiz, buning ustiga, o'taketgan tullak.

Nexlyudov Maslennikovning advokat haqidagi gaplarini esladi, uning gapiga javob qaytarmay xayrlashdi-da, Maslennikovnikiga jo'nab ketdi.

Nexlyudov Maslennikovdan ikki narsani: Maslovani kasalxonaga o'tkazish va begunohdan-begunoh qamalgan bir yuz o'ttizta pasportsiz kishilar haqida iltimos qilishi kerak edi. O'zi hurmat qilmaydigan odamdan bir narsani iltimos qilish unga malol kelsa-da, maqsadga erishish uchun birdan-bir chora shu bo'lgani sababli unga murojaat qilishga majbur edi.

Maslennikovning uyiga yaqinlashib qolganda Nexlyudov pillapoya yonida bir necha fayton, yengil arava va kretalar turganini ko'rdi-da, bugun Maslennikov xotining qabul kuni ekanini esladi. U Nexlyudovning xuddi shu kuni kelishini iltimos qilgan edi. Nexlyudov ularning uyiga yaqinlashayotganida bir kareta eshik yonida turar, shlyapasiga kokarda taqqan va yelkasiga yengsiz kalta kiyim tashlagan yugurdak bir ayolning karetaga chiqishiga ko'maklashardi. Ayol shleyfini ko'targan edi, tufli kiygan oyog'i, ingichka qora to'pig'i ko'rinib ketdi. Nexlyudov shu yerda turgan faytonlar orasida Korchaginlarning yopiq izvoshini tanidi. Qip-qizil mo'ysafid ko'chir yaxshi tanish bekni uchratgan kishidek ochiq chehra va ehtirom bilan shlyapasini oldi. Nexlyudov darbondan Mixail Ivanovich (Maslennikov)ning qayerdaligini so'rashga ulgurmay, gilam to'shalgan zinada o'zi ko'rinib qoldi. U eng e'tiborli

mehmonni, faqat zina maydonchasigagina emas, pastgacha olib tushib qo'yiladigan mehmonni kuzatardi. Bu mo'tabar harbiy mehmon fransuzchalab shaharda yetimxonalar foydasiga lotereya o'tkazish haqida gapirar, bu – xotinlar uchun juda bop mashg'ulot ekanini aytardi: «Ham xotinlar zerikmaydi, ham pul yig'iladi».

– Qu'elles s'amusement et que le bon Dieu les benisse...* E, Nexlyudov, salom! Ko'pdan beri ko'rinmaysiz? – deb salomlashdi u Nexlyudov bilan. – Allez presenter vos devoirs a'madame.** Korchaginlar ham shu erda. Et Nadine Bukshevden, toutes les jolies femmes de la ville***, – dedi u o'zining zarhal uqalar tutgan olifta yugurdagi uzatib turgan shinelga yelkasini tutib. – Au revoir, mon cher!**** – U Maslennikovning qo'lini qisdi: – Yur, yuqoriga chiqamiz, kelganingga juda xursandman! – deb gap boshladi Maslennikov hovliqib. U Nexlyudovning qo'ltig'iga kirdi-da, semizligiga qaramay, Nexlyudovni yengillik bilan yuqoriga boshlab chiqib ketdi.

Maslennikov xursand, hayajonlangan edi. Bunga boyagi mo'tabar kishining unga qilgan iltifoti sabab edi. Podshoga yaqin turgan gvardiya polkida xizmat qilgan Maslennikov podsho xonadoniga yaqin kishilar bilan bordi-keldi qilib turishga o'rganib qolgan bo'lishi kerak edi-yu, ammo, razillik takrorlangan sayin kuchaygani kabi, mana shunday iltifot Maslennikovni hamma vaqt shunday hayajonlantirardiki, go'yo egasi silab, qulog'ining orqasini qashlab qo'ygan itdek sevinib ketardi. It dumini likillatib, g'ujanak bo'lib oladi; jilpanglaydi, qulog'ini qisadi, o'zini yo'qotib gir-gir aylanib yuguradi. Maslennikov ham xuddi shunday qilishga tayyor edi. U Nexlyudovning jiddiyligini sezmas, gapiga quloq solmas, zo'r berib mehmonxonaga sudrardi. Nexlyudov rad etishning ilojini topolmay u bilan birga borardi.

– Ishni qo'ya tur, keyin nima desang – hammasini qilaman, – derdi Maslennikov Nexlyudov bilan zaldan o'tib borarkan. – General xonimga knyaz Nexlyudov kelibdi, deb ayting, – dedi u yo'l-yo'lakay yugurdakka. Yugurdak bedana yurish qilib, ulardan o'tib ketdi. –

* Xudo quvvat bersin, mayli, bir ko'ngil yozishsin... (fran.)

** Kirib uy bekasi bilan ko'rishib chiqing (fran.).

*** Nadin Bukshevden ham, shaharning barcha go'zallari ham (fran.).

**** Xayr, azizim! (fran.)

Vous n'avez qu'a' ordonner.* Lekin xotinimga albatta uchrashib ket. O'tgan gal olib kirmaganim uchun ozmuncha gap eshiddimmi.

Ular kirmasdan burun yugurdak xabar berib ulgurgan edi. Anna Ignatyevna, o'zining aytishicha, vitse-gubernatorning xotini, general xonim divanda o'zini qurshab olgan shlyapalar, kallalar orasidan kulib turib, boshini egib qarshi oldi. Mehmonxonaning narigi boshidagi choy ichiladigan stol yonida begoyimlar o'tirar, harbiy va fuqaro kiyimidagi erkaklar turishardi. U yerdan erkak va ayollarning tinimsiz shaqillab gaplashgan ovozlari eshitilardi.

– Enfin! ** Nega bizdan qochib yurasiz? Sizni xafa qilib qo'ydikmi?

Anna Ignatyevna xonaga kirib kelgan Nexlyudovni, go'yo ikkovining o'rtasida yaqinlik bordek, shu so'zlar bilan kutib oldi. Aslida esa ular o'rtasida hech qanday yaqinlik yo'q edi.

– Sizlar tanishmisizlar? Tanishmisizlar? Madam Belyavskaya, Mixail Ivanovich Chernov. Yaqinroq o'tiringlar.

– Missi, venez done a'notre table. Ou vous apportera votre the...*** – Ismini unutib qo'ydi, shekilli, Missi bilan gaplashayotgan zobitga qarab: – Siz ham... – dedi u, – marhamat, choy ichasizmi, knyaz?

– Sira, sira qo'shilolmayman: qiz uni hech yaxshi ko'rmagan, – derdi ayol tovushi.

– Somsani yaxshi ko'rgan.

– Doim bo'lmag'ur hazillarni qilasiz, – dedi kulib shohi kiyimi, oltin bezaklari va javohirlari yarqiragan baland shlyapali xotin.

– Bu vaflyalar – C'est excellent**** va yengilgina. Bu yoqqa yana uzatib yuboring.

– Nima, yaqinda jo'nab ketasizlarmi?

– Bugun oxirgi kunimiz. Shuning uchun ham keldik-da.

– Bahor shu qadar chiroyli, qishloq hozir juda yaxshiki!

Boshiga shlyapa, egniga qoramtir yo'l-yo'l ko'ylak kiygan Missi juda chiroyli edi. Ko'ylagi belini qisib turar, xuddi shu ko'ylakda tug'ilgandek o'ziga yarashardi. Nexlyudovni ko'rib u qizarib ketdi.

* Faqat aysang bo'ldi (fran.).

** Nihoyat (fran.).

*** Bizning stolimizga keling. Choyni shu erda icha qolasiz. .. (fran.)

**** Juda soz (fran.).

– Men bo‘lsam sizni ketib qolgansiz, deb yuribman, – dedi u Nexlyudovga.

– Ha, ketib qoladigan edim, – dedi Nexlyudov. – Ba‘zi ishlar bitmay turibdi. Bu yergayam shu ish bilan keldim.

– Oyimning oldiga kirib turing. Sizni ko‘rishga muntazirlar, – dedi Missi va yolg‘on gapirayotganini, gapining yolg‘onligini Nexlyudov fahmlaganini his qilib battar qizarib ketdi.

Nexlyudov Missining qizarib ketganini ko‘rmaslikka solib:

– Vaqtim yo‘q, – deb javob qaytardi g‘amgin.

Missi achchiqlanib qovog‘ini solib, yelkasini qisib qo‘ydi-da, olifta zobit bilan gaplasha boshladi. Zobit uning qo‘lidan bo‘sh do‘lchani oldi, qilichi bilan oromkursilarga turtilla-turtilla do‘lchani boshqa stolga olib borib qo‘ydi.

– Siz ham yetimxona uchun bir nima iona qilishingiz kerak.

– Yo‘q demayapman-ku, faqat saxiyligimni lotereyagacha ko‘rsatmay turay demoqchiman-da. O‘shanda himmatimni birato‘la ko‘rsataman.

– Qani, ko‘raylik-chi! – dedi zo‘rama-zo‘raki kulayotgan ovoz.

Qabul marosimi juda yaxshi o‘tdi. Shuning uchun ham Anna Ignatyevna o‘zida yo‘q shod edi.

– Mika menga sizning turmalar bilan qiziqib yurganingizni aytdi. Tushunaman, yaxshi tushunaman, – dedi u Nexlyudovga. – Mikaning (Mika degani uning xo‘ppasemiz eri – Maslennikov edi) boshqa nuqsonlari bo‘lishi mumkin, lekin u juda ko‘ngilchan. Mana shu boyaqish mahbuslar xuddi uning farzandidek. Mika ularni farzandidek ko‘radi... Il est d’une bonte...*

Anna Ignatyevna buyruq berib, odamlarni kaltaklayotgan erining bonte-ligini ifoda eta oladigan so‘z topolmay jim bo‘lib qoldi va shu zahoti eshikdan kirib kelayotgan, binafsharang bant taqqan, yuzi burishgan kampir bilan jilmayib gaplasha boshladi.

Nexlyudov tartib va qoidaga muvofiq, biroz gaplashdi, odob yuzasidan mazmunsiz safсата sotib, o‘rnidan turdi, Maslennikovning yoniga bordi.

– Endi nima deysan, gaplashishga vaqting bormi?

– E-ha! Ha, nima gap? Qani bu yoqqa yur-chi.

Ular kichkinagina yaponcha kabinetga kirib, deraza yoniga o‘tir-dilar.

* Biram ko‘ngilchanki... (fran.)

LVIII

– Mana, je suis a vous.* Chekasanmi? Shoshma, tag'in bu yerni ivirsitib qo'ymaylik, – dedi-da, u kuldon keltirdi. – Xo'sh?

– Senda ikkita ishim bor.

– Shunaqa degin.

Maslennikovning qovoq-tumshug'i osilib ketdi. Qulog'ini egasi qashib qo'ygan itning sevinishiga o'xshagan hayajonidan asar ham qolmadi. Mehmonxonadan ovozlar eshitilib turardi. Bir ayol: «Jamais, jamais je ne croirais»**, derdi. Mehmonxonaning narigi boshidan eshitilayotgan erkak tovushi: «La comtesse Voronzoff bilan Victor Apraksine»***, degan so'zlarni takrorlab, allanimani hikoya qilardi. Uchinchi tomondan shov-shuv va kulgi eshitilardi. Maslennikov mehmonxonadagi gaplarga quloq solar, shu bilan baravar, Nexlyudovning gapini ham tinglardi.

– Men yana o'sha xotin masalasida keldim, – dedi Nexlyudov.

– Ha, o'sha begunoh kesilgan xotin. Bilaman, bilaman.

– O'shani kasalxonaga xizmatkor qilib o'tkazishni so'ragani keldim. Shunday qilish mumkin deyishgandi menga.

Maslennikov labini qimtib o'ylanib qoldi.

– Iloji bormikan, – dedi u. – Hay, maslahatlashib, ertaga senga xabar beraman.

– Menga u yerda kasallar ko'p, yordamchi ayollar kerak, deyishgandi.

– Ha, ha, shunday, surishtirib, senga xabar beraman.

– Shunday bo'lsin, – dedi Nexlyudov.

Mehmonxonadan hammaning baravar, hatto, chin ko'ngildan xoxolab kulgani eshitildi.

– Bu Viktorning ishi, – dedi Maslennikov jilmayib, – vaqti xush bo'lganda, askiyani qiyib yuboradi.

– Undan tashqari, – dedi Nexlyudov, – hozir bir yuz o'ttiz kishi pasportining muhlati o'tib ketgani uchungina qamalib yotibdi. Bir oydan beri shu yerda ekanlar.

Nexlyudov ularning nima uchun qamab qo'yilganini so'zlab berdi.

– Sen buni qayoqdan bilding? – deb so'radi Maslennikov. Uning yuzida to'satdan tashvish va norozilik alomatlari paydo bo'ldi.

* Xizmatiga tayyorman (*fran.*).

** Sira, sira ishonmayman (*fran.*).

*** Grafinya Vorontsova bilan Viktor Apraksin. (*fran.*)

– Bir aybdorning oldiga borgandim. Yo‘lakda meni o‘rab olishdi-da, iltimos qilishdi...

– Qanaqa aybdorning oldiga boruvding?

– Begunohdan-begunoh ayblangan bir dehqon yigit, unga advokat yolladim. Gap uning ustida emas. Nahotki, mana shu gunohsiz odamlar pasportining muddati o‘tib ketgani uchungina qamab qo‘yilgan bo‘lsa...

– Bu prokurorning ishi, – Maslennikov zardasi qaynab uning gapini bo‘ldi. – Yana sen, adolatli, xolis sud, deysan. Prokuror qamoqxonaga borib turishi, mahbuslar qonunga muvofiq saqlanyap-timi, yo‘qmi, tekshirib turishi kerak. Bu – prokurorning vazifasi. Lekin ular tariqcha ish qilishmaydi: vint* o‘ynashdan boshqasini bilishmaydi.

Nexlyudov advokatning gubernator aybni prokurorga to‘nkaydi, degan gapini eslab:

– Sen hech narsa qilolmaysanmi? – deb so‘radi ma‘yuslanib.

– Qilaman. Avval bir surishtrib ko‘ray-chi.

Mehmonxonadan bir ayol kishining:

– O‘ziga qiyin. C’est un souffre-douleur**, – degani eshitilardi. Shu aytayotgan gapiga ayolning o‘zi tamomila beparvo ekani sezilib turardi.

Boshqa tomondan bir erkakning sho‘xlik bilan:

– Juda soz, bunisiniyam olaman, – degan ovozi va unga allanimani bermayotgan ayolning sho‘x kulgisi eshitildi.

– Yo‘q, yo‘q, berib bo‘pman, – derdi ayol ovozi.

Maslennikov feruzako‘z uzuk taqilgan oppoq qo‘li bilan papirosini o‘chira turib:

– Bo‘pti, yordam qilaman, – deb takrorladi, – endi yur, xotinlar oldiga kiraylik.

– Shoshma, yana bir gapim bor edi, – dedi Nexlyudov mehmonxonaga kirarkan, eshik yonida to‘xtab. – Kecha turmada odamlarni kaltaklashibdi, deb eshitdim. Shu gap rostmi?

Maslennikov qizarib ketdi.

– E, gap bu yoqda degin? Yo‘q, mon cher, seni u yoqqa kirgizish kerak emas ekan, hamma narsaga aralashasan. Yur, yur, Annette

* Qarta o‘yini.

** Juda jafokash xotin. (*fran.*)

chaqiryapti bizni, – dedi u Nexlyudovni qo‘ltiqlab olarkan. U yana, boyagi mo‘tabar kishining iltifotidan keyingidek hayajonlana boshladi. Lekin bu gal quvonganidan emas, xavotirlanganidan hayajonga tushgan edi.

Nexlyudov qo‘lini uning qo‘lidan tortib oldi, hech kimga hech nima demasdan, hech kim bilan xayrlashmasdan, qovog‘ini solganicha mehmonxonadan yugurib chiqqan yugurdaklarning oldidan o‘tib, avval dahlizga, keyin ko‘chaga chiqib ketdi.

– Unga nima bo‘ldi? Nima qilding unga? – deb so‘radi Annette eridan.

– Bu a‘le francaise*, – dedi allakim.

– Bu qanaqasiga a‘le francaise bo‘lsin, bu a‘le zoulou**.

– Uning bo‘lgan-turgani shu.

Allakim o‘rnidan turdi, allakim keldi, shivir-shivir boshlanib ketdi. Nexlyudov voqeasi bu yerdagilarga og‘izlarini to‘ldirib gapirish uchun bir bahona bo‘ldi.

Maslennikovnikiga borgan kunining ertasiga Nexlyudov undan muhr bosilgan, silliq qalin qog‘ozga yozilgan xat oldi. Maslennikov o‘z xatida, Maslova kasalxonaga o‘tkazilsin, degan mazmunda xat yozib yuborganini, har holda iltimosi qondirilishini yozgan edi. Xatning tagiga: «Hurmat bilan o‘rtog‘ing», deb yozilgan va «Maslennikov» degan imzoning tagiga chiroyli qilib kattakon chiziq tortib qo‘yilgan edi.

Nexlyudov «o‘rtoq» degan so‘zni o‘qib:

– Ahmoq!– deb yuborishdan o‘zini tutolmay qoldi. Chunki bu «o‘rtoq» so‘zi bilan Maslennikov unga iltifot qilayotgandek tuyuldi. Ya‘ni Maslennikov eng iflos va yaramas vazifani ado etishiga qaramay, o‘zini eng e‘tiborli odam deb sanar va tilyog‘lamalik qilmay, uni o‘rtoq deb atash bilan, shu qadar mansabdor kishi bo‘lsa-da, o‘zini katta tutmasligini ko‘rsatmoqchi bo‘lard.

LIX

Dunyoda eng ko‘p tarqalgan fikr, har bir kishining o‘ziga xos ma‘lum bir xususiyati bo‘ladi, xushfe‘l, aqlli, ahmoq, g‘ayratli, yalqov odam bo‘ladi va hokazo, degan fikrdir. Lekin odamlar bunaqa

* Fransuzcha qiliq (*fran.*).

** Zuluscha (*fran.*).

bo'lmaydi. Biz odam haqida u ko'pincha badjahl emas, xushfe'l bo'ladi, ko'pincha ahmoq emas, aqlli, yalqov emas, g'ayratli yoki aksincha bo'ladi, deyishimiz mumkin; lekin bir odamni agarda u xushfe'l yoinki aqlli, desag-u, boshqa birini jahldor yoki ahmoq, desak, noto'g'ri gapirgan bo'lamiz. Biz bo'lsak doimo odamlarni shunday ajratamiz. Bu noto'g'ri. Odamlar daryodek gap: hammasining suvi bir xil, hamma joyda o'sha suv, lekin daryo goh keng bo'ladi, goh tor, goh tez oqadi, goh sekin, suvi goh tiniq bo'ladi, goh loyqa, goh sovuq, goh iliq bo'ladi. Odamlar ham shunday. Har bir odamda hamma insoniy xususiyatlarning kurtagi bo'ladi. Odam shu xususiyatlarining goh birini, goh boshqasini namoyon qiladi, ba'zan o'sha odamning o'zi butunlay o'zgarib ketadi. Ba'zi odamlarda shu o'zgarishlar juda keskin namoyon bo'ladi. Nexlyudov ana shu toifa kishilardan edi: ham jismoniy, ham ma'naviy sabablarga ko'ra, unda o'zgarish ro'y berardi. Hozir ham unda xuddi shunday o'zgarish bo'lgan edi.

Suddan keyin, Katyusha bilan birinchi uchrashuvdan so'ng Nexlyudovning qalbida paydo bo'lgan ko'tarinkilik va o'zgarayotganidan quvonish hissi tamomila o'tib ketdi, so'nggi uchrashuvdan keyin u qo'rquv hissi bilan, hatto Katyushadan jirkanish hissi bilan almashindi. Nexlyudov Katyushani tashlab ketmaslikka, agar u rozi bo'lsa, unga uylanaman, degan qarorini o'zgartirmaslikka ahd qildi, lekin buni amalga oshirish uning uchun juda og'ir edi.

Maslennikovnikiga borgan kunining ertasiga Katyushani ko'rish uchun yana qamoqxonaga bordi.

Mutasaddi uchrashuvga ijozat berdi-yu, ammo idorada va advokatlar xonasida emas, balki ayollarning ko'rishuv xonasida uchrashuvga ijozat etdi. Mutasaddi xushfe'lligiga qaramay bu gal avvalgiga qaraganda o'zini ancha sipo tutardi; Maslennikov bilan gaplashgandan keyin mutasaddiga, mana shu odam bilan juda ehtiyot bo'linglar, deb ko'rsatma berilgan bo'lsa kerak.

– Uchrashuv mumkin, – dedi u, – faqat pul masalasida, haligidek... ilgari aytgandim sizga... Janob oliylari yozib yuborganlaridek, uni kasalxonaga o'tkazish masalasiga kelsak, bu – mumkin, shifokor ham rozi. Lekin Maslova o'tishni istamayapti. «O'sha ifloslarning

ketidan tuvak tashib yurish zaril keptimi menga...» deydi. Shunaqa xalq bular, knyaz, – deb qo‘shib qo‘ydi u.

Nexlyudov javob qaytarmadi, uchrashishga ijozat so‘radi. Mutasaddi Maslovani olib kelishga nazoratchini yubordi, Nexlyudov ayollarning huvillab yotgan uchrashuv xonasiga kirdi.

Maslova o‘sha yerda edi, u panjara orqasidan mo‘min-qobil bo‘lib chiqib keldi. Katyusha Nexlyudovga yaqinlashdi-da:

– O‘tgan kuni qattiq gapirib qo‘ydim, kechiring, Dmitriy Ivanovich, – dedi ohista. U Nexlyudovga tik qarayolmasdi.

– Siz afv so‘rashingiz kerakmas... – deb gap boshladi Nexlyudov.

– Lekin baribir meni o‘z holimga qo‘ying, – deb qo‘shib qo‘ydi Katyusha. Maslovaning Nexlyudovga boqqan g‘ilay ko‘zlarida u yana alam, g‘azab ifodasini uqdi.

– Nega o‘z holingizga qo‘yarkanman?

– O‘zi, shunday.

– Nega shunday?

Maslova unga yana xuddi o‘shanday g‘azablanib qarayotganday tuyuldi.

– Gap shu, – dedi u. – Gapning rosti shu, qo‘ying meni o‘z holimga. Qo‘ying, degandan keyin qo‘ying, – dedi u lablari dir-dir titrab. Shuni aytib jim bo‘lib qoldi. – Rost gapiryapman. Bo‘lmasa, o‘zimni o‘zim osib qo‘yaman.

Nexlyudov uning bu rad javobida o‘ziga nisbatan g‘azab, kechirilmagan alam borligini, undan tashqari, yana boshqa qandaydir yaxshi va muhim narsa borligini his etdi. Maslovaning tamomila xotirjam holatda avvalgiday rad javobi berib, o‘z fikrida turib olgani Nexlyudovning ko‘nglidan shak-shubhalarni ko‘tardi, u avvalgidek jiddiylashib, ruhi ko‘tarildi, ko‘ngli yumshadi.

– Katyusha, o‘sha gapim gap, – dedi u jiddiyat bilan. – Iltimos qilaman, menga turmushga chiq. Agar tegishni istamasang, hozircha istamas ekansan, o‘sha aytganimdek, sen qayerda bo‘lsang, o‘sha yerda bo‘laman, seni qayoqqa olib ketishsa, o‘sha yoqqa boraman.

– O‘zingiz bilasiz, gapim bitta, – dedi Maslova, uning lablari yana titrab ketdi.

Nexlyudov ham gapirishga holi qolmay jim bo‘lib qoldi.

– Hozir qishloqqa jo‘nab ketaman, keyin Peterburgga boraman, – dedi u nihoyat o‘zini tutib olib. – Ishingizning, ishimizning ketiga tushaman, Xudo xohlasa, hukmni bekor qilishadi.

– Bekor qilishmasayam baribir. Bu ishda begunoh bo‘lsam, boshqa gunohlarim bor-ku... – dedi u. Nexlyudov uning yig‘lab yubor-maslik uchun o‘zini zo‘rg‘a tutib qolganini ko‘rib turardi. – Ha aytganday, Menshovni ko‘rdingizmi? – deb so‘radi u to‘satdan hayajonini yashirish uchun. – Begunohligi rost-a?

– Ha, menimchayam gunohi yo‘q.

– Shunday ajoyib kampirki, – dedi Maslova.

Nexlyudov Menshovdan eshitganlarining hammasini gapirib berdi va undan nima kerakligini so‘radi; Maslova hech narsa kerak emasligini aytdi. Ular yana jim bo‘lib qolishdi.

– Kasalxona xususiga kelsak, – dedi u to‘satdan Nexlyudovga qiyg‘och boqib, – siz istasangiz, mayli, boraman, sharob ham ichmayman.

Nexlyudov indamay uning ko‘zlariga boqdi, Maslovaning ko‘zlari kulib turardi.

– Juda soz, – dedi u, so‘ngra xayrlashib chiqib ketdi.

Nexlyudov avvalgi shubhalardan keyin tamomila yangi, hech qachon his etmagan muhabbatning yengilmasligiga ishonch hosil etib: «Ha, ha, u butunlay boshqa odam», – deb qo‘ydi.

* * *

Bu uchrashuvdan keyin badbo‘y kamerasiga qaytib kelgan Maslova xalatini yechdi-da, so‘ridagi o‘rniga o‘tib, qo‘lini tizzasiga qo‘yib o‘tirdi. Kamerada emizikli bolasi bo‘lgan vladimirlik sil xotin, Menshova kampir va ikki bolali qorovul xotindan bo‘lak hech kim yo‘q edi. Dyak qizini kecha ruhiy kasal deb topib kasalxonaga jo‘natishgan edi. Qolgan xotinlarning hammasi kir yuvaradi. Kampir so‘rida uxlab yotardi; bolalar yo‘lakda edi, yo‘lakka chiqiladigan eshik ochiq turardi. Bola ko‘targan vladimirlik xotin va barmoqlarini tez-tez qimirlatib paypoq to‘qiyotgan qorovul xotin Maslovaning yoniga kelishdi.

– Ha, uchrashdinglarmi? – deb so‘rashdi ular.

Maslova ularga javob qaytarmay, so‘rida oyog‘ini osiltirib o‘tirardi.

– Muncha qovoq-tumshug‘ingni osiltirib olding? – dedi qorovul xotin. – O‘zingni tetik tut. Eh, Katyusha! Xo‘sh? – dedi u barmoqlarini tez-tez qimirlatib.

Maslova javob bermasdi.

– Biznikilar kir yuvгани ketishdi. Bugun xayr-ehson katta bo‘ladi, deyishgandi. Ko‘p narsa opkelganlar, deyishyapti, – dedi vladimirlik xotin.

– Finashka! – deb qichqirdi qorovul xotin, eshik tomonga qarab. – Qayoqqa ketib qolding, shayton?

U paypoq to‘qiyotgan simining bittasini sug‘urib olib, kalava bilan paypoqqa sanchdi-da, yo‘lakka chiqdi.

Shu mahal yo‘lak tomondan oyoq tovushlari va ayollarning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘iri eshitildi. Yalang oyog‘iga yog‘och kavush kiygan xotinlar ba‘zisi bittadan, ba‘zisi ikkitadan kulcha ko‘tarib kirib kelishdi. Fedosya kela solib Maslovaning yoniga bordi.

Fedosya chaqnab turgan moviy ko‘zlari bilan Maslovaga mehribonona boqib:

– Ha, nima gap, tinchlikmi? – deb so‘radi. – Mana, kulcha opkeldim, choy bilan ichamiz, – u kulchalarni tokchaga qo‘ya boshladi.

– Yo uylanish niyatidan qaytibdimi? – deb so‘radi Korablyova.

– Yo‘q, haliyam bo‘lsa uylanaman, deydi-yu, lekin men rozi bo‘lmayapman, – dedi Maslova. – O‘ziga shunday deb aytdim.

– Ahmoq ekansan! – dedi Korablyova do‘rillagan ovoz bilan.

– Birga turmaganidan keyin uylanishning nima keragi bor? – dedi Fedosya.

– Ering birga ketyapti-ku, – dedi qorovul xotin.

– Uning yo‘rig‘i boshqa. Biz qonuniy nikohdamiz, – dedi Fedosya. – Birga turmagandan keyin nikohning nima keragi bor unga?

– Voy ahmog‘-e! «Nima keragi bor»mish? Uylansin-chi, boshdan-oyoq oltinga ko‘mib yuboradi Katyushani.

– «Seni qayoqqa yuborishmasin, ketingdan ketaman», deyapti, – dedi Maslova. – Borsa borar, bormasa, undan nari. Yalinmayman. Endi harakat qilib ko‘rgani Peterburgga ketyapti. U yerdagi hamma vazirlar qarindosh-urug‘i, – deb davom etdi u, – lekin baribir men unga zormasman.

Korablyova qopchig'ini titkilarkan:

– To'g'ri aytasan! – deb uning gapiga qo'shildi to'satdan. Aftidan, butunlay boshqa narsani o'ylayotgan edi. – Xo'sh, qittay-qittay qilamizmi?

– Men ichmayman, – deb javob berdi Maslova. – O'zlaring ichaveringlar.







I

Ikki haftadan keyin ish senatda ko‘rilishi mumkin edi; Nexlyudov shungacha Peterburgga yetib bormoqchi, ish muvaffaqiyatsiz chiqib qolgan taqdirda, shikoyatnoma yozib bergan advokatning maslahatiga ko‘ra, podsho nomiga ariza bermoqchi edi. Ariza natijasiz qoldirilgan taqdirda (advokatning fikricha, sud hukmini bekor qilish uchun keltirilgan dalillar kuchsiz bo‘lgani sababli, arizaning natijasiz qolishiga ham tayyor bo‘lish kerak edi), bir guruh katorgachilar, jumladan, Maslova ham iyunning boshlarida yo‘lga chiqishi kerak edi. Nexlyudov Maslova ketidan Sibirga jo‘nab ketishga jazm qildi. Shunday qilib, Sibirga jo‘nab ketish uchun tayyorgarlik ko‘rish, ishni biryoqli qilib kelish uchun hozirning o‘zida qishloqlarga borib kelish lozim edi.

Nexlyudov eng avval hammadan yaqin, qoraturproq Kuzminskoye qishlog‘iga jo‘nadi. Bu yerdan u katta daromad olib turardi. Nexlyudov bolalik va o‘spirinlik chog‘larida shu qishloqda yashagan, balog‘atga yetgandan keyin ikki marta borgan edi. Keyin bir marta onasining iltimosiga ko‘ra, u yerga nemis boshqaruvchini olib borgan, u bilan birga xo‘jalikni tekshirgan edi. Shunday qilib, u yer-mulkning qay ahvolda ekanini, dehqonlarning idoraga, ya‘ni yer egasiga munosabati qanaqaligini ko‘pdan beri bilardi. Dehqonlarning yer egasiga munosabati shunday ediki, yumshoq qilib aytganda, ular yer egasiga tamomila mute bo‘lib qolgan, soddagina qilib aytilsa, idoraning quli edilar. Bu – 61 yilda bekor qilingan qullik emas, ma‘lum shaxslarning xo‘jayinga tobeligi emas, balki barcha yersiz yoki kam yerli dehqonlarning, asosan, katta yer egalariga, ba‘zan esa qaysi katta yer egasining mulkida yashasa, o‘shanga mute qilib qo‘yadigan umumiy qullik edi. Nexlyudov buni bilardi, bilmay iloji yo‘q edi. Nega deganda, butun xo‘jalik ana shu qullikka asoslangan bo‘lib, Nexlyudov shu xo‘jalikni yo‘lga qo‘yishda ishtirok etgan edi. Nexlyudovning buni bilgani ham mayli-ya, u buning adolatsizligini talabalik vaqtida fahmlagan edi, o‘shanda Genri Jorjning ta‘limotini o‘qib-o‘rganib,

shuni targ'ib qilgan, shu ta'limotga asosan, otasining yerini dehqonlarga bo'lib bergandi; bundan ellik yil muqaddam krepostnoy tutish qanday gunoh bo'lsa, bizning zamonamizda ham yerga xususiy egalik qilish shunday gunoh, deb hisoblardi. Rost, harbiy xizmatdan so'ng, har yili yigirma ming so'mcha pul xarajat qilishga o'rganib qolganidan keyin, mana shu bilimlarining hammasi uning hayoti uchun zaruratini yo'qotdi, unutildi. Shunday qilib, u o'zining xususiy mulkchilikka munosabati haqida, onasi berib turgan pullarning qayerdan kelayotgani to'g'risida o'ziga o'zi savol berish u yoqda tursin, bu haqda hatto o'ylamaslikka harakat qilardi. Lekin onasining o'limi, meros va mulk uning ixtiyoriga o'tishi yana yerga xususiy egalikka qanday munosabatda bo'lish kerak, degan masalani oldiga ko'ndalang qilib qo'ydi. Bundan bir oy muqaddam Nexlyudov mavjud bo'lgan tartibni o'zgartirish qo'limdan kelmaydi, yer-mulkni boshqarayotgan men emasman-ku, deb o'zini ovutar, yer-mulkdan uzoqda yashab, tinchgina pul olib yotardi. Endi u Sibirga jo'nab ketish hamda qamoqxonalar dunyosi bilan aloqada bo'lib turish kabi murakkab va og'ir ishlar uchun puljuda zarur bo'lishini bila turib, ishni avvalgi ahvolda qoldirolmasligini his etdi va o'zining ziyoniga bo'lsa ham uni o'zgartirishga ahd qildi. Buning uchun esa yerni o'zi ishlatmasdan, arzon baho bilan dehqonlarga o'tkazib, ularni yer egalariga qaram bo'lishdan qutqarmoqchi bo'ldi. Nexlyudov ko'pincha yer egasining tutgan o'rnini krepostnoy egalarining tutgan o'rni bilan taqqoslab, yerni mardikor solib ishlatish o'rniga dehqonlarga bo'lib berishni dehqonlarning barshchinadan obrokka* o'tkazilishiga o'xshatardi. Bu bilan masala hal etilmasa-da, lekin bu masalaning hal etilishi uchun tashlangan bir qadam edi: bu zo'ravonlikning juda qo'pol shaklidan unchalik qo'pol bo'lmagan shakliga o'tish edi. Nexlyudov shunday qilishga ahd qildi.

Nexlyudov Kuzminskoyega tushga yaqin yetib keldi. Sodda yashashga urinib shoshilinchnoma ham bermadi, stansiyadan kichkinagina soyabon izvosh olib yo'lga tushdi. Izvoshchi dag'al ip gazlamadan tikilgan belburma kamzul kiygan yoshgina yigit edi. Kamzulining belidan pastida, burmalari ustidan belbog' bog'lagan bu yigit pochta aravachilari singari yakkakift bo'lib o'tirib olib, bek

* *Barshchina* – krepostnoylik davrida: dehqonlarning zamindor foydasiga majburan tekin ishlab berishi. *Obrok* – krepostnoy dehqonlardan pul yoki mahsulot shaklida olingan to'lovlar.

bilan hangomalasharkan, ko'pdan beri sekin yurgisi kelayotgan, holdan toygan cho'loq oq ot bilan qorni ichiga kirib ketgan, sillasi qurigan shatakchi ot qadamlarini sekinlatib, asta yura boshladi.

Xo'jayinni olib borayotganidan bexabar bo'lgan izvoshchi Kuzminskoedagi boshqaruvchi haqida hikoya qilardi. Nexlyudov ham ataylab o'zining kimligini bildirmadi.

– G'alati nemis, – derdi shaharda yashab, romanlar o'qigan izvoshchi. U Nexlyudovga o'girilib, uzun qamchisining goh uchidan, goh o'rtasidan ushlab, o'zini bilimdon qilib ko'rsatishga urinib, gapini davom ettirdi, – uchta saman ot qo'shilgan izvosh sotvoldi, xotinini yoniga o'tqazib yo'lga chiqsa – og'zing ochiladi-qoladi! Qishda, Rojdestvoda, katta uyda archa bayrami o'tkazdi, o'shandayam mehmon tashigandim, archasiga ellektir chiroqlar osilgan. Gubernada bunaqasini ko'rib bo'psiz! Pulniyam to'plagan ekan. Undan nima ketdi. O'zi xon – o'zi bek. Yaxshi yer-mulk sotib olibdi, deyishyapti.

Nexlyudov nemis-boshqaruvchi yer-mulkni qanday idora etayotgani, qanaqa foyda ko'rayotgani bilan ishim yo'q, deb o'ylardi. Lekin xipchabel izvoshchining hikoyasi ko'nglini g'ash qildi. Nexlyudov ba'zan quyoshni to'sib olayotgan bulutlarni, mujiklar so'qa bilan qaytadan haydayotgan lalmikor dalalarni, tepasida to'rg'aylar uchib yurgan ko'kalamzorlarni, daraxtlarning hammasi kurtak yozgan o'rmonlarni (kech ko'karadigan emanlargina barg yozmagan edi), poda va yilqilar yoyilib yurgan o'tloqlarni, qo'shchilarni, dalalarni zavq bilan tomosha qilarkan, qandaydir bir ko'ngilsiz narsa sodir bo'lgani esiga tushib ketar va o'zidan o'sha narsa nima edi-ya, deb so'rardi. O'sha ko'ngilsiz narsa izvoshchining Kuzminskoeda nemis qanday xo'jayinlik qilayotgani haqidagi hikoyasi edi.

Kuzminskoyega yetib borib, ishlar bilan ovora bo'lib ketgach, Nexlyudov buni unutdi.

Idora daftarlarini ko'rib chiqqach va dehqonlarning yeri kamligi, ularning yerlari xo'jayinning yerlari orasida bo'lishi foydali ekanini soddadillik bilan uqdirayotgan boshqaruvchining so'zidan keyin Nexlyudov xo'jaligini tarqatib, yerning hammasini dehqonlarga bo'lib berish to'g'risidagi niyatini amalga oshirishga ahd qildi. Idora hisob-kitobidan va boshqaruvchining gapidan Nexlyudov eng yaxshi ekin maydonining uchdan ikki qismi qarollar tomonidan

takomillashgan qurollar bilan ekilayotganini, qolgan uchinchi qismini har botmoniga besh soʻmdan berib, dehqonlarni yollab ishlatayotganini bildi. Dehqon ana shu oladigan besh soʻmi evaziga uch marta yer haydab, uch marta molalab ekin ekishga, keyin oʻrib olib bogʻlashga yoki gʻaramlashga, yaʼni erkin va arzon mardikor yollagan paytda kamida har botmoniga oʻn soʻmdan toʻlanadigan ishni bajarishga majbur edi. Dehqonlar idoradan oladigan har bir narsa uchun oʻz mehnatlari bilan juda qimmat haq toʻlardilar. Ular oʻtloqlar uchun ham, xas-xashak uchun ham, kartoshka poyalari uchun ham ishlab berishardi-yu, shunga qaramay, deyarli hammalari idoradan qarzdor edilar. Shunday qilib, har botmon yer besh foiz foyda keltiradi, deb hisoblansa, shu bahodagi yer dehqonlarni yollab ishlatilgan taqdirda toʻrt marta ortiq foyda keltirardi.

Mana shularning hammasini Nexlyudov ilgari ham bilardi-yu, lekin hozir u buni goʻyo birinchi marta payqagandek boʻldi hamda shu mahalgacha oʻzi va oʻziga oʻxshagan odamlar bu ahvolning notoʻgʻriligini qanday koʻrmay kelganlariga hayron qoldi. Boshqaruvchining yer dehqonlarga berilgan taqdirda asbob-uskunalar nest-nobud boʻlib ketishi, uni oʻz narxining uchdan biriga ham sotib boʻlmasligini, dehqonlar yerning rasvosini chiqarib tashlashlarini, bu tarzda yerni berib yuborgan taqdirda Nexlyudov koʻp narsani boy berishini aytib, keltirgan dalillari Nexlyudovning dehqonlarga yerni berib, katta daromaddan voz kechib, yaxshi ish qilayotganini tasdiqlardi. Nexlyudov bu ishni hozirning oʻzida, shu safar bir yoqli qilishga qaror qildi. Ekilgan bugʻdoyni yigʻishtirib sotish, asbob-uskunalarni, keraksiz imoratlarni sotish kabi ishlarni u ketganidan keyin boshqaruvchining oʻzi bajarishi kerak edi. Hozir u boshqaruvchidan ertasi kuni Kuzminskoe atrofidagi uch qishloq dehqonlarini toʻplashni iltimos qildi. Nexlyudov ularga maqsadini aytmoqchi va beriladigan yerning bahosini gaplashib olmoqchi edi.

Boshqaruvchi keltirgan dalillarga qarshi qattiq turib olganidan dehqonlar uchun oʻz foydasidan kechayotgani uchun xursand boʻlgan Nexlyudov idoradan chiqdi, qiladigan ishlari ustida bosh qotirib uy atrofini aylanib oʻtdi, bu yil qarovsiz qolgan gulzorda (boshqaruvchi turgan uyning roʻparasidan gulzor ochilgan edi), talha bosib ketgan lawn-tennisʼu, argʻuvon oʻsgan xiyobonda kezindi.